

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI  
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**Baxtiyor Omonov, Gulbahor Isanova**

# **SIYOSIY TIZIM**

Uslubiy qo'llanma

60310700 – Siyosatshunoslik yo'nalishi talabalari uchun

**Toshkent  
"MUMTOZ SO'Z"  
2023**

**UO'K: 32.019.5**

**KBK: 32.1**

**0-56**

***Omonov B., Isanova G. Siyosiy tizim. Uslubiy qo'llanma. Toshkent, Mumtoz so'z, 2023. –336 bet.***

*O'zbekiston milliy universiteti professor-o'qituvchilari Baxtiyor Omonov va Gulbahor Isanova tomonidan tayyorlangan uslubiy qo'llanma 2021–2022-o'quv yilidan kiritilgan yangi fanning namunaviy va ishchi fan dasturi asosida ishlab chiqilgan. Unda “Siyosiy tizim” fanining predmeti, ob’ekti, maqsadi, vazifalari, siyosiy tizim modellari, siyosiy tizimning “kirish”, “chiqish”, ijtimoiy muhitga ta’sir qiluvchi omillari, demokratik tranzit muammolari, prezidentlik instituti, parlament, ijro hokimiyati, siyosiy partiyalar, saylov tizimi, shuningdek, AQSh, Xitoy, Rossiya, Germaniya, Yaponiya, Fransiya, Italiya, Koreya, Singapur kabi taraqqiy qilgan davlatlarning siyosiy tizimi, davlat tuzilishi hamda O'zbekiston siyosiy tizimining o'ziga xos xususiyatlari evolyusion va qiyosiy tarzda o'rganilgan. Jami 30 ta mavzuni qamrab olgan kitobdan o'ndan ziyod jadvallar va atamalar lug'ati ham o'rin olgan.*

*O'zbek tilida birinchi marta yaratilgan “Siyosiy tizim” nomli uslubiy qo'llanma talabalar, yosh izlanuvchi olimlar, professor-o'qituvchilar va keng o'quvchilar ommasiga mo'ljallangan.*

**Taqrizchilar:**

**Sh.G'oyibnazarov** – G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetining Toshkent shahridagi filiali professori, siyosiy fanlar doktori

**I.Ergashev** – O'zMU Fuqarolik jamiyati va huquq ta'limi kafedrası professori, siyosiy fanlar doktori

O'zbekiston Milliy universiteti Ilmiy-uslubiy Kengashining 2023-yil 30-maydagi 10-sonli bayonnomasiga binoan, nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-6085-7-4

© Baxtiyor Omonov, Gulbahor Isanova, 2023

© “MUMTOZ SO'Z”, 2023

## KIRISH

Jamiyatning siyosiy tizimi – bu siyosiy, ijtimoiy, yuridik, mafkuraviy, madaniy me'yorlarga, tarixiy an'analar va muayyan jamiyat siyosiy tuzumining ko'rsatmalariga bo'ysunadigan siyosiy institutlar, xizmatlar, munosabatlar, jarayonlar, jamiyat siyosiy tashkiloti tamoyillarining yaxlit, tartibga solingan majmui. Hozirgi kunda dunyoning ko'plab mamlakatlarida amalda bo'lgan turli-tuman ijtimoiy tizimlar, birinchi navbatda, ularga xos siyosiy tuzilmalarning xarakteriga ko'ra farqlanadi. O'zbekistonda so'zda emas, amalda hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijroiya va sudlov hokimiyatlariga bo'linish tamoyili amal qilmoqda.

Siyosiy tizimlarni tadqiq etish siyosiy hayotning turli tomonlarini ilmiy-nazariy ko'rib chiqishdan boshlab, tushuncha va ta'riflarni empirik- sotsiologik tadqiqotlar ta'sirida ishlab chiqishga o'tishni ta'minlaydi. "Siyosiy tizim" nomli ilk uslubiy qo'llanma ana shu talab-istaklarni hisobga olgan va oliy ta'limdagi namunali, ishchi o'quv dasturlariga suyanib ishlab chiqildi. Unda siyosiy tizim, siyosiy jarayon tushunchalari, siyosiy tizimning "kirish", "chiqish" va ijtimoiy muhitga ta'sir qiluvchi omillari, siyosiy tizim tuzilmasi, ilmiy nazariyalari, tiplari, modellari, shuningdek, AQSh, Xitoy, Rossiya, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Janubiy Koreya, Italiya, Singapur kabi rivojlangan davlatlarning siyosiy tizimi va davlat tuzilishi kabi mavzular imkon qadar ochib berilgan. Hozirgi zamon siyosatshunoslik fanida siyosiy tizimni tahlil qilish muhim o'rin tutadi. Bunda gap jamiyatning siyosiy hayotini demokratik qonunlar va milliy rivojlanish xususiyatlariga ega bo'lgan yaxlit tizim sifatida boshqarishning G'arb va Sharq mamlakatlari tajribalari haqida boradi.

O'ylaymizki, qo'lingizdagi kitob siyosatshunoslik ixtisosligida tahsil olayotgan talabalarning ushbu fanga doir ko'nikmalari va siyosiy bilimlarini yanada oshirishga, turli siyosiy tizimlarni chuqur tahlil etishga xizmat qiladi.

## SIYOSIY TIZIM

---

### **1-MAVZU. "SIYOSIY TIZIM" FANINING PREDMETI, OBYEKTI, MAQSADI VA VAZIFALARI. «TIZIM» TUSHUNCHASI HAQIDAGI QARASHLARNING EVOLYUSIYASI**

#### **Reja:**

- 1. Siyosiy tizim fani siyosatshunoslikning alohida tarkibiy qismi sifatida.**
- 2. Siyosiy tizim fanining predmeti, ob'ekti, maqsadi va vazifalari.**
- 3. Jamiyatning siyosiy tizimi tadqiqot ob'ekti sifatida.**

*Tushunchalar va tayanch iboralar:* tizim, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, demokratik tuzum, liberal tuzum, avtokratik despotik tuzum, mustabidlik tuzumi, tiraniya tuzumi, avtoritar siyosiy tuzum, totalitar siyosiy tuzum, harbiy siyosiy tuzum, fashistik siyosiy tuzum, irqiy siyosiy tuzum, diniy siyosiy tuzum.

Hozirgi zamon siyosatshunoslik fanida siyosatni tizimli tahlil qilish muhim o'rin tutadi. Bunda so'z jamiyatning siyosiy hayotini o'ziga xos qonunlari va rivojlanish xususiyatlariga ega bo'lgan qandaydir yaxlit tizim sifatida tasavvur qilish to'g'risida bormoqda. Bu qonunlarni bilish siyosatni chuqur tushunish imkonini beradi, jamiyat boshqaruvini takomillashtirish, uning rivojlanishini oldindan aytish uchun zarur nazariy asos yaratadi. Siyosatda tizimli yondashuvning mohiyati va ahamiyati shundaki, u "siyosat" tushunchasini bir butun yaxlitlik, tizim, maydon sifatida shakllantirib, uning atrof-muhit bilan o'zaro ta'sirini turli usullar orqali tahlil qilishga, siyosatni aynan kishilarning faoliyati va xulqatvorlari tizimi sifatida tasavvur etishga imkon beradi. Avvalo, jamiyatning siyosiy tizimiga ta'rif berishdan oldin, tizim nima ekanligini oydinlashtirib olish kerak. Tizim ma'lum aloqa tufayli birlashgan elementlar yig'indisini ifoda yetadi. Siyosiy tizim esa, siyosiy hokimiyatlar bilan aloqador bo'lgan elementlarni o'zida birlashtiradi. Siyosiy tizim jamiyatning maqsad va vazifalarini aniqlash, jamiyat tizimidagi elementlarni birlashtirish va mavjud imkoniyatlarni amalga oshirishga safarbar qiluvchi mexanizmdir. Demak, jamiyatning siyosiy tizimi – siyosiy hokimiyatni shakllantiruvchi va amalga oshiruvchi

vositalari bo'lgan davlat, davlat tashkilotlari va munosabatlarning yig'indisidir. Uning mohiyati quyidagi vazifalarda o'z ifodasini topadi. Siyosiy tizim o'zida jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va milliy tuzilmalarini, demografik jarayonlarni, aholining ma'lumot darajasi, ijtimoiy ong holatini, ma'naviy va ma'rifiy hayotni, xalqaro ahvolni aks ettiradi. Siyosiy tizim orqali manfaatlarining asosiy guruhlari aniqlanadi. Masalan, hozirgi sharoitda, fikrimizcha, jamiyatimizning siyosiy tizimi oldida turgan yeng murakkab vazifa bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tishda turli manfaatlar muvozanatini to'g'ri aniqlab olishdan iborat bo'lishi mumkin. Siyosiy tizim muvofiqlashtirish va yaxlit holga keltirish vazifalarini ham bajaradi. Siyosiy tizim jamiyatda hokimiyat va boshqaruvni shakllantirish va amalda ro'yobga chiqarish bilan bog'liq munosabatlar, harakatlar yig'indisidan iborat.

Siyosiy tizimning jamiyatdagi boshqa tizimlardan farqi:

**Birinchidan**, bu farq siyosiy tizim doirasida qabul qilinadigan qarorlarning butun jamiyat uchun majburiylikida namoyon bo'ladi.

**Ikkinchidan**, u ijtimoiy muhit va, avvalo, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmasi bilan bog'lanib ketgan.

**Uchinchidan**, siyosiy tizim mustaqil tarzda faoliyat yuritadi.

Siyosiy tizim siyosat sub'ektlari o'rtasidagi o'zaro ta'sirning aniq tarixiy shakllarini o'zida aks ettiradiki, bu ular majmuini vujudga keltiradi, siyosiy faoliyatni belgilangan chegaralarda tartibga soladi, rasmiylashtiradi va yakunlaydi. Jamiyatning siyosiy tizimi - bu siyosiy, ijtimoiy, yuridik, mafkuraviy, madaniy me'yorlarga, tarixiy an'analar va muayyan jamiyat siyosiy tuzumining ko'rsatmalariga bo'ysunadigan siyosiy institutlar, xizmatlar, munosabatlar, jarayonlar, jamiyat siyosiy tashkiloti tamoyillarining yaxlit, tartibga solingan majmui. Hozirgi kunda dunyoning ko'plab mamlakatlarida amalda bo'lgan turli-tuman ijtimoiy tizimlar, birinchi navbatda, ularga xos siyosiy tuzilmalarning xarakteriga ko'ra farqlanadi. Siyosiy tizimlarni tadqiq etish siyosiy hayotning turli tomonlarini ilmiy-nazariy ko'rib chiqishdan boshlab, tushuncha va ta'riflarni empirik-sotsiologik tadqiqotlar ta'sirida ishlab chiqishga o'tishni ta'minlaydi. Siyosiy tizimlar nazariyasini o'zlashtirish rahbar kadrlarni tayyorlash uchun muhim metodologik va nazariy ahamiyatga yega, chunki bu ularni hozirgi muammolarni tushunishga ilmiy yondoshuv bilan

qurollantiradi. Siyosiy tizim jamiyatning sinflarga bo'linishi va davlatning paydo bo'lishi jarayonida vujudga keladi.

Davlat asosida birlashgan jamiyatning taraqqiyoti davomida siyosiy tizim yanada murakkab va ko'p tarmoqli ko'rinish oladi. Shuning uchun uning tuzilishi, ishlash tartibi hamisha jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-axloqiy rivojlanish darajasi, shuningdek, bir qator xalqaro, geografik va boshqa omillar bilan belgilanadigan aniq tarixiy xususiyatga yega bo'ladi. Siyosiy tizim uzoq muddat mobaynida rivojlanishi (AQSh, Buyuk Britaniya) ham, shu bilan birga, tezda, inqilobiy ravishda o'zgarishi ham mumkin (sobiq SSSR, Sharqiy Yevropa mamlakatlari). Bunday rivojlanish jamiyat a'zolarining ijtimoiy-siyosiy faolligi, ularning siyosiy madaniyati darajasiga bog'liq bo'ladi. "Mamlakatimizda amalda davlat boshqaruvi tizimi tarkib topdi. Davlatimizda qonun chiqaruvchi oliy organ – Oliy Majlis bor, saylab qo'yiladigan mahalliy vakolatli organlar – Kengashlar bor, Prezident bor, Bosh vazir, Bosh vazir o'rinbosarlari bor, tegishli vakolatga yega bo'lgan vazirlar va mahkamalar rahbarlari bor. Tarkibi, ana shu tizimning hammasi, undagi har bir hokimiyat tuzilmasi o'z vazifalarini aniq bajarishi va yagona pirovard maqsadni, ya'ni xalq irodasi va umidlarini ro'yobga chiqarishni ko'zlab ishlashi kerak".

Siyosiy tizimning samarali ishlashi uchun quyidagi omillar talab qilinadi:

- **birinchidan**, davlat boshqaruv tizimining o'zini rivojlangan va demokratik mamlakatlar namunasi asosida, ularga o'xshab takomillashtirish. Bu to'xtovsiz davom etadigan jarayon hisoblanadi;

- **ikkinchidan**, kadrlar masalasini hal etish. Boshqaruv tizimining asosiy, hal qiluvchi joylarida zamonaviy, kreativ fikr yuritadigan, o'z xalqi, Vatani manfaatlariga g'oyat sadoqatli, yuqori malakali kadrlar ishlashini ta'minlash;

- **uchinchidan**, ijroiya hokimiyati ustidan jamoatchilik, avvalo, saylab qo'yiladigan hamda vakolatli organlar nazoratini, boshqacha aytganda, zarur vakolat berilgan xalq deputatlari amalga oshiradigan nazoratni butun choralar bilan kuchaytirish.

Jamiyatning siyosiy tizimi bir qator tuzilmaviy yoki, aniqrog'i, asosiy boshlang'ich tizimlardan tashkil topadi: ijtimoiy institutlarga oid (davlat, siyosiy partiyalar va manfaatlar guruhi), normativ va tartibga soluvchi (uni

kishilarning kundalik hayotidagi xulq-atvori bilan belgilanadigan turli-tuman me'yorlar vujudga keltiradi), kommunikativ (siyosiy tizim institutlari o'rtasidagi aloqalarni yo'lga qo'yadi, bu tizimning unsurlariga, hukumatga axborot uzatadigan kanallar va ommaviy axborot vositalarini kiritish mumkin); mafkuraviy (siyosiy ong), siyosiy-madaniy, siyosiy shakldagi tizimlar shular jumlasidandir.

**Jamiyatning siyosiy tizimi tuzilmasi quyidagilardan iborat:**

- siyosiy tashkilotlar (institutlar);
- siyosiy me'yorlar;
- siyosiy munosabatlar;
- siyosiy ong;
- siyosiy madaniyat;
- siyosiy muloqot;
- siyosiy ishtirok.

Siyosiy tizim tuzilmalarini nisbatan aniqroq tasavvur qilish uchun uning har bir tarkibiy qismini alohida ko'rib chiqish maqsadga muvofiq.

Siyosiy tizimning eng faol va jo'shqin qismi siyosiy tashkilotlardir. Siyosiy faoliyatning har qanday ko'rinishi uyushgan shakllarda – yagona maqsadga tobe kishilarning birgalikdagi harakati va ushbu birlikni boshqarish uchun qabul qilingan muayyan qoidalar, me'yorlar orqali amalga oshiriladi. Jamiyatning siyosiy tashkiloti – moddiy asosni vujudga keltiradigan muayyan tashkilotlar va muassasalar majmui, siyosiy tizim butun binosining poydevori, uning muayyan vazifalarini amalga oshiradigan ma'muriy-boshqaruv tuzilmasi. Ularning o'zaro munosabati natijasida ushbu jamiyatda siyosiy hokimiyat amalga oshiriladi. Siyosiy tashkilot davlat, partiyalar, jamoat tashkilotlari va harakatlari, ommaviy axborot vositalari va cherkovni o'z ichiga oladi. Davlat va partiyaning o'zi siyosiy tashkilotlar hisoblanadi, ya'ni ular to'g'ridan-to'g'ri va bevosita keng ko'lamda siyosiy hokimiyatni amalga oshiradi va shunga intiladi, hokimiyatni amalga oshirish yoki hokimiyat uchun kurash ular faoliyatining asosi hisoblanadi. Nosiyosiy tashkilotlar siyosiy hokimiyatni amalga oshirishda deyarli ishtirok etmaydilar. Ularning siyosiy lashuv jarayoni mamlakat hayotining muayyan bosqichlaridagina sodir bo'ladi.

**Siyosiy munosabatlar – siyosiy hokimiyatni qo'lga kiritish va amalga oshirish bilan bog'liq holda jamiyatda qaror topadigan**

**munosabatlar.** Siyosiy munosabatlar siyosiy tizimning tarkibiy qismlari o'rtasidagi to'g'ri va aylanma aloqalarning tuzilmaviy asosini o'zida ifodalaydi. Siyosiy tamoyillar va me'yorlar ham siyosiy tizimning tarkibiy qismi hisoblanadi va amalda siyosiy tizim doirasidagi siyosiy munosabatlarni tartibga soladi. Siyosiy tuzumlar bir-biridan qanchalik farqlansa (masalan, avtoritarizm va demokratiya), tegishli siyosiy tizimlar faoliyatining asosida yotadigan tamoil va me'yorlar ham o'zaro shunchalik farqlanadi. Siyosiy tamoyillar va me'yorlar konstitutsiya, qonun va kodekslar orqali mustahkamlanadi. Ular siyosiy munosabatlarga katta jo'shqinlik bag'ishlab, ularni tartibga soladi. Siyosiy ong qonunlar va siyosatni amalga oshirish mexanizmlarini bilish imkonini beradi, insonning atrof-muhitga va siyosiy hayotga munosabatini shakllantiradi, davlat siyosatining maqsad va mazmunini tushunishga yordamlashadi, siyosiy tizimning qolgan barcha tizimlarini mo'tadillashtiradi.

Siyosiy ong – siyosatning sub'ektiv mezoni. Siyosiy faoliyatni aks yettirish darajasi va shakllariga ko'ra siyosiy ong tuzilishida dialektik jihatdan o'zaro bog'liq ikki daraja – nazariy mafkuralashtirilgan va oddiy darajalar farqlanadi<sup>1</sup>.

Siyosiy madaniyat jamiyatda mavjud siyosiy tizimning tayanchi bo'lib xizmat qiladi, aholining barcha qatlamlarini birlashtirish (yoki ajratish) imkonini yaratadi va bu bilan hokimiyatni qo'llab-quvvatlash uchun keng ijtimoiy zamin tayyorlaydi yoki bunga nisbatan aksincha holat yuz beradi. Siyosiy madaniyat, shuningdek, tizimga nisbatan rivojlanishda qadriyat-odatlar ustunligi va talablarini taqozo qiladi.

Siyosiy madaniyat – jahon umumiy madaniyatining ajralmas tarkibiy qismi. Tarixiy-siyosiy rivojlanish jarayonida xalqlar siyosiy tajriba orttiradilar. Mazkur tajriba ta'sirida insonlarda siyosiy ong shakllanadi. Odamlarning siyosiy ongi esa, o'z navbatida, ijtimoiy tabaqalar, xalqlarning siyosiy xulq-atvorini belgilaydi. Binobarin, siyosiy madaniyat uch jihatning, ya'ni tarixiy-siyosiy tajriba, siyosiy ong va siyosiy xulq-atvorning mushtarakligidir. Siyosiy muloqot tegishli axborotning tarqalishini o'z ichiga oladi. Siyosiy ishtirok fuqarolarning siyosiy tizim yoki muxolifatni tegishli darajada qo'llab-quvvatlashlarini o'zida ifodalaydi.

### **Topshiriqlar:**



1. “Siyosiy tizim” fanining siyosatshunoslikning asosiy tarkibiy qismi sifatida yuzaga kelishi.
2. “Siyosiy tizim” fanining predmeti, ob’ekti, maqsad va vazifalari.
3. Fanning funksiyalari va metodlari.
4. “Siyosiy tizim” fanining boshqa ijtimoiy fanlar bilan o’zaro aloqadorligi.
5. «Tizim» tushunchasi to’g’risidagi qarashlar evolyusiyasi. Jamiyat tizimliliigi haqidagi g’oyalarning paydo bo’lishi va rivojlanishi.
6. Lyudvig fon Bertalanfining «Tizimlarning umumiy nazariyasi» konsepsiyasi.

## **2-MAVZU. IJTIMOY TIZIM NAZARIYASI ASOSCHILARINING G’OYALARI**

### **Reja:**

- 1. Ijtimoiy tizim konsepsiyasi.**
- 2. Ijtimoiy tizimni tashkil etuvchi elementlar.**
- 3. Ijtimoiy tizimning asosiy nazariyalari.**

*Tushunchalar va tayanch iboralar: ijtimoiy tizim konsepsiyasi, ijtimoiy tizimni tashkil etuvchi elementlar, ijtimoiy tizimning asosiy nazariyalari, funksionalistik nazariya, umumiy tizimlar nazariyasi, konflikt nazariyasi, ijtimoiy tizimning turlari.*

Ijtimoiy tizim umumiy madaniy me’yorlar va ma’nolarga ko’ra bir-biri bilan o’zaro aloqada bo’lgan shaxslarning ko’pligi deb ta’riflash mumkin. O’zaro aloqalar cheksiz bo’lishi mumkin va nafaqat ichki xarakterga ega bo’lgan munosabatlarni, balki tashqi dunyo bilan munosabatlarni ham o’z ichiga oladi.

Bu atama sotsiologiya sohasini boshqaradigan tizim nazariyasining asosiy prinsipidir. Ijtimoiy tizimni birinchi bo’lib aniqlagan amerikalik sotsiolog Talkott Parsons (1902-1972), uning harakatlar nazariyasining bir qismi sifatida. Biroq, bu atama birinchi marta italiyalik Vilfredo Pareto (1848-1923) tomonidan ishlatilgan, ammo bu kabi analitik sxema o’rniga oddiy eskiz sifatida ishlatilgan.

**Ijtimoiy tizim konsepsiyasi.** T.Parsons ijtimoiy tizimni "hech bo'lmaganda bitta jismoniy yoki ekologik jihatlarga ega bo'lgan vaziyatda bir-biri bilan o'zaro aloqada bo'lgan," maqbul rohatlanish "tendensiyasidan kelib chiqadigan va ular bilan bo'lgan munosabatlarning ko'pligi vaziyatlar, shu jumladan boshqa aktorlar ham vositachilik qiladi va madaniy tuzilgan va umumiy ramzlar tizimi tomonidan belgilanadi".

Konsepsiya Pareto tomonidan tuzilgan tushunchalardan va fiziologiyadagi gomeostaz tamoyillaridan kelib chiqadi. Bu ijtimoiy tizimlar o'z qismlarining dinamik va funksional muvozanatida, shuningdek, anomiya, keskinlik va ziddiyatlarni keltirib chiqarishi mumkin degan taxminni keltirib chiqaradi.

Ijtimoiy tizimlarni aniq shaxslar deb hisoblash mumkin emas, chunki ular to'g'ridan-to'g'ri kuzatilmaydi. Ular fizik-kimyoviy, biologik, psixologik yoki madaniy xarakterga ega bo'lishi mumkin bo'lgan ijtimoiy o'zaro munosabatlar, munosabatlar va atrof-muhit hodisalaridan ajralgan holda analitik tarzda aniqlanadi. Bundan tashqari, ular o'zaro ta'sir qiladigan atrof-muhit elementlarini hisobga olish kerak.

Boshqa mualliflar ijtimoiy tizim haqida turli xil tushunchalarni keltirishadi, ular orasida Devid Popenoe, Eliot Chapple, Karleton Kun va boshqalarni keltirish mumkin. Popenoe uchun bu bir-biri bilan o'zaro aloqada bo'lgan odamlar yoki guruhlar to'plamidir. Bunday holda, butunlik uni yaratgan shaxslardan ajralib turadigan ijtimoiy birlik sifatida tasavvur qilinadi.

Ayni paytda, Chapple va Kun uni tizim ishlayotgan paytda a'zo bo'lmaganlarga qaraganda tez-tez o'zaro ta'sir qiladigan shaxslar guruhi deb hisoblashadi.

**Ijtimoiy tizimni tashkil etuvchi elementlar.** Nazariyotchilar Charlz Lomis va J. Allan Beegl o'z asarlarida ijtimoiy qishloq tizimi (1950), har bir ijtimoiy tizimda mavjud bo'lgan va ular orqali o'rganish birliklari sifatida tahlil qilinadigan yettita elementni taklif etishgan. Bular quyidagilar:

- **Rollar:** har bir shaxs ijtimoiy tizim ichida bajaradigan va o'z hissasini qo'shadigan funksiyani anglatadi.

- **Holat:** rolni bajarishda pozitsiya, mas'uliyat va yashirin xatti-harakatlar mavjud.

- **Vakolat:** qolganlarga rahbarlik va rahbarlik vazifasini bajaradigan bir yoki bir nechta shaxslar mavjud. Masalan, universitetda hokimiyat rektorga tegishli.

- **Huquqlar:** ijtimoiy tizim a'zolari ham o'zlariga ma'qul bo'lgan muayyan prinsiplardan foydalanadilar, chunki ular birgalikda yashash va a'zolarining hurmatini kafolatlaydi.

- **Maqsad va vazifalar:** ijtimoiy tizim mavjud bo'lgan maqsadni taxmin qiladi.

- **Normalar:** a'zolar o'z rollarini xulq-atvorni tartibga soluvchi ba'zi parametrlarga muvofiq bajaradilar. Har bir tizim o'z qoidalariga yega, shuning uchun masalan, universitet qoidalari kasalxonadagidek bo'lmaydi.

- **Hududiylik:** tizim ishlashi va o'z vazifasini bajarishi uchun yegallagan maydonni nazarda tutadi.

### **Ijtimoiy tizimning asosiy nazariyalari quyidagilar.**

- **funksionalistik nazariya.** Ushbu nazariya jamiyatni yaxlit ravishda yoki butunning to'g'ri ishlashi uchun ishlaydigan tarmoqlar yoki qismlardan tashkil topgan birlik sifatida tasavvur qiladi. Elementlar o'zaro bog'liq, shuning uchun ularning o'zgarishi qolganlarga ta'sir qiladi.

Amerikalik Talkot Parsons uning buyuk namoyandalaridan biridir. **Parsons uchun har bir ijtimoiy tizim to'rt funksiyani bajaradi** (ularni AGIL qisqartmasi ostida ingliz tilidagi so'zlarining birinchi harfi bilan aniqlaydi):

**1. Moslashish.** Har bir tizim o'z muhitiga moslashishi kerak, ammo o'z navbatida atrof-muhit uning ehtiyojlariga moslashishi kerak deb taxmin qiladi.

**2. Maqsadlar** (maqsadga erishish). Tizimlar ma'lum bir maqsad uchun qurilgan va ushbu maqsadga erishish uchun resurslarni safarbar qilish qobiliyatiga yega.

**3. Integratsiya.** Har qanday tizim o'z tarkibiy qismlarining o'zaro bog'liqligini tartibga solishi, shuningdek yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ziddiyatlarni boshqarishi va ularning har biri o'z vazifasini bajarishi uchun ular orasidagi uyg'unlikni kafolatlashi kerak.

**4. Kechikish.** Har qanday tizim madaniy me'yorlar, qadriyatlar va ko'rsatmalar bilan ta'minlashi kerak, shuningdek, shaxslarni saqlab turishi, yangilashi va ushbu naqshlarga rioya qilishga undashi kerak.

**Umumiy tizimlar nazariyasi.** Ushbu taklif ijtimoiy faoliyatni chuqur anglash uchun turli xil konseptual vositalarni taklif yetadi. Buning uchun u uchta ustunga asoslangan: Aloqa nazariyasi, Evolyusiya nazariyasi va Tizimlar nazariyasi.

Birinchisi, muloqot ijtimoiy paydo bo'lishiga imkon beradigan narsadir. Ikkinchisi - turli xil ijtimoiy tuzilishlarning kelib chiqishi va evolyusiyasini tushuntirish. Uchinchisi, ijtimoiy tizimga avtopoetik xususiyatni beradi, ya'ni uning ichida uning chegaralarini, tuzilmalarini belgilaydigan va atrof-muhit bilan farqini davom yettiradigan jihatlar paydo bo'ladi.

**Avtopoez.** Avtopoez tushunchasi dastlab chililik olimlar Humberto Maturana va Fransisko Varela tomonidan ishlab chiqilgan. Avtopoietik tizimlar tashkiliy jihatdan yopiq va axborot jihatidan ochiq tizimlardir, ya'ni ularning o'ziga tegishli bo'lgan tezkor yopilishi ularning atrof-muhitga nisbatan kommunikativ ochiqligini ta'minlaydi.

Mazkur g'oya funksionalizm nazariyasi boshqaradigan tuzilishga bo'ysunuvchi funktsiya tushunchasini buzadi, chunki funktsiya tuzilishdan oldin bo'ladi. Bundan tashqari, atrof-muhit, ichkaridan ishlaydigan tizim uchun ogohlantiruvchi manba sifatida o'ylab topilgan, ammo uni e'tiborsiz qoldiradigan darajada emas. Biroq, bu tizim va atrof-muhit o'rtasidagi oddiy moslashuv deb qaralishi kerak emas, balki ikkalasi o'rtasidagi aloqa sifatida yuzaga keladigan doimiy o'zaro ta'sir sifatida.

Nazariyaning buyuk nazariyotchilaridan biri nemis sotsiologi Nikolas Luman (Nikolas Lyman) (1927-1998) edi. Buning uchun to'rtta asosiy tizim turlari mavjud: mashinalar, organizmlar, ruhiy tizimlar va ijtimoiy tizimlar. Ushbu so'nggi uchta o'z-o'ziga havola qilingan hisoblanadi. Shu ma'noda, u tizimlarning farqini faqat o'z-o'ziga murojaat qilish orqali amalga oshirish mumkin, deydi, ya'ni tizimni faqat atrof-muhitga nisbatan farqi bilan aniqlash va tushunish mumkin. Uning ta'kidlashicha, ijtimoiy tizimlar o'z faoliyatini aloqa orqali muvofiqlashtiradi, aks holda uni ijtimoiy tizim deb hisoblash mumkin emas. Muloqotning maqsadi inson va ijtimoiy faoliyatning potensial xilma-xilligini boshqarish va yo'naltirishdir.

**Boshqa tizimlar.** Jamiyat ijtimoiy samolyotga qo'shimcha ravishda uchta samolyot yoki tizimdan iborat bo'lib, ular tashkilot va o'zaro ta'sirdir.

Ushbu uchta samolyot bir-birining ustiga chiqa oladi, lekin bir-birining o'rnini bosa olmaydi.

Tashkilot ichida ishlaydigan va uni ijtimoiy tizim sifatida belgilaydigan qarorlarni qabul qiladigan va qabul qiladigan tashkilotdir. Ayni paytda, shovqin - bu jismonan mavjud bo'lmagan odamlar o'rtasida o'rnatiladigan aloqa orqali hosil bo'ladigan tizim.

**Konflikt nazariyasi.** Konflikt nazariyasining asosiy jihatlaridan biri bu uning funkcionalligini tan olishdir. Tizimning buzuvchi yoki parchalanib ketadigan salohiyatlari nazorat ostida bo'lsa, yendi uni jamiyatdagi ijobiy funksiyalarga yega bo'lgan ijtimoiy munosabatlar deb hisoblash uchun patologiya deb qarashmaydi.

Konflikt shaxsdan oshib, jamiyatning tuzilishidan oldinroq bo'lganida ijtimoiy bo'lib boshlanadi. Bu yangilik va ijtimoiy o'zgarishlarning muhim mexanizmi sifatida o'ylanmoqda.

Ushbu oqim doirasida ikkita tarixiy variantni topish mumkin: marksistik va liberal. Ularning orasidagi farq hokimiyatga yaqinlashish uslubida va ular boshqaradigan siyosiy postulatlarida namoyon bo'ladi.

**Ijtimoiy tizimga dalillar.** Ota, ona, o'g'il, jiyan, amakivachcha rolini o'ynaydigan shaxslardan tashkil topgan oila ijtimoiy mukammallik namunasi bo'lishi mumkin. Ularning roliga qarab, ular ma'lum vakolat va huquqlarga ega. Ular rivojlanadigan makon uy bo'ladi.

Universitet, sport jamoasi, kasaba uyushma qo'mitasi yoki kasalxona ham ijtimoiy tizimlarning namunalari. Universitet talabalar va o'qituvchilardan iborat. Hamshiralalar, shifokorlar, bemorlar uchun shifoxona.

Ushbu tizimlarning barchasida maqsadni, turli xil funksiyalarga ega bo'lgan shaxslarni, bir yoki bir nechta a'zolarini vakolatli lavozimlarga ega va turli xil maqomlarni aniqlash mumkin. O'zaro aloqalar sodir bo'ladigan makon, shuningdek ular tomonidan qo'llaniladigan qoidalar va huquqlardan tashqari, aniqlanishi mumkin.

Ijtimoiy tizimlar hajmi va davomiyligi bilan farq qiladi. Bundan tashqari, a'zolar boshqa ko'plab ijtimoiy tizimlarda ishtirok etishlari mumkin, har birida turli xil rollar, me'yorlar va huquqlarni qabul qilishlari mumkin. Biror kishi oilada ota-onasi, biznes korxonasida ishchi, futbol jamoasida kapitan va mahalla kengashida xazinachi bo'lishi mumkin.

### **Topshiriqlar:**

1. Ijtimoiy va siyosiy tizimlarni tahlil qilishda tuzilmaviy-funksional yondashuvning prognostik imkoniyatlari.
2. Funksionalizmning shakllanish tarixi: B. Malinovskiy va A. Redkliff-Brauning g'oyalari.
3. E.Dyurkgeym: ijtimoiy fanlarning usullari. Birdamlik tushunchasi. Birdamlikning mexanik va organik turlari.
4. Huquqiy tizimlarning turlari.
5. Anomiya. R.Merton: funksiyalar va disfunktsiyalar, aniq va latent funksiyalar.

### **3-MAVZU. TUZILMAVIY-FUNKSIONAL VA TIZIMLI YONDASHUVLAR**

#### **Reja:**

1. **Tizim, tizimli tahlil va tizimli yondashuvning mazmun-mohiyati.**
2. **Tuzilmaviy-funksional yondashuvning o'ziga xosligi.**
3. **Tizimli fikrlash.**

***Tushuncha va tayanch iboralar:** tizim, tahlil, tizimli tahlil, tizimli muammo, tizimli yondashuv, tizimli fikrlash, tizim modeli, tizim vazifasi. Tizim, tizimli tahlil va tizimli yondashuvning mazmun-mohiyati.*

Tizimli tahlil nisbatan yosh va ayni paytda, shiddat bilan rivojlanayotgan fan. Shiddat bilan rivojlanishining sababi ta'lim-tarbiyaga qo'yilayotgan talablar ko'lami ilm-fanga murakkab vazifalarni yechishga, tizimli loyihalarni rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojning ortib borayotganligi bilan belgilanadi. Tizimli tahlilning rivoji XX asr yarimida ilmiy-texnikaviy vazifalarning vujudga kelish bilan paydo bo'ldi. Bunda asosiy o'rinni murakkab ob'ektlarni tahlil etish, bilish va amaliy tadbiiq etish jarayonlari egallaydi. **Butun borliq katta va kichik majmualardan iborat degan fikrni birinchi marta italiyalik faylasuf Zenon (m.avv. 490-430) aytib ketgan.** Uning fikricha, butun narsa bo'lingach, ko'plab birliklarga ega bo'lamiz. Bu birliklarning har biri, o'z navbatida yana birliklarga bo'linadi. Bu

jarayon cheksiz davom etaveradi. **Tizimli tahlil mustaqil tadqiqot yo'nalishi sifatida 1950-1960 yillarda AQShda** qurolli kuchlarni texnik jihatdan rivojlantirish, kosmosni o'zlashtirish, davlat boshqaruvi apparatini takomillashtirish, ishlab chiqarish quvvatlarini taqsimot qilish, ishchi kuchi va uskunalarga bo'lgan talabni belgilash, turli mahsulotlarga ehtiyojlarni aniqlash kabi yirik biznes vazifalarini bajarishda qo'llanilgan. Ammo, 1960–1970-yillarda tizimli tahlil metodlarining hisob mashinalarga kiritilishi murakkab vazifalarni amalga oshirish vositalari sifatida nazariy modellarni yaratish imkoniyatlari vujudga keldi. Tizimli tahlil imkoniyatlaridan intensiv foydalanish sharoiti kengaygan sari maqsadli-rejaviy dasturiy boshqaruv metodlari yaratildi. Jumladan, u yoki bu muammoni hal etish maqsadida tashkilot faoliyatini tashkil etishda inson va moddiy resurslarni hisobga oluvchi maxsus dasturlar ishlab chiqiladi. Natijada turli sohalar faoliyatini tadqiqot qilishga qaratilgan tizimli tahlilning turli maktablari paydo bo'ldi. Zamonaviy ma'nodagi tushuncha shaklida tizimli yondashuv rivoji ikki yo'nalishda – nazariy va amaliy shaklda parallel ravishda olib borilmoqda. Nazariy yo'nalishda turli konsepsiyalar izchillik bilan jiddiy o'rganiladigan tizimga birlashib, mustaqil ilmiy soha – tizim nazariyasi paydo bo'ladi.

Tizim nazariyasi to'g'risidagi klassik asarlar sirasiga avstriyalik biolog Lyudvig Fon Bertalanfi (1901-1972) va uning izdoshlari asarlari kiritiladi. Ushbu sohaning ko'zga ko'ringan vakillari sifatida A.Puankare, A.Bagdanov, A.Kolmogorov, V.Arnold, I.Prigojina, R.Akoff, E.Laslioni keltiramiz. Aniq fanlarda tizimli model asosida murakkab hodisalarni tahlil etish va prognoz qilish zaruriy matematik apparatning, jumladan nochiziqli boshqaruv rivojlanishi bilan cheklanadi. Garchi tizim nazariyasi tizimli tahlil uchun ilmiy baza bo'lsada, shu sohaga oid ko'plab zamonaviy nazariy va amaliy kashfiyotlar haligacha bevosita amaliyotda qo'llash uchun moslashtirilmay, hayotda kamdan-kam ishlatiladi. Tizim nazariyasining asosiy ob'ektlari tabiiy va sun'iy, jonli va jonsiz, real va mavhum, ularning paydo bo'lish va rivojlanish qonuniyatlaridan iborat. Ushbu nazariya tarafdorlari nuqtai nazaricha, dunyoda barcha narsa tizimdan iborat. Boshqacha qilib aytganda, har qanday hodisa va ob'ektni bir tizim sifatida tasavvur qilish mumkin.

**Tizim nazariyasi ikkinchi yo'nalishi- amaliyotning ilmiy bazasi va umumiy paradigmasidir.** Tizimli tahlil o'zida murakkab muammolarni o'rganish va hal etish metodologiyasini kasb etadi. Bugungi kunda bu metodologiya amerikaliktadqiqotchilar va institutlar tomonidan keng o'rganilgan. AQShda amaliy tizimli tahlil 1960 yillardayoq e'tirof etilgan edi. Bunga Amerikaning yetakchi «fikir trest» laridan biri RAND korporatsiyasining faoliyati sabab bo'ldi. RAND ushbu metodologiyadan foydalanishning samaradorligini va istiqbollarni avval harbiy sohada – bevosita qurol-yarog' ishlab chiqarish tizimini yaratishda, so'ngra davlat boshqaruvining va sanoatning boshqa sohalarida ham isbotlab berdi. Har qanday faoliyatda tizimli tahlil nazariy ta'limot bilan amaliyot o'rtasidagi tafovut muammolarini o'rganish va samarali qarorlar qabul qilish funksiyasini amalga oshiradi. Tizimli tahlil o'z rivojlanishi jarayonida muammoli vaziyatlarda rahbarning afzal ko'riladigan yo'lni tanlashiga yordam beradigan metodlar doirasiga aylandi va hozirgi vaqtda fanlararo ilmiy yo'nalish sifatida rivojlanib bormoqda. Tizimli tahlil, tizimli modellashtirish va konstruksiyalash, tizimli amaliyot bilan bog'liq qarashlar G'arb olimlari asarlarida ham atroflicha o'rganilgan.

«Umumiy tizimlar nazariyasi» asoschisi Lyudvig Fon Bertalanfi 1934-49 yillarda Kanada va AQSh universitetlarida, keyinchalik 1949 yildan Vena universiteti professori lavozimlarida faoliyat olib borgan. «Dunyoning biologik manzarasi», «Nazariy biologiya», «Aql, odamlar, amallar», «Tizimlar nazariyasi» asarlari muallifi. 1954 yilda «Umumiy tizim nazariyasi tahlil jamiyati»ga asos soladi. Uning ilmiy yutug'i biologiyada ochiq tizim nazariyasini kashf etishida. Unda xujayralarining alohida xususiyatlari faoliyati umumiy yaxlit holatga kelishi va yana mustaqil, ammo bog'lik elementlarini aniqlaydi. Yopiq tizimlardan ochiq tizimlar farqini belgilaydi. L.Bertalanfi tizim nazariyasining fanlararo umumiy dasturini ishlab chiqish taklifini bildiradi.

**Uning asosiy vazifasi:**

- tizim funkcionalligini ta'minlovchi aniq turidan qat'iy nazar umumiy tamoyillari va qonuniyatlarini ishlab chiqish;
- nojismoniy nazariyaning xususiyatlarini belgilashda foydalanish;
- ilmiy bilishning sintez metodologiyasini yaratish.



**Yuqoridagi dastur kibernetika va sinergetikaning rivojlanishiga olib keldi.** Keyinchalik L.Bertalanfi tizim nazariyasini insonning tafakkuri va fiziologiyasini tahlil etishda qo'llashga urinadi. Sinergetika atamasi 1969 yil Germaniyaning Shtutgart universiteti professori German Xaken tomonidan qo'llanilgan bo'lsa-da, faqat 1977-1978 yillardagina fan sohasi vakillari tomonidan qabul qilingan. Uning etimologik ma'nosi yunonchadan  $\sigma\nu\nu$  – «birgalikda» va  $\epsilon\rho\gamma\omicron\varsigma$  – «harakat qilayotgan», ya'ni, o'zaro muvofiqlashgan harakat, deb ataladi.

O'z mohiyatiga ko'ra, **sinergetika – sistemali strukturali va sistemali funksional metodlararo tadqiqot usuli.** Chunki, u o'rganadigan hodisalar barcha fan sohalarida mavjud. Shuning uchun ham sinergetika bilan barcha fan vakillari, xususan, fiziklar, kimyogarlar, biologlar, tarixchilar, iqtisodchilar, psixolog va pedagoglar, siyosatchilar va boshqalar qiziqmoqdalar. Bugungi kunda murakkab tizimlarning o'rganish muammosiga javoban shakllangan sinergetika boshqa maxsus fanlardan farqli o'laroq, murakkab tizimlarning ayrim qismlarini, qirralari, xossalarini emas, balki har qanday fanlar o'rganayotgan ob'ektni boshqa murakkab ob'ektning qismi sifatida o'rganadigan va bu borada muayyan yutuqlarga erishgan yangi fandır.

Tizimli tahlilning eng asosiy tushunchalaridan biri bu tizim tushunchasidir. Tizim tushunchasiga juda ko'plab ta'riflar berib o'tilgan. L. Fon Bertalanfi tizimni “atrof-muhit va bir-birlari bilan ma'lum munosabatlarda bo'lgan qismlar kompleksi” deb qaraydi. Keyinchalik tizim ta'rifiga maqsad tushunchasi kirib keladi. Masalan, F.E.Temnikov “tizim - tashkil etilgan to'plam” (ya'ni, qandaydir maqsadga bo'ysundirilgan to'plam)dir deb qaraydi. Va nihoyat, maqsadni aniq bildiruvchi tizim: “ma'lum bir vaqt oralig'ida aniq bir maqsad doirasida atrof-muhitdan ajratib olingan chekli funksional elementlar va ular orasidagi munosabatlar to'plami” sifatida izohlandi. Tizim – bu elementlardan tashkil topgan ob'ekt yoki ob'ektlar yig'indisi. Tizim – bu o'zaro bog'liq va tartiblashtirilgan elementlardan tashkil topgan, yagona maqsad sari intiluvchi ob'ekt yoki ob'ektlar yig'indisi. Tizim – har biri alohida vazifalarni bajaruvchi, yagona maqsadga yo'naltirilgan, o'zaro bog'langan, boshqariluvchi elementlarning muayyan tuzilmaga ega bo'lgan majmuasi. Bu ta'rif murakkab tizimlarga xos ta'rifdir. Bizga aynan mana shu ta'rif ko'proq mos keladi va jamiyatda

o'rganishni talab qiladigan ob'ektlar aynan murakkab tizimlardir. Misol, institut – bu murakkab tizimdir, chunki u o'zaro bog'liq va o'zaro tuzilmalashtirilgan elementlardan tashkil topadi: rektor, prorektor, fakultetlar, kafedralar, talabalar va h.k. Bu elementlar o'zaro ierarxik tartibda birlashgan va yagona maqsad sari intiladi.

### **Siyosiy tizimning asosiy prinsiplarini bilish juda muhimdir.**

Siyosiy tizim muayyan g'oyaviy talablarga, qoidalarga, ya'ni prinsiplarga tayanadi. Siyosiy-huquqiy adabiyotlarda «prinsip» kategoriyasiga katta e'tibor beriladi. Prinsiplar ijtimoiy voqea, hodisa va institutlarning asosiy mexanizmi, tayanchidir<sup>1</sup>.

1. Siyosiy tizimning tashkil etilishi (tuzilishi) va faoliyat yuritishining prinsiplari deganda, avvalo, shu sohadagi muhim rahbariy g'oyalar tushuniladi. Ushbu prinsiplar siyosiy tizimning mohiyatini, tabiatini, asosiy maqsadini, ijtimoiy mazmuni va vazifasini ochib beradi.

Prinsip, bir jihatdan, turli ahamiyatga ega hodisa va bilimlar majmuining asosi bo'lsa, ikkinchi tomondan, har qanday xatti-harakat, xulq-atvor va faoliyatning boshlang'ich qoidasi sanaladi. Faylasuflar prinsipni boshqa voqea va hodisalardan alohida mavjud bo'ladigan negiz deb izohlaydilar.

2. Prinsipni bunday ta'riflash borliqni yaxlit (ko'p hollarda tizim shaklida) tasavvur qilish imkonini beradi. Demak, prinsip tizim hosil qiluvchi, tizimning mavjudligini ta'minlovchi muhim omildir.

Prinsiplar voqea, hodisa, jarayonlarning shakllanishi va harakatlanishida qonuniyatni aks ettiradi. Demak, prinsip kategoriyasi «qonuniyat», «mohiyat» kategoriyalari bilan uzviy bog'liqdir. Shundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, siyosiy tizimning mohiyati uning asosiy prinsiplari mazmunida namoyon bo'ladi.

Siyosiy tizim prinsiplari davlatning huquqiy siyosatini, huquqning butun ichki tuzilishini, mazmunini qamrab oladi hamda boshqa ijtimoiy tizimlar bilan o'zaro munosabatiga faol ta'sir ko'rsatadi. Ular siyosiy tizimga mazmun baxsh etadi, uni muayyan maqsad sari yo'naltiradi. Shu ma'noda, siyosiy tizim prinsiplarini ta'sirchan siyosiy voqelik, fuqarolar, jamiyat va

---

<sup>1</sup> Қаранг.: Абзалов А. Сиёсий тизимнинг асосий принциплари | Tarjumon.uz

davlat manfaatlariga xizmat qiluvchi siyosiy-huquqiy omil sifatida e'tirof etish mumkin.

Siyosiy tizim ichida demokratik prinsiplarning ustuvorligini ta'minlash, siyosiy hayot (jarayonlar) ishtirokchilari tomonidan ularga hamda yetakchi siyosiy mezonlarga qat'iy amal qilinishiga erishish nihoyatda muhim. Shu bois, mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli siyosiy islohotlarda «umuminsoniy qadriyatlar va umummilliy manfaatlar ustuvor bo'lishini, uning butun hududida umumdavlat qonunlari ustuvorligini ta'minlaydigan tamoyillar asos qilib olinishi darkor»

3.Siyosiy tizim amal qilishining asosiy prinsiplarini tasniflashga o'tishdan avval shuni aytish lozimki, har bir jamiyat siyosiy tizimining o'z prinsiplari bo'ladi.

Demokratik siyosiy tizim quyidagi asosiy prinsiplarga tayanadi:  
xalq hokimiyatchiligi,  
davlatning mustaqilligi,  
demokratizm,  
qonun ustunligi,  
insonparvarlik,  
inson huquqlarining ustuvorligi,  
ko'ppartiyaviylik (siyosiy plyuralizm),  
hokimiyatlar bo'linishi,  
oshkoralik,  
ijtimoiy adolat va hokazo.

Quyida tahlil etiladigan prinsiplar siyosiy jarayonlar kechishining, siyosiy tizim va uning elementlari amal qilishining tashkiliy asosi hisoblanadi<sup>2</sup>.

**1. Xalq hokimiyatchiligi.** U demokratik jamiyat va davlatchilikka xos prinsip. Xalq hokimiyatchiligi yunoncha «demokratiya»ning tarjimasi, ya'ni «demos» — xalq va «kratos» — hokimiyat, boshqaruv degan ma'noni anglatadi.

Zamonaviy sharoitda xalq hokimiyati — avvalo, vakillik demokratiyasi. Xalq o'zining hokimiyat vakolatlarini davlat hokimiyatining tegishli organlari: qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud organlariga beradi.

---

<sup>2</sup> Ўша жойда.

Ayni paytda o'zi saylagan siyosiy hokimiyatga itoat etish majburiyatini zimmasiga oladi.

Siyosiy tizimning asosiy elementlari bo'lgan davlat, siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalari, shuningdek, ommaviy axborot vositalari xalq hokimiyatini amalga oshirish tarmoqlari hisoblanadi. Bu borada davlat hokimiyati alohida o'rin tutadi. Davlat hokimiyati bilan xalqning uzviyligi O'zbekiston Konstitutsiyasida mustahkamlangan. Unga ko'ra, xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir (7-modda). Mamlakatimizda davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko'zlab, Konstitutsiya va qonunlar vakolat bergan idoralar tomonidan amalga oshiriladi.

**2. Davlatning mustaqilligi (suvereniteti).** Suverenitet davlatning mustaqil harakatlanish, boshqa davlat ta'siridan xoli bo'lish, o'z hududida hokimiyatni o'z ixtiyoricha boshqarish xususiyatidir. Suverenitet lotincha «supra» — «yuqori» degan so'zdan olingan bo'lib, hokimiyatning kuchini, irodasi oliyligini, ya'ni ustunligini anglatadi. Davlat hokimiyatining suverenligi shunda ko'rinadiki, u mamlakatdagi barcha huquqiy munosabatlar tizimini, umumiy huquqiy tartibotni, davlat organlari, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlarining, mansabdor shaxslar va fuqarolarning huquqiy maqomini belgilaydi, huquq va burchlarini o'rnatadi.

O'zbekiston Konstitutsiyasining 1-moddasida “O'zbekiston — boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat” , degan qoida mustahkamlangan<sup>3</sup>. «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy qonunda (1991 yil 31 avgust) mamlakatdagi ko'p millatli aholining xohish-irodasi ifodalanib, davlat mustaqilligi e'lon qilindi.

**3. Demokratizm.** Siyosiy tizim faoliyatida demokratizm prinsipi xalq hokimiyatchiligi prinsipi bilan hamohang namoyon bo'ladi. Har bir xalq, har bir mamlakat demokratiyani o'z hayotiga mos tarzda joriy etadi. Biroq, demokratiyaning xarakterini belgilovchi umumiy mezonlar bor. Bu demokratik tamoyillarga rioya qilinishi, demokratik institutlarning mavjudligi va ularning siyosiy tizim faoliyati bilan bog'liqligidir. Mazkur prinsip Konstitutsiyamizning muqaddimasida o'z aksini topgan bo'lib, unda «insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etish» g'oyasi ilgari

---

<sup>3</sup> Қараңг.: Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.05.2023 й., 03/23/837/0241-сон.

surilgan. Qonun normalarini qo'llash borasida demokratizm tamoyili huquqni qo'llovchi va huquqni muhofaza qiluvchi idoralarni tashkil etishda, ularning faoliyat yuritish tartibida, odil sudlovni amalga oshirish jarayonida, aholi uchun yuridik yordamning realligi darajasida o'z aksini topadi<sup>5</sup>. Demokratizm tartib-qoidalar yordamida shaxs va jamiyat hayotini, siyosiy jarayonlarni, butun siyosiy tizim faoliyatini tartibga soluvchi prinsipdir.

**Qonun ustunligi prinsipi.** Konstitutsiya va qonun ustunligi nafaqat davlat qurilishining, balki butun siyosiy tizim amal qilishining muhim prinsipi hisoblanadi. Asosiy qonunimizning 19-moddasida ta'kidlanganidek, "O'zbekiston Respublikasida insonning huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalariga binoan hamda ushbu Konstitutsiyaga muvofiq e'tirof etiladi va kafolatlanadi. Inson huquq va erkinliklari har kimga tug'ilganidan boshlab tegishli bo'ladi".

Konstitutsiya va qonunlar har bir huquq sub'ekti uchun oliy qadriyat bo'lishi lozim. Bunga erishish uchun konstitutsiya va qonunlar demokratiya ruhida, zamonaviy sharoit va ehtiyojlarga javob beradigan bo'lishi kerak. Faqat shundagina ular so'zsiz bajariladi<sup>6</sup>.

**5. Insonparvarlik prinsipi.** Adabiyotlarda ko'pincha «gumanizm» iborasi orqali anglatiladigan prinsip aslida insonparvarlik ma'nosini bildiradi. Bu prinsipning mohiyati, tub lug'aviy ma'nosi «insonni sevish»dir. O'zbekiston Konstitutsiyasida qadriyatlar ketma-ketligi quyidagicha belgilangan: «inson — jamiyat — davlat». Demak, birinchi o'ringa inson va uning huquqlari, erkinliklari, manfaatlari qo'yilgan. Shaxsning huquqlarini, qadr-qimmatini hurmatlash, uning erkin rivojlanishi uchun sharoit yaratib berish davlatning, uning barcha idoralari va mansabdor shaxslarning asosiy burchi hisoblanadi.

O'zbekiston yangi konstitutsiyasi 20-moddasiga asosan<sup>4</sup>, insonning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir hamda ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishga hech kim haqli emas. Insonning huquq va erkinliklari bevosita amal qiladi. Insonning huquq va erkinliklari qonunlarning, davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ularning mansabdor shaxslari faoliyatining mohiyati va mazmunini belgilaydi.

---

<sup>4</sup> Қараңг.: Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.05.2023 й., 03/23/837/0241-сон.

“Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega. Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi, qamoqda saqlanishi yoki uning ozodligi boshqacha tarzda cheklanishi mumkin emas” (27-modda).

O‘zbekistonda jinoyat uchun jazo tayinlash tizimining liberallashtirib borayotgani, tez-tez amnistiya va afv etish aktlarining qabul qilinishi qonunchilikning, huquqiy va siyosiy tizimlarning tobora insonparvarlashib borayotganidan dalolat beradi.

O‘zbekiston Prezidentining 2005 yil 1 avgustdagi farmoni bilan 2008 yil 1 yanvardan boshlab mamlakatda o‘lim jazosining bekor qilingani ham insonning yashash huquqini ta‘minlashga qaratilgan insonparvar hujjatdir.

**6. Inson huquqlari ustuvorligi prinsipi.** U - xalqaro hamjamiyat tomonidan umume‘tirof etilgan tamoyil. O‘zbekiston Konstitutsiyasida ham inson huquqlari ustuvorligi, davlat bilan fuqaroning o‘zaro mas‘ulligi hamda siyosiy-huquqiy aloqadorligi ilk bor mustahkamlandi. Shu bois, siyosiy tizim sub’ektlari ham shaxsni konstitutsiyaviy huquq va erkinliklar sohibi sifatida siyosiy-huquqiy munosabatlarning teng ishtirokchisi deb tan oladi va inson huquqlarining ta‘minlanishiga ustuvor ahamiyat qaratadi.

**7. Ko‘ppartiyaviylik (siyosiy plyuralizm) prinsipi.** Ko‘ppartiyaviylik demokratik siyosiy tizimning uzviy belgisidir. Siyosiy tizimda xilma-xil siyosiy partiyalarning mavjud bo‘lishi, hokimiyat uchun kurash olib borishi yoki hokimiyatni amalga oshirishda faol ishtirok etishi siyosiy jarayonlar demokratik tartibda, o‘zaro raqobatlashuv va hamkorlikda amalga oshirishining garovidir.

O‘zbekiston Konstitutsiyasida mamlakatda siyosiy plyuralizm (fikrlar xilma-xilligi) va ko‘ppartiyaviylik qaror topishi uchun huquqiy asos mustahkamlangan:

«O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi. Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o‘rnatilishi mumkin emas».

Mazkur konstitutsiyaviy qoidani rivojlantirish maqsadida «Siyosiy partiyalar to‘g‘risida»gi (1996 yil 25 dekabr), «Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to‘g‘risida»gi (2004 yil 27 may) qonunlar, «Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish, mamlakatni modernizatsiya qilish sharoitida siyosiy partiyalarning rolini yanada

kuchaytirish to'g'risida»gi (2007 yil 11 aprel) konstitutsiyaviy qonun qabul qilingani turli siyosiy partiyalarning shakllanishi, siyosiy maydonga chiqishi va faoliyat yuritishi uchun imkon yaratdi.

Demokratik siyosiy tizimda ko'ppartiyaviylik, siyosiy plyuralizm bir qator afzalliklarga ega.

Avvalo, bu siyosiy yakkahokimlikka qarshi turadi;

ikkinchidan, siyosiy bahs-munozaraga sharoit yaratadi;

uchinchidan, siyosiy qaror qabul qilinishida barcha siyosiy partiyalar va kuchlarning teng ishtirok etishini ta'minlaydi.

**8. Hokimiyatlar bo'linishi prinsipi.** U demokratik jamiyatlarning siyosiy tizimiga xosdir. Mazkur prinsipning qo'llanishi hokimiyatning suiiste'mol qilinishiga to'siq qo'yadi, fuqarolarni mansabdor shaxslarning tazyiqidan himoya qiladi, davlat idoralari faoliyatining samarali bo'lishiga sharoit yaratadi.

Hokimiyatlar bo'linishi har bir hokimiyat tarmog'ining o'z vakolati doirasida mustaqil bo'lishini taqozo etadi. Shu bois, har qanday mamlakatda yagona qonun chiqaruvchi organ, yagona ijro etuvchi organ hamda yagona sudlov organi (tizimi) mavjud bo'lishi lozim.

**9. Ijtimoiy adolat prinsipi.** Bu tamoyil insonlar o'rtasidagi munosabatlar adolatli bo'lishini nazarda tutadi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan kuchli ijtimoiy siyosat va aholining moddiy yordamga muhtoj qatlamlariga aniq yo'naltirilgan ijtimoiy yordam hamda himoya choralari bosh prinsipi ijtimoiy adolatdir. Huquqshunoslikka oid adabiyotlarda davlat qurilishi hamda faoliyatining, siyosiy tizim amal qilishining prinsiplari qatorida ijtimoiy adolat prinsipi e'tibordan chetda qoldirilgani taajjubli holdir. Ba'zi ensiklopedik lug'atlarda ijtimoiy adolat prinsipi ijtimoiy axloq tushunchasi deb ta'riflangan<sup>9</sup>. Ta'kidlanishicha, ijtimoiy adolat insonning atrofda yuz berayotgan hodisalarga munosabatini aks ettiradi. Ijtimoiy adolat gumanistik g'oyalarga asoslanib, voqelikka insof-diyonat bilan yondashishni, xolislikni, demokratik munosabatni o'zida ifodalaydi.

**10. Oshkoralik prinsipi.** Siyosiy tizim, uning institutlari faoliyati haqida, ijtimoiy-siyosiy hayotda yuz berayotgan jarayonlar haqida ommaga to'liq axborot berib borish nihoyatda muhim bo'lib, u oshkoralik prinsipi

orqali amalga oshiriladi. Oshkoralik demokratik faoliyat yuritishning asosiy talablaridan biridir.

Fuqarolik jamiyati demokratik tarzda uyushgan, oshkoralik va ochiqlik hukm suradigan erkin jamiyatdir. Bu jamiyatda siyosiy-huquqiy hodisalarga ijtimoiy baho berish, jamoatchilik fikri bilan hisoblashish ustuvor mavqega ega bo'ladi.

Mamlakatning birinchi Prezidenti ommaviy axborot vositalarining «to'rtinchi hokimiyat» sifatida mavqeini mustahkamlash huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qaror toptirishning muhim sharti ekanini takror-takror ta'kidlab keladi.

Mamlakatda ommaviy axborot vositalari erkin faoliyat ko'rsatishi uchun qonunlar qabul qilingan, huquqiy kafolatlar yaratib berilgan. «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida»gi, «Noshirlik faoliyati to'g'risida»gi, «Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida»gi, «Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida»gi, «Jurnalistik faoliyatni himoya qilish to'g'risida»gi qonunlar shular jumlasidandir.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan prinsiplar mamlakatimiz siyosiy tizimi xalq manfaati yo'lida samarali faoliyat yuritishiga xizmat qiluvchi, yetakchi va yo'naltiruvchi g'oyalardir.

### **Siyosiy tizimning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:**

**1.Yaxlitlilik** - tizimga bir butun jarayon, xodisa yoki narsa deb qaralgandagi xususiyatlari uning elementlarga bo'linganda o'z mohiyatini yo'qotishi nazarda tutiladi. Misol, institut deganda biz malakali mutaxassislarni tayyorlovchi tizimni tushunamiz, lekin uni elementlarga bo'lganimizda, ya'ni, rektor, kafedra va h.k. ana shu tizimning yaxlit xususiyati yo'qoladi.

**2.Bog'liqlilik** - tizimni tashkil etgan elementlarning o'zaro bog'liqlilik darajasi va tizimga ta'sir etuvchi kuchi bu tizimga kirmagan elementlardan ko'ra kuchliroq bo'lgan hususiyat nazarda tutiladi. Misol, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashda boshqaruv apparati hisoblanadi va tizimga bog'liqlik tomoni bor, lekin institut ichidagi jarayonlarga ta'siri uning ichidagi qismlarida kuchliroq hisoblanadi. Maqsadga yo'naltirilganlik – tizim va uning quyi tizimlarining yagona maqsadga yo'naltirilganligi nazarda tutiladi. Ya'ni misolimizda



institut va uni tashkil etuvchi elementlar yagona maqsadga intiladi - yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash.

**3. Tuzilmaviylik** - tizimni tashkil etuvchi elementlar o'zaro biror qonun qoidaga muvofiq tashkil etilganligi tushuniladi. Ya'ni ular o'zaro ierarxik, funksional munosabatlar bilan bog'langan holda faoliyat yuritadi. Natijaviylik (samaradorlik, foydalilik) hususiyati tizimning mavjud bo'lish shartlaridan biridir. Agar tizim natija bermasa, tizim butunlay yo'q bo'lib ketadi yoki bunday tizimning mavjudligi faqatgina ortiqcha sarf-xarajatga olib keladi, befoyda xatti-harakatlar bo'lib qoladi.

Pedagogikada "tizim" tushunchasi keng qo'llaniladi, masalan, ta'lim tizimi, tarbiya tizimi, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish shakllari va metodlari tizimi... Ijtimoiy tizimning turlaridan biri bo'lgan pedagogik tizim – insonlarga va yosh avlodga ta'lim va tarbiya berish, ta'lim jarayonini tashkil etish va boshqarish maqsadlariga xizmat qiluvchi turli strukturaviy va funksional bog'liq bo'lgan komponentlar majmuidan iborat.

**"Tizim" tushunchasi o'z mohiyatiga ko'ra, ierarxik jarayon**, chunki u tizim haqida tushunchalarning xuddi tizimning tashqi muhit bilan o'zaro hamkorligini ifodalaydigan, yirikroq tizimning ayrim qismi, o'zining ba'zi yaxlitligi va shaxsiy bo'lakchalari yig'indisini ko'zlaydi. Tizimning muhim jihati voqelikning ichki tarkibiy qismlariga egaligi, ushbu qismlar orasida pog'anali buysunishning yuzaga kelishi hamda bu qismlarning nisbiy mustaqilligida aks etishidir<sup>5</sup>.

Ilmiy adabiyotlarda "tizim" va "sistema" iboralari sinonim, aynan bir xil ma'noli so'zlar tarzida qo'llanadi. Falsafiy qomusiy lug'atda: **"tizim", sistema (qismlardan iborat butun) – o'zaro munosabat va aloqada bo'lgan, muayyan yaxlitlikni hosil qiluvchi ko'p qismlar (elementlar) majmui, deb ta'rif berilgan.**

Shu manbada quyidagi izohlarni ham uchratamiz. "Sistema" – yaxlit bir butunlik sifatida tashkil topgan ob'ektni ifodalovchi ijtimoiy-falsafiy kategoriya. Odatda, sistemani eng muhim umumiy tarzida elementlar o'rtasidagi o'zaro aloqalar birligi sifatida ta'riflaydilar. "Sistema" tushunchasi o'z ma'nosiga ko'ra "aloqa", "element", "butun", "birlik", "struktura", (elementlar o'rtasidagi aloqalar sxemasi) tushunchalari bilan bog'liq. Ushbu o'rinda tizimli tadqiq etishning asosiy vazifalari: tizim

---

<sup>5</sup> Қаpaиr.: [DNDYvlsSx4aq6im7COBpCzeFPDgMiPalggmRGg94.pdf \(tiame.uz\)](https://tiame.uz/DNDYvlsSx4aq6im7COBpCzeFPDgMiPalggmRGg94.pdf)

elementlari, aloqalari va strukturasi, elementlar o'rtasidagi bog'liqlikni ajratishdir. Tizimning mohiyatini metodologik tushunishga ko'ra tizimlilik ob'ekt va hodisaning o'z hossasi deb emas, balki faoliyatning aniq bir maqsadga yo'naltirilishi, tafakkurni tashkil etish sifatida ta'riflanadi.

**Tizimlar klassifikatsiyasi quyidagicha:**

**Tashqi muhit bilan aloqasiga ko'ra:**

- Ochiq
- Yopiq
- Aralash

**Tuzilishiga ko'ra:**

- Sodda
- Murakkab
- Katta

**Vazifalarning tabiatiga ko'ra:**

- Maxsus
- Ko'p vazifali (universal)

**Rivojlanish tabiatiga ko'ra:**

- Barqaror
- Rivojlanayotgan

**Tashkillashtirilganlik darajasiga ko'ra:**

- Yaxshi tashkillashtirilgan
- Yaxshi tashkillashtirilmagan (diffuz)

**Xulqi (xatti-harakati)ning murakkabligiga ko'ra:**

- Avtomatik
- O'z-o'zini tashkillashtiruvchi
- Bashorat qiluvchi
- Shaklni o'zgartiruvchi

**Elementlararo aloqasiga ko'ra:**

- Deterministik
- Stoxastik

**Boshqaruv tuzilishiga ko'ra:**

- Markazlashtirilgan
- Markazlashtirilmagan

**Tayinlanishiga ko'ra (maqsad):**

- Ishlab chiqaruvchi

-Boshqaruvchi

-Xizmat ko'rsatuvchi

**Tizimlarni tasniflash bir necha omillarga bog'liq bo'ladi.** Inson ishtirokida tashkil etilgan tizimlar sun'iy tizimlar, tabiatan mavjud bo'lgan tizimlar esa tabiiy tizim deb ataladi.

**Sun'iy tizimni** tahlil qilish tizimni tashkil etuvchi barcha komponentlarini tahlil qilishdan boshlanadi, ya'ni tizim qanday komponentlardan tashkil topgan, uning ichki va tashqi aloqalari qaysilar, bu tizim qaysi maqsadga yo'naltirilgan, qaerda, qanday, nima uchun foydalaniladi.

**Moddiy tizimlar**, asosan moddiy ob'ektlar to'plamidan tashkil topadi. O'z navbatida moddiy tizim anorganik (mexanik, ximik) va organik (biologik) tizimga yoki aralash tizimga ajratiladi. Moddiy tizimlardan asosiy o'rinni ijtimoiy tizim egallaydi. Bunday tizimning xususiyatlaridan biri insonlar o'rtasidagi munosabatlarni aks ettirishdir. Mavhum tizimlar inson ongining mahsuli bo'lib, har xil nazariyalar, bilimlar, gipotezalardan iborat.

Tashqi muhit bilan aloqasiga ko'ra, tizimlar yopiq tizim qattiq mustahkamlab qo'yilgan chegaralarga ega. Uning harakatlari tizimni o'rab turgan muhitdan nisbatan mustaqil. Soat yopiq tizimga misol bo'la oladi. Soatda uning o'zaro bog'liq qismlari energiya manbayiga ulanishi bilanoq to'xtovsiz va aniq harakat qilishni boshlaydi. Soatda to'plangan energiya manbai mavjud ekan uning tizimi atrof-muhitdan mustaqildir. Ochiq tizim tashqi olam bilan o'zaro bog'liqligi bilan izohlanadi. Energiya, axborot, materiallar – bu tizimning chegarasi orqali tashqi dunyo bilan aloqa qilish ob'ektlaridir. Bunday tizim o'zini-o'zi ta'minlay olmaydi. U tashqaridan bo'lgan energiya, axborot va materiallarga muhtoj. Bundan tashqari, ochiq tizim tashqi olamda yuz berayotgan o'zgarishlarga moslashish qobiliyatiga ega, aks holda u o'z faoliyatini davom ettira olmaydi. Masalan siyosiy xukumat tizim sifatida ochiq bo'lishi shart.

**Tahlil tushunchasi quyidagi tasniflarga ega<sup>6</sup>:**

1. Narsa, hodisa va shu kabilarni mohiyat, qonuniyat va boshqa jihatlardan tekshirish, o'rganish ishi;

2. Biror narsa, ma'lumot va shu kabilarni ma'lum nuqtai nazardan o'rganish, baholash;

---

<sup>6</sup> мажмуа-етакчи.pdf (giu.uz)

### 3. Biror narsaning tarkibini belgilash va uning mohiyatini tadqiq etish.

Pedagogik faoliyatni takomillashtirishda tahlil amaliy mazmun kasb etib, ta'lim-tarbiyaning sifatini ta'minlash uchun xizmat qiladi. Yuzaga kelgan pedagogik muammoning (masalan, pedagogik nizo) sabablarini aniqlash, uni kechishining davriyligini bilish uchun, nizing vujudga kelishiga ta'sir ko'rsatgan omillarni, bunda avvalo qaysi qonuniyatlarga (tabiiy yoki sun'iy bo'lishi mumkin) amal qilinishini bilish lozim bo'ladi. Tahlil, intellektual faoliyatning yuqori bosqichi hisoblanib, hodisa, jarayon (jumladan pedagogik jarayonni), raqam va dalillarni aloqadorlik darajasini belgilab berishda namoyon bo'ladi. Tahlil, faoliyat shakli sifatida rivojlanib, bugungi kunda uning turli shakl va usullari vujudga keldi. Negaki, har qanday muammoni, shu jumladan pedagogik faoliyat doirasida vujudga keladigan "X-viziyat"larni konstruktiv kechishini ta'minlash uchun tahlil amaliy ahamiyat kasb etadi. Tahlilga (jumladan tizimli tahlilga) bugungi kunda faoliyatning alohida turi sifatida qarab kelinmoqda. Negaki, turli darajalardagi (tezkor, taktik va strategik) boshqaruvda tahliliy faoliyatning mahsuli bo'lmish sharh, ma'lumotnoma, izoh, hisobot, xabarnoma, yo'riqnoma, murojaatnoma kabilarga hayotimizning turli sohalarining ravnaqini ta'minlash maqsadida murojaat etib kelinmoqda. Tahliliy faoliyat mahsuli ijtimoiy taraqqiyotning rivojlanish jarayonini bosqichlarga ajratib, ijobiy va salbiy jihatlarini belgilab, bajariladigan galdagi vazifalarni aniqlab olish uchun amaliy xizmat qiladi. Bunda tahlilning nisbatan mukammal turi sifatida tizimli tahlil alohida o'rin tutadi.

**Tizimli tahlil** – bu bir qancha fanlar (matematika, kibernetika, sinergetika va h.k.) negizida hosil bo'lgan ilm sohasi bo'lib, o'rganilayotgan obektning tizimli masalalarini aniqlash, ularni tasavvur etishda modellashtirishdan foydalanish, shular asosida turli alternativ yo'llar (qarorlar)ni shakllantirish hamda ular asosida optimal variantni tanlashga yordam beruvchi bilimlarni o'z ichiga jamlovchi soha hisoblanadi.

**Tizimli tahlil deb**, murakkab hisoblangan ijtimoiy, siyosiy, harbiy, iqtisodiy, ilmiy xarakterga ega bo'lgan masalalarni o'rganish uchun qo'llaniladigan tahliliy vositalar (usullar) yordamida amalga oshiriladigan tahlil turiga **aytiladi**.

**Tizimli tahlil** – aniq maqsadli ilmiy tadqiqot faoliyatining turi bulib, bunda tadqiqotchi diqqat-e'tibori ilmiy bilimlar haqida ularning shakli,

mazmuni, shuningdek, batafsil tekshirish, aniq tushuncha va tasdiqlarni ilgari surish darajasiga muvofiq maqbul tasavvurni yaratishga qaratilgan bo'ladi.

**Tizimli tahlil** – murakkab tizimlarning shakllanishi, faoliyat ko'rsatishi, parchalanish jarayonlari, qarama-qarshiliklar vujudga kelishi, rivojlanishi va hal etilishi jarayonlarining umumiy qonuniyatlari, murakkab tizimlardagi maqsadlarni sintez qilish qonunlarini o'rganadi<sup>7</sup>.

**Tizimli tahlil tushunchasining ushbu talqinlari mavjud:**

- muammoni o'rganishning kompleks shakli;
- tizimli yondashuv asosidagi tahlil turi;
- davlat boshqaruvida foydalaniladigan uslub;
- fanlararo fan;
- tizimlar nazariyasi asosidagi uslubiyat.

**Tizimli tahlil deganda** tizimli yondashuv asosida umumdavlat va amaliy qiyin muammolarni yechishni ta'minlab beruvchi uslubiyatlar vositasining yig'indisi tushuniladi.

**Tizimli yondashuv** – umumiy va keng tushuncha bo'lib, tizim konsepsiyasi asosida turli hodisa va ob'ektlarni ko'rib chiqishni o'zida qamrab oladi. Tizimli yondashuv ilmiy tadqiqot metodologiyasida muhim ahamiyatga ega. Uning asosiy vazifasi murakkab ob'ektlar - har xil tip va turkumga mansub tizimlarni o'rganish va tuzish metodlarini ishlab chiqishdan iborat. Xalqaro munosabatlarda ko'p pog'onali, ierarxik, o'zini o'zi uyushtiruvchi ob'ektlarni o'rganishda mazkur metoddan keng va samarali foydalaniladi. Tizimli yondashuv, bu ob'ektni yaxlit majmua sifatida o'rganishga asoslangan metodologiya, ilmiy anglashni ta'minlovchi "yo'l"dir.

Tizimli yondashuv o'rganilayotgan ob'ektni yagona maqsad bilan birlashtirilgan o'zaro bog'liq tizimlar majmuasi sifatida ko'rishga hamda uning ichki va tashqi aloqalarining integratsiyalashgan xususiyatlarini ochib berishga imkon beradi. Fanda, tizimli yondashuv turli fan sohalarining vakillari tomonidan shakllantirilgan.

---

7

<https://staff.tiiame.uz/storage/users/41/presentations/xFCiYbrhw9SakozNGYpfvoqlzMGiLGUNjK9KohAO.pdf> Тизимли таҳлил фанидан маърузалар.

**Tizimli yondashuv o'zaro aloqador bo'lgan jihatlarni qamrab olgan majmua bo'lib, tahlilni amalga oshirishda metodologiya vazifasini bajara oladi.**

Tizimning asosiy xizmati quyidagilar:

1. tizimli - strukturaviy, tizimni ichki tuzilishini, uning tarkiblarini ta'minlashuvini belgilash;

2. tizimli - funksional, tizim va uni vujudga keltiruvchi qanday vazifalarni bajarishini ajratib berish;

3. tizimli - kommunikativ, tizimning boshqa tizimlar bilan gorizontal va vertikal aloqadorliklarni mohiyatini belgilash;

4. tizimli - integrativ, tizimni saqlanish mexanizmi, saqlanish omillari va takomillashuvini belgilash;

5. tizimli - tarixiy, "tizim qanday shakllangan?", "rivojlanish davomida qanday bosqichlardan o'tgan?", "tizimni istiqboli qanday", degan savollarga javob berish.

Tizimli yondashuv - tizimli tahlilni amalga oshirish yo'lini belgilab berish uchun xizmat qiladigan majmua.

**Tizimli tahlilning funksiyalari (vazifalari) quyidagilar:**

**1. Tizimli tahlilning boshqaruvchanlik funksiyasi** boshqaruv jarayonini turli bosqichlarida qaror qabul qilishga tayyorgarlik ko'rish, qaror qabul qilish, qarorni joriy etish va qaror ijrosini nazoratini amalga oshirish uchun axborot bilan ta'minlaydi.

**2. Tizimli tahlilning diagnostik funksiyasi** jarayonni kechishi yoki faoliyat davomida yuzaga kelgan holat (vaziyat), ya'ni joriy holat haqida ob'ektiv tasavvur (manzara)ni shakllantiradi (tasvirlaydi). Tizimli tahlilning ogohlantiruvchi funksiyasi jarayonni kechishi davomida vujudga kelishi mumkin bo'lgan ehtimoliy muammo, turli shakl va ko'rinishdagi xavf (X vizitlar) va nizolar haqida ogohlik berib, ularni barataraf etish uchun (ularga konstruktiv tus berish uchun) xizmat qiladi.

**3. Tizimli tahlilning bilish - mental funksiyasi**, faoliyat davomida yuzaga kelgan holatning mohiyatini anglash uchun, boshqaruvni amalga oshirishda qo'llanilayotgan usullarni, yondashuvlarni, qadriyatlarini, bir so'z bilan aytganda boshqaruv mentalligini o'zgartirish uchun xizmat qiladi. Tahlil, nafaqat ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni rejalashtirish va boshqarishni amalga oshirishda, balki maishiy hayotni turli davrida har bir inson

tomonidan turli manfaatdorlik ehtiyojidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Tizimli tahlil resurslarning ushbu turlari bor:

**1. Modda** – Mendeleev davriy jadvalida keltirilgan elementlar tabiatdagi mavjud narsa va hodisalarni tashkil etuvchi asosiy moddalar hisoblanadi.

**2. Quvvat**– resurslarning to‘la o‘rganilmagan turi bo‘lib hisoblanadi. Bir holatdan boshqa bir holatga o‘tishda sarflanadi va qaytarilmaydi.

**3. Axborot** – resurslarning bir turi bo‘lib hisoblanadi. Ma‘lum narsa, hodisa, jarayonlarni ifodalovchi ma‘lumot.

**4. Inson** – jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy ma‘nosini ifodalovchi asosiy resurslaridan biri bo‘lib hisoblanadi, ilm, intellekt tashuvchi asosiy jonzotdir.

**5. Makon** – atrof-muhitning tarqalganlik darajasini ifodalovchi resurs hisoblanadi.

**6. Vaqt** – qaytarib bo‘lmaydigan resurs hisoblanib, vaqt o‘tishi bilan holat o‘zgaradi, haqiqat o‘zgaradi.

Mana shu resurslardan kelib chiqqan holda aytish lozimki, inson turli “maydon”larga joylashtiriladi, masalan energetik, informatsion, ijtimoiy, moddiy, vaqtinchalik va h.k. Masalan, ertalab turib universitetga o‘qishga kelish masalasini ko‘rib chiqaylik. **Bu masala yuqorida sanab o‘tilgan jihatlarning barchasini qamrab oladi. Ya‘ni:**

1) moddiy, fizik jihat – talaba ma‘lum bir yukni, kitob, daftar va h.k.ni ma‘lum masofaga ko‘chirib o‘tishi lozim;

2) energetik jihat – kishi ma‘lum bir masofaga yurish uchun ma‘lum miqdorda energiya sarf qiladi;

3) informatsion jihat – universitetga yetib borish uchun avtobus, marshrut, universitetning joylashuvi haqida ma‘lumotga ega bo‘lishi lozim;

4) insoniy jihat – masalan, avtobusda borish uchun avtobusni haydovchi boshqarishi kerak;

5) tashkiliy jihat – universitetga yetib borish uchun avtobus, transport marshrutlarning tashkillashtirilganligi;

6) makon, joy – ma‘lum bir masofaga ko‘chib o‘tishi;

7) vaqt jihati – universitetga borish uchun ma’lum vaqt sarflanadi, mana shu o’tgan vaqt mobaynida qaytarib bo’lmaydigan hodisa va jarayonlar sodir bo’ladi.

Bir resursni muhimlik darajasini ko’tarish boshqa resurslarning ham muhimligini oshiradi. Masalan, ko’mirning yoqilishi natijasida issiqlik energiyasi ishlab chiqiladi, issiqlik energiyasi esa ovqat tayyorlash uchun muhim, ovqat esa inson tomonidan biologik energiya ishlab chiqarish uchun muhim hisoblanadi, biologik energiya esa ma’lum ma’lumot, informatsiya olish, masala yechish uchun zarur hisoblanadi. Masala haqida ma’lumot tahlil qilish va qaror qabul qilish uchun zarur bo’ladi. Umuman olganda, inson shunday jarayonlarning sodir bo’lishida asosiy sababchisi hisoblanadi. Ijtimoiy taraqqiyotni ta’minlashda tahliliy faoliyatning tutgan o’rnini inobatga olsak, uni ijtimoiy ahamiyatlilik darajasi qay darajada yuqori ekanligini tushunish qiyin emas. Negaki, aynan tahliliy manba (dissertatsiya, monografiya, ilmiy maqola, sharh, hisobot, ma’lumotnoma, taqriz va boshqa shu shakldagi manba bo’lishi mumkin) vositasida soha vakillari strategik mazmunga ega bo’lgan masalalarni mazmun-mohiyatini izohlab, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va siyosiy sohalar taraqqiyotini ta’minlashning asosiy vazifalarini belgilab beradi.

### **Topshiriqlar:**

1. Jamiyat funksional birligining tanqidi. “Siyosiy mashina” ning funksiyalari.

2. Ijtimoiy tizimlar nazariyasi: muammolar va istiqbollar.

3. N.Luman jamiyat haqidagi tizimli tasavvurlarning rivojlanishi haqida.

4. T.Parsonsning ijtimoiy harakat va ijtimoiy tizim konsepsiyasi. Tuzilmaviy-funksionalizmning asosiy kategoriyalari: ijtimoiy harakat, ijtimoiy rol, tuzi ma, funksiya. Ijtimoiy harakatning tuzilishi.

5. Ijtimoiy tizim va ijtimoiy muhit. Ijtimoiy tizimga qo’yilgan to’rt funksional talablar: maqsadga erishish, moslashish, integratsiya va latentlik.

T.Parsons konsepsiyasida hokimiyat tushunchasi. Siyosat quyi tizimlarining xususiyatlari.



## **4-MAVZU. SIYOSIY TIZIM TUSHUNCHASI VA UNI TAHLIL QILISHNING ASOSIY YONDASHUVLARI**

### **Reja:**

- 1.Siyosiy tizim tushunchasi**
- 2.Siyosiy tizim sub'ektlari**
- 3.Siyosiy tizim tipologiyasi**
- 4.Siyosiy tizimning boshqa tizimlardan farqi**
- 5.Siyosiy tizim vazifalari**
- 6.Siyosiy tizimni tahlil qilishda uning siyosiy demokratiya bilan munosabatini o'rganish muhimligi**
- 7.Demokratiyaning zamonaviy modellari va konsepsiyalari.**

**1.Siyosiy tizim** - siyosatni, jamiyatda hokimiyat va davlat boshqaruvini shakllantirish va amalda ruyobga chiqarish bilan bog'liq munosabatlar, harakatlar, tashkilotlar tizimidir. Siyosiy tizim - davlat va nodavlat tashkilotlar majmuini ifodalovchi umumijtimoiy tushuncha.

**Siyosiy tizim** - davlat idoralari o'rtasidagi munosabatlar shaklidir. Siyosiy tizim jamiyatda hokimiyat va boshqaruvni shakllantirish va amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarni umumlashtiradi.

### **2.Siyosiy tizim sub'ektlari quyidagilar<sup>8</sup>:**

- 1)hokimiyat,
- 2) davlat,
- 3) siyosiy partiyalar,
- 4) ijtimoiy-siyosiy xarakatlar,
- 5)shaxs, siyosiy lider tashkil etadi.

Siyosiy ong, siyosiy madaniyat, siyosiy faoliyat kabi tushunchalarga esa siyosiy tizim in'ikosi sifatida qaralishi lozim<sup>1</sup>.

Jamiyat siyosiy tizimi tarkibi, tuzilishi jihatidan 4 asosiy elementlardan tashkil topgan:

- 1). Siyosiy institutlar, ular o'rtasidagi munosabatlar.
- 2). Siyosiy qoidalar, ong va madaniyat.
- 3). Siyosiy faoliyat.

---

<sup>8</sup> Mamadaliev Sh. Siyosiy tizimimiz: reallik va takomil. Tafakkur, 1999, № 3, 4-9 b.

4).Siyosiy jarayon.

### **3.Siyosiy tizim tuzilishi - tipologiyasi quyidagilardan iborat<sup>92</sup>**

1. Siyosiy tizimning markscha tipologiyasi. Bunda formatsiya turi va ijtimoiy-iqtisodiy tarkibi kabi tushunchalarga asoslanadi (quldorlik, feodal, burjua, sotsialistik siyosiy tizim).

2. Siyosiy tizimning g'arb tipologiyasi. Siyosiy tartibot xarakteriga ko'ra: demokratik, avtoritar, totalitar tizimlarga ajratilgan.

3. Siyosiy tizimning an'anaviy va modernizatsiyalashgan (yangilangan) turi. Bunda rivojlanmagan fuqarolik, siyosiy rollar, vazifalarning bo'sh taqsimlanganligi, hokimiyatni asoslanishning xorezmatik usuli yotadi.

4. Yangilangan zamonaviy tizimi tipologiyasi: rivojlangan fuqarolik jamiyati, aniq taqsimlangan, siyosiy rollar, hokimiyatni asoslashning ratsional usuliga ega.

G'arb olimi I.Blondel siyosiy tizim tipologiyasini beshga bo'ladi<sup>10</sup>.

- 1) liberal - demokratik tizim
- 2) radikal - avtoritar yoki kommunistik tizim
- 3) an'anaviy tizim
- 4) populistik tizim
- 5) avtoritar - konservativ tizim.

**Olim siyosiy tizim tipologiya-turkumida siyosiy madaniyatlar yotishini bayon etarkan, siyosiy tizimni to'rt qismga ajratadi:**

- 1) ingliz - amerika tizimi (shaxs erkinligi)
- 2) mintaqaviy - Yevropa tizimi ( umumiy madaniyatga ega)
- 3) sanoati rivojlangan yoki qisman rivojlangan tizim (aralash siyosiy madaniyat)
- 4) totalitar siyosiy tizim (jamiyat to'la davlat nazoratida).

**Siyosiy tizimning turkumlari quyidagilar:**

- 1) liberal - demokratik (ihtiyoriy, lekin sust)
- 2) kommunistik tizim (majburiy)
- 3) rivojlaniyotgan siyosiy tizim (sust).

Tizimlar:

---

<sup>9</sup> Politologiya kursi bo'yicha ma'ruzalar matni. 1- qism. T.: O'zMU, 2000, 46-49 b.

- 1) ochiq;
- 2) yopiq bo'ladi.

Amerikalik olimlar Z.Bjezinskiy va S.Xantington siyosiy tizimlarni ikki turga bo'lishadi:

- 1) instrumental siyosiy tizim (AQSh)
- 2) mafkuraviy (sun'iy majburlash).

**4.Siyosiy tizim o'z xususiyatiga ko'ra, jamiyatning boshqa tizimlaridan quyidagi jihatlari bilan farq qiladi:**

1. Siyosiy tizim ustunroq mavqega ega bo'lib, uning qabul qilgan qarorlari butun jamiyat va uning kichik tizimlari uchun majburiydir.

2. Siyosiy tizim ijtimoiy muhit va avvalo jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzulmasi bilan bog'lanib ketgan.

3. Siyosiy tizim nisbiy mustaqil bo'lib, u tuzilishi, rollari, funksiyalarning maxsus imkoniyati mavjud bo'ladi, ya'ni u mustaqildir.

**Siyosiy tizimning** huquqiy va sotsiologik tomoni mavjud.

**Jamiyat siyosiy tizimining tuzilishi quyidagicha:**

- 1) Siyosiy hokimiyat.
- 2) Siyosiy tashkilotlar.
- 3) Siyosiy munosabatlar.
- 4) Siyosiy madaniyat
- 5) Siyosatning sub'ektlari

Siyosiy tizim markazida siyosiy hokimiyat bosh masala hisoblanadi. Hokimiyat - bu odamlarga qarorlarni majbur qilish va bajartirish yoki ta'sir ko'rsatishning shunday usulidirki, bunda ular ko'rsatilgan va kutilgan usulda harakat qiladilar.

**Siyosiy hokimiyatda tashkilotlar odatda 3 xil bo'ladi:**

1) Asosiy siyosiy tashkilotlar (parlament, davlat va uning organlari, siyosiy partiyalar) siyosiy hokimiyatni bevosita amalga oshiradi, hokimiyat uchun kurash bosh maqsad bo'ladi.

2) Asosiy bo'lmagan siyosiy tashkilotlarga: kasaba uyushmalari, kooperasiya, yoshlar tashkilotlari, ijtimoiy hayotning o'zaro ta'sirida odamlar munosabati, xarakatini ko'rsatish mumkin.

3) Siyosiy bo'lmagan tashkilotlar (teatr, sport, DOSAF va h.k.) siyosiy hokimiyatni amalga oshirishda qatnashmaydi. Biroq keyingi vaqtlarda

jamoatchilik birlashmalari ham ma'lum darajada siyosatlashib bormoqda. Ayniqsa sport va h.k.

Siyosiy tizim jamiyat hayotini, uning iqtisodiy shart-sharoitlarini, ijtimoiy va milliy tuzilishini, demografik va ekologik jarayonlarini, aholi savodxonligining darajasini, ijtimoiy ong holatini, ma'naviy hayotni va xalqaro ahvolni o'zida aks ettiradi.

Shu bilan birga, siyosiy tizimning mohiyati quyidagi vazifalarda o'z ifodasini topadi. Siyosiy tizim o'zida jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, etnik va milliy tuzilmalarini aks ettiradi. Siyosiy tizim orqali manfaatlarining asosiy guruhlari aniqlanadi.

Siyosiy tizimni tashkil etuvchi elementlar siyosiy hokimiyatni shakllantirish va amalga oshirishda tutgan o'rniga qarab 4 ta kichik guruh, ya'ni tizimlarga ajratiladi:

1. **tashkiliy tizim** (o'z ichiga davlat, siyosiy partiyalar, ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar, harakatlarni birlashtiradi).

2. **madaniy-mafkuraviy tizim** (siyosiy madaniyat, siyosiy ong, mafkura, jamoatchilik fikri kiradi)

3. **me'yoriy (norma) tizim** (o'z ichiga siyosiy-huquqiy, tashkiliy, axloqiy, siyosiy va boshqa me'yorlarni biriktiradi).

4. **axborot-kommunikatsiya tizimi** (ommaviy informatsiya vositalari, kommunikatsiyalari, ilmiy infratuzilmalar).

#### **5.Siyosiy tizimning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:**

- 1) jamiyatning maqsad va vazifalarini aniqlash.
- 2) imkoniyatlarni safarbar etish.
- 3) jamiyat tizimi barcha elementlarini birlashtirish.

Siyosiy tuzum - demokratik huquqlar va erkinliklarning ahvolini, davlat hokimiyati organlarining ular faoliyati huquq asoslariga munosabatini aks ettiruvchi davlat hokimiyatini amalga oshirish usullari tizimi sifatida belgilanadi.

Mustabid tuzum - keng miqyoslarda ilm-fan bilan chiqisha olmaganligini yaxshi bilamiz. Chunki bunday tuzum sharoitida ishlab chiqaruvchilar, fuqarolar mulkdan, jamiyatni idora etishdan, madaniyatdan bebahra edilar. Buning nomi ma'muriy-buyruqbozlik usulidir. Bunday tuzumda ilm-fan siyosat dasturiga aylanib qoladi. Ikkinchidan bozor iqtisodi mexanizmi ishlamaydi, ma'muriy-buyruqbozlik sulii ustunlik qiladi.

## **Yuqoridagilardan kelib chiqib, hozirgi zamon siyosiy tuzumlarini 4 asosiy guruhga bo'lamiz:**

1. Demokratik siyosiy tuzum (xalqchillik)
2. Totalitar (markazlashgan) tuzum.
3. Avtoritar (tanho kishi hukmronligi)
4. Liberal (og'uvchi, shaxs manfaatini ko'zlovchi) tuzum.

**1. Demokratik tuzum:** birinchi navbatda xalqning, ko'pchilikning manfaatini himoya qiladi. Belgilari:

- 1) qonunchiligi: demokratik qonunlarning rivojlangan tizimi.
- 2) Davlat boshlig'i vakolatlari: qonun bilan cheklangan.
- 3) Hokimiyatning vakillik organlari: vakolatlarning keng doirasiga ega.
- 4) Hokimiyatning bo'linish tamoyiliga amal qiladi.
- 5) Mahalliy hokimiyat organlarining vakolatlari: yuqori darajada.
- 6) Partiyalar: ko'ppartiyaviylik.
- 7) Mafkurasi: siyosiy fikrlar xilma-xilligi.
- 8) Huquq va erkinliklari: qonun bilan taqiqlanmagan hamma narsaga ruhsat beriladi.
- 9) Jazolash organlari: qonun bilan qattiq chegaralangan.
- 10) Oppozitsiyasi: qonuniy suratda faoliyat olib boradi.

**2. Totalitar siyosiy tuzum:** u yoki bu maqsadlar uchun jamiyatning butun hayotini va alohida olingan har bir kishining hayotini nazorat qilishga intiluvchi siyosiy tizim. **Belgilari:**

1. qonunchiligi: qonunchilik tizimi kam ishlangan.
2. Davlat boshlig'i vakolatlari: amalda cheklanmagan.
3. Hokimiyatning vakillik organlari: qo'g'irchoq hukumat
4. Hokimiyatning bo'linish prinsipi: rasmiy e'tirof etiladi.
5. Mahalliy hokimiyat organlari vakolatlari: rasmiy keng doirada.
6. Partiyalari: yakka ommaviy-siyosiy partiya.
7. Mafkurasi: yakka rasmiy mafkura.
8. Huquq va erkinliklari: siyosatga daxldor bo'lmagan narsalarga ruhsat beriladi.
9. Jazolash organlari: siyosiy jinoyatchilarni qidiruvni maxfiy amalga oshiradi.
10. Oppozitsiyasi: rad qilinadi.

**3. Avtoritar siyosiy tuzum belgilari:**

1. qonunchilik: qonunchiligi minimal darajada.
2. Davlat boshlig'i vakolatlari: Amalda cheklanmagan.
3. Hokimiyatning vakollik organlari: vakolatlari yo'qligi o'ki qo'g'irchoq xukumat.
4. Hokimiyatning bo'linish prinsipi: rad qilinadi.
5. Mahaliy hokimiyat organlarining vakolatlari: past darajada.
6. Partiyalari: yetakchi partiya davlat xizmatida bo'ladi.
7. Mafkurasi: yakka mafkura hukumronligi.
8. Huquq va erkinliklari: hokimiyat ko'rsatilgan narsalargagina ruhsat beriladi.
9. Jazolash organlari: ommaviy-siyosiy repressiyalar asosida.
10. Oppozitsiyasi: taqiqlangan.

**4.Liberal siyosiy tuzum:** u har bir shaxsning manfaatini va ozodligini ko'zlaydi. AQShda ko'proq liberal demokratiya yuzaga kelganligini qayd etish lozim.

Belgilari:

- 1)qonunchilik ustunroq.
- 2) davlat boshlig'i vakolati: amalda cheklanmagan,
- 3) hokimiyat vakillik organi: qo'g'irchoq hukumat,
- 4) hokimiyat bo'linish prinsipi: rasmiy e'tirof etiladi.
- 5) mahalliy hokimiyat organ vakolati: past darajada.
- 6) partiyalari: yetakchisi davlat xizmatida.
- 7) mafkurasi: fikrlar xilma-xilligi past darajada.
- 8) huquq va erkinliklari: cheklangan.
- 9) jazolash organlari: past.
- 10) oppozitsiyasi: qisman ruxsat beriladi.

**6. Siyosiy tizimni tahlil qilishda uning siyosiy demokratiya bilan munosabatini o'rganish muhimdir.** Siyosiy tizim va siyosiy demokratiya yoki ijtimoiy hayotni demokratiyalash shunday siyosiy tushunchaki, unda kishilarning jamiyatda erkinlik, tenglik tamoyillari hukmronligi sharoitida yashashlari aniq ifodalanadi. Demokratiya sotsial adolatsizlikning har qanday ko'rinishlariga qarama-qarshi bo'lib, u orqali inson huquqlari, ularning manfaatlari jamiyat tomonidan ximoya qilinadi.

Siyosiy tizim va siyosiy demokratik jamiyat siyosiy hayotida o'zaro bog'liq bo'lgan siyosiy xodisalardir. Ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi.

## **Siyosiy tizim demokratiyaga qanchalik ta'sir etsa, demokratiya ham siyosiy tizimning rivojlanishiga shunchalik kuchli ta'sir etadi.**

Demokratiyaning siyosiy tizim bilan bog'liqligi, avval siyosiy tizim sub'ektlarining jamiyat xayotiga qiladigan ta'siri, uning halq ommasi manfaatlariga xizmat qilishi bilan belgilanadi. Siyosiy tizimning demokratiyalash jarayonidagi o'rni davlat hokimiyati tomonidan keng halq ommasi manfaatlarining himoya qilinishi va ular uchun siyosiy, huquqiy, iqtisodiy hamda ma'naviy erkinliklarning qonun yo'li bilan mustaxkamlab qo'yilishi misolida yaqqol namoyon bo'ladi. Ammo davlat hamma vaqt ham demokratiyani to'la amalga oshira olmaydi ham. **Davlat qachonki xalq ommasi manfaatlarini himoya qiluvchi kuch sifatida harakat qilgandagina, u jamiyat hayotini demokratiyalashning asosiy quroli bo'lib xizmat qiladi.**

Demokratiya kuchi qonunchilik sharoiti bilan uzviy bog'liq. Demokratiyalash jarayoni O'zbekistonda ham davom etmoqda. Mamlakatimiz birinchi Prezidenti Islom Karimov 1996 yil 29 avgustda Oliy Majlisning 6-sessiyasidagi "Hozirgi bosqichda demokratik isloxlarni chuqurlashtirishning muhim vazifalari" nomli nutqida masalaga etibor qaratdi: "demokratiyaning eng muhim tamoyili-odamlarning saylov xuquqini, o'z hohish-irodasini erkin ifodalash, o'z manfaatlarini ro'yobga chiqarish va himoya qilish xuquqini ta'minlash uchun xaqiqiy shart-sharoit, qonuniy-xuquqiy zamin yaratib berish lozim"<sup>1</sup>. **Jamiyat xayotida demokratiyalash jarayoni qanchalik chuqurlashib borsa, bu hol shubhasiz, jamiyat siyosiy tizimining mustahkam bo'lishi va uning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.**

Demokratiyalash jarayoni murakkab siyosiy xodisa bo'lib, u asosan vakolatli va bevosita demokratiya orqali amalga oshiriladi.

**1.Vakillik demokratiyasi** - demokratiyaning bir shakli bo'lib davlatni boshqarishda, davlat va jamoat ishlarida fuqarolarning vakillari orqali ishtirok etishidir. Vakillik demokratiyasining yorqin ifodasi xalq deputatlari bo'lib, ular saylovchilarning vakilidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ham xalq vakilidir. Vakillik demokratiyasi amal qilishi natijasida fuqarolarning aksariyat ko'pchiligi davlat va jamiyatni boshqarishda, ularning faoliyatida keng ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

---

<sup>1</sup> Каримов И А. Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан кураимиз. Т 7. Т.: Ўзбекистон, 1999. 380 - б.

**2.Bevosita demokratiya** - demokratiyaning bir shakli bo'lib, u har bir fuqarolarning davlatni boshqarishda, davlat ishlarida bevosita- shaxsan ishtirok etishidir. Bevosita demokratiyaning ko'rinishlariga saylovda ovoz berish, saylov komissiyalari tarkibida ishtirok etish, qonun loyixalari va boshqa tadbirlarning muxokamasi, referendum (umumxalq ovozi), fuqarolar yig'ini ishlarida hamda davlat organlariga takliflar kiritishda ishtirok etish va boshqalar kiradi.

Qadimda Yunonistonda demokratiya va oligarxiya o'rtasida kurash tarixi bo'lib kelganligini ham unutmaslik kerak. Yangi davrda uning mazmuni erkinlik, fuqarolik, xalq suvereniteti, milliy suverenitet, milliy davlat g'oyalari rivojlandi.

Xozirgi vaqtda demokratiya - xalqni xokimiyat manbai, deb e'tirof etuvchi, fuqarolar tengligi, ozchilik xuquqlarining himoyalovchi, davlatning asosiy organlari - saylovlar natijasida shakllanuvchi siyosiy xokimiyat tizimi, sifatida tushuniladi.

**7. Demokratiyaning zamonaviy modellari va konsepsiyalari.** Ilmiy adabiyotlarda demokratiyaning 3 asosiy zamonaviy modeli ko'rsatiladi, bular: liberal, identitar, plyuralistik.

**1. Klassik liberal demokratiya modeli:** ikki muhim sohani: davlat va fuqarolik jamiyatini bir-biridan ajratadi (XIX-XX asr boshlarida).

Belgilari: 1) xokimiyat manbai bo'lgan xalq qatoriga mulkdor erkaklarga (quyi tabaqa, ayollarsiz) kiritilgan.

2) Individuallik, shaxsni xokimiyatning birlamchi va bosh manbai, deb bilishi ko'zga tashlanadi.

**2.Identitar demokratiya modeli** kollektivchilik demokratiyasi ham deyiladi.

Belgilari: xalq, millat, sinf yaxlitligidan kelib chiqadi. Umumilliy belgilari:

- 1) xalqni kollektivistik talqin etish,
- 2) xalq ichida qarama-qarshlik kuchlarning yo'qligi,
- 3)erkinlikni kollektivistik, davlat va jamiyat ichida faolligi,
- 4) totalitar tabiatiga ega,
- 5) davrning tarkibi qismlari tengligi,
- 6) umumiy siyosiy safarbarlik,
- 7) siyosiy huquqlarni yuridik jihatdan e'tirof etish va h.k.



**3.Plyuralistik demokratiya modeli** g'arb demokratiyasi liberal siyosiy tizimidan o'sib chiqqan. Ularga konstitutsionalizm, hokimiyatlar bo'linishi va hokazolar kiradi. Buni zamonaviy demokratiya modeli ham deyishadi.

Zamonaviy demokratiya - xilma-xil ijtimoiy guruhlariga o'z manfaatlarini bayon etish raqobatli kurashda ularning muvozanatini aks ettiruvchi, murosa-madoraga asoslangan boshqaruv shaklidir.

**Boshqa demokratik konsepsiyalar ham mavjud. Ular:**

Reprezentativ demokratiya – halq oldida mas'ul, malakali vakolatli boshqaruv g'oyasiga asoslangan.

Partitsipatorlik demokratiyasi – boshqaruvda intellektual potensial

Demokratiya va sharq. Sharq demokratiyasining o'ziga xosligi. Jamoaga e'tibor.

Marksistik konsensiya

Plebissitar konsepsiya (umumxalq fikri, referendum yo'li bilan)

Elitar demokratik konsepsiyasi.

**8.O'zbekiston demokratiyaning qaysi yo'nalishlaridan bormoqda?**

**Birinchiidan, sharqona demokratik yo'ldan.** Demokratik jamiyatni barpo etishning xalqaro tamoyillari, dunyo hamjamiyati e'tirof etgan qoidalari bor. Belgilari:

- 1) fuqaroning o'x hoxish-irodasini erkin ifodalash huquqiga egaligi,
- 2) ozchilikning ko'pchilikka bo'yosunishi,
- 3) barcha fuqarolarning millati, elati, ijtimoiy kelib chiqishi va diniy e'tiqodidan qat'iy nazar, teng huquqligi,
- 4) davlat va jamiyat boshqaruvida qonun ustivorligi,
- 5) saylov va saylanish huquqi va boshqalardir,

Bular qariyb barcha mamlakatlar Konstitutsiyalarida belgilab qo'yilgan tartib-qoidalardir. Biroq demokratiyani joriy etishda bularning o'zi kifoya qilmaydi. Faqat shuning o'zi aholi barcha ehtiyojlarini, ma'naviy-ruhiyolamini qamrab ololmaydi. Chunki har bir xalqning o'z turmush va tafakkur tarzi, tarixiy an'analari, xayotga munosabati va boshqa jihatlari bor. Demak, demokratiyaga yondashish usuli bor. Prezidentimiz: «Sharqda demokratik jarayonlarning qadimdan shakllangan o'ziga xos va o'ziga mos xususiyatlari bor. Buni aslo nazardan qochirib bo'lmaydi. Ya'ni, Sharqda demokratik jarayonlar uzviy ravishda va asta-sekin (musulmonchilik asta-

sekin, kofirlik bir pasta) taraqqiy topadi. Bu sohada inqilobiy o'zgarishlar yasashga urinishlar g'oyat nohush, xatto fojiali natijalarga olib keladi. Inqilobni g'arb olimlari ham "ijtimoiy taraqqiyotning ibtidoiy va yovoyi shakli", deb atagan. Tabiiyki, bunday yo'l bizga aslo to'g'ri kelmaydi», deganida demokratiyani joriy etishning yurtimizda o'zbekona tamoyillari shakllanayotganini ta'kidlagan edi.

**Ikkinchidan**, demokratik jarayonlarni chetdan nusxa olib ko'r-ko'rona ko'chirish emas, balki tabiiy, tadrijiy o'sishini ta'minlash. Bu degani O'zbekiston mustaqillikka chiqqanidan keyin bir qator mamlakatlar, jumladan, Turkiya, Germaniya, Angliya, Fransiya va boshqa mamlakatlarning demokratik taraqqiyot yo'llari bilan tanishdi, ularda biz uchun ibratli va o'rganishga arziydigan jihatlari ko'p. Biroq O'zbekiston birinchi Prezidenti Islom Karimov bu masalaga o'z munosabatini bildirdi. "Har bir millat o'z milliy ruhiyatidan kelib chiqib bu masalaga yondashishi zarur... Odamlarning tafakkuri va ijtimoiy saviyasi bilan demokratik o'zgarishlar darajasi va sur'atlari bir-biriga qanchalik mutanosib bo'lishiga bog'liq. Tarixiy tajribaning ko'rsatishicha, demokratik jarayonlarni chetdan nusxa olib ko'r-ko'rona nusxa ko'chirish aslo samara bermaydi. Aksincha, bunday yo'l chalkash va xatarli oqibatlarga olib kelishi mumkin", degan edi Yurtboshimiz.

**Uchinchidan**, mamlakat tub aholisining (jamoatchilik) ruhiyatini, mentalitetini, an'analarini hisobga olish lozim bo'ladi. Istiqloлга munosabatni boshqalardan andoza olish, mamlakat tub aholisi ruxiyatini hisobga olmaslik rahbarni ham, aholini ham, butun mamlakatni ham boshi berk ko'chaga kiritib qo'yadi. **G'arb demokratiyasini xalqning siyosiy ongi va siyosiy madaniyatini tayyorlamasdan turib, Sharq mamlakatlarida ko'r-ko'rona joriy etish mumkin emas** (jonli misol: Xitoy siyosati. Bu davlat iqtisodiy jihatdan g'arbdan ham o'zib ketdi). Bu borada shoshma-shosharliknin achchiq natijalarini 1991-1996 yillarda Tojikiston, 2000, 2005, 2010 yillarda Qirg'iziston, 2021 yil yanvarda Qozog'iston, 2022 yil fevralda Rossiya-Ukraina urushi misol bo'la oladi.

**To'rtinchidan**, jamiyatning ma'naviy qiyofasiga bog'liq, umumiy madaniy saviyasi, siyosiy va ijtimoiy faolligi, bebaho mulk bo'lgan oliy qadriyatlariga bog'liq.<sup>1</sup> Odatda yakka-yakka shaxslarning ruxiy

---

<sup>1</sup> Jo'raev N. Tarix falsafasi. T.: Ma'naviyat, 1999, 133-174 bet.

kechinmalari, xatti-xarakterlari va fe'l-atvorlaridan umumjamiyat kayfiyati, uning ma'naviy qiyofasi shakllanadi. Umumxalq manfaatlarini hisobga olish, unga tayansagina qadriyatga aylanadi. qadriyatlar esa - bebaho mulk, ularni xalq yaratadi, xalq baholaydi, o'zi asrab avvaylaydi.

### **Topshiriqlar:**

- 1.Siyosiy tizim tushunchasi ta'riflarini keltiring.
- 2.Siyosiy tizim tipologiyasini sharhlang.
3. Jamiyat siyosiy tizimida siyosiy hokimiyat va siyosiy tashkilotlarning o'rni haqida gapiring.
- 4.Siyosiy tizimning boshqa tizimlardan farqi nimada?
- 5.Siyosiy tizim asosiy vazifalari nimadan iborat?
- 6.Siyosiy tizimni tahlil qilishda uning siyosiy demokratiya bilan munosabati qanday rol o'ynaydi?
- 7.O'zbekistonda demokratiyaning qaysi yo'lidan borilmoqda?

## **5-MAVZU. SIYOSIY TIZIM MODELLARI**

### **Reja:**

- 1.Siyosiy tizimning tizimli, tuzilmaviy-funksional, kibernetik, madaniy modellari.
- 2.Siyosiy tizimlarning D.Iston va G.Almondga ko'ra modellari modellari
- 3.K.Doych siyosiy tizimning kibernetik modeli.

***Tushuncha va tayanch iboralar:** siyosiy tizimning tizimli modeli, tuzilmaviy-funksional model, kibernetik model, madaniy model, impuls, kirish impulslari, chiquvchi impulslar, qaytma aloqa.*

Siyosiy hokimiyatning xarakterli tuzilishini to'liq ochib berish uchun siyosiy tizim nimaligini ko'rib chiqish lozim. **Siyosiy tizim** - nodavlat va davlat jamoat institutlarining ajralmas majmui, normalar, shuningdek, jamiyatda boshqaruv amalga oshiriladigan siyosiy aktorlar o'rtasidagi munosabatlardir.

**Siyosiy tizimlar modellari.** Siyosiy tizimlar faoliyatining mumkin bo'lgan nazariy modellari: tizimli; tizimli va funksional; axborot va

kibernetik. Taqdim etilgan modellarning har birini alohida-alohida tavsiflaymiz.

**1. Tizim modeli muallifi D Iston.** U o'z funksiyalari, ya'ni jamiyatda qadriyatlarining avtoritar taqsimlanishi bilan tavsiflanadi. Tizimning ishlash jarayoni tashqi muhit bilan munosabatlar orqali aniqlanadi. Tizim modeli "kiruvchi" va "chiquvchi" impulslar muvozanatiga rioya qilingan holda barqarorlikni saqlab qolishga imkon beradi, shu tariqa tizimning olingan axborotga bo'lgan javobini xarakterlaydi. "Kiruvchi" impulslari ikki guruhga ajratish mumkin: Davlat talablar, ish haqi darajasini oshirish uchun so'rovlarini o'z ichiga olishi mumkin bo'lgan, ijtimoiy dasturlarni kengaytirish, fuqarolarning huquq va erkinliklari; qo'llab-quvvatlash, o'z navbatida, shuningdek bo'linadi qaysi: ashyo, soliqlar to'lash ifodalangan, harbiy xizmat; qonunlarga rioya, organlari uchun hurmat namoyon, davlatimiz ramzlar, siyosiy hayotida faol hayot joy va ishtirok Axborotni qayta ishlash natijasida siyosiy tizim qaror, qonun yoki farmon qabul qilish va uni amalga oshirish, "chiquvchi" impulsni amalga oshirish bo'lib qoladi. "Kiruvchi" va "chiquvchi" impulslar birgalikda "teskari aloqa" deb ataluvchi bitta siklni tashkil qiladi.

**2. Axborot va kibernetik model muallifi K. Doych.** U kibernetika sohasida ishlab chiqilgan qoidalar va terminlarni qo'llashda siyosiy tizimni axborot oqimlari orqali tavsiflab beradi. Tizimning ishlash jarayoni belgilangan natijalarga erishish uchun odamlarning sa'y-harakatlarini muvofiqlashtirishdan iborat va bir qator bosqichlarni o'z ichiga oladi: axborot olish jarayoni sodir bo'ladi, natijada axborot ma'lumotlar bloki hosil bo'ladi. Olingan ma'lumotlar tanlov va baholashdan o'tadi. Amalga oshirilgan harakatlar natijalari asosida ma'lum bir qaror qabul qilinadi. Barcha kerakli harakatlarni tugatgandan so'ng, belgilangan maqsadlarni amalga oshirish uchun vaqt keladi. Qaror qabul qilish jarayoni, qarorlarni tanlash va tanlash avvalgi harakatlar natijalari asosida, maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan masofani hisobga olgan holda jamiyatdagi vaziyat va vaziyat haqidagi axborot ma'lumotlariga asoslangan holda amalga oshiriladi.

**Siyosatshunoslikda tizimli yondashuvning asoschisi D. Iston (1917yili tug'ilgan)** "Siyosiy tizim" (1953), "Siyosiy hayotning tizim tahlili" (1965), "Siyosiy tuzilish tahlili" (1990) va boshqa asarlarida siyosiy tizim

nazariyasini ishlab chiqadi. Uning uchun siyosat nisbatan mustaqil soha, ammo o'zaro bog'liq elementlardan iborat. Bir tomondan, siyosat kengroq butun jamiyatning bir qismidir. Ushbu imkoniyatda u birinchi navbatda tizimga kiradigan tashqi impulslarga javob berishi va jamiyat a'zolari o'rtasidagi ziddiyatlar va keskinlikning oldini olishi kerak. Boshqa tomondan, u moddiy va ma'naviy resurslarni taqsimlashda qatnashadi va shaxslar va guruhlar o'rtasida qadriyatlar va imtiyozlarning ushbu taqsimotini qabul qilishni rag'batlantiradi. Siyosiy tizimning o'zini isloh qilish va atrof-muhitni o'zgartirish qobiliyati va imkoniyati muhimdir. Siyosiy tizim-bu tashqi muhit bilan bog'liqligi tufayli o'zini rivojlantiradigan va o'zini o'zi boshqaradigan organizm. Tizimlarning umumiy nazariyasi elementlaridan foydalangan holda D. Iston siyosiy tizim va uning tashqi va ichki muhiti o'rtasidagi "to'g'ridan-to'g'ri" va "teskari" aloqalarni o'rganishga asoslangan yaxlit nazariyani yaratishga harakat qiladi va siyosiy tizimni jamiyatdan kelib chiqadigan ijtimoiy impulslarni (talablar yoki qo'llab-quvvatlash) siyosiy qarorlar va harakatlarga aylantirish mexanizmi sifatida taqdim yetadi. G. Almond siyosiy tizimni "qarorlarni qayta ishlash mashinasi" deb ataydi. Ularning nazariy modelini qurish uchun to'rtta asosiy kategoriya ishtirok yetadi: "siyosiy tizim", "atrof-muhit", tizimning atrof-muhit ta'siriga "reaksiyasi", "teskari aloqa" yoki tizimning atrof-muhitga ta'siri [1] (rasm. 1).

Talablar	Ijtimoiy hayot	Qarorlar
Qo'llab-quvvatlash	<b>Siyosiy tizim</b>	Harakatlar
Kirish		
Chiqish		Konversiya
	Qayta aloqa	

*Rasm. 6.1. D. Istonning siyosiy tizim modeli*

**D. Iston doimiy o'zgaruvchan muhitda siyosiy tizim barqarorligini saqlash, o'z-o'zini saqlash masalasini birinchi o'ringa qo'ydi.** Siyosiy tizimning atrof-muhit bilan almashinuvi va o'zaro ta'siri "kirish" - "chiqish" tamoyili asosida amalga oshiriladi. U kirishning ikki turini ajratib ko'rsatdi: talab va qo'llab-quvvatlash. Talablar moddiy tovarlar va

xizmatlarni (ish haqi, sog'liqni saqlash, ta'lim va boshqalarni) taqsimlash bilan bog'liq bo'lishi mumkin.); siyosiy jarayonda aktorlarning xatti-harakatlarini tartibga solish (xavfsizlik, proteksionizm va boshqalar.); axborot bilan aloqa qilish (axborotga erkin teng kirish, siyosiy kuchni namoyish etish va boshqalar.). Ammo bu siyosiy tizim unga qo'yilgan barcha talablarga javob berishi kerak degani yemas, ayniqsa bu imkonsiz va amaliy. Siyosiy tizim qaror qabul qilishda juda mustaqil harakat qilishi mumkin. Iston tizimni muhit bilan bog'laydigan o'zgaruvchilarning asosiy yig'indisini ko'rib chiqadi. Qo'llab-quvvatlash moddiy (soliqlar, xayr-yehsonlar va boshqalar) bilan ifodalanadi.) va nomoddiy (qonunlarga rioya qilish, ovoz berishda ishtirok etish, hokimiyatni hurmat qilish, harbiy burchni bajarish va boshqalar.) shakllari.

**G.Almond qo'llab-quvvatlashning uchta ob'ektini belgilaydi:**

**siyosiy jamiyat** (siyosatdagi faoliyatning bo'linishi tufayli bir tuzilishda bir-biriga bog'langan odamlar guruhi);

**siyosiy rejim** (uning asosiy tarkibiy qismlari u qadriyatlar, normalar va hokimiyat tuzilmalarini ko'rib chiqadi);

**kengash** (bu yerda u siyosiy tizim ishlarida ishtirok yetadigan va fuqarolarning aksariyati tomonidan ularning faoliyati uchun javobgar deb tan olingan odamlarni nazarda tutadi).

Tizimning tashqi muhitdan kuchli impulslardan kelib chiqadigan ma'lumotlar bilan to'yinganligi sababli noto'g'ri qarorlar ham qabul qilinadi. Shunday qilib, D.Iston modeliga ko'ra, **siyosiy tizim – bu doimiy ravishda o'zgarib turadigan, ishlaydigan, dinamik tizim bo'lib, kirishdan chiqishga yo'naltirilgan va teskari aloqani barqarorlashtirish orqali yopiladigan jarayon.**

Siyosiy tizim tahlilining boshqa versiyasi G.Almond tomonidan "Rivojlanayotgan mintaqalar siyosati" (1966), "Qiyosiy siyosat: rivojlanish konsepsiyasi" (1968), "Bugungi kunda qiyosiy siyosat" (1988) asarlarida taklif qilingan. Siyosiy tizimni saqlab qolish va tartibga solish yo'llarini o'rganishda u Doychning qarashlarini to'ldiradi va rivojlantirmaydi. Uning konsepsiyasidagi asosiy tushuncha rol tushunchasi (tashkilot, institut, guruh o'rniga). Muallif hokimiyat munosabatlarining butun majmuasini rivojlantirish uchun hal qiluvchi deb hisoblagan jamiyatning siyosiy madaniyatini rivojlantiradigan rasmiy va norasmiy o'zaro ta'sirlarning

mazmunini belgilaydigan rol. G.Almond nuqtai nazaridan siyosiy tizim-bu davlat va nodavlat tuzilmalarning siyosiy xulq-atvori turli shakllarining o'zaro ta'siri tizimi bo'lib, ularni tahlil qilishda axborot-kommunikatsiya va tartibga solish (axloqiy, huquqiy va siyosiy normalar to'plami) ajratiladi. G. Almond modeli siyosiy o'zaro ta'sirlarning psixologik, shaxsiy jihatlarini nafaqat tashqaridan, odamlardan, balki hukmron elitadan ham keladigan impulslarni hisobga oladi. Uning fikricha, siyosiy tizimni o'rganishda har bir tizimning o'z tuzilishiga ega ekanligini hisobga olish kerak, lekin barcha tizimlar bir xil funksiyalarni bajaradi.

G.Almond siyosiy tizim modelida funksiyalarning uchta darajasini belgilaydi, ularni alohida tarkibiy elementlar (institutlar, guruhlar, shaxslar) faoliyati bilan bog'laydi.

**Birinchi daraja - "jarayon darajasi "yoki" kirish darajasi" - atrof-muhitning siyosiy tizimga ta'siri bilan bog'liq.** Bu funksiyalarni amalga oshirishda o'zini namoyon qilishi mumkin (**rasm 2**) siyosiy tizim institutlari orqali amalga oshiriladi. Ushbu funksiyalar yordamida fuqarolarning talablari muhimlik va yo'nalish darajasiga qarab shakllanadi va taqsimlanadi. Agregatsiya mexanizmining samarali ishlashi siyosiy tizimga qo'yiladigan talablar darajasini pasaytirishga va qo'llab-quvvatlashni kuchaytirishga yordam beradi.

**Ikkinchi darajaga tizimning funksiyalari kiradi,** uni amalga oshirish jarayonida jamiyatning siyosiy tizimga moslashish jarayoni sodir bo'ladi va siyosiy tizimning barqarorligi darajasi aniqlanadi. Siyosiy aloqa funksiyasi ma'lum bir o'rinni yegallaydi, chunki u siyosiy tizim elementlari o'rtasida ham, siyosiy tizim va atrof-muhit o'rtasida ham ma'lumot tarqatish va uzatishni ta'minlaydi.

Axborotni chiqarish yoki konvertatsiya qilish funksiyalari qoidalarni belgilash (Qonunchilik faoliyati), qoidalarni qo'llash (hukumatning ijro etuvchi faoliyati), qoidalarni rasmiylashtirish (ularni huquqiy rasmiylashtirish), axborotni to'g'ridan-to'g'ri chiqarish (hukumatning ichki va tashqi siyosatni amalga oshirish bo'yicha amaliy faoliyati). Bundan tashqari, fikr-mulohazalar orqali siyosiy tizimning barqarorligini tekshirish mumkin, chunki boshqaruv faoliyati natijalari, davlat resurslarini tartibga solish ijtimoiy muhitni qandaydir tarzda o'zgartirishi kerak, bu oxir-oqibat

uning barqarorligi va samaradorligini kuchaytirishi yoki susaytirishi mumkin.

G.Almond modelida siyosiy tizim manfaatlarning ko'pligini hisobga olgan holda siyosiy pozitsiyalar va muayyan siyosiy vaziyatlarga javob berish usullari to'plami sifatida namoyon bo'ladi. Eng muhimi, tizimning mashhur e'tiqodlarni, qarashlarni va hatto afsonalarni rivojlantirish, ramzlar va shiorlarni yaratish, funksiyalarni samarali amalga oshirish uchun zarur qonuniylikni saqlash va mustahkamlash uchun ularni boshqarish qobiliyatidir. Siyosiy tizimning muhim xususiyati uning ko'p funktsionalligi va madaniy ma'noda aralashishidir.

**Siyosiy tizim quyidagi turlarga bo'linadi: ekstraksiya, tartibga soluvchi, tarqatuvchi, integral va ramziy.** Siyosiy tizimning birinchi turi jamiyatdan tabiiy va insoniy, intellektual va jismoniy resurslarni olish qobiliyati, ya'ni: odamlarni siyosatga saylovchilar, davlat xizmatchilari va faollar sifatida jalb qilish; soliq solish; xayr-ehsonlar va siyosiy tizim institutlari budjetini to'ldirishning boshqa mexanizmlari.

**Tartibga solish qobiliyati** - bu shaxslar va guruhlarning xatti-harakatlarini boshqarish, tartibga solish, muvofiqlashtirish, samarali siyosiy boshqaruvni va fuqarolik jamiyati bilan o'zaro munosabatlarni ta'minlash qobiliyatidir. Qonunlar, farmoyishlar, farmoyishlar, kreditlar va soliqqa tortish bo'yicha foiz stavkalarini belgilash, jamoatchilik fikrini qayta ishlash va boshqalar orqali amalga oshiriladi. Chiqarish imkoniyati qanchalik samarali va keng amalga oshirilsa, siyosiy tizimning fuqarolik jamiyatiga bog'liqligi shunchalik kuchli bo'ladi, ammo uning tartibga solish imkoniyatlari doirasi shunchalik keng bo'ladi.

**Tarqatish imkoniyati** - bu milliy boylikni qayta taqsimlaydigan ijtimoiy davlatning paydo bo'lishi, tovar va resurslarni taqsimlash ustidan keng jamoatchilik nazoratini yaratish imkoniyati.

**Integral qobiliyat** - bu siyosiy tizimning tashqi sharoit va ichki holatdagi o'zgarishlarga yetarlicha javob berish, ularga tez moslashish qobiliyati, bu tizimni barqaror va o'z-o'zini rivojlantirishga qodir.

**Ramziy imkoniyat** - bu aholiga mashhur shiorlar bilan murojaat qilish, ramzlar va kerakli fikrlash stereotiplarini yaratish qobiliyatidir. Jamiyatning konsolidatsiya darajasi bunga va shu sababli siyosiy tizimning boshqa barcha funksiyalarini bajarishga bog'liq. Shunday qilib, siyosiy rollar



Turli mamlakatlar va mintaqalarda demokratiyaga o'tish tajribasini umumlashtirish asosida siyosatshunoslar bunday o'tishning qonuniyatlari haqida quyidagi xulosalarga kelishdi: bozor iqtisodiyoti bilan siyosiy demokratiya o'rtasida uzviy va uzviy bog'liqlik mavjud; demokratiyaga o'tish texnologik, ijtimoiy-madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ma'lum darajasini talab qiladi; demokratlashtirishning ijtimoiy asosini jamiyatda yetakchi o'rinni egallagan o'rta sinf tashkil etadi; fuqarolik jamiyatini shakllantirmasdan turib demokratiyani shakllantirish mumkin emas.

1970-yillarning o'rtalaridan boshlab. aksildemokratik rejimlar yemirilishining global jarayoni jadal rivojlana boshladi va yer sharining deyarli barcha qit'a va mintaqalarini qamrab oldi. S.Xantington bu jarayonni demokratlashtirishning uchinchi to'liqini deb atadi.

**Demokratlashtirishning birinchi to'liqini**, uning fikricha, 1820 yildan 1926 yilgacha bo'lgan 100 yildan ortiq vaqtni qamrab oldi va Yevropa va Amerika qit'alarining ko'plab mamlakatlariga ta'sir ko'rsatdi. 1926 yildan boshlab, Italiyada Mussolinining fashistik diktaturasi yakuniy tasdiqlangan yildan boshlab, demokratiyalar sonining qisqarishi va totalitar va avtoritar siyosiy rejimlar sonining ko'payishi bilan tavsiflangan qaytish yoki teskari to'liqin boshlanadi. 1942 yildan boshlab, ya'ni.

**Ikkinchi jahon urushining burilish nuqtasidan boshlab, demokratlashtirishning ikkinchi to'liqini boshlandi**, bu, Xantingtonning fikriga ko'ra, 1962 yilgacha davom etdi. Keyin yana orqaga qaytish boshlanadi, Lotin Amerikasi, Osiyo, Afrika va hattoki harbiy to'ntarishlarning uzoq zanjiri bilan belgilanadi. Yevropa (Gresiya, 1967) mamlakatlari. Demokratiklashtirishning uchinchi to'liqini demokratik o'zgarishlar bilan boshlanadi, dastlab Janubiy Yevropa (Ispaniya, Portugaliya, Gresiya), so'ngra Lotin Amerikasi va Sharqiy Osiyo mamlakatlarida.

**Demokratiklashtirishning uchinchi to'liqini 1980-1990-yillar oxirida inqiroz bilan yakunlandi.** Sovet Ittifoqi va Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlaridagi kommunistik tuzumlar. Shu paytdan boshlab postkommunistik rivojlanish jarayonlari tranzitologiyaning nisbatan mustaqil ilmiy fanida shakllangan asosiy tadqiqot ob'ektiga aylandi.

Dastlab, sobiq sotsialistik mamlakatlarda demokratik rejimlarni shakllantirish muammolari siyosiy modernizatsiya nazariyasi uchun an'anaviy yondashuvlar va tranzitologik tushunchalar asosida o'rganildi. Postkommunistik mamlakatlarda yangi iqtisodiy va siyosiy institutlarni barpo etish istiqbollari Germaniya, Italiya, Janubiy Yevropa va Lotin Amerikasi davlatlarining posttotalitar va post-avtoritar rivojlanish tajribasidan kelib chiqqan holda baholandi.

Vaqt o'tishi bilan postkommunistik o'tishlarni o'rganuvchi G'arb siyosatshunoslarining qarashlari ikkiga bo'linib ketdi. Ba'zilar, masalan, A. Leyphart va F. Shmitter kabi taniqli olimlar bugungi kunda Sharqiy Yevropa mamlakatlarida va postsovet hududida sodir bo'layotgan jarayonlar o'zining barcha o'ziga xosligi bilan hali ham analog deb hisoblaydilar. demokratlashtirishning uchinchi to'liqini ta'sir qilgan boshqa mintaqalarda sodir bo'lgan jarayonlar va voqealar. Yana bir qarash ham shakllandi.



Amerikalik siyosatshunos S.Terri fikricha, postkommunistik mamlakatlar duch kelayotgan muammolar avvallari totalitarizm va avtoritarizmdan demokratiyaga o'tgan mamlakatlardagi muammolardan kamida beshta farqga ega. Birinchi farq, postkommunistik mamlakatlarda ular bir vaqtning o'zida bozor iqtisodiyoti va plyuralistik demokratiyani yaratishga harakat qilishlari bilan bog'liq. Bozor iqtisodiyoti va barqaror demokratik tizimni bir vaqtda shakllantirishga intilish postkommunistik o'tish davrining ichki qarama-qarshiliklarini keltirib chiqaradi. Garchi uzoq tarixiy istiqbolda demokratiya va bozor bir-birini to'ldirib, mustahkamlab tursa-da, sobiq sotsialistik davlatlarni isloh qilishning hozirgi bosqichida ular bir-biriga zid keladi. U quyidagi sxema bo'yicha amalga oshiriladi: tub iqtisodiy islohotlar aholi turmush darajasining jiddiy pasayishiga olib keladi, bozorga o'tishning dastlabki bosqichidagi qiyinchiliklar siyosiy beqarorlikni keltirib chiqaradi, bu esa huquqiy va institutsional asoslarni yaratishni qiyinlashtiradi. kelgusida iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish uchun xorijiy sarmoyalarni jalb etishga to'sqinlik qiladi, iqtisodiy tanazzulning davom etishiga yordam beradi, iqtisodiy tanazzul esa, o'z navbatida, jamiyatdagi siyosiy keskinlikni kuchaytiradi. Ikkinchi farq ijtimoiy-iqtisodiy sohaga ham tegishli. Iqtisodiy va sanoat taraqqiyoti pastroq bo'lgan mamlakatlarda demokratiyaga o'tish davrida milliy iqtisodiyotning yangi tarmoqlarini yaratish vazifasi qo'yildi. Va post-kommunistik davlatlar bir vaqtning o'zida ko'plab sanoat tarmoqlarini tubdan qayta qurish va o'zgartirish bilan allaqachon mavjud bo'lgan sanoat tarmoqlarining muhim qismini butunlay yo'q qilish zarurati bilan duch keldi.

3.Uchinchi farq postkommunistik mamlakatlarning yuqori etnik xarakteri bilan bog'liq. Bu millatchilik tuyg'ularining tarqalishiga olib keladi. Millatchilik o'zining har qanday ko'rinishida, qoida tariqasida, demokratiyaga juda mos kelmaydi, chunki u ba'zi millatlarning boshqalardan ustunligini ta'kidlaydi va shu bilan jamiyatni etnik jihatdan ajratib turadi va haqiqiy fuqarolik jamiyati paydo bo'lishiga to'sqinlik qiladi.

Terri postkommunistik va avtoritar o'tish o'rtasidagi to'rtinchi farqni fuqarolik jamiyati muammosi bilan bog'laydi. Uning nuqtai nazaridan, ushbu kontsepsiyaning Sharqiy Yevropa va sobiq SSSRning bugungi voqeliklariga tatbiq etilishi odatda juda shubhali. Fuqarolik jamiyati nafaqat davlatdan mustaqil bo'lgan siyosiy va jamoat tashkilotlarining mavjudligini,

balki ularning muayyan chegaralar doirasida o'zaro ta'sir qilish qobiliyatini ham nazarda tutadi. Bunday institutsional chegaralarsiz, ijtimoiy guruhlar va liderlarning umumiy qabul qilingan o'yin qoidalariga rioya qilishga tayyorligisiz siyosiy tizimning falajlanishi mumkin. S.Terri xalqaro sharoitda postkommunistik rivojlanishdagi beshinchi farqni ko'radi. Ular urushdan keyingi yillarda Germaniya va Italiyaga yoki 1970-yillardagi janubiy Yevropa mamlakatlariga qaraganda kamroq qulaydir.

Bugungi kunda G'arb ekspertlari orasida muayyan post-kommunistik mamlakatning demokratik o'tish muvaffaqiyatini baholashga sub'ektiv, geosiyosiy yondashuv tarqala boshladi. Tashqi siyosati AQSh va boshqa G'arb davlatlarining manfaatlariga mos keladigan davlatlar ijobiy baholanadi. Aksincha, xalqaro siyosatda mustaqillik ko'rsatayotgan davlatlar avtoritar tendensiyalarni namoyon etishi uchun qoralanadi.

### **Topshiriqlar:**

1. Modernizatsiya sharoitida demokratlashtirish muammolari. Modernizatsiya bosqichlari va undagi asosiy qarama-qarshiliklar (F.Shmitter, A.Pshevorskiy).

2. Ishtirok etish, legitimlashtirish, taqsimlash, identifikatsiyalash inqirozlari. Modernizatsiya va g'arbiy bo'lmagan siyosiy jarayon. Modernizatsiyalash paradigmasining inqirozi.

3. Postsotsialistik jamiyatlardagi transformatsiya muammolari.

4. Tranzitologiya va tranzit nazariyalari.

5. Postsotsialistik jamiyatlarning transformatsiyalashuvi jarayonlarida iqtisodiyot va siyosat o'rtasidagi munosabatlar.

6. Postmodernlik va siyosiy modernizatsiya mezonlarining murakkablashuvi.

## **10-MAVZU. DAVLAT IJTIMOIIY-SIYOSIIY TIZIMLARNING SUB'EKTI SIFATIDA. SIYOSIIY REJIMLAR (TARTIBOTLAR)**

### **Reja:**

**1.Davlat - siyosiy tahlil ob'ekti sifatida**

**2.Siyosiy rejimning tarkibiy qismlari (komponentlari).**

**3.Siyosiy rejimlarning o'ziga xos xususiyatlari.**

**Tushuncha va tayanch iboralar:** Hokimiyat, "boshqaruv", "davlat hokimiyati", suverenitet, ichki suverenitet, tashqi suverenitet, markazlashgan hokimiyat, hokimiyatni nomarkazlashtirish, poliarxiya, demokratik elitizm, g'arbiy poliarxiya, yangi demokratiya, avtoritarizm.

**Davlat – siyosiy tahlil ob'ekti sifatida.** Ijtimoiy fanlarda davlat va siyosiy hokimiyat tushunchalari bir butun qaraladi, negaki davlat hokimiyati oliy siyosiy hokimiyat tarzida namoyon bo'ladi. Hokimiyatga doir kundalik tasavvurlar uni "boshqaruv", "davlat hokimiyati" doirasi bilan cheklaydi. Bu leksikada ham o'z ifodasini topgan: fransuz tilida **hokimiyat (le pouvoir)** – markaziy hokimiyatni ham anglatadi, **inglizchada (the power)** – (**kuchli, qudratli**) davlat ma'nosida ham qo'llanadi, **nemischa (che ge walt)** – **qudrat, zo'rlik** ma'nolarida ham keladi. **Ruschada "vlast"** – **boshliqni, "vlasti"** – **davlatning hokimlik** muassasalarini bildiradi. O'zbek tilida "hokimiyat" so'zining ma'nolaridan biri – davlat boshqarmasi va uning organlari; hukumat, siyosiy hukmronlikni anglatadi, "hokimiyat" tushunchasi "o'z izmiga yurgizuvchi, o'z fikrini o'tkazuvchi", hukmron ma'nolarida keladi.

2. Bu an'ana-barcha xalqlar "tarixiy taraqqiyotining muayyan davrlarida davlat - hokimiyatni o'z qo'lida to'liq mujassam etgan tashkilot bo'lganidan kelib chiqadi.

Ammo siyosiy hokimiyatning davlatdan tashqari boshqa institutlarda ham mujassam bo'lishini kuzatish mumkin: siyosiy partiyalar, assotsiatsiyalar, OAVlari v.h. Shuning uchun ham hokimiyat – ijtimoiy hodisa sifatida – ko'p qirrali, ko'p o'lchovidir. Bu – uning ta'riflarining xilma-xilligida namoyon bo'ladi. Ammo siyosat nazariyasi nuqtai nazaridan bu ta'rifning o'zi yetarli emas, Negaki, "davlat hokimiyati" tushunchasi mazmunida hokimiyatning **yakka** markazda to'planishi nazarda tutiladi va shu tariqa siyosatning amalda ko'p omilli ekanligini inkor etish, hisobga olmaslik mavjud. Bugungi kunda ham siyosiy hokimiyat eng ko'p darajada davlatda mujassamlashgan bo'lsa — da, jamiyatda siyosiy hokimiyatga kuchli ta'sir eta oladigan, yoki uni o'zida aks etuvchi boshqa institutlar ham mavjud (partiyalar, lobbi guruhlari, OAVlari, korporativ guruhlari, ijtimoiy harakatlar elitalar v.h.). Ushbu mavzu doirasida davlatning aynan siyosiy hokimiyatga doir jihatlariga e'tibor qaratamiz.

Davlatni hokimiyat namoyon bo'lishi shakli tarzida qarash – siyosat nazariyasida yakka markazli va ko'p markazli davlat modellarini ajratish imkonini beradi. Tabiiyki, ko'p markazli davlat hokimiyati modeli demokratik siyosiy tizimlarda amal qilib, uning asosiy vazifasi – turli ijtimoiy hokimiyat qo'lamiga ega siyosiy kuchlar muvozanatini ta'minlash. Siz bilasizki, demokratik tizimlarda hokimiyat "dispersiya"si – "yoyilishi" hodisasi mavjud bo'lib, bu – ko'p ta'sir markazlarining mavjudligi davlatning zaiflashuviga emas, kuchayishiga olib keladi. Shunday qilib bu o'rinda gap hokimiyatning ko'pchilik qo'lida to'planishi to'g'risida ketadi. Ammo kuchli markaziy hokimiyatsiz mamlakatda qonun ustivorligini, tinchlikni ta'minlash, butun jamiyat samarali taraqqiyot yo'lini ishlab chiqish va amalga oshirish mumkun emas. Barcha rivojlangan demokratiyalar-kuchli markazlashgan davlat modelida davlatning o'ta markazlashishiga to'sqinlik qiluvchi mexanizmlar ishlab chiqiladi va ular amalda qo'llanadi. Bu mexanizm bir necha sohalarda amal qiluvchi quyidagi kafolatlar tizimidan iborat:

**Siyosiy sohada** – siyosiy tizimini erkinlashtirish, hokimiyat bo'linishi tamoyillarini amalga oshirish, fuqarolik jamiyatini shakillantirish va hokimiyatning mahalliy organlari vakolatlarini kengaytirish. Bu kafolatlarining "ishlay boshlashi" hokimiyatning barcha darajalaridagi o'zoro munosabatlar mohiyatini tubdan o'zgartiradi.

**Iqtisodiy sohada** – jamiyat mulkning turli shakillari mavjudligi, bozor munosabatlari qaror topish-iqtisodiy mustaqilligini oshirish va siyosiy hokimiyatning bu sohadagi ta'sir imkoniyatlarini ancha cheklaydi.

**Huquqiy sohada** – hokimiyat turli darajalarning vakolatlari qonun bilan belgilanishi va qonunning jamiyatda ustuvorligi ta'minlanishi.

**Ijtimoiy sohada** – turli ijtimoiy qatlamlarga o'z manfaatlarini ifodalash uchun barcha sharoitlarning mavjudligi, fuqarolik jamiyatining mavjudligi; 1. Davlat hokimiyatining yakka markazli modeli (manarxiya, diniy, harbiy v.h.davlat) hokimiyatning bir markazda to'planishini aks ettiradi. Hatto eng ilg'or jamiyatlarda ham davlat hokimiyatining yakka markazda to'planishga intilishi tendensiyasi kuzatiladi (byurokratiya, texnokratiya, meritokratiya).

Hokimiyatning yakka markazli modeli an'anaviy davlatchilikka xos. Xususan, qadimgi Xitoyda legizm nomi bilan mashhur bo'lgan ta'limot – davlatda yagona qonunchilik amal qilishi lozimligi va shu qonun oldida

jamiyatdagi barcha tabaqalar va guruhlarning tengligi tamoyilini o'rnatish orqali markaziy hokimiyat tomonidan boshqariladigan va burch hamda ijtimoiy maqsadlarga sidqidildan xizmat qilishga qaratilgan davlatni yaratishni maqsad qilib qo'ygan. Bunday davlatda barcha qonun oldida teng: "mukofotlashning yagona qoidalari" – faqat xizmat natijalariga ko'ra belgilanishini, "jazolashning yagona qoidalari" – lavozim va avvalgi xizmatlari jazodan holi qilmasligini anglatgan.

Legistlar davlat hududlarini ma'muriy qismlarga bo'lib, ularning markaziy hokimiyatga itoat etishini talab etganlar.

Mana shu kabi g'oyalar O'rta Osiyo davlatchiligi tarixida ham keng tarqalgan. Xususan, Amir Temur imperiyasining tashkiliy tuzilishi va mazmuni–adolat, qonun ustivorligiga asoslanganligini yaxshi bilamiz. Nizomulmulkning "Siyosatnoma" asaridagi quyidagi fikr ham har sohada qonun amal qilishiga ajdodlarimiz qanchalik katta ahamiyat berganliklarini tasdiqlaydi: "Qachonki podshohlik tartibi va siyosat qoidasi bir izga solinsa, adolat ishlari ham huddi shunday bo'ladi".

Agar an'anaviy jamiyatlar uchun "davlat" va "jamiyat" asosan mos tushunchalar bo'lsa, zamonaviy jamiyatlar, albatta shartli ravishda, davlat va fuqarolik jamiyatiga bo'lib o'rganiladi. Lekin har ikkala holda ham davlatning tabiatini aniqlashda uning umumiyliigi yoki universaligi xususiyati ta'kidlanadi. Davlat – umumiy qadriyat. Insonlar bugungi kunda davlat shaklidan boshqa tarzda o'zlarining **hamkorlikdagi** hayotlarini tashkil eta olmaydilar. Odamlar nazarida davlat- nafaqat ularni birlashtirish uchun, balki alohida xalq (millat, jamoa) ma'naviyligini saqlash uchun ham zarurdir.

Davlat ega bo'lgak muhim belgi – **suverenitetdir**. Davlat suvereniteti to'g'risida so'z ketganda, jamiyatdagi barcha boshqa jamoa, gyph, tashkilotlar unga nisbatan quyi, tobe vaziyatni egallashi anglashiladi. Muayyan hududda davlat hokimiyatidan ustun hokimiyat yo'q. U barcha hokimiyatlar ustidan suverendir, boshqa barcha hokimiyatlar undan o'z legitimligini oladilar. Shuning uchun davlat suvereniteti quyidagi asosiy tamoyillarga tayanadi:

- hududining birligi va bo'linmasligi;
- hudud chegaralarining dahlsizligi;
- ichki ishlarga aralashmaslik.

Suverenitet ichki va tashqi bo'lishi mumkin.

**Ichki suverenitet** – milliy hududda yashovchi va ushbu davlatning fuqarosi bo'lgan (yoki fuqarosi bo'lmagan) barcha odamlar ustidan hukmronlik qilish huquqi va vakolati.

**Tashqi suverenitet** – mamlakat hududining yaxlitligi va tashqi kuchlarning davlat ichki ishlariga aralashmasligini ta'minlashni anglatadi.

Zamonaviy nazariyalarda davlat suvereniteti cheksizligig'oyasi o'zgarib, u ijtimoiy tashkilotlar va uyushmalar tomonidan cheklanishi tamoyili kiritildi. Eng ko'p o'zgarishlarga bu tushuncha federativ tuzilishga ega davlatlarda uchraydi.

Davlatning umumiyligi va universalligini ta'minlovchi yana bir muhim xususiyati – qonundir. Ma'lum ma'noda qonun suverenitet ifodasidir. Faqat davlatgina butun jamiyat uchun majburiy qonunlarni ishlab chiqish huquqiga ega. Hokimiyat qonunda va qonun orqali muhim o'zgarishlarga uchraydi: u o'zboshimchalik va zulmdan – hamma uchun majburiy qoidaga aylanadi.

Qonun davlatdan ustun turadi, uning faoliyatini me'yorga soladi. Ammo har doim ham shunday bo'lgan emas. Kadimgi davrlarda qonun siyosiy hokimiyatni ifodalar edi (legistlarni eslang), keyinroq qonun hech kim o'zgartira olmaydigan an'anaga aylandi. Bir qator muhim g'oyalari bilan davlatchilik taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan olim- Monteske: "inson jamiyat qabul qilgan qarorlarni bajarishi lozim" degan aqidani, "inson ham, jamiyat ham qonunlarni bajarishlari lozim" degan aqidaga o'zgartirdi. Shu tariqa birinchi bor, inson qo'liga uni jamiyat, davlat zo'ravonligidan himoya etuvchi qurol-qonun berildi.

Qonun–jamiyat hayotini tartibga soluvchi, barqarorlashturuvchi vositaga aylanadi.

Davlatning yana bir belgisi –uning ommaviy hokimiyatga, ya'ni muayyan ma'muriy-boshqaruv apparati va huquqiy-tartibot organlariga tayanishidir. **Davlat-kuch, zo'rlik ishlatishning legitim huquqiga ega yagona siyosiy tashkilot.** Buning uchun u maxsus vositalar (qurol,qamoqxona kabi) vamaxsus organlarga (armiya, politsiya, xavfsizlik xizmati, sud, prokuratura) ega.

**Davlat-fuqarolik institutiga tayanadi.** U fuqarolik hatti-harakatlarini ularning ijtimoiy,diniy,malakaviy yoki boshqa sifatlaridan

qat'iy nazar umumiy o'lchov bilan boholaydi.

Davlat fuqaro bilan ish ko'radi, ular manfaatlari, huquqiy, erkinliklarini amalga oshirishdir uchun sharoit yaratadi.

Davlat o'z tabiati va belgilaridan kelib chiqib jamiyat oldida turgan masalalarni hal qilish borasida muayyan yo'nalishlarda faoliyat ko'rsatadi. Uning bu faoliyati boshqa siyosiy institutlarining faoliyatidan ajralib turadi. Xususan, davlat ichki va tashqi funksiyalarini bajaradi.

### **Davlatning ichki funksiyalariga quyidagilar kiradi.**

**1. Siyosiy funksiya** siyosiy barqarorlikni ta'minlash, siyosiy rivojlanish istiqbollari ishlab chiqishda ko'rinadi. Ko'plab empirik tadqiqotlar ko'rsatishicha, jamiyat singari murakkab tizimlarda siyosiy deyarli barcha jarayonlar va holatlar mohiyatini tashkil etadi, barcha odamlar manfaatlariga ta'sir ko'rsatadi. Hozirgi dunyoning murakkab, ihtilofli muomolarni faqat texnologik yangiliklar yoki iqtisodiy vositalar yordamida hal qilish mumkin emas. Zamonaviy jamiyatlarning murakkab ichki tuzilishi va manfaatlarining nihoyatda xilma-xilligi sharoitida aynan siyosat sohasida institutsionallashtirilgan kelishuvlar mavjudligini taqozo etadi. Siyosat, birinchi navbatda, davlat siyosati, zamon talablariga muvofiq ravishda zarur yondoshuvlarni ishlab chiqadi, turli ijtimoiy-iqtisodiy strategiyalardan barcha ijtimoiy sinflar va guruhlarining manfaatlarini eng ma'qul tarzda muvofiqlashtiruvchi va ularni umummilliy manfaatlariga bo'ysundiruvchi strategiyani tanlaydi. Davlat oliy birlashtiruvchi kuch sifatida jamiyatda mavjud siyosiy muloqotning timsoli bo'lib chiqadi va barqarorlik tartib, rivojlanish kafili vazifasini bajaradi;

Davlat – jamiyat miqyosida manfaatlarni amalga oshirish, ularni muvofiqlashtirish, ihtiloflarning oldini olish yoki ularni bartaraf etish uchun mo'ljallangan maxsus tashkilotlar, muassasalar, devon va ular faoliyatini amalga oshirish va nazorat qilish mexanizmlariga ega. Aslida ijtimoiy munosabatlarni tartibga - soluvchi tashkilot tarzida vujudga kelgan davlatning- siyosiy funksiyalari ortib borayotganligi va u tobora siyosiy tashkilotga aylanib borayotganligini amerikalik sotsiolog T.Parsons XX asr 70 – yillarida qayd etib o'tgan.

**2. Davlatning iqtisodiy funksiyasi** iqtisodiy jarayonlarni soliq va kredit siyosati, iqtisodiy o'sish sharoitlarini yaratish yoki jazo choralarni qullash vositasida tartibga solishida namoyon bo'ladi. Davlatning iqtisodga

aralashuvi **me'yoriy** va **pozitiv** tahlil qilinadi. Me'yoriy yondoshuv mamlakatda amal qilayotgan siyosiy tartib bilan belgilanadi va hukumat fuqarolarning farovonligini oshirish uchun nima qilishi kerakligini belgilab beradi. Pozitiv yondoshuv hukumatlarning amaliy hatti – harakatlarini tahlil qiladi.

XX asrda ko'p mamlakatlarda davlatning iqtisodiy funksiyasi kengayishi kuzatildi. Sanoati rivojlangan mamlakatlarda davlatning ichki yalpi mahsulotdagi umumiy ulushi o'rta hisobda 1913 yildagi 12% dan 1995 yilda 459ga o'sdi. Ammo XXI asr boshida ko'p davlatlar siyosatida yana "ortga qaytish" ro'y berganligi, davlatlar o'zlarining iqtisodga aralashuvlarini cheklashga xarakteristik harakat qilayotganligi sezilyapti.

**3. Ijtimoiy funktsiya:** odamlarning mehnat qilish, turar joy, sog'liqni saqlash kabi ehtiyojlarining davlat tomonidan qondirilishi; qariyalar, nogironlar, ishsizlar, yoshlarga ijtimoiy kafolatlar tizimining mavjudligi; xayot, mulk va sog'liqni sug'urta qilish bilan bog'liq vazifalar. Sizga ma'lumki, liberal g'arb davlatlari bu vazifani keng qo'lamda faqat XX asrning o'rtalariga kelib bajara boshladi. Ammo ijtimoiy himoya tamoyili davlat haqidagi eng - qadimgi konsepsiyalarda (masalan, pater nalistik konsepsiyalarda) mavjud bo'lib kelgan. U asrlar davomida davlatning "asosiy vazifalaridan biri bo'lgan. Shu bilan birga, g'arb mamlakatlarida an'anaviy ijtimoiy institutlar (oilalar, maxalla) mazmun – mohiyatidagi o'zgarishlar g'arb- davlatchiligi bilan sharq davlatchiligida mavjud muammolarning bir-biriga o'xshamasligini keltirib chiqaradi.

**4. Xuquqiy funktsiya:** huquq – tartibotni ta'minlash, huquqiy me'yorlarni joriy etish, jamiyatni ichki va tashqi xavfdan himoya qilish (ekstremizm, terrorizm).

Ushbu funktsiya har qanday davlatning, ayniqsa, sharq davlatining eng muhim jihatini tashkil etadi. Azaldan davlatda – adolat tayanchi, - kafili sifatida kqraladi. Hukumatga iqtisodiy va boshqa xatolarini surunkasiga kechirib kelgan fuqarolar, davlatga huquq, tartib, adolat, fuqarolarni shaxsiy va mulkiy xavfsizligiga jiddiy xavf tug'dirgan vaziyatlarni kechirmaydi.

**5. Madaniy-tarbiyaviy funktsiya** aholining ma'naviy, ma'rifiy, madaniy o'sishini ta'minlash, ijod imkoniyatlarini yaratishda namoyon bo'ladi.



**6. Ekologik funksiya** – davlat o‘z zimmasiga tabiatni asrash, o‘z fuqarolari uchun munosib, sog‘lom yashash muhitini ta‘minlash majburiyatini oladi. Faqat davlatgina vujudga kelgan ekologik muammolarni nazorat qilish bartaraf etish vazifasini bajara oladi. Bugungi kunda jahonda vujudga, kelgan ekologik muvozanatni saqlab qolish butun dunyo hamjamiyatining vazifasi ekanligini yaxshi bilamiz.

Davlatning tashqi funksiyasi – mamlakatni tashqi xavfdan himoya qilish, boshqa davlatlar bilan o‘zaro foydali ko‘p tomonlama munosabatlarni o‘rnatish va rivojlantirishdan iborat.

**Davlatning tuzilishi.** Davlat qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud, armiya va huquqni muhofaza qiluvchi organlardan tashkil topgan. Davlatlarni turkumlashning yana bir nechta usuli mavjud: Oliy hokimiyatni tashkil etish usuli bo‘yicha **davlatlar monarxiya va respublikaga** bo‘linadi. O‘z navbatida monarxiyalar bo‘linishi quyidagicha:

a) **absolyut monarxiya- siyosiy** hokimiyat to‘laligicha bir shaxs – monarx qo‘lida to‘plangan bo‘ladi (Saudiya Arabistoni, Katar, Omon);

b) **konstitutsion monarxiya:** monarx hokimiyati Konstitutsiya bilan cheklangan, qonun chiqarish vazifasi parlamentga; ijro etish vazifasi –hukumatga berilgan; (g‘arbiy Yevropa monarxiyalari).

Respublikalarning ham **parlamentar, prezidentlik va aralash** shakllari mavjud.

**Parlamentar respublikalarda** saylovlarda g‘olib chiqqan partiya vakillaridan hukumat tuziladi va u parlament oldida mas‘ul hisoblanadi. Bunday Respublikalar hozirgi vaqtda Italiya, Germaniya, Xindiston, Avstriya, Shveysariya, Turkiya v.b. bir qator mamlakatlarda mavjud.

**Parlament respublikasida** parlament – davlatda markaziy o‘rinni egallaydi. Tabaqaviy vakillik organi sifatida u Angliyada XIII asrda paydo bo‘lgan bo‘lsada, davlat hokimiyatining mustaqil, qonunchilik va vakillik tashkiloti tarzda, zamonaviy mohiyatida XVII–XIX asrlarda shakllanib bo‘ldi, hozirgi kunda parlament demokratik siyosiy tizimlarning ajralmas tarkibiy va funksional elementidir.

Parlamentlar bir yoki ikki palatali bo‘ladi. Ikki palatali parlamentning quyi palatasi va bir palatali parlament to‘g‘ridan—to‘g‘ri saylovlar natijasida shakllanadi. Yuqori palatalar esa turlicha tashkil topishi mumkin: AQShda, Italiyada to‘g‘ridan—to‘g‘ri saylovlar natijasida; GFR, Xindiston, Rossiyada

— bivosita saylovlar yo'li bilan; Buyuk Britaniya, Kanadada yuqori palataning a'zolari vorislik yoki tayinlash natijasida o'z o'rinlarini egallaydilar. (U hozirgi kunda Buyuk Britaniyada **ana** shu qoidani qayta ko'rib chiqish masalasi xal bo'lyapti).

Parlament a'zolarining mustaqilligi masalasi alohida ahamiyatga ega. Parlament a'zolari xalq tomonidan to'g'ridan—to'g'ri saylanishining o'zi ularning mustaqilligini ta'minlaydi.

**Prezidentlik respublikalarida** odatda prezident **ayni** vaqtda xukumat boshlig'i vazifasini ham bajaradi. Qonun chiqaruvchi organ parlament — alohida saylovlar natijasida, prezident — alohida saylovlar natijasida shakllanib, bir-birlaridan mustaqildir. Tarixan boshqaruvning bu shakli AQSh Konstitutsiyasi asosida 1787 yilda kiritilgan.

**Prezidentlik instituti.** Respublikamizda prezidentlik institutining kiritilishi va unda prezidentlik respublikasi boshqaruvining qaror topishi prezidentlik institutiga, turli siyosiy tizimlarda uning amal qilish xususiyatlariga e'tiborni kuchaytirdi. Shuni ta'kidlash lozimki, prezident (lot. – "oldida o'tiruvchi") lavozimi tarixda birinchi bor AQShda – davlat va hukumat boshlig'i lavozimlarini bir shaxsda birlashtirish natijasida vujudga keldi. U xuddi shu yerda davlat boshlig'ini umumiy saylovlar orqali saylash an'anasi kiritildi. Hozirgi kunda prezident – ko'pgina siyosiy tizimlarning ajralmas qismi. Ammo har bir davlat o'z prezidentining siyosiy hayotdagi o'rnini o'zi belgilaydi. Prezidentning siyosiy tizimdagi o'rnini odatda Konstitutsiyada belgilab beriladi. Konstitutsiya Prezidentning maqomini belgilash bilan birga, odatda, unga xos ma'naviy – siyosiy va fuqarolik majburiyatlarini qayd etib o'tadi. Odatda davlat rahbari Konstitutsiya va qonunlarga so'zsiz rioya etishi talab etiladi. Ayrim davlatlarning Konstitutsiyalari prezidentga jamiyatdagi turli kuchlarni birlashtiruvchi hakam vazifasini topshiradi.

Ko'pgina mamlakatlar o'z konstitutsion me'yorlarida prezident ayrim guruhlarining emas, butun jamiyat manfaatlaridan keli6 chiqib faoliyat ko'rsatish lozimligidan kelib chiqadi.

Prezidentlikka saylashning ikki yo'li mavjud: to'g'ridan-to'g'ri va bevosita saylovlar. O'z navbatida to'g'ridan-to'g'ri prezidentlik saylovlari umumiy saylovlar yoki referendumlar ko'rinishida kechishi mumkin. Bevosita prezidentlik saylovlari uch ko'rinishga ega:

- 1) prezidentni parlament saylaydi;
- 2) parlament va shtat, viloyat, turli siyosiy kuchlar vakillari saylaydi;
- 3) saylovchilar kollegiyasi saylaydi.

Odatda, prezidentlikka nomzodlarning ko'pchiligi yoki partiya yetakchilari, yoki partiyalar ilgari surgan nomzodlardir. Chunki aynan partiyalar saylovchilar bilan ishlash texnologiyalarini juda yaxshi o'zlashtirganliklari sababli g'alaba qozonishning ham eng ko'p imkoniyatlariga egalar. Lekin demokratik davlatlarda mustaqil nomzodlar ham saylovda faol ishtirok etishlari mumkin.

Ko'p mamlakatlarning Konstitutsiyalarida prezidentlik muddati alohida ko'rib chiqiladi. Odatda bu muddat 4. yoki 5 yilni tashkil etadi. Prezidentni 1 yilga saylash (Shveysariya) yoki umrbod saylash (ayrim Afrika, Osiyo mamlakatlari) tajribasi ham uchraydi.

Prezidentlikka nomzod uchun konstitutsion va me'yoriy qoidalar mavjud. Deyarli barcha mamlakatlarning Konstitutsiyalariga prezidentlikka nomzod o'z mamlakatining fuqarosi bo'lishi lozimligini talab etuvchi, turg'unlik senzi tushunchasi kiritilgan. Masalan, AQSh prezidenti mamlakatda 14 yildan kam bo'lmagan muddat yashagan bo'lishi kerak. Meksikada bu muddat 1 yil, deb belgilangan. Bizda – nomzod mamlakat xududida kamida 10 yil yashagan bo'lishi talab etiladi.

Ko'pchilik mamlakatlarda prezidentlikka nomzodlar xarbiy xizmatga aloqador bo'lmasligi talab etiladi. Nomzodlarning yoshiga qo'yiladigan talablar minimal yosh chegarasini belgilash bilan cheklanadi. Odatda bu 35 yosh. Maksimal yosh belgilanmaydi.

Prezidentlik saylovlarida g'olib chiqqan nomzodning o'z lavozimiga o'tishining ikki yo'li mavjud. Prezident umummilliy saylovlar orqali saylanganida 1 oydan (O'zbekiston) 3 oygacha (AQSh) o'tgan muddatda avvalgi rahbariyat ishining yakunlanishi va yangi prezidentning lavozimni qabul qilishi bilan bog'liq o'tish davri mavjud. Bu davrda yangi saylangan prezident davlat va hukumat boshlg'i vakolatlariga ega bo'lmagan holda yangi hukumatni tuzishga oid tashkiliy masalalarni hal qiladi.

Prezidentlik respublikalarida partiyalar va prezident o'rtasidagi munosabat o'ziga xos xususiyatlarga ega. Prezidentlikning turli modellarida u turlicha namoyon bo'ladi. Osiyo – Afrika modellarida prezident ayni vaqtda hukmron partiya rahbari hamdir. Amerika modelida prezident o'z

partiyasida ancha mustaqil O'zbekistonda prezident partiyalar, ittifoqlar, xarakatlardan yuqori turadi va butun jamiyat manfaatini ifodalaydi.

Prezidentning davlat apparatini boshqarishdagi urni, roli va vakolatlari davlat hokimiyati tizimi bilan belgilanadi.

**Aralash turdagi respublikalarda** kuchli prezident hokimiyati parlamentning hukumatni kuchli nazorat qila olishi bilan to'ldiriladi. Ya'ni hukumat ham prezidentga, ham parlamentga bo'ysunadi. Bunday respublikalar Avstriya, Irlandiya, Portugaliya, Polsha, Finlyandiya, Fransiya, Bolgariyada amal qiladi. Aralash turdagi respublikalar barqaror belgilarga ega emas va saylov natijalariga ko'ra u prezidentlik yoki parlament respublikasi shakliga oson o'ta oladi.

**Ma'muriy — xududiy tashkil topishiga ko'ra davlatlarning bo'linishi.** Siyosat nazariyasida ma'muriy- xududiy bo'linish haqida gap ketganda, davlat hokimiyatining munosabat prinsiplari va mexanizmlari nazarda tutiladi. Amalda bu prinsiplar **unitarizm, federalizm, konfederatsiyalarda** o'z aksini topadi.

**Unitar davlat** demokratik yoki avtoritar, monarxiya yoki respublika bo'lishidan qat'iy nazar, hokimiyat va sudning yagona tizimi, yagona huquqiy va konstitutsion me'yorlar bilan belgilanadi. Barcha boshqaruv tashkilotlari, pastdan yuqorigacha markaziy hokimiyatga bo'ysunadi va ma'muriy bulimlar hisoblanadi. Bir qator unitar davlatlarda ba'zi xududlar ma'muriy mustaqillikka egalar (XXR, Buyuk Britaniya, Italiya). Unitar davlatlar rivojlanishida keyingi yillarda ko'zga tashlanayotgan muhim belgilar, birinchidan, mahalliy hokimiyatlar imtiyozlarining ko'payishi bo'lsa, (Italiya, Fransiya, Buyuk Britaniya); ikkinchidan, ba'zi ko'p millatli, lekin unitar davlatlarning federatsiyaga o'sib o'tishidir. Masalan, unitar Ispaniya 1978 yilgi Konstitutsiyasi qabul qilinganidan so'ng federatsiyaga qarab rivojlanyapti: Basklar mamlakati, Kataloniya, Galisiya, Andalussiyalar avtonomiyaga ega bo'lishdi. Belgiya 30 yil (1962 — 1993) ichida federatsiyaga aylandi.

**Federatsiya** — bir nechta yoki ko'p davlatlardan tarkib topgan davlatlar ittifoqidir. Federatsiya ijtimoiy hayotning iqtisodiy va siyosiy birligini ta'minlagani holda, boshqa sohalarda nisbatan mustaqillikni anglatadi. Federativ tuzilish eng ko'p munozaralarga sabab bo'lgan va hali tugal ishlab chiqilmagan nazariya. Undagi markaziy va eng murakkab

masala — suverenitet masalasidir. U hozirgi vaqtda. Meksika, Nigeriya, AQSh, Germaniya, Rossiyalar federatsiyalar hisoblanadi.

**Konfederatsiya** — mustaqil, davlatlar ittifoqi bo'lib, har biri deyarli to'la ko'lamda o'zining asosiy, belgilovchi huquqlarini va hokimiyatini saqlab qoladi. Shuning uchun markaziy hokimiyat konfederatsiya a'zolaridan u yoki bu masalani hal qilish uchun izn so'raydi va ular markaziy hokimiyatga qanday ko'lamda vakolatlar berishni hal qiladi. AQSh mustaqil deb e'lon qilinganidan (1776) to konstitutsiya qabul qilingunga qadar (1787), aniqrog'i u amal qila boshlaguncha (1789) konfederatsiya edi. 1815–1867 yillardagi Germaniya ittifoqi – konfederatsiya edi. Shvesariya konfederatsiyasi 1291 yilda Shved, Uri, Untervalld qonunlarining ittifoqi sifatida vujudga keldi va XIX asr o'rtalarigacha shunday bo'lgan, hozir ko'proq federatsiya belgilariga ega.

**Ma'muriy apparat (devon)** — davlat institutlarini vertikal va gorizontal bo'yicha bir butun qilib birlashtiruvchi asosdir. Davlat ma'muriy apparati hukumat bilan birgalikda turli vazirliklar, idoralar, maxsus qo'mita va komissiyalarning ulkan va qudratli tizimidir. Davlat ma'muriy apparati — shaxssiz hokimiyatning mutlaqo yangi turi — zamonaviy byurokratik davlatni keltiri6 chiqardi. Byurokratiya — zamonaviy siyosiy tizimlarning ajralmas qismiga aylandi.

M.Veberga ko'ra byurokratiyaning belgilari quyida keltiriladi:

- 1) o'zaro itoat va mas'uliyat ierarxiyasi;
- 2) shaxssizlik, ya'ni faoliyatning aniq belgilangan me'yorlar va qoidalarga asosan olib borilishi;
- 3) doimiylik — xizmatda ko'tarilish va imtiyozlarga ega bo'lish kafolati asosida faoliyatning uzluksizligi;
- 4) malakaviy yuqori bilim va tajribaga ega bo'lish.

Oliy hokimiyatdan farqli o'laroq, devon saylovlar va o'zgarishlar natijalariga bog'liq emas. Amaldorlar o'z ishlarini hukumat inqirozlari, parlament tarqatib yuborilishi, muddatidan avvalgi saylov b.h. holatlarda ham davom ettiraveradi. Byurokratiya bilan bog'liq, **ijobiy tomonlar** (samaradorlik, professionalizm, intizom, tezkorlik) va **salbiy tomonlar** (davlat ma'muriy apparatining doimo o'sishga intilishi (Pareto qoidasiga ko'ra, 20% hodimlar 80% foydali ishni bajaradi); amalda qarorlar ishlab chiqish vakolatiga ega noiblar emas, ularning yordamchilari qo'liga o'tib

ketgani; uyushgan qatlam sifatida byurokratiya davlat qarorlari bajarilishiga halaqit bera olishi, ularni buzib talqin eta olishi, o'z manfaatiga moslashtira ola bilishi) ma'lum va turli davlatlar faoliyatida ular doimo hicobga olib kelinadi.

Siyosiy rejimning tarkibiy qismlari (komponentlari). Siyosiy rejimning tarkibiy qismi sifatida davlat shakli va uning roli, legitimlik prinsipi (siyosiy tizimga doir darsda o'tiladi), institutlar tuzilmasi, partiyaviy va saylov tizimlari kiradi. Ular fanning boshqa mavzularida alohida dars sifatida o'tiladi.

Siyosiy rejimlar tushunchalari mazmun-mohiyatini aniqlashga qaratilgan yondashuvlar asosida ularni tasniflashtirish imkoniyati tug'iladi. Davlatning hokimiyatni amalga oshirishida foydalanadigan vositalari va usullari yig'indisi jamiyatda siyosiy erkinlik darajasini va shaxsning huquqiy holatini ifodalaydi. Individning ijtimoiy erkinligi darajasi va davlat bilan fuqarolik jamiyatining o'zaro munosabatlari xarakteridan kelib chiqib siyosiy rejimning uchta turini keltirish mumkin: totalitar, avtoritar va demokratik. Demokratiya va totalitarizm o'rtasida mazkur tasnifning qarama-qarshi qutblari sifatida ko'plab oraliq hokimiyat shakllari joylashgan. Masalan, erkinlik va demokratik saylovlar natijalari ko'pchilikning irodasidan farq qiladigan yarim demokratik rejimlar mavjuddir.

Siyosiy rejimlarni tasniflashtirish uchun quyidagi holatlar e'tiborga olinishi taqozo etiladi: siyosiy partiyalar, ularning ichki tuzilishi va o'zaro munosabatlari prinsiplarini partiyaviy tizimda mavjudligi; boshqaruv bilan o'zini o'zi boshqarishning nisbati, siyosiy jarayonda mahalliy hokimiyat organlarining roli; jamiyat siyosiy tizimida armiya, politsiya, maxsus xizmat kabilarning o'rni va roli; hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijroiya va sud hokimiyatlariga bo'linish darajasi; fuqarolarning siyosat va ijtimoiy jarayonlarni boshqarishga jalb etilish darajasi va xarakteri; hokimiyat organlari faoliyatidagi oshkoralik darajasi, ularning jamoatchilik fikri tomonidan nazorat etilishi va ta'sir qilishi uchun ochiqligi; davlat faoliyati ustidan fuqarolik jamiyati nazorati, turli manfaatlarni ifodalash va amalga oshirish imkoniyatlarining mavjudligi; davlat organlarini shakllantirish, siyosiy yetakchilar va idora etuvchi guruhni tanlash tartibotlari usullarini mavjudligi.

Davlat boshqaruvi rejimlari xususiy ma'noda bir-birlaridan quyidagicha farqlanadi: liberal, diktator, qattiq, shafqatsiz va hokazo. Boshqaruv shakllari bo'yicha quyidagi rejimlar bir-birlaridan ajralib turadi: parlament, prezidentlik respublikasi, monarxik, respublika, favqulodda boshqarish rejimi va boshqalar. Siyosiy rejimni baholash timsoliy ma'no kasb etishi mumkin. Shuning uchun mamlakat va davlatning, shuningdek boshqarish turini tahlil etmasdan ham uning obrazini yaratish mumkin (masalan, mutlaq, podshohlik va hokazo). Ba'zan davlat boshlig'i nomi bilan ham rejimlarni aniqlash mumkin. Masalan, Stalin rejimi, Gitler rejimi, Husayn rejimi va hokazo. Shuning uchun ham siyosiy rejim – davlat va jamiyatning tipologik (turkumiy) , stilistik (uslubiy) va obrazli tasnifidir.

Taniqli ingliz siyosatshunosi E.Xeyvud siyosiy rejimlarni tasniflashtirishga o'ziga xos ravishda yondashadi. U «siyosiy tizim» bilan «siyosiy rejim» alohida tushunchalar ekanligiga unchalik e'tibor bermagan holda, hozirgi davrda aniq mezonlar mavjud emasligiga doir fikrlarni bildiradi. Lekin u «tasniflashtirish tizimi» iborasidan keng foydalanadi.

**E.Xeyvud mezonlarni tanlaganda quyidagi savollarga javob topish muhimligini ta'kidlaydi:** Hokimiyat kimga tegishli? Siyosiy ishtirok yuqori doiralar tomonidan cheklanadimi yoki u barcha aholini qamrab olganmi? Ijtimoiy kelishuvlar yoki bo'ysunishga erishish qanday kechadi – kuch ishlatish xavfi yoki kuch ishlatishni qo'llash vositasidami, muzokaralar jarayoni, «savdolashish» yoki murosasozliklar vositasidami? Hukumat boshqaruvi markazlashganmi yoki nomarkazlashgan xarakter kasb etadimi? Siyosiy tizimda qanday o'zaro tiyib turishlar va muvozanatlar mavjud? Hokimiyatni egallash va hokimiyatni topshirish qanday amalga oshiriladi? Siyosiy tizim ochiq va raqobatlimi yoki u siyosiy kuchlar raqobatdoshligi uchun yopiqmi? Davlat va individlar o'rtasidagi munosabatlar qanday? Hukumat va fuqarolar o'rtasidagi huquq va majburiyatlar qanday taqsimlanadi? Mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi qanday? Unda turmush darajasi qanday, moddiy boyliklarni taqsimlash qanchalik tenglikka asoslanadi? Iqtisodiy hayot qanday tashkil etilgan? Iqtisodiyot bozorga yo'naltirilganmi yoki markaziy rejalashtirishgami, hukumatning iqtisodiy roli qanday? Tizim qanchalik barqaror? Hozirgi rejim qanchalik uzoq tarixga ega, yangi talablar va o'zgarishlarga javob bera olish qobiliyatiga egami?

Yuqoridagi savollarga javoblarda davlatning butun mexanizmlari, mazmun-mohiyati, buguni va kelajagi ochib berilgan. **E.Xeyvud hozirgi davrda quyidagi beshta asosiy rejimni bir-birlaridan farqlanishini keltiradi:**

- 1) g'arbiy poliarxiya (western polyarchies);
- 2) yangi demokratiyalar (new democracies);
- 3) sharqiy Osiyo rejimlari (East Asian regimes);
- 4) islomiy rejimlar (Islamic regimes);
- 5) harbiy rejimlar (military regimes).

Xeyvudning «g'arbiy poliarxiyalar» rejimi o'zining diqqatga sazovorligi bilan ajralib turadi. U bu rejimning liberal demokratiyaga yoki oddiy demokratiyaga taalluqli ekanligini ta'kidlab, uning mohiyatini ochib beradi.

«Poliarxiya» tushunchasi R.Dal va Lindblom tomonidan kiritilib, u o'zining xatti-harakatidagi ikkita asosiy omili bilan ajralib turadi:

1) unda jamiyat hokimiyatni o'zboshimcha kuchlar istaklaridan himoyalash uchun muxolifiy kuchlarga nisbatan tolerantlikning nisbatan yuqori darajasiga erishilgan. Amaliyotda bu konstitutsiyaviy kafolatlangan va fuqaroviy erkinlik, faol hamda sog'lom fuqarolik jamiyati tomonidan ishonchli tarzda himoyalangan partiyaviy tizimlar o'zaro musobaqalari asosida erishiladi;

2) poliarxiya jamiyatga siyosiy hayotda ishtirok etish uchun yetarli darajadagi keng imkoniyatlar yaratib beradi – unda siyosiy faollik yuqori darajada kechadi. Unga fuqarolar tomonidan nazorat qilishiga imkoniyat beradigan, zarur bo'lsa nomatlub siyosatchilarni mansabidan tushira oladigan huquqlar beradigan puxta ishlab chiqilgan saylov tizimi orqali erishiladi. Bu ma'noda poliarxiya demokratik elitizmga yaqin turadi. Lekin poliarxiya ko'pincha katta korporatsiyalar ta'siriga tushib qoladi. Lekin unda individualizm prinsipi yuqori darajaga ko'tariladi.

Yangi demokratiya 1994 yilda boshlangan to'lqinlar natijasida Gresiya, Portugaliya va Ispaniya mamlakatlarida o'ng oqimga mansub hukumatlar ag'darib tashlanishi, Lotin Amerikasida harbiy diktaturalar hokimiyatlari bo'shashganligi, asosan, kommunistik inqirozi natijasida yangi rejim maqomini olishga erishdi. 1989–1991 yillardagi Sharqiy Yevropa mamlakatlaridagi inqilobiy o'zgarishlar g'arbiy liberal modellarni bu



mamlakatlarga sekinlik bilan kirib kelishi uchun shart-sharoitlar yaratdi. MDH mamlakatlari, xususan Rossiyada ham 70 yildan ortiq yashagan kommunistik rejimlar ag'darib tashlandi. Bu rejimlar yangi demokratiyalar (new democracies) yoki yarim demokratiyalar (semidemocracies) rejimi sifatida shakllandi.

**Sharqiy Osiyo rejimlari** XX oxirida kommunizm inqirozi va boshqa demokratik o'zgarishlar natijasida, bu mintaqada rivojlangan mamlakatlarni ko'payib borishi, jahon iqtisodiyoti markazini g'arbdan sharqqa qarab siljiy boshlaganida namoyon bo'ldi. Bu jarayonlarga Sharqiy-Osiyodagi beshta "yo'lbars" – Janubiy Koreya, Tayvan, Gongkong, Singapur va Malayziyalar kuchli ta'sir ko'rsatdi. Yaponiya va Xitoy jahon iqtisodiy markazining tarkibiy qismlaridan biriga aylandi.

**Harbiy** rejimlar Lotin Amerikasi, Yaqin Sharq, Afrika va Janubiy-Sharqiy Osiyodagi harbiy avtoritarizm tadriji, ba'zi mamlakatlarda xunta boshqaruvining joriy qilinishi natijasida shakllandi.

### **Topshiriqlar:**

1. Davlat bosh siyosiy institut sifatida.
2. Davlatning konstitutsiyaviy tuzilishi va huquqiy tizim asoslari.
3. Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati organlarining faoliyat ko'rsatish tamoyillari.
4. Markazda va joylarda hukumatning barcha tarmoqlarining tuzilishi va faoliyati.
5. Siyosiy rejimlar tipologiyasi: totalitarizm, avtoritarizm, demokratiya.

## **11-MAVZU. JAMIYAT SIYOSIY TIZIMINING TUZILMAVIY KOMPONENTLARI**

### **Reja:**

1. Siyosiy tizimining tuzilmaviy komponentlari
2. Hokimiyat tushunchasi, uning tuzilishi, resurslari va ko'rinishlari: siyosiy xokimiyatning o'ziga xos xususiyatlari.
3. Hokimiyatning legitimligi va turlari.

***Tushuncha va tayanch iboralar:*** Siyosiy institutlar, davlat, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari, siyosiy munosabatlar, siyosiy tamoyillar va normalar, siyosiy ong, siyosiy madaniyat, siyosiy hokimiyat.

«Siyosiy tizim» tushunchasi siyosiy jarayonlarni tartibga solish, siyosiy hokimiyatning shakllanishi va faoliyat yuritishini o'z ichiga oladi. Qolaversa, bu siyosiy faoliyatni tashkil etish va amalga oshirish mexanizmi hamdir.

**Siyosiy tizim tuzilmasi quyidagicha:**

–Siyosiy institutlar (davlat, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari va boshqalar);

–Siyosiy munosabatlar;

–Siyosiy tamoyillar va normalar;

–Siyosiy ong;

–Siyosiy madaniyat.

**Siyosiy tizimning asosiy instituti davlatdir**, chunki u kishilar, ijtimoiy guruhlar, sinflar va birlashmalar munosabatlarida birgalikdagi faoliyatni tashkil qiladi, boshqaradi va nazorat qiladi.

Zamonaviy siyosiy tizimlarning o'ziga xos tendensiyasi davlatning butun jamiyat ehtiyojlari va manfaatlarini ifodalovchi organga bosqichma-bosqich aylanishidir.

Siyosiy partiyalar hozirgi jamiyatning siyosiy tizimida yetakchi rol o'ynaydi, chunki ular aholining turli ijtimoiy guruhlari manfaatlarini va maqsadlarining so'zlovchisi bo'lganligi uchun siyosiy hokimiyat faoliyatida faol ishtirok etadi.

Siyosiy tizim ijtimoiy munosabatlarning bir turi bo'lgan va siyosiy hokimiyat haqidagi munosabatlarni ifodalovchi siyosiy munosabatlarni o'z ichiga oladi. Siyosiy munosabatlar manfaatlar muvozanatini, yakkalanish, neytrallash, kurashni hisobga olgan holda hamkorlik munosabatlari bo'lishi mumkin.

**Siyosiy munosabatlarning uchta guruhi keltiriladi:**

– yirik ijtimoiy qatlamlar, shuningdek, xalqlar va davlatlar o'rtasidagi munosabatlar;

– rahbarlik va boshqaruv organlarining jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy jarayonlarga ta'sir etish jarayonida shakllanadigan vertikal munosabatlar;

- siyosiy tashkilotlar va davlat organlari o'rtasida rivojlanadigan munosabatlar.

**Siyosiy tizimning muhim elementi konstitutsiya**, qonun va me'yoriy hujjatlarda mustahkamlangan siyosiy tamoyillar va normalardir.

**Jamiyat siyosiy tizimining elementlariga** odamlar va ularning tashkilotlarining xulq-atvorini, siyosiy va ma'muriy, hokimiyat qarorlarini tayyorlash va qabul qilish jarayonini oldindan belgilab beruvchi siyosiy ong va siyosiy madaniyat ham kiradi.

**Siyosiy tizim mexanizmlari** ijtimoiy qarama-qarshiliklarni hal qilish, ijtimoiy taraqqiyotning keyingi yo'nalishi bo'yicha konsensusga (kelishuvga) erishish imkonini beradi.

Siyosat sub'ektlari-bu siyosiy hayotda ishtirok etish, siyosiy qarorlar qabul qilish va ularning amalga oshirilishiga erishish, jamoatchilik bilan munosabatlarni o'z manfaatlari va maqsadlariga muvofiq o'zgartirishga qodir bo'lgan ijtimoiy va milliy jamoalar, tashkilotlar, muassasalar. Siyosat mavzusi faol, maqsadli va asosli harakatning tashuvchisi hisoblanadi.

**Muayyan darajadagi shartlilik bilan siyosiy aktorlarni<sup>11</sup> uch guruhga bo'lish mumkin.**

**Birinchisi**, ijtimoiy va milliy darajadagi sub'ektlar (hokimiyatning asosiy manbalari): ijtimoiy jamoalar, sinflar, guruhlar, elita, shaxslar va boshqalar.

**Ikkinchisi**-siyosiy hokimiyatning institutsional tashuvchilari: davlat va uning organlari, siyosiy partiyalar, ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar va harakatlar. Bu siyosatning uni amalga oshiruvchi doimiy sub'ektlaridir.

**Uchinchi** guruh - funksional siyosiy aktorlar: muxolifat, lobbi, ommaviy axborot vositalari va boshqalar. Ular siyosiy hokimiyat uchun kurashadi, uni amalga oshirishda bevosita yoki bilvosita ishtirok etadi.

**Siyosatning harakatlantiruvchi kuchi odamlar**, muayyan ijtimoiy jamoalar, guruhlar, Millatlar va boshqalarning manfaatlaridir. Partiyalar, ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar, davlat vakillik organlari ana shu manfaatlarni ifoda etadi va himoya qiladi. **Manfaatsiz siyosat o'likdir. Siyosatda abadiy**

---

<sup>11</sup> Актор - (лот. "actor" - арбоб) муайян хатти-ҳаракатларни амалга оширувчи индивид, ижтимоий гуруҳ, институт ёки бошқа субъект, зиддиятларда иштирок этувчи томонлар. Сиёсатшуносликда актор ва субъект тушунчалари синоним сифатида ишлатилади.

**dushmanlar va abadiy do'stlar yo'q, ammo abadiy manfaatlar mavjud deb aytishimiz mumkin.**

Siyosiy aktorlarning turli tashabbuslari va harakatlari ortida ochiq yoki niqoblangan manfaatlar mavjud. Mamlakatning strategik siyosiy yo'nalishi keng xalq ommasining asosiy manfaatlarini ifoda etadigan darajada siyosat ommabop yoki qarama-qarshi hisoblanadi.

Jamiyatda, odamlar o'rtasidagi munosabat tarzida vujudga keluvchi hokimiyat dastlab siyosiy tabiatga ega bo'lmagan, chunki u asosan mos tushuvchi manfaatlarni tartibga solgan (oqsoqollar, qabila boshliqlari, avliyolarning avtoritetga asoslangan anonim hokimiyati).

Jamiyatning rivojlanishi, uning keyingi murakkablashuvi hokimiyatning samaradorligini oshirish maqsadida markazlashuviga olib keladi. Hokimiyat qabila boshliqlari, beklar, xonlar, guruhlar qo'lida to'planadi (individual hokimiyat).

Mana shu hokimiyatning mukammal shakllarini topishga intilish, ko'pgina sharq mutafakkirlari asarlarida uchraydi. Ammo ijtimoiy tengsizlikning ortib borishi, ijtimoiy tizimlarning murakkablashishi hokimiyatning institutsional shakllarini keltirib chiqaradi. Hokimiyat **boshqaruv, barqarorlik, muvofiqlashtirish** vazifalarini bajaruvchi maxsus institutlarga tayanadi.

**Taniqli olim M.Dyuverje hokimiyatni ikki qiyofali yanusga o'xshatadi:**

- bir guruhning o'z manfaati yo'lida ikkinchi ikkinchi guruh ustidan hukumronligi,
- ikkinchi tomondan – umumiy tartibni saqlash, barchaning manfaatii yo'lida barchaning manfaatini birlashtirish vositasi.

**Nikolo Makiavelli hokimiyat deganda davlat hokimiyatini tushunadi.** Uning fikricha, hukumatning o'z fuqarolarini boshqara olish qobiliyati hokimiyat bo'lib, davlat, siyosatning maqsadi – barcha vositalar bilan hokimiyatni kuchaytirishdir. **"Hokimiyatning quroli – hukmronlikdir,** hokimiyatning asosi – "yaxshi «qonunlar» va "yaxshi qo'shindir". Hokimiyat odamlar ehtiroslarini tinglovchi va ularda fuqarolik sifatlarini tarbiyalovchi kuchdir".

Tomas Gobbs hokimiyatni birinchi marta tushuncha sifatida ta'riflashga uringan. **"Inson hokimiyati,-** deb yozadi u, – **kelajakda**

**qandaydir imtiyoz; foydaga erishish uchun undagi hozir mavjud vositalardir.**

Maks Veberda hokimiyat "Aktor ijtimoiy munosabatda, qarshilikka qaramay, o'z irodasini amalga oshirish ehtimoli, bu ehtimol nimaga asoslanishining farqi yo'q".

M. Veber ta'rifida hokimiyatning uch eng muhim sifati ko'rsatiladi:

1) hokimiyat individlarga xos xususiyat emas, ular o'rtasidagi munosabatlarda mavjud;

2) hokimiyat imkoniyat, ehtimollik terminlarida ta'riflanishi kerak;

3) hokimiyatning asosini hamma narsa, xususiyat yoki munosabat tashkil etishi mumkin.

**Hokimiyatning zamonaviy nazariy tahlilida ikki asosiy an'ana yaqqol ko'zga tashlanadi:**

**Birinchisi, hokimiyatning rypuh konsepsiyasi** (Dj. Skott atamasi) yoki "realizm an'anasi" (P.Dal atamasi), deb atalishi mumkin. Uning boshlanishi T.Gobbs, M.Veberdan olib, X.Lassuel va E.Kaplan, R.Dal, D.Kartrayt, J.Lokk, E.Giddens tadqiqotlarida namoyon bo'lgan. Ular hokimiyatni individlar o'rtasidagi mavjud yoki bo'lishi mumkin bo'lgan ixtilofni o'z ichiga oluvchi tengsizlik munosabati deb baholashadi. Hokimiyat shunday ta'sir doirasida vujudga keladiki, unda sub'ektlardan biri ikkinchisiga uning qarshiligiga qaramay ta'sir eta olish qobiliyatiga ega bo'ladi. Hokimiyat kimdandir ustunlik, "nol miqdori" munosabati sifatida ta'riflanadi. ("Nol miqdori" qaysidir individ va guruhlar hokimiyatining ortishi boshqa individlar va guruhlar hokimiyatining kamayishini anglatadi).

**Ikkinchi an'ana "hokimiyatning noguruhii konsepsiyasi** -"nol miqdori" g'oyasini inkor etadi va hokimiyat barchaning foydasiga xizmat qila olishidan kelib chiqadi. Bunda hokimiyat butun jamoaga tegishli manba, butun jamoaning biron foydaga erishishi qobiliyati sifatida qaraladi. Hokimiyatning legitim xarakteri uning alohida individlar, rypuhira emas, butun jamiyatga tegishli ekanligida, deb ta'kidlanadi. Bu qarashlarning ibtidosini biz Aflotun, Arastuda uchratsak, zamonaviy mualliflardan T.Parsons, X.Arendt va qaysidir darajada M.Fukolarni shu nazariya tarafdorlari, deb ayta olamiz.

Bunday tahlil asosida T. Parsons hokimiyatni an'anaviy ta'riflardan ancha farqli usulda ta'riflaydi. **Hokimiyat aktorlar yoki munosabatlar xususiyati emas, tizimlarning xususiyati (resursi).** Hokimiyat "tizim elementlari o'z burchlarini bajarishlarini ta'minlashga bo'lgan umumiy qobiliyat bo'lib, kollektiv maqsadlarga erishishga intilgani uchun legitimlashadi va itoat etilmagan hollarda sanksiyalar qo'llashni nazarda tutadi, boshkarish vositalarini xarakterlaydi. Ular bir funksiyani bildirganlari uchun sinonim sifatida qo'llanishlari mumkin, lekin mohiyati jihatidan turli holatlarni ifodalaydilar. Ularni aralashtirish nafaqat "lingvistik karlikni" balki "siyosiy ko'rlikni" ham, ya'ni siyosiy jarayonlarni aks ettirishdagi "ko'rlikni" anglatadi. Negaki bunda asosiy siyosiy masala — "kim kimni boshqaryapti?" degan savol bo'lib qoladi. Uning fikricha bu bosh masala emas.

X.Arendt hokimiyat va zo'rlikni aniq farqlaydi: zo'rlik-mohiyatiga ko'ra doimo erishayotgan maqsadlari orqali oqlashga muhtoj. Hokimiyat esa kelishuvga asoslangani uchun, oqlanishga emas, legitimlikka muhtoj. U nimagadir erishish vositasi emas. U umumiy iroda va ijtimoiy birlikni amal qilishini ta'minlaydi, zo'rlik va hokimiyat ko'pincha qo'lma-qo'l, yonma-yon kelishsa-da, ular bir-biriga qarama-qarshidir. **Hokimiyat zo'rlikka asoslanmaydi, aksincha zo'rlik hokimiyatni yemirishi mumkin, ammo yarata olmaydi.** Bunday fikr mantig'idan quyidagi xulosa kelib chiqqan: istibdodga asoslangan tuzum zo'rlikka eng ko'p suyangan va hokimiyatga eng kam darajada ega boshqaruv shakli.

Amerikalik politolog Robert Dal hokimiyatning bir o'lchovli modelini yaratadi va unga "maqsadlar borasidagi ochiq ixtilof" sifatida qaraydi. Bu – hokimiyatning birinchi qiyofasi. Ya'ni siyosiy hokimiyat bir guruh indvidlarning ikkinchi (boshi) guruhga o'z maqsad — manfaatlariga mos qarorlar qabul qilish orqali irodalarini o'tkaza olishdir, deydi u

P.Baxrax va M.Baratslar hokimiyatning ikkinchi qiyofasi ham mavjudligini, u qarorlarni qabul qilmaslik vaziyatida namoyon bo'lishini ta'kidlashadi. Ya'ni o'zi uchun xavfsiz muammolarni ommaviy muhokamaga kiritib, bunga xizmat qiluvchi qadriyatlar va institutlarni yaratadi va mustahkamlaydi.

Siyosiy hokimiyat sub'ektlariga davlat va uning institutlari, siyosiy elitalar, siyosiy yetakchilar va siyosiy partiyalar kiradi. Hokimiyat egalari

sifatida sub'ektlar bir qator belgilarga ega bo'lishi kerak: hokimlik qilish istagi va o'z zimmasiga mas'uliyatni ola bilish, bilim, imkoniyatlarni ishga sola bilish, avtoritetiga ega bo'lish...

**Siyosiy hokimiyat ob'ekti** — sub'ekt faoliyati qaratilgan individ, ijtimoiy rypuh, qatlam, jamiyatdir. Eng zamonaviy hokimiyat konsepsiyalari hokimiyatning "kommunikativ" jihatiga diqqatni qaratar ekan, hokimlik munosabatlari ikki tomonlama, assimetrik (tengsiz) munosabatlar ekanligini ta'kidlashadi.

**Siyosiy hokimiyat resurslari** sub'ektning hokimiyat ob'ektiga ta'sirini ta'minlovchi barcha vositalardir. Ishontirish, rag'batlantirish, qo'rqitish — sub'ekt ob'ektga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan vositalari hisoblanadi.

Jamiyat rivojlanishiga qarab hokimiyat qo'llaydigan asosiy resurslar ham o'zgarib boradi. Masalan, ibtidoiy jamiyatlarda hokimiyat asosan yetakchi, qabila boshligi avtoritetiga tayangan. Keyinchalik ularning o'rnini boylik, kuch egallagan, sanoati rivojlangan mamlakatlarda hokimiyat tayanuvchi asosiy resurs — tashkilot, ya'ni byurokratiya, partiyalar, - xarakatlar bo'lib qoldi. Zamonaviy jamiyatlarning eng asosiy resurslari — bilim, axborot, deb ta'kidlanadi.

**Utilitar resurslar** – bu, kishilarning kundalik ehtiyojlari va talablarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan moddiy va boshqa ijtimoiy vositalardir. Bu vositalardan kishilarni rag'batlantirish uchun ham, jazolash uchun ham foydalaniladi.

**Majburlovchi resurslar** – bu ma'muriy jazolash bilan bog'liq bo'lgan vositalardir. Bu vositalardan odatda utilitar resurslar ish bermay qolgan paytda foydalaniladi. Bunga iqtisodiy sanksiyalardan hayiqmaydigan ish tashlovchilarni sud orqali ta'qib etishni misol qilib ko'rsatish mumkin.

**Me'yoriy resurslarga** –insonning ichki dunyosi, qadriyatlar va xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatuvchi vositalar kiradi. Ular bo'ysunuvchilarga rahbar va ijro etuvchilar manfaatlarining umumiylikini tushuntirishga, hokimiyat sub'ekti xarakatlarining ma'qullanishini, uning talablari qabul qilinishini ta'minlashga qaratilgan.

Ilmiy adabiyotlarda hokimiyatning resurslarini inson va jamiyat faoliyatining muhim sohalari – siyosiy- huquqiy, iqtisodiy, sotsial, madaniy-

axborot, kuch ishlatuvchi sohalarga binoan turkumlashtirish ham keng tarqalgan.

Siyosiy-huquqiy resurslar – bu ijtimoiy tartibni, xavfsizlikni, barqarorlikni, fuqarolarning tinchligi- osoyishtaligini, jamiyatning yaxlitligi va bir butunligini ta'minlovchi vositalar. Bu vositalarga dasturiy hujjatlar, Konstitutsiya, qonunlar va ularni ishlab chiqish, irodasini amalga oshiruvchi vosita sifatida foydalanilganda hokimiyatning resursi bo'lib yuzaga chiqadi. Umuman, **inson nafaqat hokimiyatning resursi, balki uning sub'ekti va ob'ektidir.**

**Hokimiyatning legitimligi.** Fransuz politologi J.L.Kermonn legitimlikni biror mamlakat siyosiy hokimiyatining shu mamlakat qadriyatlariga muvofiqligi, deb ta'riflaydi. M.Dyuverje unga shunday qo'shimcha qiladi: **xalq birdam bo'lgan har qanday tartib – legitimdir.**

Aslida legitimlik tushunchasi tahlili nima uchun odamlar hukmronlikka da'vo qiluvchilarga itoat etadilar; hukmronlikni oqlovchi ichki asoslar qaysi va qanday tashqi vositalar unga tayanch bo'lib xizmat qiladi, degan savollarga javob berishi kerak. M.Veber mana shunday ichki oqlash, ya'ni legitimlik asoslari uch turini ko'rsatgan. "Birinchidan, – deb yozadi u, – bu "doimo o'tmishdagi" ning: azaliy, mazmun va unga rioya etish odati bilan ilohiylashtirilgan fe'l- atvorlar avtoriteti –uni patriarx yoki eski ko'rinishdagi patriamonial knyaz amalga oshirgan tarzidagi "an'anaviy hukmronlikdir", so'ngra ilohiy shaxsiy qobiliyat (xarizma) avtoriteti, biror insonda daho, yetakchilik sifatlari: mo'jiza, qahramonlik v.b.larning mavjudligi tufayli kelib chiqadigan turli shaxsiy sadoqat va shaxsiy ishonch, uni payg'ambar yoki siyosat sohasida, buyuk knyaz — lashkarboshi, plebissitar hukmdor, yoxud buyuk notiq yohud siyosiy partiya rahnamosi amalga oshirgan tarzida xarizmatik hukmronlik; nihoyat, belgilangan qoidalarni itoat bilan bajarishga qaratilgan hukmronlik, uni zamonaviy "davlat xizmatchisi" va unga o'xshash qobiliyat egalari amalga oshirgan tarzda- konuniylik tufayli hukmronlikdir."

An'anaviy legitimlikni an'analarga sodiqlik tarzida baholash mumkin. Asli tushunchasining kelib chiqishi ham (fr. –legitim "konuniy") – "monarxistik". Xali ham Fransiyada taxt qonuniy vorislari, tarafdorlarini legitimistlar, deb atashadi. Bu turdagi legitimlik barcha jamiyatlarda



uchraydi. Xususan, Amir Temurning xonlik mavqeini egallashi tarixi buning yorqin dalilidir.

Xarizmatik legitimlik – yetakchi shaxsigagina ishonch, sadoqat tufayli uning hokimiyatini tan olishdan iborat. M.Veberning o‘zi bu holda tarixiy vaziyat taqozosi bilan yangi sulola, tartib o‘rnatyshi lozim bo‘lgan g‘olib yetakchini nazarda tutgan. Amerikaning birinchi prezidenti J.Vashington, Fransiya Prezidenti general Sh, de Goll, mamlakatimiz birinchi prezidenti I.Karimov xarizmatik yetakchilardir.

Ratsional qonuniy legitimlik an‘ana yoki shaxsiy sifatlarga emas, siyosiy ~hokimiyat kelib chiqishi va faoliyati demokratik huquqiy tartib - talablarga mos kelishiga asoslanadi. 2000 yilda AKSh Prezidentligiga o‘tkazilgan saylovlar jarayoni ratsional qonuniy legitimlikning yorqin misoli bo‘la oladi: qonunda ko‘zda tutilgan tadbirlar asosida g‘olib aniqlanadi va tomonlar ushbu qarorga bo‘ysunadilar.

Legitimlikning boshqa turlari ham mavjud. Demokratik davlatlarda ratsional huquqiy legitimlik asosan tarkibiy yoki institutsional legitimlik shaklida namoyon bo‘ladi. **U fuqarolarning ayrim shaxslarga emas (shaxsiy legitimlik) davlat tuzilishiga bo‘lgan ishonchiga asoslanadi.**

Mafkuraviy legitimlik mohiyati hokimiyatni mafkura yordamida oqlashdan iborat. Mafkura hokimiyatning xalq, millat yoki sinf manfaatlariga muvofiqligini, boshqarish huquqini asoslaydi. Mafkura kimga yo‘naltirilganligiga va qanday g‘oyalardan foydalanishga ko‘ra mafkuraviy legitimlik sinfiy yoki etnik legitimlik tabiatiga ega bo‘lishi mumkin, ya‘ni jamiyatni boshqarish huquqira muayyan sinf (millat) gina egaligi asoslanadi.

### **Topshiriqlar:**

1. Institutsional: davlat, siyosiy partiyalar, ijtimoiy-siyosiy harakatlar va boshqa siyosiy institutlar.

2. Me‘yoriy: konstitutsiya va qonunlarda, partiya dasturlarida, siyosiy birlashmalarning ustavlarida hamda siyosatda xulq-atvor qoidalarini belgilovchi tartiblarda mujassamlashgan axloqiy me‘yorlar.siyosiy tamoyillar, siyosiy an‘analar.

3. Funktsional: siyosiy faoliyat yo‘nalishlari va shakllarini, hokimiyatni amalga oshirish metodlarini o‘z ichiga oladi.

4. Kommunikativ: siyosiy tizimning quyi tizimlari o'rtasida; jamiyatning siyosiy tizimi va boshqa quyi tizimlari (ijtimoiy hayot sohalari) o'rtasida: iqtisodiy, ijtimoiy va boshqalar; turli mamlakatlar siyosiy tizimlari o'rtasida aloqa va o'zaro ta'sirning yig'indisidir.

5. Madaniy-mafkuraviy: siyosiy psixologiya, siyosiy mafkura, siyosiy madaniyat.

## **12-MAVZU. SIYOSIY PARTIYALAR JAMIYAT SIYOSIY TIZIMINING AJRALMAS QISMI SIFATIDA**

### **Reja:**

- 1. Siyosiy partiyalar nazariy qarashlarining rivojlanish bosqichlari**
- 2. Siyosiy partiya: kelib chiqishi, tushunchasi va konsepsiyalari.**
- 3. Partiyaviy tizimlar va ularning turlari.**
- 4. O'zbekistonda ko'ppartiyaviy tizimning shakllanishi.**

***Tushuncha va tayanch iboralar:*** Siyosiy partiyalar, partiyalarning tasnifi, jamoat tashkilotlari, ommaviy partiyalar, kadrlar partiyasi, muholifat, elektorat, fraksiya, partiyaviy tizim, ko'ppartiyaviylik tizimi.

Odamlar o'z manfaatlarini himoya qilish va hokimiyatta erishish uchun hamma davrlarda birlashganlar. Shu ma'noda siyosiy partiyalar juda qadimdan mavjud. Zamonaviy partiyalar Angliyada XVII asrda vujudga kelgan, ammo 1832 yil saylov islohotidan keyingina hozirgi ko'rinishini olgan. AQShda partiyalar 1830-yillarda, prezident Jekson davrida, tashkil topa boshlagan. Fransiya va Yevropaning boshqa mamlakatlarida parlament guruhlari va siyosiy klublarning ommaviy tashkilotlarga aylanishi 1848 yil inqilobi bilan bog'liq. g'arb institutlarini birinchilardan bo'lib import qilgan Sharq mamlakatlaridan biri — Yaponiyada partiyalar birinchi jahon urushigacha bo'lmagan.

Siyosat nazariyasida siyosiy partiyalar tarixini bosqichlarga bo'lishda M.Veber tomonidan taklif etilgan quyidagi davrlashtirish qabul qilingan: **aristokratik koteriyalar (to'garak); siyosiy klublar; ommaviy partiyalar.** Amalda yuqorida sanab o'tilgan davrlarni faqat ikki ingliz partiyasi — liberal partiya (viglar) va konservativ partiya (torilar) o'tgan.

Tori va viglarning koteriyalari XVII asrning ikkinchi yarmida shakllangan. Ular o'rtasidagi farqlar asosan diniy tabiatga egaligi (viglar – puritanlar, torilar – anglikanlar) va turli sulolalarga moyillik bilan belgilangan. Siyosiy klub bosqichi siyosatga burjuaziya kirib kelishi bilan boshlanadi. 1831 yilda torilar "Charlton klub", 1836 yilda viglar "Reform klub" tashkil etdilar. Torilar yirik yer egalari, viglar esa—liberal burjuaziya manfaatlarini ifodalardi. Boshqa siyosiy partiyalar tarixi ancha qisqa. Ularning ko'pchiligi bir yo'la ommaviy partiya sifatida shakllangan. Shuning uchun ham koteriya va klub bosqichlarini siyosiy partiyalar tarixining ibtidosi, deb hisoblash mumkin. Birinchi ommaviy siyosiy partiya (liberal partiya) yana Angliyada, 1861 yilda tashkil topgan. 1863 yilda Olmoniyada Lassal boshchiligidagi umumiy german ittifoqi tuziladi. XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib g'arbiy Yevropaning deyarli barcha mamlakatlarida ommaviy partiyalar mavjud edi. Ommaviy partiyalarning tashkil topishiga bu mamlakatlarda joriy qilinayotgan umumiy saylov huquqi va kengayib borayotgan ishchilar xarakati sabab bo'ldi.

Shu o'rinda, har bir mintaqada partiyalar tashkil topishi jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lganligini ta'kidlab o'tish joiz. AQSh avval boshdanoq burjua davlati sifatida shakllangan. Bu yerda taraqqiyot yo'li masalasida yakdillik mavjud bo'lgani holda ichki siyosatda respublikachilar fermerlarga tayansalar, federalistlar savdo – sanoat va moliya kapitaliga tayanganlar. Tashqi siyosatda respublikachilar Fransiyaga moyillik ko'rsatsalar, federalistlar – Angliya bilan ittifoq tarafdori edilar.

Yevropada vaziyat boshqacharoq edi: bu yerda taraqqiyot yo'li haqidagi munozaralar juda keskin kechgan, ko'tarilib kelayotgan burjua sinfiga iqtisodning feodal ukladi, feodal an'analar va kuchli hukmron elitalar qarshi turgan. Shuning uchun siyosiy hayotdagi kurash qattiq bo'lgan va mafkura juda muhim omil rolini o'ynagan.

O'zbekiston va O'rta Osiyoda partiyalar shakllanishi ham o'z yo'lida borgan. Ularning paydo bo'lishi asosan jadidlar bilan bog'liq. XX asr boshlariga kelib shakllangan «Ittixod va taraqqiy», «Erk», «Birlik», «Yosh buxoroliklar», «Yosh xivaliklar» haqidagi matbuotdagi munozaralardan shunday xulosaga kelish mumkinki, asoschilari ularni partiya sifatida qaragan taqdirda ham, ular klub bosqichidagi partiyalar edi.

### **«Partiya» lotinchadan «qism», “guruh” sifatida tarjima qilinadi.**

Agar qadimgi ma'nolarida partiyalar ayrim manfaat shaxs atrofida uyushgan kishilar guruhini anglatga, zamonaviy ma'nosida partiyalar ko'proq mafkura, hokimiyat masalalarida tashkilotga birlashgan odamlar guruhini bildiradi. Shu ma'noda siyosiy partiyalar fuqarolar jamiyati negizida shakllanadi va siyosiy tizimning eng muhim elementi vazifasini o'taydi.

Siyosiy partiyalar jamiyatda muayyan funksiyalarni bajaradi. Siyosiy partiyalarning bosh funksiyasi – fuqarolar ijtimoiy qatlamlar, manfaat guruhlarining ko'plab xususiy manfaatlarini yagona siyosiy manfaatga keltirishdan iborat. Shu ma'noda ular jamiyat siyosiy tizimining muhim tarkibiy qismiga aylanganlar. Ular mavjud siyosiy tizim doirasida jamiyat taraqqiyotiga oid raqobatlashuvchi dastur egalari sifatida chiqadilar.

Jamiyat siyosiy tizimida partiyalar turli ijtimoiy guruhlar manfaatini ifodalabgina qolmay, bu manfaatlarini shakllantirishda ham faol qatnashdilar. Partiyalar vakolat vazifasi bilan bir qatorda vositachilik vazifalarini ham bajaradilar. Ular davlat darajasida qaror qabul qilish jarayonini muvofiqlashtiruvchi va nazorat etuvchi institut sifatida shakllangan.

Partiyalar fuqarolik jamiyatini davlat bilan bog'laydi, ular o'rtasidagi tabiiy ziddiyatlarni yumshatadi. Partiyalar vakolat tizimi orqali parlament va hukumat faoliyatida ishtirok etadi. Ta'kidlash lozimki, kuchli partiyalar jamiyat va davlat aloqalarini mustahkamlash, davlat ustidan nazoratni ko'paytirish orqali davlatni kuchaytiradi, zaif partiyalar – davlatni ham zaiflashtirishi mumkin.

Partiyalar jamiyatning ham vertikal, ham gorizontal bo'yicha barcha sohalarini qamrab u yerda axborot tarqatish va tashviqot faoliyatini olib boradi, tarbiyaviy vazifalarni bajaradi, siyosiy arboblarni tayyorlaydi. Barcha siyosiy institutlarni qamrab olgan holda partiyalar davlat hokimiyatining barcha darajalari va shahobchalari o'rtasidagi aloqalarni ta'minlaydi, kompromissga asoslangan siyosiy qarorlarni ishlab chiqadi, o'z saylov bazalarini tashkil etgan turli ijtimoiy rypuhlar o'rtasida vositachilik vazifasini bajaradi. Ayni vaqtda, partiyalar ijtimoiy fikrni safarbar etadilar, saylov kampaniyalarini g'oyaviy va tashkiliy jihatdan ta'minlaydilar, hokimiyatning barcha darajalariga nomzodlarini ilgari suradilar.

Har bir jamiyat oldida undagi bir-biriga qarama-qarshi manfaatlarni muvofiqlashtirish vazifasi turadi. Partiyalar ana shu ziddiyatli manfaatlarni bayon etishning doimiy kanallaridan biri sifatida jamiyat barqarorligi oshishiga olib keladi.

Ko'p davlatlarda partiyalarning maqomi va faoliyati maxsus qonunlar yoki konstitutsion me'yorlar bilan tartibga solinadi. Dunyo Konstitutsiyalarida siyosiy partiyalarning roli masalasiga besh xil yondoshuv mavjud:

**1) birinchi yondoshuvda** partiyalarga "fuqarolar klubi" tarzida qarash ustunlik qiladi. Kanada, AQSh, Avstraliya, Shveysariya, Buyuk Britaniya v.h. davlatlarning Konstitutsiyalarida partiyalar to'g'risida hech narsa yozilmagan. Ularda siyosiy partiyalar faoliyati va tuzilishini tartibga soluvchi maxsus qonunlar ham yo'q. Avval Britaniya mustamlakasi bo'lgan ayrim mamlakatlarda ham shunday ahvol mavjud. Masalan, Xindistonda birinchi marta siyosiy partiya tushunchasi Konstitutsiyaga 52 – tuzatishda 1985 yilda ishlatilgan. U ham bo'lsa, parlament ichki tartibiga oid bo'lgan tuzatishdir. Shu bilan birga, keyingi yillarda, Buyuk Britaniya, Kanada va AQShda partiyalarning saylov kampaniyasida ishtiroki, ularning moliyaviy ta'minotiga doir ayrim qonunlar qabul qilindi.

**2) ikkinchi yondoshuvda** Konstitutsiyalarda siyosiy partiyalarning jamiyatdagi roli to'g'risida batafsil to'xtab o'tildi. GFR (1949), Fransiya (1958), Portugaliya (1976), Ispaniya (1978), Bolgariya (1991), Ruminiya (1991), Belorussiya (1996), O'zbekiston (1992) yilgi Konstitutsiyalari. Ularda, shuningdek, partiyalarni tashkil etish va faoliyatiga doir ayrim tamoyillar aks etgan. Masalan, "partiyalar milliy suverenitet va demokratiya tamoyillarini xurmat qilishi lozim" (Fransiya V Konstitutsiyasi); "davlatning xududiy yaxlitligi va huquqiy tartibini xurmat qilishlari lozim" (Ruminiya Konstitutsiyasi); "etnik, diniy, irqiy asosda yoki hokimiyatni zo'rlik bilan egallash maqsadida partiyalar tashkil etish mumkin, emas" (Bolgariya Konstitutsiyasi). Bu holatlar partiyalar to'g'risidagi maxsus qonunlarda kengaytirilgan.

**3) totalitar yondoshuv asosida** bir partiyaviylik yotadi. Odatda bu davlat Konstitutsiyalarida boshqa partiyalarni tashkil etish ta'qiqlanmaydi. Ammo, amalda ularning tuzilishi va faoliyat ko'rsatish mexanizmlari mavjud bo'lmaydi. (Sobiq SSSR, XXR Konstitutsiyasi).

4) **ayrim islom davlatlarida** (Katar, Kuvayt, Birlashgan Arab Amirliklari, Omon, Saudiya Arabistoni singari) har qanday siyosiy partiyalar ta'qiqlangan. Islom qonunchiligiga ko'ra, partiyalarga birlashish – umma (jamo) birligiga ziyon yetkazadi, deb hisoblanadi.

5) **ayrim avtoritar davlatlarda** qo'llaniladigan beshinchi yondoshuvning mohiyati shundaki, ularda Konstitutsiya yoki maxsus qonunlarda aniq ko'rsatilgan partiyalargina amal qilishi mumkin. Masalan, Braziliyada 1964 yilgi harbiy to'ntarishdan so'ng o'tgan 25 yil ichida faqat ikki partiya faoliyati ruhsat etilgan: ulardan biri – hukumat partiyasi, ikkinchisi unga nisbatan hayrixoh muholifot rolini o'ynagan. Indoneziyada 1975 yil qonuni bilan davlat mafkurasi – parchalanishini tan oluvchi uchta partiya faoliyatigina ruhsat etilgan v.h.

Partiyaga berilgan **huquqiy ta'rif ham** umumiy, ham alohida belgilarni o'z ichiga oladi. Bu belgilardan eng muhimlari: saylovlarda ishtirok etishning majburiyligi, partiyalar faoliyatining doimiyliigi, siyosiy ishtirok etishning, uyushganlikning darajasi, a'zolarining soni va partiyaning nomidir. Bu ta'rifga ko'ra, faoliyati doimiy bo'lmagan tashkilotlar, masalan, faqat saylovoldi davrida faoliyat yurituvchi saylovchilar ittifoqi kabi tashkilotlar partiya, deb hisoblanmaydi. Partiyaning rasmiy tan olinishini ko'rsatuvchi, unga davlat himoyasini beruvchi muhim adolat – bu ro'yxatdan o'tkazishdir. Partiya ro'yxatdan o'tgandagina unga saylovlarda ishtirok etish huquqi va moliyaviy imtiyozlar beriladi.

Partiyalarni ro'yxatdan o'tkazish shartlari tufayli davlatlarda turlicha bo'lishi mumkin. O'zbekiston Respublikasida partiyalar Adliya vazirligida ro'yxatdan o'tkaziladi va buning uchun ma'lum muddatgacha 8 ta viloyatda yashovchi partiya a'zolarining 5000 dan kam bo'lmagan imzosi to'planishi zarur. Ispaniya, Italiya, Fransiya kabi davlatlarda partiyalar, ichki ishlar vazirligida, Belgiya va Niderlandiyada – Adliya vazirligida, Portugaliyada – Oliy sud, Braziliyada – Oliy saylov sudida ro'yxatdan o'tadilar, v.h.

Shunday qilib, siyosiy adabiyotda partiyaning xilma – xil ta'riflari mavjud ekan: – Ana shulardan kelib chiqib, siyosiy partiya quyidagicha ta'rif berish mumkin: **siyosiy partiya**-siyosiy hokimiyatni egalash yoki unga doimiy ta'sir o'tkazish maqsadida mafkuraviy asosda tashkil topgan ixtiyoriy ittifoq.

Odatda, zamonaviy siyosiy partiyalar quyidagi ichki tuzilishga ega:

- yetakchi (yetakchilar) va rahbarlar guruhi;
- apparat;
- faol a'zolar;
- passiv a'zolar.

Samarali faoliyat ko'rsatish uchun partiya siyosiy faoliyat bilan faol va maxsus shug'ullanuvchi "malakali siyosatchilar" rahbarligiga muhtoj. Ular partiya faoliyatini tashkil etadilar va muvofiqlashtiradilar.

Partiyalar odatda byurokratik apparatga ega. U tashkilotda ishlovchi va o'z mehnati uchun haq oluvchi odamlardan iborat.

Partiyaning faol a'zolari – uning rahbariyati yoki byurokratik apparatiga kirmagan holda tashkilot faoliyatida doimo ishtirok etuvchi shaxslardir. Partiyaga kirishga ularga turli sabablar ta'sir etadi: siyosiy manfaatlar, moddiy omillar, hokimiyat, obro'ga intilish, v.h.

Partiyaning passiv a'zolariga tashkilotga kirgan, ammo uning faoliyatida dam-badam qatnashib turadigan shaxslar kiradi.

Partiyaga hayrixoh rypuh mavjud bo'lishi mumkin: ular tashkilotga kirmagan holda uning mafkuraviy va pirovard maqsadlarini qo'llab-quvvatlaydilar. U Hayrihoxlarning roli saylov kampaniyalari davrida ayniqsa beqiyos ortadi.

Partiyalar hayotida moliyaviy jihatdan ularni ko'llab- quvvatlaydigan tashkilot yoki alohida shaxslarning roli juda muhim. Ularga yirik kapital egalari yoki milliy, chet el tadbirkorlik, kasaba, diniy va madaniy tashkilotlar kiradi. Partiyalarga ko'rsatgan moliyaviy yordamlari tufayli xomiylar unga ta'sir eta olish qobiliyatiga ega bo'ladilar.

**Siyosiy partiyalarni turkumlash.** Siyosiy partiyalarni turkumlashning ko'plab asoslari mavjud. Quyida ularning ayrimlarini ko'rib chiqamiz:

**Dasturining ijtimoiy yo'nalishi va faoliyat yo'nalishiga ko'ra siyosiy partiyalar:**

- sotsial – demokratik;
- liberal-demokratik;
- kommunistik;
- milliy;
- irqiy;
- diniy;

- davlat - vatanparvarlik;
- xalq partiyalariga ajratiladi.

**Faoliyatining g'oyaviy asoslariga ko'ra siyosiy partiyalar quyidagicha bo'linadi:**

- doktrinal (o'z mafkurasini himoya qiluvchi);
- pragmatik (maqsadga muvofiklikdan kelib chiquvchi);
- xarizmatik (muayyan siyosiy yetakchi atrofida birlashuvchi).

**Dasturni amalga oshirish uslublariga ko'ra:**

- inqilobiy (jamiyatni tubdan kayta isloh qilishga intiluvchi);
- islohotchi (ijtimoiy hayotni keskin tarkibiy o'zgarishlarsiz o'zgartirish tarafdori).

**Siyosiy faoliyat tabiatiga ko'ra siyosiy partiyalar:**

- reaksiyon;
- konservativ;
- radikal;
- ekstremistik;
- mu'tadil bo'lishi mumkin.

**Hokimiyatda ishtirokiga ko'ra siyosiy partiyalar:**

- hukmron;
- muxolif (oshkora, yashirin) larga bo'linadi.

**Siyosat maydonida joylashishiga ko'ra:**

- markaz partiyalari;
- o'ng partiyalar;
- so'l partiyalar mavjud.

**Tashkiliy tuzilishiga ko'ra siyosiy partiyalar:**

- parlament partiyalari (birlamchi tashkilotlari sifatida xuduhiy qo'mitalar chiadi);
  - leyboristik partiyalar (parlament partiyalarining bir ko'rinishi bo'lib, kollektiv a'zolik, shu jumladan mexnat jamoalarining partiyaga kollektiv a'ziligiga ruxsat etadi);
  - avangard partiyalar (demokratik sentralizm va a'zolarining hududiy – ishlab chiqarish asosida birlashtirish tamoyiliga asoslanadi).

**Parlament partiyalari o'z navbatida parlamentdagi ta'siri nuqtai nazaridan:**



- majoritar, ya'ni eng ko'p mandat oluvchi va hukumat tuzuvchi partiyalar;

- ustun partiyalar, ya'ni nisbatan ko'p mandat egalari;

- minoritar partiyalarga bo'linadi (kam mandatli).

#### **A'zolik tabiatiga ko'ra partiyalar:**

- kadrlar partiyalari (kam sonligi, a'zolikning erkinligi, tashkiliy bo'shligi);

- ommaviy (ko'proq a'zolarga ega bo'lishga intiluvchi, qattiqqo'l intizomga asoslanuvi) bo'linadi.

XX asrning 60-yillarida ko'pgina mamlakatlarda sinflar yoki hatto mafkuralararo dasturlar ishlab chiqib to'liq elektoratga qaratilgan **"saylovchilar"** partiyalari shakllandi. Hozirgi kunda ko'p ommaviy partiyalar o'z dasturlarini "saylovchilar" partiyalariga moslab o'zgartiryaptilar. "Saylovchilar" partiyalarining bosh g'oyasi – turli ijtimoiy kuchlarni birlashtirishga imkon beruvchi maqsadlarni ilgari surishdan iborat.

**"Milliy partiyalar" tushunchasi.** Milliy partiya hududiy, chegaralarda emas, butun davlat miqiyosida amal qiluvchi partiya bo'lib, u parlamentga saylovlar mobaynida (ba'zan prezidentlikka to'g'ridan – to'g'ri saylovlar mobaynida) doimiy ravishda muayyan foiz ovoz oladi (odatda 2-3% dan kam bo'lmagan), o'z nizomi, dasturiga ega, ro'yxatdan o'tgan, muayyan miqdorda a'zolarga ega (masalan, Meksikada 1947 yil qonuniga ko'ra shtatlarning yarmidan 65 mingdan kam bo'lmagan a'zolar soni). Milliy deb e'tirof etilgan partiyalar (odatda bu – markaziy saylov qo'mitasi tomonidan qilinadi) saylovlarda bir qator ustunlikka ega bo'ladi. Masalan, ular uchun ushbu partiya nomzodlarini quvvatlovchi imzolar yig'ish shart emas. Milliy partiyalar konsepsiyasi saylov tizimini bir muncha soddalashtirish, ortiqcha harakat va sarflardan qochish, vaqtni tejash imkonini beradi. Ba'zi mamlakatlarda partiyalarni milliy deb tan olinishi ikki bosqichga ega. Birinchi bosqichda partiya umummilliy saylovlarda belgilangan miqdorda ovoz olishi kerak. (masalan, Meksikada 1,5 %). Shunda u milliy partiya sifatida shartli ravishda ruyhatdan o'tadi. Keyingi umummilliy saylovlarda qatnashib, shu partiya yana belgilangan ovozlar miqdorini olsa, u umummilliy, deb e'tirof etiladi.

**Partiya tizimlari.** Siyosat nazariyasida partiya tizimi deyilganda, hokimiyat uchun kurashda va uni amalga oshirishda ishtirok etuvchi barcha partiyalar birligi tushuniladi. Partiya tizimlari shakllanishiga va uning o'ziga xosligigiga juda ko'p omillar ta'sir etadi. Xususan, amaldagi Konstitutsiya, qonunchilik, saylov turi, shuningdek, jamiyatda amal qiluvchi siyosiy madaniyat, an'analar, milliy, diniy omillar, jamiyatdagi ijtimoiy qatlamlar – partiya tizimi tabiatini belgilashda muhim rol o'ynaydi.

Tarixan partiyaviy tizimlarning quyidagi turlari shakllangan: **bir partiyaviy, ikki partiyaviy** (ba'zi adabiyotlarda “mukammal ikki partiyaviy tizim” va ikki yarim partiyaviy tizim) hamda **ko'p partiyaviy** tizim (ba'zi adabiyotlarda “mukammal ko'p partiyaviy tizim” va “hukmron partiyali ko'p partiyaviy tizim”).

**Bir partiyali tizimda** yagona partiya davlat hokimiyatiga ham egalik qiladi. Yorqin misoli sobiq SSSR Kommunistik partiyasi.

Umumilliy saylovlarga mamlakatda amal qilayotgan partiyalarning faqat ikkita – yetakchisigina ovozlarning 90% va undan ortig'ini to'plasa, “mukammal ikki partiyaviy tizim” to'g'risida fikr yuritish mumkin bo'ladi. Bunday tizim – AQShda mavjud.

“Ikki yarim” partiyaviy tizimda ikki yirik partiya saylovchilar ovozlarning 75-80% ga ega bo'lib, “uchinchi” partiya saylov natijalariga jiddiy ta'sir ko'rsata oladigan darajada ovoz to'plagan bo'ladi. Yirik partiyalar “uchinchi” partiya bilan, yoki o'zaro bir-biri bilan ittifoqlar tuzishga majbur bo'ladilar. Bu tizim, masalan, GFR da amal qiladi.

Ammo vaziyat butunlay qarama-qarshi ham bo'lishi mumkin: mamlakatda amal qilayotgan partiyalar ichida birining mavqei shunchalik yuqori-ki, unga birorta boshqa partiya yetib olamaydi. Ba'zan u saylovda mag'lub bo'lishi mumkin. Chunki qolgan partiyalar unga qarshi ittifoqda chiqadilar. Ammo juda qisqa vaqt ichida bu partiya yo'qotgan mavqeini tiklab olish qobiliyatiga ega. Bunday tizimlar “hukmron partiyali ko'p partiyaviy tizimi” deb ataladi. Bunday tizimlar hozirgi kunda bir qator g'arb demokratiyalarida uchraydi: Shvesiya, Norvegiya, Daniya. Bu yerda hukmron sotsial-demokratik partiyalar o'z mavqelarini muholifotning ko'p sonligini va uyushmaganligi tufayli ham uzoq vaqt davomida saqlab qola olyaptilar. Shu jihati bilan bu partiyalar bir partiyaviy tizimdagi yagona partiyadan farq qiladi.

Ko'pgina mamlakatlarda mavjud ko'p partiyaviy tizimlarda bir qator partiyalar hokimiyat uchun kurashda deyarli bir xil imkoniyatlarga ega. Shuningdek, ular turli ittifoqlar, partiya bloklari tuzishlari mumkin. Bunday tizimlardagi partiyalarning sonlari turlicha bo'ladi: 3 tadan (Belgiya, Avstriya) 12 ta (Niderlandiya) va undan ortiq.

**Ko'p partiyaviylik shakllanishiga bir qator omillar ta'sir etadi.** Ko'p qatlamlar, sinflarga ega mamlakatlarda ko'p partiyaviylik shakllanishi oson (Rossiya). G'arbiy Yevropa mamlakatlarida mafkuraviy va diniy, shuningdek, tarixiy va milliy omillar ko'p partiyaviylik shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan.

Partiyalar soniga saylov tizimining turi ham ta'sir etadi. **M.Dyuverje uch sotsiologik qonunni bayon etgan:**

- 1) proporsional vakillik ko'p partiyaviylikka olib keladi;
- 2) majoritar tizim asosidagi ikki bosqichli saylovlar ittifoqlar bilan yumshatiluvchi ko'ppartiyaviylikka olib keladi;
- 3) bir bosqichli majoritar tizimdagi saylovlar ikki partiyaviylikka olib keladi.

Xo'sh, sanab o'tilgan partiyaviy tizimlardan qaysi biri mukammal? Albatga, bu savolga uzil-kesil javob berib bo'lmaydi. Bir partiyaviy tizim demokratiyaga mutlaqo yotligini nazarda tutib, ikki va ko'p partiyaviy tizimlarning afzalliklari va kamchiliklari to'g'risida to'xtalib o'tamiz:

Ikki partiyaviy tizimda g'olib chiqqan partiya hukumatni tuzadi va o'zi faoliyat ko'rsatgan muddatdagi barcha yutuqlar va kamchiliklar uchun yakka o'zi mas'uldir. Bunday hukumat barqaror bo'ladi, negaki, hukumat a'zolari bir partiya vakilari bo'lishi bilan birga shu partiya parlamentdagi mandatlarining ham ko'pchiligiga ega bo'lishi mumkin. Aholi ishonchini oqlamagan taqdirda ham norozilik siyosiy tartibga emas, hokimiyat partiyasiga qaratilgan buladi. Ikki partiyaviy tizim partiyalar o'rtasidagi mafkuraviy ixtiloflarni yumshatishga xizmat qiladi, deb hisoblanadi. Bu esa siyosiy tizimini ancha barqarorlashtiradi. Fakat ikki partiyaviy tizimgina mas'uliyatli boshqaruv talabiga javob beradi. Partiyalardan biri hokimiyat tepasida turadi, ikkinchisi – muxolifotda. Saylovchilar saylovlardan partiyalarni nazorat etish uchun foydalanishadi. Ikki partiyaviy tizimlar haqiqatan ham barqarorligi va samaradyurligini namoyon etdilar.

Ko'p partiyaviy tizim ikki partiyaviy tizimdagi muhim bir kamchilikni to'ldiradi – u jamiyatdagi barcha manfaatlarning bayon etilishini ta'minlaydi va shu tariqa davlat hokimiyatiga, kim tomonidan bo'lmasin, ta'sirning monopollashishiga yul qo'ymaydi. Bu esa, ayniqsa, o'tish davrini boshidan kechirayotgan mamlakatlarda demokratik islohotlarning yana bir kafoloti bo'lib xizmat qiladi. Ammo ko'p partiyaviylikning bir qator kamchiliklari ham bor: har bir partiya faqat o'zi bayon etayotgan tabaqa manfaati bilan cheklanib, jamiyatdagi talablarni uyg'unlashtirishga intilmaydi. Shu tariqa u jamiyatdagi manfaatlarni saralash funksiyasini yaxshi bajarmaydi. Ko'p partiyaviylik uchun siyosiy hukumat inqirozlari xos. Ko'p partiyaviylikda yetarlicha siyosiy madaniyatga ega bo'lmagan odam to'g'ri qarorga kelishi qiyin, negaki u hilma-xil partiyalarning dasturlaridagi barcha qirralarni chuqur anglab etish, tushunishi, ularni farqlashi kerak bo'ladi.

### **O'zbekistonda partiyaviy tizimning shakllanishi xususiyatlari.**

O'zbekistonda bugungi kunda ko'p partiyaviy tizim shakllanib bo'ldi. Ammo bu jarayon xali to'la ma'noda tugallangani yuq. Iqtisodiy islohotlar, mulkchilikning turli shakllari rivojlanib borishi bilan aholining ijtimoiy mobilligi ortib boradi va, demak, bugungi partiyalar va xarakatlar tarkibi va mazmunida o'garishlar ro'y berishi muqarrar. Oliy Majlis tuzilishida belgilangan o'zgarishlar ham partiyalar va elektorat faollashishi, partiya dasturlarining konkretlashishi, partiya tayanuvchi ijtimoiy qatlamlarning saralanishiga olib keladi, deb ehtimol kilishga imkon beredi. Garchand, O'zbekistondagi olimlar, jamoatchilik vakillarining bir qismi mamlakatimizda ikki partiyaviy tizim amal qilishi tarafdorlari sifatida partiyalar sonining kamayishini bashorat qilsalar-da, fikrimizcha, yaqin yillar ichida O'zbekistonda ko'ppartiyaviy tizim saqlanib qoladi.

O'zbekistonda partiyalar faoliyati huquqiy jihatdan bir qancha hujjatlar bilan **tartibga solinadi**:

1. O'zbekiston Konstitutsiyasining 39- moddasiga ko'ra<sup>12</sup>, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga egadirlar.

---

<sup>12</sup> <https://lex.uz/docs/6445145> Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.05.2023 й., 03/23/837/0241-сон

Siyosiy partiyalarda, jamoat birlashmalarida, ommaviy harakatlarda, shuningdek davlat hokimiyati vakillik organlarida ozchilikni tashkil etuvchi muxolifatchi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatini hech kim kamsitishi mumkin emas.

2. O'zbekiston Konstitutsiyasining 60-moddasida siyosiy partiyalarning o'zlari saylab qo'ygan vakillari orqali davlat hokimiyatini tuzishda ishtirok etishlari ta'minlanadi.

3. "O'zbekiston Respublikasining Davlat Mustaqilligi asoslari" to'g'risidagi (1991 yil 31 avgust) Qonun.

4. "O'zbekiston Respublikasi Prezidenta saylovlari to'g'risida" (1991 yil 18 sentabr) Qonuni.

5. "O'zbekiston Respublikasi Fuqaroligi to'g'risida" (1992 yil 2 iyul) Qonung.

6. "Siyosiy partiyalar to'g'risida" (O'zbekiston Respublikasi) Qonuni. "Xalq so'zi" 1997 y. 7 yanvar.

7. "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov" to'g'risidagi Qonun (1993 yil 28 sentabr) Qonuni.

8. O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy hokimiyat idoralarini qayta tashkil qilish to'g'risida" gi Qonun. 1993 yil 2 sentabr.

Hozirgi kunda O'zbekistonda mavjud partiyalar faoliyati, sustligini fuqarolar ham, mutaxassislar ham ta'kidlayapti. Buning bir qator ob'ektiv sabablari bor. Sababi, partiyalar fuqarolik jamiyati negizida fuqarolar, guruhlar, qatlamlar manfaatini davlatga bayon etuvchi tashkilot sifatida faoliyat olib boradi. Ammo, O'zbekistonda fuqarolik jamiyati endi shakllanyapti, xususiy mulkchilik negizida yangi qatlamlar vujudga kelishi va manfaatlarining saralanishi hali uzoq davom etadigan jarayon. Shuning uchun ham partiyalarimiz dasturlari va tayanch bazalari o'xshab ketadi, dasturlarda bayon etilgan maqsadlar bilan amaliy faoliyat o'rtasida farq mavjud. Afsuski, hozirda partiyalar ko'proq kasaba uyushmalari yoki davlat tashkilotlariga o'xshash vazifalarni bajarib kelmoqda. Bu vaziyatda partiyalar apparatida ishlash uchun ko'proq politolog, sotsiolog, psixologlar jalb qilinib, fuqarolik jamiyatini shakllantirish, bu boradagi yuzaga kelayotgan manfaat va talablarni bayon etib, saralab, davlat hokimiyati organlariga yetkazish, aholi siyosiy madaniyatini oshirishga e'tiborini kuchaytirishlari maqsadga muvofiq, bo'lib ko'rinadi. Partiyalarning bugungi

O'zbekiston siyosiy tizimidagi o'rni demokratik jamiyat qurishda davlatga yaqindan yordam berishdan iborat.

Jamiyat hayotida o'zining tutgan urni va ahamiyati jihatidan siyosiy partiyalar va harakatlar muhim rol uynaydi. Siyosiy partiyalar jamiyatni harakatga keltiruvchi asosiy siyosiy kuchlardan biri hisoblanadi. Qaysi mamlakatda qiyosiy partiyalar harakatda bo'lmas ekan, shu mamlakatda fikrlar erkinligi ham bo'lmaydi, bu xol jamiyat rivojiga O'zbekiston ta'sirini ko'rsatadi. Tarixiy taraqqiyotning ma'lum bir bosqichida jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy tabaqalanish ro'y bergan va buning oqibatida manfaatlari bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ijtimoiy guruhlar va ular manfaatlarini ifoda qiluvchi siyosiy partiyalar boshlagan.

Kishilar hayotida turli tuman muammolar mavjuddir. Ana shu muammolardan ayrimini inson bolasi bir o'zi, boshqalar esa faqatgina o'zgalar bilan uyushib, basharti, masalan, tadbirkorlikni rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan muammolarni: tadbirkorlik manfaatlarini himoya qilish, kredit olish, soliqqa tortish, tashqi bozorga kirish masalalarini xal qilish mumkin. Tadbirkorlar uyushmasi ham aynan shu maqsadlarda tuziladi. Shuningdek, boshqa guruhlar: pensionerlar, nogironlar, yoshlar, uqituvchilar, shifokorlar va hokazolar ham muammolarni xal qilish uchun uyushadilar

**Siyosiy partiya** – ijtimoiy sinf, tabaqa va guruhlarning tub manfaatlarini va O'zbekiston faoliyatida ifoda etuvchi ularning muayyan maqsad-manfaatlarini, orzu-umidlarini himoya qilish uchun kurashda ularga siyosiy rahbarlik qiluvchi siyosiy tashkilotdir.

Boshqacha aytganda, siyosiy partiya – jamiyat muayyan qismi, manfaatlarini ifodalovchi va davlat organlari faoliyatida ishtirok etishni o'ziga maqsad qilib qo'yuvchi maslakdoshlarning uyushgan guruhidir. Siyosiy partiyalar – jamiyatning muayyan ijtimoiy tabaqalari faol namoyondalarini birlashtiruvchi, siyosiy hayotda bevosita ishtirok etish orqali O'zbekiston manfaatlarini ifodalovchi siyosiy tashkilot. Yoki boshqacha izohlaganda, siyosiy partiyalar – qarash va maqsadlari bir bo'lgan turli tabaqa va guruhlardagi fuqarolarning siyosiy maqsadini ko'zlab tuzgan birlashmalari – tashkilotlaridir.

Siyosiy partiyalar saylovlarda ishtirok etib, tegishli organlarga O'zbekiston vakillarini o'tkazish orqali davlat hokimiyati organlari

faoliyatida ishtirok etadi. Shu bilan birga siyosiy partiyalar zamonaviy jamiyat tizimining muhim qismi bo'lib, ular davlatning siyosiy yo'nalishini belgilashda ishtirok etadi, hukumatning vakillik va ijro etuvchi muassasalarini shakllantiradi.

Siyosiy partiyalarning vujudga kelishi siyosiy hokimiyatni yo'lga kiritish uchun murosasiz kurash olib borish zaruriyati bilan uzviy bog'liqdir. Siyosiy partiyaga uxshash institutlar G'arb va Sharqda qadimdan mavjud bo'lgan. Tarixdan ma'lumki siyosiy partiyalar qadimgi Yunonistonda tashkil topgan bo'lib, ular oldin juda ozchilikni O'zbekiston saflarida birlashtirgan. Ular tarkibi jihatdan juda tor doirada uyushgan siyosiy tashkilotlar bo'lgan. Ular asosan jamiyatdagi turli sinflarning manfaatlarini emas, balki quldorlar sinfi ichidagi xilma-xil siyosiy oqimlar manfaatlarini ifoda etgan. Afinada geteriylar, Rim optimat va populyarlari antik davrida siyosiy partiya vazifalarini bajarishgan.

O'rta asrlarning siyosiy hayotida ham siyosiy partiyalar uzlarining mohiyati jihatidan bir oz farq qilgan. Faqat mustabidlik yoki mutlaq hukmronlik tuzumlarida siyosiy partiyalar jamiyat ijtimoiysiyosiy hayotida ochiq harakat qila olmagan. Sanoatlashtirish davriga qadar siyosiy partiyalarning universal shakli klanlar va maxfiy tashkilotlar edi. Klanlar asosan qarindoshlik aloqalari bilan bog'langan kishilardan iborat edi. O'rta asrlar Angliyada Yorklar va Lankasterlar, Arabistonda (o'rta asrda) esa alaviylar («Ali partiyasi»), Osiyo davlatlarida hozirgi kunda ham qarindoshlik va yurtdoshlik prinsiplarning siyosiy partiyalarning shakllanishi va faoliyat ko'rsatishida ahamiyati katta.

XVIII-XIX asrlarga kelib, siyosiy partiyalar belgilangan tarzda tasdiqlangan dastur, nizomi va doimiy a'zoligi bilan zamonaviy demokratik institutlar shakllanishi davrida paydo bo'lgan. Agar partiya muxolifat xususiyatiga ega bo'lsa, demokratik muassasalar rivojlanmagan sharoitda maxfiy tashkilot xususiyatlariga ega bo'lib qolgandek ko'rinadi. Misol uchun Yevropada masonlar tashkilotlari, Islom dunyosida Ismoililar tashkilotlariga o'xshab. Ayrim paytlarda bu siyosiy partiyalar maxfiy tashkilot xususiyatlariga ham ega bo'ladi.

Hozirgi sharoitda amal qilayotgan siyosiy partiyalar O'zbekiston ijtimoiy a'zosi, tarkibi va siyosiy harakat dasturining qanday maqsadlarga yo'naltirilganiga qarab **3 guruhni tashkil etadi:**

**1. Feodal munosabatlari va tartiblarning saqlanib qolishini ifoda etuvchi siyosiy partiyalar.** Bu guruhga Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasidagi feodal munosabatlari saqlanib qolayotgan mamlakatlarda faoliyat ko'rsatayotgan siyosiy partiyalar kiradi. Maqsadi: feodal tuzum tartiblarini himoya qilishdan iborat. O'zbekiston mavqeini yo'qotib borayotgan podshohlik (monarxistik), diniy, millatchilik, konservativ, ozodlik partiyalari nomlari ostida ish yuritadi.

**2. Burjua sinfi manfaatini ifoda etuvchi partiyalar** bo'lib, podshohlikni tan oladi, ba'zan sotsial-demokratik ko'rinishidagi partiyalardir.

**3. Ishchilar, dehqonlar, ziyolilar, hunarmand-kosiblar manfaatini siyosiy faoliyatlarida va harakat dasturlarida aks ettiradigan siyosiy partiyalar.**

Avval boshda kapitalistik jamiyatda siyosiy partiyalar XIX asrda burjuazianing turli guruhlari tomonidan tuzilgan. Amerika qit'asida: AQSh Demokratik partiya (1828), Gonduras milliy partiyasi (1854), Kolumbiya konservativ partiyasi (1848), Kolumbiya liberal partiyasi (1849), Argentina fuqarolar radikal ittifoq partiyasi (1891), Gonduras liberal partiyasi (1891), Gonduras milliy partiyasi (1891) tashkil topdi. Yevropada: Belgiya katolik partiyasi (1891), Italiya respublikachilar partiyasi (1832), Buyuk Britaniya liberal partiyasi (1867), Buyuk Britaniya konservativ partiyasi (1867) tashkil topdi. Osiyoda: Hindiston milliy kongressi partiyasi (1885). Afrikada: (asosan XX asr boshlarida) Janubiy Afrikaliklar milliy kongressi partiyasi (1912), JAR millatchilar partiyasi (1918). Avstraliya va Okeaniya qit'asida: Avstraliya leyboristlar partiyasi (1891), Milliy (sobiq agrar) partiya (1916), Leyboristlar partiyasi (1916), Avstraliya liberal partiyasi (1944) va boshqa partiyalar yuzaga kela boshladi.

Siyosiy partiyalar faoliyati O'rta Osiyoda asosan XX asr boshlariga kelib tashkil topdi. Bu avvalo O'rta Osiyoda mustamlakachilik siyosatiga qarshi ozodlik harakati bilan bog'liq bo'lgan. Jumladan, o'sha yillarda keng yoyilgan jadidchilik harakati tufayli «Turon», «Ittixodi taraqqiy», «Birlik», «Sharq birligi», «Yosh buxoroliklar», «Yosh xivaliklar», «Miftax ul-maorif» va boshqa ko'plab ijtimoiy tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan. Ammo sobiq sho'ro hukumatining qurolli istilosi natijasida barcha milliy siyosiy partiyalar faoliyati ta'qibga olindi va batamom tugatildi. Faqat istiqlol tufayligina



O'zbekiston siyosiy partiyalar tom ma'nodagi jamiyatning ijtimoiy-siyosiy tarkibiga aylandi.

**Partiya tizimi** – siyosiy institut tushunchasi, jamiyatning siyosiy tuzilishi va jamiyat a'zolarini davlat va jamiyat hayotida ishtirok etishning qabul qilingan hamda e'tirof etilgan qoidasi.

Partiyaviy tizim – jamiyat ichida ijtimoiy faoliyatni shakllantiruvchi, tashkil etuvchi siyosiy institutlar majmuasidir. Siyosiy institutlar bir tomondan siyosiy partiyalar bilan davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, boshqa tomondan – partiyalar siyosiy tizimning ijtimoiy elementlari va fuqarolar o'rtasidagi munosabatlari ifodasi. Partiya tizimi ma'lum bir jamiyat yoki davlatlar tomonidan qabul qilinmagan. Masalan, Butan, Ummon, Quvayt, Saudiya Arabistoni kabilar. Shu bilan birga, bir partiyali yoki ko'p partiyali tizimlar ham mavjud.

Siyosiy partiyalar partiyaviy tizim jihatdan klassifikatsiyasi, turlariga kelsak, dunyo davlatlarida partiyaviy tizim klassifikatsiyasi, turlari quyidagilar bo'lib kelgan:

1. Ko'p partiyaviylik tizimi. Bu tizimda fuqarolarga turli partiyalardan nomzodlarni tanlab olishga va jamiyatni davlatlashtirishda u yoki bu dasturga afzallik berishga imkon yaratadi. Ko'p partiyaviylik tizimi O'zbekiston navbatida:

**1) Ko'p partiyaviylik** tizimida hukmron partiyalarga bo'linadi. Masalan AQSh demokratik partiyasi (1828), AQSh respublikachilar partiyasi (1854), Avstraliya qit'asida leyboristlar partiyasi (1916), Alyans partiyasi (1966), O'zbekistonda FMDP (1998), XDP (1991) va hokazo.

**2) Ko'p partiyaviylik** tizimida hukmronsiz partiyalar. Masalan, AQSh Kompartiyasi (1919), AQSh sotsial-demokratik partiyasi, AQSh sotsialistik partiyasi, O'zbekistonda bizning taxminimizcha, «Adolat» partiyasi (1995), Milliy tiklanish partiyasi (1995) va hokazo.

**3) Ittifoq (blok) partiyalari.** Masalan, Germaniya sotsial–demokratik partiya (1869), Xristian sotsial ittifoqi (1945), Erkin demokratik partiya (1848), Xristian demokratik ittifoqi (1950), «Ko'katparvarlar» partiyasi (1980) va hokazo.

**2. Ikki partiyaviy tizim.** AQShda 2 partiyaviyli tizim tarkib topgan bo'lib hokimiyat tepasiga Respublikachilar (hozirgi prezident J.Bush) va Demokratik partiyasi kelib turadi.

**3. Bir partiyaviylik tizimi.** Tarixning borishi yakka partiyaviylik tizimi davlatda diktatura o'rnatilishiga olib kelishini tasdiqladi (Xitoy). Ammo ulkan mamlakat Xitoyda konfutsiycha jipslik, yakdillik tufayli milliy rivojlanish kuzatilmoqda.

Siyosatshunoslik ta'limotida politologlar siyosiy partiyalar tuzilishiga doir turli fikr-mulohazalarni bildiradilar.

**Siyosiy partiyalarning tuzumga ko'ra turlari:**

1. Burjua-demokratik partiyalar.
2. Avtoritar partiyalar.
3. Sotsialistik partiyalar.

**Siyosiy partiyalar faoliyatidagi ustunlik xususiyatiga qarab, ularni quyidagi turlarga bo'linadi:**

1. Avangard tipidagi partiyalar.
2. Parlament tipidagi partiyalar.
3. Saylov kampaniyasida ishtirok etish uchun ta'minlanadigan partiya (k o'proq rivojlangan mamlakatlarda).
4. Munosabat partiyasi, klub partiyasi (ma'rifatparvarlik xarakteridagi, Moskva ishchilar klubi va hokazo).

**Siyosiy partiyalar sinfiy belgilariga ko'ra:** proletar, dehqon, mayda burjua, burjua, pomeschchik partiyalari mavjud bo'lgan.

**Siyosiy partiyalar mafkuraviy belgilariga ko'ra:** kommunistik, sotsialistik, sotsial-demokratik, xalq, liberal, konservativ, diniy va milliy partiyalarga bo'lingan.

**Siyosiy partiyalar mavjud tuzumga ko'ra:** inqilobiy, islohotchi, konservativ va reaksion partiyalar bo'lgan.

**Siyosiy partiyalar tarkib topishi, faoliyat usullariga ko'ra:** demokratik, avtoritar, totalitar partiyalarga bo'lingan.

**Siyosiy partiyalar tarkibiga ko'ra:** ommaviy partiyalar, xodimlar partiyasi, oq suyaklar partiyasi bo'lgan.

**Siyosiy partiyalar yo'nalishiga ko'ra:** so'l, markaz, o'ng partiyalar mavjud bo'lgan.

**Siyosiy partiyalar faoliyatiga ko'ra:** bosiq, radikal, ekstremistik partiyalar.

Hozirgi davrda jahondagi ilg'or va demokratik mamlakatlarda siyosiy partiyalar, nodavlat tashkilotlar, turli ijtimoiy-siyosiy harakatlar

(uyushmalar, jamg'armalar, turli tashabbus guruhlari, feministlar, «yashillar» va boshqalar) faoliyat yuritib kelmoqda. Zero, bundan 150-200 yillar muqaddam dunyo mamlakatlarining ko'pchiligida siyosiy partiyalar va nodavlat tashkilotlar faoliyati davlat tomonidan taqiqlangan edi. Ular asosan maxfiy ravishda faoliyat yuritib kelgan. Bu kabi taqiqlar, yashirin va norasmiy faoliyat jarayonlarini deyarli bar cha jamoat birlashmalari – siyosiy partiyalar, «mason loja»lari, kasaba uyushmalari va turli lobbistlar guruhlari ham boshdan kechirgan.

Ilgarigi zamonlarda odamlarda davlatga tegishli bo'lmagan faoliyat, «xiylagarlik», «fitnachilik» tasavvurini uyg'otar edi. Mazkur masalaga mashhur ingliz mutafakkiri **Tomas Gobssning qarashlarida** o'ziga xos yondashish mavjud. U «Leviafan» asarida oshkora faoliyat yurituvchi barcha guruh birlashmalarini davlat tashkilotlari tuzilmalari deb hisoblab, ularni ikki asosiy turkumga bo'ladi. Uning ta'kidlashicha, «hokimiyat ostidagi guruhlarining ba'zilari siyosiy, boshqalari esa xususiy xarakterga ega. Siyosiy guruhlar (boshqacha qilib aytganda, siyosiy «tana» va huquqiy shaxslar) deganda, davlat oliy hokimiyati tomonidan berilgan vakolatlar asosida tuzilgan guruhlar nazarda tutiladi. Xususiy guruhlar esa fuqarolar tomonidan yoki xorijiy hokimiyat tomonidan berilgan vakolatlar asosida tuziladi»<sup>1</sup>. T.Gobss fikricha, nodavlat jamoat birlashmalari fakatgina davlat va yuqori hokimiyat organlari ruxsati bilan faoliyat ko'rsatishi mumkin. Demak, XVIII asrning oxiriga kelib, qator mamlakatlarning partiyalari, kasaba uyushmalari va boshqa jamoat birlashmalari davlatning ruxsati yoki taqiqi «qozonida qaynagan», keyinchalik oshkora tashkilotga aylangan. Siyosiy partiyalar paydo bo'lishi bilan ularga oid nazariyalar ham shakllana boshladi. Siyosiy partiyalarning mohiyati, ularning nazariy qarashlari rivojlanishini uch bosqichga bo'lish mumkin.

**Birinchi bosqich - XVII-XVIII asr oxirlarini o'z ichiga olgan**, bu davrda siyosiy partiyalarga nisbatan dushmanlik kayfiyati ustuvorlik qilar edi. «Siyosiy partiya» deganda o'z yetakchilarining xususiy manfaatlarini amalga oshirish faoliyatini maqsad qilib olgan nolegitim guruhlar tushunilgan. Natijada partiyalarga nisbatan qurolli xarakter kasb etuvchi doimiy kurash holatidagi guruhlar sifatida qarab kelindi. Bu holat jamiyatdan beqarorlik va ichki nizolarning kuchayishiga olib keldi. Siyosiy

partiyalarga nisbatan bunday qarashlar N.Makiavelli, D.Yum, G.Bolingbrok, J.Tolandlarning siyosiy va falsafiy fikrlari uchun xarakterlidir.

**Ikkinchi bosqich – XVIII asr oxiri – XIX asrning boshlariga** xos bo'lib, bu davrda siyosiy partiyalar davlat tomonidan tan olinib boshlandi. Faylasuflar, siyosatshunoslar va siyosatchilar o'z faoliyatlarida partiyalarning jamiyat hamda davlat hayotida yashash huquqiga ega ekanligini e'tirof etdi, ularning zaruriylikini tan oldi, o'z faoliyatlarida ularga tayana boshladi. Siyosiy partiyalarga nisbatan bu kabi qarashlar AQSh otalari – J.Medison va T.Jefferson, shuningdek, fransuz mutafakkiri A. de Tokvil ilmiy nazariy merosi uchun xosdir.

**Uchinchi bosqich – XIX asrning oxiri – XX asrni** o'z ichiga olib, bu davr uchun siyosiy partiyalarning to'liq legitimligi (jamiyat tomonidan tan olinishi) xarakterlidir. Bu davrda J.Brays, A.Louell, M.Y.Ostrogorskiy tomonidan ishlab, chiqilgan siyosiy partiyalarga oid nazariy qarashlar mukammalligi bilan ajralib turdi. Ular siyosiy partiyalarning jamiyatdagi o'rni va vazifalarini e'tirof etib, siyosiy partiyalarsiz jamiyatini tasavvur kila olishmagan. Ular o'z tadqiqotlarida asosiy e'tiborni partiyalarning tashkiliy tuzilmasi va partiyaviy ishlar usullariga qaratdi.

Bu siyosiy partiyalarning partiya tashkilotlari sifatida rivojlanganligi, partiyaviy mafkuralarning shakllanishi bilan bog'liq edi. Lekin siyosiy partiyalarga doir nazariy qarashlarning har bir bosqichi uchun ilmiy meros qoldirgan mutafakkirlar o'z davrlari uchun hayotiy qo'llanmalar yaratishdan tashqari keyingi davrlarda siyosiy partiyalar to'g'risidagi nazariyalar rivojlanishi uchun asos yaratib bergan edi. Jumladan, Nikolo Makiavelli siyosiy partiyalarga nisbatan salbiy munosabatda bo'lishiga qaramay, ilk bor e'tiborni partiyalarning kundalik o'zaro kurashlari, tanikli zodagonlar vakillarining partiyalarga boshchilik qilish asosida o'z manfaatlarini himoya qilishi, turli qatlamlarga mansub guruhlar o'rtasidagi o'zaro kurashlar, gvelflar va gibbelinlar partiyalari, oqlar bilan qoralar o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni tahlil etishga qaratdi. U ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni hukumat tashqi siyosatiga bog'lagan o'z zamondoshlaridan farqli o'laroq partiyalararo ziddiyatlar asosida ro'y berayotgan ichki siyosiy kurashlarni keng va chuqur o'rgandi.

Mutafakkir faylasuf David Yum partiyalarga oid tadqiqotlarni tahlil etar ekan, partiyalarning paydo bo'lishini insoniy tabiat bilan bog'ladi;

kishilarning partiyalarga birlashishida ideallar (prinsiplar) va manfaatlar harakatini ko'ra oldi; partiyalar tashkil topishining ob'ektiv xarakteriga e'tibor qaratdi; ilk bor ma'lum mezonlarga asoslangan holda fraksiyalarni differensiyalay oldi.

Mashhur ingliz davlat arbobi Genri Bolingbrok esa 1735-yildayoq «Partiyalar to'g'risida fikrlar» asarini yozib, unda siyosiy partiyalarga doir boshlang'ich qoida va yo'l - yo'riqlarni ishlab chiqdi.

#### **Topshiriqlar:**

- 1.Siyosiy partiya tushunchasi va mohiyati.
- 2.Siyosiy partiyalar siyosiy tizimning ajralmas qismi sifatida.
- 3.Partiyaviy tizimlarning tipologiyasi.Partiyalar tasnifi.
- 4.Siyosiy partiyalarning huquqiy asoslari. “fraksiya”, “muxolifat”, “elektorat” tushunchalarining mohiyati.
- 5.Siyosiy partiyalarning demokratik institutlar rivojlanishidagi o'rni va ahamiyati.

### **13-MAVZU. PARLAMENTARIZM INSTITUTINING JAMIYAT SIYOSIY TIZIMI RIVOJIDAGI ROLI**

#### **Reja:**

**13.1.“Parlamentarizm” tushunchasi haqida.**

**13.2.“Parlament” tushunchasi, turlari va uning funksiyalari.**

**13.3.O'zbekiston parlamentarizmining paydo bo'lishi va rivojlanishi.**

***Tushuncha va tayanch iboralar:*** parlamentarizm, parlament, qonunchilik instituti, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud hokimiyati, davlat mexanizmi, davlat apparati, yunikameral, bikameral.

**“Parlamentlar – erkinlikning haqiqiy qo'riqchilari va ular yuzaga kelishining asosiy boisi ham aynan shundadir” (Lord Bolingbrok).**

**Parlamentarizm-** davlat tuzilmalari tizimi sifatida namoyon bo'lib, unda qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarning funksiyalari parlamentning imtiyozli pozitsiyasi bilan aniq chegaralangan bo'ladi.

**“Parlament” fransuzcha “ragleg” so'zidan kelib chiqqan bo'lib, so'zma-so'z o'g'irganda “gapirmoq”, “gapiriladigan joy” degan**

**ma'nolarni anglatadi.** Ushbu atama vakillik organini ifodalovchi tushuncha sifatida dastavval Angliyada qo'llanilgan. Insoniyat tarixida ingliz parlamentidan ancha oldinroq shakllangan va parlament deya nomlanmagan bo'lsa-da u yoki bu ma'noda vakillik organi vazifasini bajargan idoralar ham mavjud bo'lgan. Bular qatoriga Qadimgi Yunonistonda hukmdorlik qilgan Solon davridagi "bule - to'rt yuzlar kengashi" va Klisfen vaqtidagi "besh yuzlar kengashi"ni, shuningdek Qadimgi Rimdagi xalq majlislari, senat va magistraturalarni kiritishimiz mumkin.

Davlat hokimiyati tizimida parlamentning tutgan o'rni va rolini anglashda muhim ahamiyatga ega ikki tushuncha ya'ni, xokimiyatning bo'linishi prinsipi va parlamentarizmning mohiyatini yoritish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki, davlat hokimiyatining tizimi tso'p jihatdan uning qanday asoslarda amalga oshirilishi bilan bevosita bog'lidir.

Ma'lumki, davlat hokimiyati davlat mexanizmi orqali amal qiladi. Qayd etish kerakki, yuridik adabiyotlarda davlat "**mexanizmi**" va "**apparati**" tushunchalari ba'zan farqlanadi va ba'zan aynanlashtiriladi. Yuridik adabiyotlarda davlat mexanizmi va apparati tushunchalarini o'zaro farqlash yoki aynanlashtirishni tanqid qilishga qaratilgan fikrlar qam bildirilmoqda. Xususan, E.P.Grigonis "apparat" va "mexanizm" tushunchalarining lug'aviy ma'nosidan kelib chiqib, quyidagicha xulosaga keladi: "**davlat mexanizmi**" va "**davlat apparati**" turli tekislikda bo'lib, ulardan biri davlat organlari tizimini ifodalasa, ikkinchisi ushbu tizimning harakatini anglatadi. E.P.Grigonis davlat mexanizmini davlat organlarining faoliyati, harakati deya tavsiflaydi. Ushbu qarashlar tahlili davlat mexanizmi va apparati tushunchasi borasida muayyan fikr bildirish imkonini beradi. Biz davlat mexanizmini davlat apparatiga nisbatan keng tushuncha deb hisoblaymiz. Fikrimizcha, davlat apparati - bu davlat organlari tizimi bo'lsa, davlat mexanizmi qonunda belgilangan tartibda davlat funksiyalarini amalga oshiradigan organlar, muassasa, tashkilotlar va mansabdor shaxslar tizimi hamda ushbu tizimning harakati, faoliyatidir.

Demokratik davlatlarda davlat mexanizmi hokimiyatning bo'linishi prinsipi asosida quriladi. Bu prinsipga ko'ra, davlat hokimiyati bir-biridan mustaqil bo'lmish **qonun chiqaruvchi**, **ijro etuvchi** va **sud** hokimiyatiga bo'lingan holda amalga oshiriladi. Shu bilan bir qatorda, hokimiyatning

birdan-bir manbai suveren xalq ekanligidan kelib chiqib, davlat hokimiyatining birligi ham e'tirof etiladi. Mazkur prinsipning mazmuni va mohiyatini quyidagicha ifodalashimiz mumkin:

**birinchidan**, - davlat hokimiyati bir-biridan mustaqil bo'lgan qonun chiqaruvchi (bir yoki ikki palatali parlament), ijro etuvchi (davlat boshlig'i - prezident, monarx va boshqalar, hukumat, vazirliklar, mahalliy davlat hokimiyati ijro etuvchi organlari va boshqa organlar) va sud hokimiyatiga (konstitutsiyaviy, umumiy yurisdiksiya sudlari, xo'jaalik va boshqa sudlar) bo'linadi;

**ikkinchidan**, davlat hokimiyati bo'linishi hokimiyat tarmoqlarining bir-biridan mutlaqo ajralishi va o'zaro qarama-qarshi turishini anglatmaydi, balki ularning yagona manba - xalq hokimiyatchiligiga asoslanishini, o'zaro hamjihatligini, konstitutsiya va qonunlar doirasida bir-birini tiyib turishi hamda hokimiyat tizimida mutanosiblik va muvozanat saqlashini ifodalaydi;

**uchinchidan**, ijro etuvchi hokimiyatning faoliyati qonun osti tusida bo'ladi, ya'ni uning faoliyati va qarorlari qonunga asoslanadi, uni ijrosini ta'minlashga yo'naltiriladi va qonunga zid bo'lishi mumkin emas;

**to'rtinchidan**, sud hokimiyati faqat konstitutsiya va qonunga bo'ysunadi, uni ijro etuvchi hokimiyat qarorlariga bo'ysundirish yaramaydi va faqat sud hokimiyatigina huquq haqidagi nizolarni hal etib, odil sudlovni amalga oshiradi;

**beshinchidan**, bir shaxs bir necha hokimiyat organida ishlashi mumkin emas (parlamentlik boshqaruv shakliga asoslangan davlatlar bundan mustasno).

Ushbu prinsip hali mamlakatimiz o'zining Konstitutsiyasini qabul qilmasidan oldinoq asosiy prinsip sifatida 1991 yil 31 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari tug'risida"gi Qonunning 5-moddasida mustaxkamlangan edi. Keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 11-moddasida ham o'z ifodasini topdi. Unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi - hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi prinsipiga asoslanadi. Davlat hokimiyatining bo'linishi parlamentarizmning qaror topishi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan prinsipdir. Chunki, davlat instituti sifatida parlamentning yuzaga kelishi bir shaxs ya'ni, monarx qo'lida to'plangan hokimiyatning chegaralanishi va

bo'linishini taqozo etgan. O'z navbatada, parlamentarizmning rivoji davlat hokimiyatining bo'linishi prinsipi nechog'lik real amalga oshganligi bilan belgilanadi.

Yuridik lug'at va ensiklopediyalarda parlamentarizmga quyidagicha ta'riflar berilgan:

**Parlamentarizm** – davlat faoliyatini tashkil etishning xususiyatlaridan biri bo'lib, aholi tomonidan saylanadigan va doimiy ishlaydigan parlamentning mavjudligini, uning obro'-e'tibori va davlat ishlariga, jamiyatning siyosiy turmushiga ta'sirini, o'ziga xos ish shakllarini, shuningdek parlament a'zolari bilan saylovchilarning munosabatlarini tavsiflaydi;

**parlamentarizm** --bu qonun chiqaruvchi vakillik organi bo'lmish parlamentning boshqa davlat organlariga nisbatan rasman ustuvorligi sharoitida qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi funksiyalarning aniq taqsimlanishi bilan tavsiflanuvchi davlat qurilishi tizimi bo'lib, bunda, xukumat parlament tomonidan shakllantiriladi va uning oldida mas'ul hisoblanadi.

Parlamengarizmning mazmun-mohiyati bo'yicha bildirilgan va ilgari surilayotgan g'oyalar, fikr-mulohazalar tahlilidan kelib chiqib, ushbu tushunchaning quyidagicha talqinlarini ajratishimiz mumkin:

**Birinchi, parlamentarizm** – bu davlat hokimiyatini tashkil etishning shunday bir shakli, bunda, davlat hokimiyatining bo'linishi prinsipi amal qiladi va hokimiyatning boshqa tarmoqlariga nisbatan parlamentning ustuvorligi tan olinadi, parlament hukumatni shakllantiradi va uning faoliyatini nazorat qiladi. Bu talqinga ko'ra, parlamentarizm faqat parlamentlik boshqaruv shakliga asoslangan davlatlardagina mavjuddir.

**Ikkinchi, parlamentarizm** davlat hokimiyatini tashkil etishda hokimiyatning bo'linishi prinsipiga amal qilish, hokimiyat tarmoqlarining muslaqil faoliyat yuritishi, parlamentning davlat va jamiyat hayotida muhim o'rin tutishi, hokimiyat tarmoklarining o'zaro bir-birini nazorat qilishi, tiyib turishi va muvozanat saqlashini ifodalaydi. Mazkur yondashuvga muvofik, parlamentarizm nafaqat parlamentlik, balki har qanday tom ma'nodagi demokratik boshqaruv shakliga asoslangan davlatlarda ham amal qiladi.

**Uchinchi, parlamentarizm** aholi tomonidan saylanadigan va umumjamiyat miqyosida muhim qarorlar qabul qiladigan vakillik



organining mavjudligini ifodalovchi g'oyadir. Ushbu talqinga ko'ra davlat instituti sifatida oliy vakillik organi mavjudligining o'zi parlamentarizmdan darak beradi.

**To'rtinchi, parlamentarizm** fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etish xuquqiga ega bo'lish hamda yakka xukmronlik va o'zboshimchalikni cheklash yo'lidagi kurashlari, sayi-harakatlarini ifodalovchi g'oyaviy konsepsiyadir.

**Parlamentarizm** davlat hokimiyatini demokratik huquqiy tarzda tashkil etishning shakli bo'lib, davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud tarmoqlariga bo'lingan holda amalga oshirilishini, hokimiyat tarmoqlarining mustaqilligi va hamjihatligini, ularning konstitutsiya va qonunlar doirasida faoliyat yuritishini, o'zaro bir-birini tiyib turishi va muvozanat saqlashini hamda davlat hokimiyati va boshqaruv tizimida parlamentning muhim o'rin tutishi va yetakchi mavqega egaligini ifodalaydi.

**Parlamentarizmni** shuningdek, fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etish xuquqiga ega bo'lish hamda yakka hukmronlikni cheklash yo'lidagi kurashlari, sa'y-harakatlarini aks ettiruvchi, parlament va uning funksiyalari zaruratini ilmiy asoslashga xizmat qiluvchi g'oyaviy-nazariy konsepsiya sifatida ham e'tirof etish darkor.

- Erkin va roqobatli saylovlar
- Parlament faoliyatining erkinligi
- Hokiyatning boshqa institutlari tomonidan bosim o'tkazishning yo'qligi
- Tarkib miqdorining optimalligi
- Ozchilik huquqlari himoyalanganligining protsessual kafolatlari

Shu o'rinda hokimiyat tizimida **parlamentning** yetakchi mavqega ega bo'lishi masalasiga alohida to'xtalish joiz. **Parlamentning** yetakchiligi, eng avvalo, parlament tomonidan boshqa hokimiyat tarmoqlari vakolatlarining belgilab berilishini, davlat va jamiyat hayoti uchun muhim ahamiyatga ega strategik qarorlar faqat parlament tomonidan qabul qilinishini anglatadi.

Aksariyat olimlar qayd etganidek, bugungi zamonaviy parlamentning shakllanish ildizlari o'rta asrlarga borib taqaladi. Chunki, aynan o'rta asrlarda Yevropada keng aholi qatlamlari vakillik idorasi orqali davlat boshqaruvida qatnashish huquqiga ega bo'lgan. P.A.Fedosovning fikricha,

dastlabki tabaqaviy parlamentlar Pireney yarim orolida – Leon va Aragonda shakllangan va **korteslar** deb nomlangan. Shu kabi qirol huzurida tuzilgan tabaqaviy vakillik organlari Fransiyada - **General shtatlar**, olmon davlatlarida - **reyxstag** va **landtaglar**, Polshada - **seym** nomi bilan yuritilgan.

Angliyada parlament fuqarolar urushi davrida ziddiyatlarni tinch, murosayu-madora yo'li bilan hal etish vositasi sifatida 1265 yilda ta'sis etilgan. Bu parlament lordlar, dunyoviy va ruhoniylar feodallar, ritsarlar va shaharliklar vakillaridan tashkil topgan hamda muntazam yig'ilib turgan. Dastlab ingliz parlamenti bir palatali bo'lgan, keyinchalik 1343 yildan boshlab esa ikki palataga - lordlar va umum palataga ajraladi. Bunda, ritsarlar va shaharliklar umum palatada, magnatlar va ruhoniylar lordlar palatasidan o'rin egallagan

Parlamentlar o'z tuzilishi jihatidan bir (**yunikameral**) yoki ikki palatali (**bikameral**) bo'lishi mumkin. Uzoq tarixda palatalarga bo'lishning asosiy mezon sifatida aholi quyi va yuqori tabaqalari manfaatlarining rang-barangligi maydonga chiqqan. Asrlar o'tib parlament tobora umummanfaatni ifodalovchi idoraga aylangani sari bunday mezon o'rnini hududlar manfaati, ularning vakilligi egallay boshlagan.

Davlat hokimiyati tizimida parlamentning tutgan o'rne va roli uning funksiyalari bilan belgilanadi. "**Funksiya**" lotincha "functus" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "**ijro etmoq, bajarmoq**" degan ma'nolarni anglatadi.

"**Parlament funksiyasi**"ga quyidagicha ta'rif berish maqsadga muvofiq: **parlament funksiyasi – bu parlamentning mohiyat-xususiyatlarini ifodalovchi faoliyatining mazmuni va shaklidir.** Mazkur ta'rifdan kelib chiqib, parlamentning uchta funksiyasini ko'rsatish mumkin, bular: **vakillik, qonunchilik** va **nazorat** funksiyalari. Ayrim olimlar tomonidan parlamentning funksiyalari sifatida e'tirof etilgan davlat apparatini shakllantirishda ishtirok etish, tashkiliy, ta'sis etish, ko'maklashish kabilar esa parlamentning alohida funksiyalari emas, balki vakillik, qonunchilik yoki nazorat funksiyalaridan kelib chiqadigan vakolatlaridir.

Parlamentning davlat hokimiyati tizimida tutgan o'rne va roli uning funksiyalari bilan hamda ushbu funksiyalarining qay darajada amalga oshirilayotganligi bilan belgilanadi. Parlament funksiyalarining samarali amalga

oshirilishi esa nafaqat tegishli huquqiy va tashkiliy mexanizmlarning mavjudligi, balki parlament a'zolarining siyosiy-huquqiy madaniyati va faolligiga, parlamentdagi siyosiy partiyalar fraksiyalarining tutgan o'рни va roliga, konstruktiv muxolifat faoliyati maromida tashkil etilganligi bilan chambarchas bog'liqdir.

**Topshiriqlar:**

1. Parlamentarizm siyosiy hokimiyat legitimligining omili sifatida
2. Parlamentarizm institutining mohiyati, zamonaviy jamiyatda davlat hokimiyatining vakillik organini shakllantirish, u tomonidan qonuniylik vazifasini bajarish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishdagi roli.
3. Parlamentarizm instituti faoliyati: asosiy huquqiy normalar - muayyan davlatning barcha fuqarolari uchun majburiy bo'lgan qonunlarni shakllantirish; mamlakatda jamiyatning turli guruhlarini manfaatlarini ifodalash.
4. Parlamentarizm institutini me'yoriy tartibga solish masalalari: parlament vakolati, uni shakllantirish tartibi, deputatlik vakolatlari, ularning saylovchilar va umuman aholi bilan o'zaro munosabati xarakteri.
5. O'zbekistonda parlament shakllanishi va rivojlanishi.

**14-MAVZU. JAMIYATNING IJRO ETUVCHI  
ORGANLARI TIZIMI**

**Reja:**

**14.1. Ijro etuvchi hokimiyat - davlatning mustaqil organlaridan biri.**

**14.2. Ijro etuvchi hokimiyat belgilari va funksiyalari.**

**14.3. Ijroiya hokimiyati tashkil etilishining huquqiy asoslari.**

***Tushuncha va tayanch iboralar:*** Ijro etuvchi hokimiyat, hukumat, vazirlar mahkamasi, bosh vazir, prezident, davlat boshlig'i, hokim, oqsoqol, gubernator, mer, prefekt.

**Ijro etuvchi hokimiyat** – davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi hokimiyat va sud hokimiyati kabi mustaqil tarmoqlaridan biri. Joriy qonunlar va b. me'yoriy hujjatlarga asoslanib, boshqaruv vazifalarini

bajaradi (davlat boshlig'i, hukumat). Qonun chiqaruvchi hokimiyat hujjatlarini ijro etish maqsadida o'z qaror va farmoyishlarini qabul qiladi, odatda, davlat boshlig'i (prezidenta) ning bevosita rahbarligi va nazorati ostida ish ko'radi. Ijro etuvchi hokimiyat mintaqaviy va mahalliy darajada mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari (hokim, oqsoqol, gubernator, mer, prefekt) tomonidan amalga oshiriladi.

O'zRda hukumat – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi davlat xokimiyatining oliy ijrochi va boshqaruvchi organi hisoblanadi. U iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma'naviy sohaning samarali faoliyat ko'rsatishiga, qonunlar ijro etilishiga, Oliy Majlisning qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlarining bajarilishiga rahbarlikni ta'minlaydi. Mahalliy Ijro etuvchi hokimiyat organlari O'zR qonunlarini, Prezident farmonlarini, davlat hokimiyati yuqori organlarining qarorlarini amalga oshiradi. Viloyat, tuman va shaharlarda Ijro etuvchi hokimiyat H. ni hokim boshchiligidagi viloyat, tuman va shahar hokimliklari boshqaradi (yana q. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari).



Qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatning o'zaro munosabatlari davlat mexanizmining muhim tarkibiy qismi sifatida ilmiy adabiyotlarda turlicha izohlanadi. Rus olimi Yu.N.Starilovga ko'ra, davlat hokimiyatining bo'linishi prinsipi qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarining o'zaro tengligini, davlat hokimiyatining monopollashtirilmasligini

bildiribgina qolmasdan, balki ular o'rtasidagi aloqalarning soglom raqobat muhitida va hamkorlik bilan tashkil etilishini ham anglatadi.

V.Ye.Chirkin ham o'xshash fikrni bildirib, qonun chikaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat tarmoqqari hamkorligi va aloqadorligi juda zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, bunday hamkorlik "bir-birini tiyib turish va muvozanatda saqlash" g'oyasi bilan bir qatorda hozirgi zamon davlat hokimiyati bo'linishi prinsilining muhim va ajralmas tarkibiy qismidir.

O'zbekiston parlamenti va ijro etuvchi hokimiyat faoliyatining huquqiy asoslariii tahlil qilish natijasida ular o'rtasida quyidagi shakllarda aloqadorlik va hamkorlik mavjudligini qayd etish lozim:

- parlament tomonidan ijro etuvchi hokimiyat organlarining tizimi va vakolatlarning belgilanishi;
- parlamentning xukumatni shakllantirishdagi ishtiroki;
- hukumatning qonun ijodkorligi jarayonidagi ishtiroki;
- hukumat majlislarida parlament palatalari vakillarining, parlament palatalari, shuningdek ular organlari yig'ilishlarida hukumat a'zolarining qatnashishi;
- Oliy Majlisning Vazirlar Mahkamasi taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetini qabul qilishi va uning ijrosini nazorat qilishi;
- parlament nazorati jarayonida, xususan, parlament so'rovi bilan murojaat qilinganda yoki hukumatdan muayyan masala yuzasidan tushuntirish talab qilinganda va shunga o'xshash munosabatlar doirasida o'zaro aloqadorlik.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 78-moddasi 5-bandiga ko'ra ijro etuvchi hokimiyat organlarining tizimi va vakolatlarni belgilash Oliy Majlis palatalarining mutlaq vakolatlari jumlasiga kiradi. Parlament tegishli qonunlarni qabul qilib, ijro etuvchi hokimiyat faoliyatiga muhim ta'sir o'tkazish imkoniyatiga ega.

Rus olimi professor B.V.Rossinskiyning qayd etishicha ijro etuvchi hokimiyat tizimi o'z tabiatiga ko'ra, butun davlat hokimiyati tizimini o'zida namoyon etib, davlat hokimiyatiga xos bo'lgan barcha funksiyalarni bajarar ekan, ijro etuvchi hokimiyatning tizimi parlament tomonidan qonunlarda belgilab berilishi lozim<sup>2</sup>. Bundan ko'zlangan maqsad shundan iboratki, ijro etuvchi hokimiyat normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish; nazorat qilish,

tashkiliy-xo'jalik funksiyalarni bitta organ qo'lida to'plab, hokimiyatni monopollashtirmasin.

**Ijro etuvchi hokimiyat** davlatning mustaqil hokimiyat turlaridan biri bo'lib, u qonunda mustahkamlangan davlat siyosatining maqsad va vazifalarini amalga oshirishning davlat xarakteridagi tashkiliy-funksional mexanizmlari yig'indisidir.

### **Ijroiya hokimiyatining belgilari**

- hokimiyatning cheklangan va nisbatan mustaqil tarmog'i hisoblanadi;
- hayotda davlat siyosatining dirijori hisoblanadi;
- tabiati va maqsadiga ko'ra bo'ysunuvchi;
- ijro etuvchi hokimiyat organlarining yaxshi tashkil etilgan tizimi shaklida ob'ektivlashtirilgan;
- uning faoliyati ijro va ma'muriy xarakterga ega va doimiy, uzluksiz xarakterga ega;
- moddiy resurslar va majburlov xarakteridagi vakolatlarning mutlaq egasidir.

### **Ijroiya hokimiyatining funksiyalari**

- huquqiy tartibga solish;
- jamiyat hayotining turli sohalarida qonunlarni amalga oshirish va davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan boshqaruv faoliyatini amalga oshirish;
- ma'muriy majburlash;
- litsenziyalash, ro'yxatga olish va sertifikatlashtirish bo'yicha davlat siyosatini amalga oshirish;
- huquqiy normalar va umumiy majburiy qoidalarga rioya etilishi ustidan ma'muriy nazorat;
- qonuniylik va tartibni muhofaza qilish, ya'ni fuqarolar va jamiyat xavfsizligini bevosita ta'minlash;
- davlat organlarini axborot bilan ta'minlash.

**Fransiyada** ijro etuvchi hokimiyat ikki tomonlama - prezident va bosh vazir boshchiligidagi hukumat (kollegial organ) o'rtasida bo'linadi. Prezident ko'plab muhim vakolatlarga ega, lekin ularni boshqa davlat organlari bilan birgalikda amalga oshiradi va hukumat ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshirish uchun javobgardir. U davlat siyosatining

vazifalari va ustuvor yo'nalishlarini belgilaydi, buning uchun boshqaruv apparati va qurolli kuchlar uning ixtiyoridadir.

**Fransiya hukumati ikki ko'rinishda namoyon bo'ladi:**

- Respublika Vazirlar Kengashi
- Bosh vazir boshchiligidagi hukumat a'zolarini birlashtirgan vazirlar mahkamasi.

**Hukumat quyidagicha tuziladi:** prezident bosh vazirni, hukumat a'zolarini esa bosh vazirning taklifiga binoan tayinlaydi.

**Avstriyada** Ijro etuvchi hokimiyatni federal prezident namoyish etib, federal kansler va vitse-kansler boshchiligida Vazirlar Mahkamasi amalga oshiradi. Federal Prezident Avstriyaning xalqaro miqyosdagi vakili bo'lib, qurolli kuchlarning bosh qo'mondoni hisoblanadi, zobitlar va federal amaldorlarni tayinlaydi va lavozimidan ozod qiladi. Federal prezident parlament saylovlari natijalariga ko'ra federal kanslerni tayinlaydi va uning tavsiyasiga ko'ra, Milliy kengash partiyalari tomonidan ko'rsatilgan vazirlarni tasdiqlaydi. Hukumatni federal kansler boshqaradi va muvofiqlashtiradi; qarorlar qabul qilishda vitse-kansler fikrini inobatga oladi.

**Germaniyada** Asosiy Qonunining 20-moddasida hokimiyatning ijro etuvchi, qonun chiqaruvchi va sud hokimiyatlariga bo'linishi prinsipi mustahkamlangan. Ijro etuvchi hokimiyatni parlamentga mas'ul bo'lgan federal kansler boshchiligidagi federal hukumat taqdim etadi. Hukumatning o'zi kanslerlikka nomzodini ko'rsatgan koalitsiya vakillaridan iborat bo'ladi. Vazirlikka nomzodlar federal kansler tomonidan taqdim etiladi va federal prezident tomonidan tasdiqlanadi. Vazirlar Mahkamasi 16-20 vazirdan iborat bo'ladi.

**Rossiya Federatsiyasida** ijro etuvchi hokimiyatning asosiy maqsadi - davlat manfaatlarini, aholining so'rovlari va ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan boshqaruv faoliyati jarayonida Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasi va Rossiya Federatsiyasi qonunlarining amalda bajarilishini tashkil etish. U davlat hokimiyati vakolatlarini ommaviy tarzda, asosan ma'muriy huquq usullari va vositalarini qo'llash orqali amalga oshiradi. Ijroiya hokimiyati tarkibi keyinchalik tayinlash imkoniyati bilan saralab olinadi. Rossiyaning ijro etuvchi hokimiyat tuzilmasi davlat xizmatchilaridan va yuridik (huquqiy) tuzilmadan - davlat organlari va

mansabdor shaxslarning vakolat darajasini belgilaydigan normalar tizimidan iborat.

**Federal organlar:**

• Rossiyada federal ijroiya organlarining uch bo'g'inli tizimi qabul qilingan:

- vazirliklar;
- federal xizmatlar;
- federal idoralar.

**Mintaqaviy organlar (regional):**

• vazirliklar;

• qo'mitalar (asosan, Sankt-Peterburg va Moskva hukumatlari tomonidan taqdim etilgan);

- bo'limlar (departamentlar);
- boshqaruv.

O'zbekiston Respublikasi ijroiya organlari tizimida hukumat alohida mavqega ega. O'zbekiston Prezidenti lavozimi ta'sis etilgach, hukumat faoliyatida, uning vakolat doirasida, tarkibida sezilarli o'zgarishlar yuz berdi. Avvallari O'zbekiston Respublikasining hukumati-Ministrlar Soveti deb atalgan bo'lsa (1978 yildagi Konstitutsiyaga muvofiq), bugungi kunda u Vazirlar Mahkamasi deb ataladi (1990 yil mart oyida kiritilgan o'zgartirishlar natijasida). Amaldagi Konstitutsiyaga binoan Vazirlar Mahkamasi O'zbekistonda umumiy vakolatli, kollegial ijro etuvchi organdir. U O'zbekiston hukumati hisoblanadi. Uning faoliyati O'zbekiston Konstitutsiyasining XX bobi moddalari va 1993 yil 6 maydagi "O'zbekiston Respubikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'riisida"gi qonun bilan tartibga solnadi.

Vazirlar Mahkamasi tarkibi Prezident tomonidan tuzilib, Oliy majlis tomonidan tasdiqlanadi. Vazirlar Mahkamasi tarkibiga Bosh vazir, uniing birinchi va boshqa o'rinbosarlari, O'zbekiston vazirlari, davlat qo'mitalari raislari, davlat va xo'jalik boshqaruvi boshqa organlarining rahbarlari kiradi.

Vazirlar Mahkamasining tarkibi va uni tuzish tartibi, vakolatlari va vazifalari faoliyatini tashkil etish tartibi, Vazirlar Mahkamasining Oliy Majlis va davlat hokimiyati boshqa organlari bilan munosabatlari yuqorida tilga olingan qonun bilan tartibga solinadi.

**Vazirlar Mahkamasining tuzilishi tegishli majmualardan iborat:**



- Agrosanoat majmuasi
- Xalq iste'mol buyumlari, savdo va xizmat ko'rsatish majmuasi
- Qurilish, transport va aloqa majmuasi
- Mashinasozlik majmuasi
- Sotsial rivojlanish
- Issiqlik sanoati, energetika, ximiya, metallurgiya majmuasi
- Umumiy iqtisod majmuasi
- Resurslar, texnikaviy ta'minot va kontrakt masalalari majmuasi.
- Vazirlar Mahkamasi tuzilishida boshqa majmualar ham tashkil qiliniishi mumkin. Har bir majmuani Bosh Vazir o'rinbosarlari boshqaradi.

Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasi hududidagi barcha organlar, korxonalar, tashkilotlar, muassasa, mansabdor shaxs va fuqarolar uchun majburiy qaror va farmoishlar chiqaradi. Vazirlar Mahkamasining vazifalari yanada aniqlashtirilsa:

- Yangi xo'jalik shakllari-konsernlar, assotsiyatsiyalar, tarmoqlararo birlashmalar, turli uyushmalar va shunga o'xshash tashkilotlarni rivojlanishini, mustahkamlanishini ta'minlaydi;

- Shu tashkilotlarga davlat buyurtmasi berish tartibini belgilaydi;

O'z vakolati doirasida yuqorida aytilgan tashkilotlarning faoliyatini yo'naltirib turadi;

- Tarmoq vazirliklari, davlat qo'mitalari faoliyatiga rahbarlik qiladi;

- Tashqi mamlakatlar bilan iqtisodiy, madaniy hamkorlik o'rnatish ishlariga rahbarlik qiladi.

- Bulardan tashqari VM qonuniy jamoat tashkilotlari, ommaviy harakatlar faoliyatini qo'llab-quvvatlaydi. Diniy tashkilotlar bilan o'zaro munosabatda bo'ladi. VM o'z ishini majlisda tashkil qiladi. U bir oyda kamida bir marta chaqiriladi. Majlisga Bosh Vazir raislik qiladi. O'z vakolati doirasida VM qaror qabul qiladi va joriy masalalar yuzasidan farmoish qabul qiladi.

### **Topshiriqlar:**

1. Ijro etuvchi hokimiyat – davlatning mustaqil hokimiyat organlaridan biri.

2. Davlatning ijro etuvchi instituti qonunda mustahkamlangan davlat siyosatining maqsad va vazifalarini amalga oshiruvchi tashkiliy va funksional mexanizmlar majmuidir.

3. Ijro etuvchi homiyat tushunchasi va mohiyati.
4. Ijro etuvchi hokimiyat organlari.
5. Ijro etuvchi hokimiyat vakolatlari. Ijro etuvchi hokimiyat belgilari va funksiyalari.
6. Ijroiya hokimiyati jamiyat ishlarini joriy boshqarishni amalga oshiruvchi organ sifatida.

## **15-MAVZU. DAVLAT BOSHLIG'I (PREZIDENTLIK) INSTITUTI**

### **Reja:**

- 1. Prezidentlik institutining mohiyati va ahamiyati**
- 2. Parlament va prezident munosabatlari**
- 3. O'zbekistonda Prezident lavozimining joriy etilishi.**

*Tushuncha va tayanch iboralar:* Prezident, prezidentlik instituti, prezidentlik respublikasi, davlat boshlig'i, hukumat boshlig'i, vakolat.

Davlat hokimiyatining bo'linishi prinsipi hokimiyat tarmoqlarining mustaqilligi bilan bir qatorda ularning o'zaro hamkorligini, umummilliy maksad va manfaatlar yo'lida hamjihatligini ham taqozo etadi. Shu ma'noda davlat hokimiyati tizimida parlamentning tutgan o'rnini va rolini uning davlat hokimiyati boshqa tarmoqlari bilan o'zaro munosabatlari tahlilisiz yoritib bo'lmaydi. Parlamentning davlat hokimiyati boshqa tarmoqlari bilan o'zaro munosabatlarida esa prezidentlik instituti salmoqli o'rinni egallaydi.

Prezidentlik dastlab AQShda yuzaga kelgan va hozirda respublika boshqaruv shakliga asoslangan mamlakatlarda xalq tomonidan to'g'ridan-to'g'ri, saylovchilar korpusi, parlament yoki boshqa organlar tomonidan davriy saylovlarda muayyan muddatga saylanadigan hamda davlat boshlig'i hisoblanadigan oliy mansabdor shaxsni ifodalovchi institut sifatida keng qabul qilingan<sup>13</sup>. Bugungi kunda dunyoning 140 dan ortiq mamlakatlarida prezidentlik instituti siyosiy tizimning ajralmas belgisiga aylangan<sup>14</sup>. Mazkur institut Yevropa, Osiyo, Afrika, Shimoliy va Janubiy Amerikaning bir qator davlatlarida amal qilmoqda.

---

<sup>13</sup> Сахаров Н.А. Институт президентства в современном мире. - М., 1994. - С.5-6

<sup>14</sup> [Электронный ресурс]. Режим доступа:

AQSh, Lotin Amerikasi vz ayrim Afrika davlatlarida prezident davlat va ayni paytda ijro etuvchi hokimiyat boshlig'i sanaladi. MDHga a'zo davlatlar, xususan, Rossiya Federatsiyasi, Armaniston, Moldova, Qozog'iston va Belarus Respublikasi konstitutsiyalariga ko'ra, prezident ijro etuvchi hokimiyat boshlig'i hisoblanmaydi. Ushbu o'rinda shuni qayd etish kerakki, mamlakatimizda 2008 yil 1 yanvarga qadar, ya'ni "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining moddalariga tuzatishlar kiritish to'g'risida (89-moddasiga, 93-moddasining 15-bandiga, 102-moddasining ikkinchi qismiga)"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni rasmiy kuchga kiringunga qadar Prezident ijro etuvchi hokimiyat bopshig'i sanalardi. Endilikda esa O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 89-moddasiga asosan Prezident davlat boshlig'idir va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta'minlaydi. Konstitutsiyaga bunday tuzatish kiritishdan maqsad davlat boshqaruvini yanada demokratlashtirish, hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi tarmoqlari, xukumat va joylardagi davlat organlarining zimmasiga Konstitutsiya bilan yuklatilgan vakolatlarini amalga oshirishdagi roli va mas'uliyatini kuchaytirishdan iboratdir.

Qayd etish lozimki, davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishi hamda hamkorligini ta'minlash vazifasining Prezident zimmasiga yuklatilishi bu organning davlat rahbari hamda fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etilishining kafili ekanligidan kelib chiqadi. Shu ma'noda, professor A.H.Saidov ta'kidlaganidek, "Prezident davlatni jipslapggirishi, davlat hokimiyati mexanizmining barqarorligi va harakatchanligini ta'minlashi lozim".

Prezidentning davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishi hamda hamkorligini ta'minlash vazifasi aksariyat demokratik davlatlarning konstitutsiyalarida ham o'z ifodasini topgan. Xususan, Fransiya Respublikasi Konstitutsiyasining 5-moddasiga asosan Respublika Prezidenti Konstitutsiyaga rioya qilinishini ta'minlaydi. Prezident o'z hakamligi bilan ommaviy hokimiyatlarning normal faoliyat ko'rsatishini hamda davlat izchilligini ta'minlaydi. Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasining 80-moddasiga asosan Prezident Konstitutsiyada belgilangan tartibda davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda

faoliyat yuritishi hamda hamkorligini ta'minlaydi. Gresiya Konstitutsiyasining 30-moddasiga binoan Prezident davlat tuzumini tartibga soluvchi hisoblanadi; Slovakiya Respublikasining Konstitutsiyasiga asosan Prezident o'z qarorlari bilan konstitutsiyaviy organlarning tegishincha faoliyat yuritishini ta'minlaydi.

Berilgan konstitutsiyaviy vakolatlar doirasida amalga oshiradi. Bunday vakolatlar jumlasiga, ijro etuvchi hokimiyatni shakllantirish yoki uni shakllantirishda ishtirok etish, unga rahbarlik qilish, iste'foga chiqarish, qonunchilik tashabbusi huquqi, qonunlarni imzolash va e'lon qilish, parlament palatalarini tarqatib yuborish, oliy sudni shakllantirishda ishtirok etish kabilar kiradi. Prezidentning bu boradagi vakolatlari amalga oshirishini uning parlament bilan o'zaro munosabatlarida yaqqol ko'rish mumkin.

**Parlamentning prezident bilan o'zaro munosabatlari davlat boshqaruv shakliga qarab turlicha xususiyatlarni kasb etadi.** Xususan, davlat boshqaruv shakliga ko'ra, bunday munosabatlarining uch turini farqlash mumkin. Birinchi – bu parlamentlik boshqaruv shakliga asoslangan davlatlarga xos munosabatlar tizimidir. Bunda parlament va prezident o'rtasidagi o'zaro munosabatlar parlamentning davlatning ichki va tashqi siyosatini belgilash va amalga oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etishi bilan tavsiflanadi. Parlamentlik boshqaruv shaklida prezident parlament shakllantiradigan hukumatning rozilgisiz mustaqil qarorlarni qabul qilmaydi va odatda, davlat boshlig'i vazifalarini rasman bajaradi, xolos. Qoida tariqasida prezident ham parlament a'zolari tomonidan saylanadi. Bunday davlatlar qatoriga Germaniya, Avstriya, Chexiya, Vengriya, Slovakiya, Turkiya, Albaniya va boshqalar kiradi.

**Parlament va prezident munosabatlarining ikkinchi ko'rinishi aralash boshqaruv shakliga asoslangan davlatlarga xosdir.** Bunday davlatlarda prezident davlat boshlig'i hisoblanadi va odatda parlament tomonidan emas, balki saylovchilar tomonidan to'g'ridan-to'g'ri saylanadi. Prezident ijro etuvchi hokimiyatning boshlig'i sanalmaydi, biroq uning faoliyatiga sezilarli ta'sir o'tkazish imkoniyatiga ega bo'ladi. Prezident o'z faoliyatini mustaqil yurgizadi va davlat hokimiyati tarmoqlari o'rtasida o'ziga xos hakam vazifasini o'taydi. Mamlakat hukumati prezident va

parlamentga hisob beradi. Bunday davlatlar jumlasiga Fransiya, Peru, Shri-Lanka, Ukraina va boshqalarni kiritish mumkin.

**Uchinchi - bu prezidentlik boshqaruv shakliga asoslangan davlatlarga xos bo'lgan parlament va prezident o'rtasidagi munosabatlar tizimidir.** Bunday mamlakatlarda prezident davlatning ichki va tashqi siyosatini belgilash va amalga oshirishda muhim o'rin tutadi, ijro etuvchi hokimiyat apparatini shag'sllantiradi va iste'foga chiqaradi.

1990 yil 24 martda demokratiya jarayonlarini yanada rivojlantirish, siyosiy o'zgarishlarni chuqurlashtirish, konstitutsion tuzumni, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va xavfsizligini mustahkamlash, O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruvi oliy organlarining o'zaro aloqasini takomillashtirish maqsadida MDH davlatlari ichida birinchi bo'lib O'zbekiston Respublikasida Prezidenti lavozimi ta'sis etildi. O'zbekiston Respublika Prezidenti lavozimi yangi O'zbekiston davlat hokimiyati organlari tizimida markaziy o'rinni egalladi. U siyosiy tizimning o'zagi bo'lib qoldi. Prezidentlik hokimiyatida Prezidentning davlat boshlig'i vakolatlari mujassamlashgan. Bu hokimiyat jamiyatdagi barqarorlikning va O'zbekiston islohotlar yo'lidan muvaffaqiyatli olg'a borishining kafolati bo'lgani holda, yangi o'zbek davlatchiligi binosining asosiy tayanchiga aylangan.

O'zbekiston Respublikasida prezidentlik lavozimi milliy an'analarimiz, qadriyatlarimiz bilan rivojlangan demokratik davlatlar tajribasini uyg'unlashtirish natijasida vujudga keldi. Mamlakatimizda ta'sis etilgan Prezident lavozimining huquqiy asoslarini tahlil qilib baralla aytishimiz mumkinki, mamlakatimizda Prezidentning saylanishi, vakolatlari demokratik standartlarga mos keladi.

Dunyoda prezident lavozimi mavjud bo'lgan davlatlarni shartli ravishda 3 ga ajratilib, prezidentlik, parlamentar, aralash respublikalar degan tasniflash mavjud. Bunda asosiy mezonlardan biri bo'lib, Prezidentning saylanish usuli hisoblanib, bevosita xalq tomonidan to'g'ridan-to'g'ri saylangan Prezident kuchli vakolatlarga ega bo'ladi. Prezident to'g'ridan-to'g'ri saylanganda fuqarolar uning saylovoldi dasturi bilan bevosita tanishish, mamlakat va fuqarolarni qiziqtirayotgan masalalarga nomzodlar e'tiborini qaratish imkoniyati mavjuddir. Konstitutsiyamiz 90-moddasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasining

Prezidenti O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tomonidan umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan besh yil muddatga saylanadi.

**Prezidentni umumiy, teng, to'g'ridan-to'g'ri saylov asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan saylash dunyoning 110 ta davlatida qabul qilingan usuldir.** O'zbekistondagi Prezidentlik institutining o'ziga xosligi shundaki, bizda davlat boshlig'ining vakolatida fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etilishiga kafillik belgilanganligi, davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta'minlashi, Prezident saylovi kuni Konstitutsiyada aniq belgilab qo'yilgani, saylov komissiyalarining a'zolari saylovdan manfaatdor biron bir partiya a'zosi, yoki nomzod, uning ishonchli vakili bo'lishi mumkin emasligi, Prezident saylovining moliyaviy ta'minoti davlat mablag'lari tomonidan qoplanishi va teng taqsimlanishi, nomzodlardan hech qanday saylov garovi, saylov fondini tashkil etish talab qilinmasligi, nomzodlarga saylovoldi tashviqotini o'tkazish uchun davlat hisobidan teng efir vaqti va bosma maydon ajratilishi, yig'ilishlar va uchrashuvlar o'tkaziladigan vaqt hamda joy haqida saylovchilarga barvaqt xabar qilinishi, davlat organlari, jamoat birlashmalari, korxonalarining, muassasalarning, tashkilotlarning rahbarlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlarga saylovchilar bilan uchrashuvlar o'tkazishni tashkil etishda, zarur ma'lumot va axborot materiallari olishda yordam ko'rsatishlarida ko'rishimiz mumkin.

O'zbekistonda Prezidentlik institutining xalqimiz hayotiga yaqinligini mustaqillik yillarida bo'lib o'tgan Prezident saylovlarida saylovchilarning 90 % dan ortig'i ishtirok etganligidan ham bilib olsa bo'ladi. Jahonning ko'plab davlatlarida bu raqam odatda o'rtacha 50-60 %dan oshmaydi. Shu ma'noda prezidentlik instituti demokratik institut hisoblanib, birinchidan, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tomonidan umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li saylanadi va fuqarolarning davlat ishlarini boshqarishda vakilligini ta'minlashdek konstitutsiyaviy funksiyani bajaradi. Ikkinchidan, Prezident lavozimiga nomzod bo'lishda O'zbekiston Respublikasi barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi,

irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar. Ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy va mulkiy ahvoliga, irqiy yoki milliy mansubligiga, jinsi, ma'lumoti, tili, dinga munosabatiga, mashg'ulot turi va xususiyatiga qarab O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining saylov huquqini biron-bir tarzda bevosita yoki bilvosita cheklash taqiqlanadi. Uchinchidan, Prezident saylovi demokratik standartlarda belgilangan holda halollik bilan ochiq, shaffof o'tishi, erkin, ixtiyoriy, haqiqiy va adolatli tashkil etilishi va o'tkazilishi Konstitutsiya va qonunlarimizda belgilab qo'yilgan. To'rtinchidan, Prezident vakolatlari Konstitutsiya va qonunlarda belgilab qo'yiladi. Ya'ni bunda demokratik saylovlar orqali saylab qo'yilgan vakillari orqali xalq ishtirok etadi. Beshinchidan, monarxiyadan farqli o'laroq, Konstitutsimiz 1-moddasiga asosan O'zbekiston – suveren demokratik respublika bo'lganligi bois Prezidentning lavozimda bo'lish vaqti konstitutsiyaviy asosda ma'lum muddatlar bilan chegaralangan. Ya'ni Asosiy qonunimizga asosan besh yil muddatga saylanadi. Bu ham demokratik standartlardan bo'lib, xalq davlat hokimiyatining manbai sifatida davriy asosda o'z nomidan, ya'ni xalq nomidan ish olib borishi mumkin bo'lgan shaxsni muqobillik asosida saylab turish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim. Oltinchidan, respublika Prezidenti lavozimga kirishish oldidan xalq saylagan oliy vakillik organi – Oliy Majlisda qasamyod qabul qilishi ham o'z qasamyodida birinchi jumla “O'zbekiston xalqiga sadoqat bilan xizmat qilishga” degan jumlaning o'ziyoq demokratiyaning belgilari sifatida aytilgan: demokratiya xalqdan chiqishi, demokratiya xalq tomonidan va xalq manfaatlari yo'lida oshirilishiga yaqqol misol bo'la oladi. Yettinchidan, prezidentlik instituti huquqiy davlatning muhim va ajralmas belgisi – hokimiyat bo'linishi prinsipining tarkibiy qismidir.

Prezident lavozimining joriy etilishi o'zbek davlatchiligi tarixida yangi bosqichni boshlab berdi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, “Prezident institutining joriy etilishi – respublikamiz uchun suverenitet va davlatchilikda prinsip jihatdan yangi bosqichga o'tilishini bildiradi. Chunki shunchaki emas, balki haqiqiy davlatchilik hokimiyatning bunday tuzilmasini qo'lga kiritish imkoniyatiga ega. ...Prezident boshqaruvini hayotning o'zi, qayta qurishning mantig'i, mohiyati, uning murakkab va ziddiyatli jarayonlari taqozo etdi”.

Dastlabki bosqichda prezidentlik instituti davlat hokimiyati tizimida markaziy o'rinni egallab, siyosiy tizimning o'zagiga aylandi. Demokratik huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyatining poydevorini barpo etish hamda davlatning bosh islohotchi bo'lishi zarurati o'tish davrida Prezident zimmasiga katta mas'uliyat va strategik vazifalarni hal etish zaruratini yuklash barobarida uning keng vakolatlarga ega bo'lishini taqozo etdi. Prezident davlat va ayni vaqtda ijro etuvchi hokimiyat boshlig'i sifatida islohotlarning tashabbuskori, yangilanish va o'zgarishlar jarayonini harakatga keltiruvchi asosiy kuchga aylandi.

Demokratiyaga o'tish jarayoni strategiya va taktik jihatdan kuchli prezidentlik bo'lishini taqozo etadi, Prezident nafaqat modernizatsiyalashni amalga oshirishi, balki demokratik huquq va erkinliklarning haqiqiy kafili bo'lishi, jamiyatda buzg'unchi jarayonlarning ta'sirini yo'q qilish, bartaraf qilish imkoniga ega bo'lishi lozim" (4) edi.

Milliy davlatchilik asoslarini shakllantirishga qaratilgan islohotlar natijasida siyosiy va iqtisodiy hayot, davlat va jamiyat qurilishining barcha jabhalarini yanada demokratlashtirish va erkinlashtirish, mustaqil sud tizimi, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, fuqarolarning siyosiy, iqtisodiy faolligini oshirish hamda fuqarolik jamiyatini barpo etishning mustahkam poydevori yaratilib, demokratik islohotlar ortga qaytmas jarayonga aylandi.

Ushbu mustahkam poydevor asosida mamlakatimizni jadal isloh etish va modernizatsiya qilishning yangi davri – milliy taraqqiyotimizning keyingi mantiqiy bosqichi izchil davom etmoqda. Faol demokratik yangilanishlar va mamlakatni modernizatsiya qilish davri (5) hisoblanmish ushbu bosqichda davlat hokimiyati tizimida o'zaro mutanosib va barqaror muvozanatni ta'minlash, hokimiyat tizimida prezidentlik institutining o'rni va roliga oid muhim demokratik o'zgarishlar amalga oshirilmoqda.

Milliy davlatchiligimiz va biz uchun yangi bo'lgan erkin bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan va qaror topayotgan dastlabki yillarda Prezidentga berilgan huquq va vakolatlarning bir qismini hokimiyatning qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi tuzilmalariga berish ishlari izchillik bilan olib borilmoqda. Agar mustaqillik (6) yillarida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga 7 marta o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi qonunlar qabul qilingan bo'lsa, ularning 5 tasi bilan O'zbekiston



Respublikasi Prezidentiga oid XIX bobdagi qator moddalarga o'zgartish va qo'shimchalar kiritilgani prezidentlik institutining huquqiy asoslari sezilarli takomillashayotganidan dalolat qiladi.

Xulosa qilib aytganda mamlakatimizda prezidentlik instituti O'zbekistonni davlat mustaqilligiga erishishining asosiy omili bo'ldi, respublikamiz uchun suverenitet va davlatchilikda prinsip jihatdan yangi bosqichga o'tilishini bildirdi hamda prezidentlik instituti qaysidir ma'noda davlat mustaqilligi kafili hamda davlat ramziga aylandi. Prezidentlik instituti ta'sis etilishini hayotning o'zi, murakkab va ziddiyatli jarayonlar yechimi taqozo etdi. Prezidentlik instituti huquqiy davlatning muhim belgisi bo'lgan hokimiyat bo'linishi prinsipining tarkibiy qismi sifatida huquqiy tizimimizga kiritildi. Prezident lavozimi ta'sis etilishi bilan qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud tarmoqlari faoliyatini o'zaro kelishtirish, avvalo qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirish mexanizmlari yaratildi. Prezidentlik instituti jamiyatdagi barqarorlikning kafolati bo'lgani holda, yangi o'zbek davlatchiligi binosining asosiy tayanchi vazifasini bajarmoqda.

#### **Topshiriqlar:**

1. Prezidentlik instituti tushunchasi va uning mohiyati.
2. Prezidentning zamonaviy siyosiy tizimlardagi konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi va ahamiyati.
3. Prezidentning umumiy belgilari. Prezidentlik modellarining tasnifi.
4. Boshqaruv shakliga ko'ra prezidentlik, aralash va parlamentar davlatlarning o'ziga xos xususiyatlari va ularda prezident vakolatlari.
5. Prezident- mamlakat rahbari, xalq nomidan so'zlash, davlat organlari tizimida hakamlik rolini bajaruvchi, mamlakat yaxlitligini, odamlarning konstitutsiyaviy huquqlari daxlsizligini kafolatlash imkonini beruvchi jamiyatdagi munosabatlarni takror ishlab chiqarish barqarorligini ta'minlovchi shaxs sifatida.

## 16-MAVZU. SUD HOKIMIYATI: TUSPUNCHASI, BELGILARI, XUSUSIYATLARI

### Reja:

- 1.Sud hokimiyati tushunchasi
- 2.Sud hokimiyatining belgilari
- 3.Sud hokimiyatining xususiyatlari va funksiyalari
- 4.Konstitutsiya tamoyillari

***Tushuncha va tayanch iboralar:*** sud hokimiyati, sud organi sud tizimi, sud kengashi, odil sudlov, Konstitutsiyaviy sud, huquqiy davlat, qonun ustuvorligi, aybsizlik prezumpsiyasi.

Sud hokimiyati davlat hokimiyatining alohida va mustaqil sohasidir. Sud hokimiyati bevosita mustaqil sudlar tomonidan qonun asosida fuqarolik, konstitutsiyaviy, ma'muriy va jinoyat ishlarini yuritish orqali amalga oshiriladi. Sudlar faoliyati dastlab umume'tirof etilgan huquqiy doktrinalarda, xususan, J. Lokk va S. Monteskelarning hokimiyatning bo'linish nazariyalarida (1787dagi AQSh Konstitutsiyasidan boshlab) va konstitutsiyaviy hujjatlarda o'z ifodasini topgan.

**Sud hokimiyatining belgilari.** Sud hokimiyati ijro etuvchi va qonun chiqaruvchi davlat hokimiyati tarmoqlaridan biri sifatida faoliyat yuritib, (vakolatlarini bo'linishi nazariyasi asosida) adolatni ta'minlash uchun vakolatlarini majmuini amalga oshiradi va davlat organlari tizimini ifodalaydi. Yuridik adabiyotlarda sudlovning mazmunini tushuntiruvchi vakolatlarni tavsiflash uchun nazoratning ikki turi mavjud. Ulardan biri konstitutsiyaviy, ikkinchisi sud (davlat organlari va mansabdor shaxslarning harakatlari va qarorlarining qonuniyligi va asosliligini nazorat qilish). Shuningdek, jazo va boshqa sud hukmlarining to'g'ri bajarilishini ta'minlashda yordam ko'rsatish. Nazoratdan tashqari, sud tizimining bir xil ma'nosini tushuntiradigan boshqa vakolat turiga sud korpusini shakllantirishda yordam berish va do'stona sud organlariga yordam berish kiradi. Agar nazariy jihatdan sud hokimiyatini sudlarga, sud tizimiga parallel ravishda hokimiyatning bir turi sifatida qo'ya olmasak. Amaliyotda ko'rinib turibdiki, sud ham, sud tizimi ham sud tizimidan alohida holda o'z-o'zidan mavjud bo'la olmaydi. Sud tizimining xususiyatlari yuqorida aytib

o'tilganidek, har qanday davlat hokimiyatida jamiyat manbai hisoblanadi. Sud hokimiyati davlat hokimiyati sohasi sifatida yuzaga kelganligini ta'kiidlab utish kerak. Yuridik adabiyotlarda sud hokimiyatining alohidaligi va mustaqilligiga tez-tez murojaat qilinishiga qaramasdan, u qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat organlari bilan yaqin hamkorlikda. Davlat hokimiyatining sud-huquq sohasi, boshqa har qanday hokimiyat tarmog'i kabi, o'z funksiyalarini maxsus organlar orqali amalga oshiradi. Ular sud tizimidagi sudlardir. Ittifoqi sud tizimini ifodalaydi. Ushbu tizimning shakllari qonun bilan belgilanadi, o'zgarishlar faqat qonun bilan va boshqa hech qanday yo'l bilan amalga oshirilishi mumkin emas.

Hozirgi demokratik davlatlarda turli toifadagi sudlarga sud tizimining asosiy vakolatlarini amalga oshirish yuklatilgan. Bunday sudlarga: ma'muriy, konstitutsiyaviy, ixtisoslashgan, umumiy vakolatga ega sudlar, shuningdek kvazi-sud organlari deb ataladi. Demak, umumiy maqsad va vazifalarga ega bo'lgan muayyan davlatning barcha sudlari guruhi (asosiysi - Odil sudlovni ijro etish) sud tizimidir.

Bir qator xususiyatlar sud tizimini quyida keltirilgan hukumatning boshqa tarmoqlaridan ajratib turadi:

- uning faoliyati qonun bo'yicha qat'iy va ehtiyotkorlik bilan buyurtma qilingan jarayonning aniq chegaralari doirasida amalga oshiriladi;
- muayyan xarakterga ega (asosan hodisa);
- da'vogarning bayonotiga asosan sud qonunga muvofiq muayyan bahsli ishlarni (fuqarolik, jinoiy, ma'muriy va boshqalarni) ko'rib chiqadi va hal qiladi.) davlat nomidan, shuningdek davlat organlarining aktlari va harakatlarining konstitutsiyaviyligi va qonuniyligi to'g'risidagi ishlar;
- sudyalarning sudlovning xodimlari hisoblanadi va u ular tomonidan amalga oshiriladi. Va faqat sud muassasalariga tegishli.

Sud apparati xodimlari alohida professional qatlamni - maxsus huquqiy maqomga yega bo'lgan sud korpusini yaratadi, chunki Germaniya Federativ Respublikasi asosiy Qonunining 92-moddasida shunday qoida mavjud: "sud hokimiyati sudyalarning zimmasiga yuklatiladi."

Davlat nomidan adolat faqat sud tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Bu haqda yuridik adabiyotlarda bejizga ko'rsatilmagan. Bundan tashqari, ko'plab xorijiy mamlakatlar favqulodda sudlarning shakllanishiga va ishlashiga ruxsat bermaydilar. Hatto favqulodda urush holatlarida ham

konstitutsiyaviy qonun ularning yaratish va ishlashini taqiqlaydi. Shuningdek, faqat sud hokimiyati Odil sudlovni amalga oshirishi mumkinligi va boshqa hech kim (shu jumladan, davlat organlari ham) sud tizimi faoliyatiga aralashishga haqli emasligi ta'kidlanadi. Sud qarorlari ularning pozitsiyasi va maqomidan qat'i nazar, barcha shaxslar tomonidan bevosita amalga oshirilishi kerak. Adolat (yuqorida aytib o'tilganidek) har qanday siyosiy oqibatlardan qat'iy nazar sud tomonidan boshqariladi. Bu haqda mashhur lotin aforizmi mavjud: "dunyo halok bo'lsa ham, adolat bo'lsin".

Ammo sud tizimining mustaqilligiga qaramay, uning faoliyati hali ham hukumatning boshqa tarmoqlariga, asosan, qonunchilikka bog'liq. Chunki u sud tizimi alohida tabaqalarining vakolatlarini, sudyalarning maqomini va boshqa masalalarni belgilaydi. Konstitutsiya esa ushbu Qonunchilik reglamentining asosidir. Konstitutsiya prinsiplari maxsus qonunlarda batafsil yoritilgan.

**Konstitutsiya tamoyillari.** Hukumatning ijroiya hokimiyati sud tizimiga nisbatan unchalik katta ahamiyatga ega emas. Davlat boshqaruvining mazkur bo'g'ini vazifalarini ko'rib chiqishda shuni ta'kidlash mumkinki, uning asosiy e'tibori sudlar faoliyatini moddiy, shuningdek, texnik jihatdan qo'llab-quvvatlash hisoblanadi. Ammo prokuratura boshqaruvi va alohida boshqaruv funksiyalari Adliya vazirligiga yuklangan davlatlarda ularning roli ko'proq ahamiyatga ega.

XX asrning ikkinchi yarmida mas'ul vazifalar (masalan: prokuror va sudyalarni tayinlash, intizomiy javobgarlik o'rnatish va sud korpusini shakllantirish, alohida sudlarni qayta tashkil etish va zarur hollarda ularni taftish qilish kabi vazifalar) zamonaviy davrning ko'plab konstitutsiyalarida nazarda tutilgan maxsus sud organlariga topshirildi. Misol tariqasida Fransiya, Italiya va Polshaning maxsus organlarini keltirish mumkin. Birinchi ikki mamlakatda bunday organlar Magistratura Oliy Kengashi deb ataladi. Polshada esa – umumpolsha sud Kengashi deyiladi.

Prokuraturaning hokimiyatga bo'lgan munosabati aniq ta'rifga ega emas. Zotan, dunyoning ko'plab mamlakatlarida u Adliya vazirining umumiy nazorati ostida faoliyat yuritadi. Bunday holda, bitta professional organga birlashtirilgan prokuror va sudyalar sud tizimining bir qismi bo'lgan tizimni yaratadilar.

Vengriya, Xitoy kabi mamlakatlarda, prokuratura oraliq pozitsiyani egallaydi, chunki u tashkiliy va mustaqil tizimdir. Ammo Qo'shma Shtatlarda boshqaruvning nomarlashtirilishi prokuraturaga ham ta'sir qildi. Masalan, Adliya vaziri Bosh prokuror lavozimini egallaydi. Fransiyada turli holatlarda sud muassasalarida prokurorlar tizimi mavjud. Birinchi instansiyada-respublika prokuraturasi, ikkinchi (apellyatsiya) da-Bosh prokuror yordamchilari bilan. Eng yuqori sud instansiyasida esa – kassatsiya sudining Bosh prokurori o'z xodimlari bilan. Fuqarolik va jinoyat protsesslarida prokurorlar Davlat vakillari bo'lib, tergov organlarining ishini nazorat qiladi. Prokuraturaning umumiy boshqaruvini esa Adliya vaziri nazorat qiladi. Bugungi kunga kelib, mansabdor shaxslarning javobgarligi to'g'risida qaror qabul qilishi lozim bo'lgan maxsus organlarni (masalan, Vazirlar, davlat boshlig'i, Oliy Adliya palatasi, Fransiyada Respublika sudi) atash masalasi ham munozarali bo'lib qolmoqda. Parlament palatalari tomonidan deputatlarning orasidan o'z a'zolarini saylash sobiq sud tizimini atashga qarshi asosiy dalildir

Sud hokimiyati – sudlar tomonidan amalga oshiriladigan davlat hokimiyatining alohida mustaqil tarmog'i bo'lib, ular qonunda belgilangan sud jarayonlari orqali o'zlariga berilgan vakolatlarni amalga oshiradilar. Ko'pgina davlatlar Konstitutsiyasiga muvofiq sud hokimiyati konstitutsiyaviy, fuqarolik, ma'muriy va jinoiy ish yuritish orqali amalga oshiriladi.

Hokimiyatning bir turi sifatida sud hokimiyatini nazariy jihatdan sudlar, sud tizimi bilan aynanlashtirish mumkin emas. Sud hokimiyatini organ (sud) yoki mansabdor shaxs deb hisoblash emas, balki ular nimaga qodir ekanliklari va nima qila olishlari, buning uchun qanday qobiliyat va imkoniyatlarga ega ekanliklaridan kelib chiqiladi.

**Sud hokimiyatining asosiy funksiyalaridan biri** fuqarolar, tashkilotlar va davlatning huquq va manfaatlarini himoya qilish maqsadida fuqarolik, ma'muriy va jinoiy ishlarni, shuningdek, iqtisodiy nizolarni ko'rib chiqish va hal qilish uchun protsessual tartibda amalga oshiriladigan huquqni muhofaza qilish faoliyati.

**Sud tizimining nazorat qiluvchi vakolatlari** asosan qonunlar, davlat hokimiyati sub'ektlarining qonunlari va Konstitutsiyaning qoidalariga barcha darajadagi normativ-huquqiy hujjatlarning rioya

etilishini nazorat qilish shaklida Konstitutsion sud tomonidan amalga oshiriladi. Norma-nazorat ham barcha darajadagi umumiy yurisdiksiya sudlari tomonidan keng amalga oshiriladi.

Sud hokimiyatining nazorat funksiyalari mahalliy vakillik va barcha ijro etuvchi organlarning qarorlarining qonuniyligini nazorat qilish shaklida amalga oshiriladi:

- fuqarolar va tashkilotlarning organlar (mansabdor shaxslar) harakatlari va qarorlari ustidan shikoyatlarini ko'rib chiqish, ularning huquq va erkinliklarini buzish, ma'muriy huquqbuzarlik holatlari bo'yicha shikoyat va qarorlar ustidan protestlar;

- dastlabki tergov sifatidagi jinoyat ishlarini ko'rib chiqish paytida tekshirishlar;

- boshqaruv huquqiy hujjatlarining noqonuniyligini tan olish to'g'risidagi shikoyat va protestlarni ko'rib chiqish;

- organlar, tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari faoliyatida qonuniylik va intizomga oid jinoiy, fuqarolik, ma'muriy ishlarni ko'rib chiqish paytida tekshirishlar, ishni hal etishga tegishli boshqaruv huquqiy hujjatlarining qonuniyligi tekshirish.

#### **Nazorat faoliyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:**

- hukm va boshqa sud qarorlarini ijro etish;

- ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni quyi sudlar tomonidan yuritish va hal qilish;

- sud amaliyotiga oid amaldagi qonunchilikni tushuntirish;

- Oliy sud tomonidan Qonunchilik tashabbusi huquqini amalga oshirish.

Jinoyatlarni aniqlash va ochish jarayonida barcha ijro etuvchi organlar va davlat boshqaruvi organlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning xatti-harakatlari va qarorlarining qonuniyligi va asosliligini nazorat qilish, masalan, jinoyat sodir etganlikda gumon qilinuvchilarni aniqlash, ularni ushlab, fuqaroning yozishmalari, telefon orqali so'zlashuvlar, pochta va boshqa xabarlarni sir saqlash huquqini, shuningdek, yashash joyining daxlsizligi huquqini cheklash jarayonlarining, jinoyat ishlarini tugatishning qonuniyligi va boshqalar., bularning barchasi sud hokimiyatining hukumatning boshqa tarmoqlari orasida muvozanat bo'limi ekanligini ko'rsatadi.

### **Topshiriqlar:**

1. Sud hokimiyati hokimiyatning uch asosiy tarmoqlaridan biri sifatida.
2. Sud tizimining konstitutsiyaviy belgilari.
3. Sud hokimiyatining asosiy funksiyalari.
4. Sud hokimiyati institutlari konstitutsiyaviy, ma'muriy, fuqarolik va jinoiy ish yuritish tizimi sifatida ifodalanishi.
5. Zamonaviy jamiyatlarda sud-huquq tizimini hokimiyatning qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi tarmoqlaridan mustaqil va avtonom faoliyatini ta'minlash mexanizmlarini rivojlantirish masalalari.

## **17-MAVZU. JAMIYATNING SAYLOV TIZIMI. SAYLOV — SIYOSIY INSTITUT SIFATIDA**

### **Reja:**

- 17.1.Saylov siyosiy institut sifatida.Saylov huquqi prinsiplari.**
- 17.2.Saylov tizimi. Saylov tizimlarining turlari.**
- 17.3.Saylov kampaniyasi jarayonlari tahlili.**
- 17.4.Erkin saylovlar fuqarolik jamiyatining asosiy belgisi.**

***Tushunchalar va tayanch iboralar:*** erkin saylovlar, saylov huquqi, saylov prinsiplari,teng saylov huquqi, to'g'ridan-to'g'ri saylash huquqi; yashirin ovoz berish huquqi, saylov oldi tashviqoti, saylov komissiyalari, ovoz berish, mojaritar saylov tizimi, proporsional saylov tizimi, saylov kampaniyasi.

**Saylov xalq hokimiyatchiligining timsoli bo'lib, eng avvalo o'zida jamiyat a'zolarining, qolaversa saylovchi - fuqaro manfaatini ifoda etadi.** Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari amalga oshirilayotgan islohotlarda saylovlarning o'rni beqiyosdir. O'zbekiston mustaqil taraqqiyot yo'lining hozirgi bosqichida davlat hokimiyatining vakillik organlarini erkin, qonuniy va adolatli saylovlar asosida shakllantirilishi demokratik jarayonlar va yangilanishlarning ijtimoiy hayotda oliy qadriyat sifatida ifoda etilayotganligining yorqin

namunasidir<sup>15</sup>. Erkin saylovlarni o'tkazish jarayonida qonuniylik, tenglik kabi bir qator umumiy huquqiy tamoyillarga og'ishmasdan amal qilinishi ularni muvaffaqiyatli amalga oshirishga va fuqarolik jamiyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Darhaqiqat, saylovsiz demokratiyani, demokratiyasiz saylovni tasavvur qilish qiyin. Demokratiya saylov asosida, erkin fikr mushtarakligida, siyosiy plyuralizm mavjudligida namoyon bo'ladi. Saylovlar kishilik jamiyatining bir necha asrlik tarixiy rivojlanish mahsuli bo'lib, davlat va jamiyatning takomillashgan modellarini shakllantirish maqsadida paydo bo'lgan institutdir. Hozirgi davrga kelib, dunyoning aksariyat mamalakatlarida davlat hokimiyati va o'z-o'zini boshqarish organlarini shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan demokratik saylovlar siyosiy tizimining ajralmas tarkibiy qismiga aylanib bo'ldi. Turli mamlakatlardagi huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining rivojlanish darajasini ularda o'tkaziladigan saylovlarga, saylovlardagi aholining ishtirokiga, saylovlarning saviyasiga ko'ra belgilanadi<sup>16</sup>. Bundan tashqari mamlakatdagi tinchlik, barqarorlik xukm surishi va shaxs, jamiyat, davlat xavfsizligining ta'minlanishidemokratik saylov tamoyillari-ning qay darajada ro'yobga chiqi-shiga ham bevosita bog'liqdir. Erkin saylov huquqining amalga oshirilishi, erkin hamda chinakamiga ifoda etiladigan xalq irodasi hokimiyat va har qanday hukumat qonuniyligining asosi ekanligi va har bir shaxsning o'z davlatini boshqarishda bevosita yoki o'z vakillari orqali qatnashish huquqi ko'pgina xalqaro hujjatlarda alohida ta'kidlangan. Fuqarolarning bevosita saylov jarayonida, o'zlari erkin saylaydigan vakillari orqali mamlakatni boshqarishda qatnashish huquqining amalga oshirilishi uchun yaratilgan imkoniyatga qarab, u yoki bu davlat qay darajada demokratik tamoyillar asosida yashayotganligiga baho berish mumkin.

O'zbekiston xalqi demokratik taraqqiyoti huquqiy davlat qurish orqali fuqarolik jamiyatini barpo qlishni ko'zlaydi. Bu xususda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti shunday degan edi: "Biz uchun fuqarolik jamiyati –

---

<sup>15</sup> Парламент сайлови: миллий қонунчилик ва хорижий тажриба: илмий-амалий қўлланма // М.Абдусаломов ва бошқалар; Масъул муҳаррир проф. Ш.Х.Файзиев; –Тошкент: Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузиридаги Амалдаги қонун ҳужжатлари мониторинги институти нашриёти, 2009. 26-бет.

<sup>16</sup> Жўраев Қ.А. Сайлов тизимини эркинлаштириш – демократик тараққиёт омили. Адолат. 2011 йил 6 май № 20 (825)



ijtimoiy makon. Bu makonda qonun ustuvor bo'lib, u insonning o'z-o'zini kamol toptirishga monelik qilmaydi, aksincha yordam beradi. Shaxs manfaatlari, uning huquq va erkinliklarini to'la darajada ro'yobga chiqishiga ko'maklashadi. Ayni vaqtda, boshqa odamlarning huquq va erkinliklari kamsitilishiga yo'l qo'yilmaydi. Ya'ni erkinlik va qonunga bo'ysunish bir vaqtning o'zida amal qiladi"<sup>17</sup>. Buning uchun, eng avvalo, kishilarning siyosiy faolligini yuksak darajaga ko'tarishga alohida e'tibor qaratish talab etiladi. Fuqarolarning siyosiy-ijtimoiy jihatdan yetukligi uning davlat hayotida faol ishtirok etishi bilan belgilanishi shubhasiz. Demokratiyaning ushbu eng muhim tamoyilini hayotga tatbiq etish, fuqarolarning saylov huquqini, o'z xohish-irodasini erkin ifodalash, o'z qonuniy manfaatlarini ro'yobga chiqarish va himoya qilish huquqini ta'minlash uchun haqiqiy shart-sharoit, huquqiy asos yaratib berilishi lozim. O'zbekistonda bularning barchasi yaratilgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida, "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi, "Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi, "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasining Markaziy saylov komissiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlarida saylovlarga doir umume'tirof etilgan demokratik xalqaro tamoyil va qoidalar mustahkamlab qo'yilgan.

Umumxalq saylovlari orqali davlat hokimiyat vakillik organlarini shakllantirish demokratik huquqiy davlatning eng muhim belgisidir. Demokratik davlatlarda saylovlar muhim ahamiyatga ega ekanligi shundaki, ular mamlakat parlamenti qanday siyosiy kuchlardan tashkil topishini aniqlab beradi. Saylovlar mamlakat aholisining kayfiyati va kimni afzal bilishini namoyon etuvchi ko'rsatkich sifatida ham katta ahamiyat kasb etadi.

**Saylov tizimi** — saylov o'tkazish tartiblarining hamda ularni o'rnatuvchi xuquqiy normalarning majmui. Saylov tizimi davlat vakillik organlarini shakllantirish yuzasidan mavjud bulgan va fuqarolarni saylovga jalb etish, saylovlarni tashkil qilish va deputatning saylovchilar bilan uzaro munosabatlarini belgilaydigan tartibini,

---

<sup>17</sup> Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: O'zbekiston. 1997. 173-bet.

fuqarolarning barcha saylov huquqlarini o'z ichiga oladi. Jahon mamlakatlarining davlat qurilishi tajribasida Saylov tizimining majoritar, proporsional va aralash turlari qo'llaniladi.

**1. Majoritar saylov tizimi** deganda (frans. Majorite-ko'pchilik) vakillik organlariga saylovlarda ovoz berish natijasini aniklash tushuniladi. Unda qonun bilan belgilangan ko'p ovozni olgan nomzod (yoki nomzodlar ro'yxati) muayyan okrug bo'yicha saylangan hisoblanadi. Hozirgi zamon konstitutsiyaviy huquqida nisbatan, mutlaq va malakali ko'pchilik ovoziga asoslangan majoritar saylov tizimlari qo'llaniladi. Macalan, AQSh, Buyuk Britaniya, Hindiston, Meksika va b. da. mutlaq ko'pchilik ovoziga asoslangan majoritar tizimda berilgan va haqiqiy deb topilgan ovozlarning umumiy sonidan mutlaq (yoki oddiy) kup ovoz (ya'ni 50% +1 ta ovoz) olgan nomzod saylangan sanaladi. Agar nomzodlardan birontasi ham yetarlicha ovoz olmasa, kayta ovoz berish utkaziladi, bunda nomzodlar ruyxatida nisbatan kup ovoz olgan 2 ta nomzod qoldiriladi. Ba'zan qayta ovoz berish urniga 2-tur ovoz berish utkaziladi, buning natijalari boshkacha tizim buyicha aniklanadi (mas, Fransiyada Milliy majlis—parlamentga saylovlarda mutlaq kupchilik ovoziga asoslangan majoritar tizim, 2-tur ovoz berishda esa nisbatan kupchilikning ovoziga asoslangan majoritar tizim qullaniladi). Nisbatan kupchilik ovoziga asoslangan majoritar tizim eng sodda tizim bo'lib, bunda nomzodlar orasidan uz raqiblarining har biriga nisbatan kup ovoz olgani saylangan xisoblanadi. Bu tizimda kupincha saylovchilarning qullabquvvatlashiga ega bo'lmagan partiya parlamentda ko'p uringa ega bulishi mumkin. AQSh, Buyuk Britaniya va b. bir kancha davlatlarda majoritar tizimning ana shunday shakli qo'llaniladi. Shuningdek, majoritar tizimning kamdan-kam hollarda qo'llaniladigan yana bir turimalakali kupchilik ovoziga (umumiy ovozlarning 2/3, 3/4 kismiga) asoslangan majoritar tizim ham mavjud (mas, Chilida parlamentning quyi palatasi — Deputatlar palatasiga saylovlarda shunday tizim qo'llaniladi). Biroq, bunda faqat juda oz nomzodlar saylovchilarning 65% ovozini olishi mumkin bulganligi uchun, mandatlar, odatda, vakillikning proporsional tizimi buyicha taqsimlanadi. Har bir saylov okrugidan saylanadigan deputatlarning soniga qarab bir mandatli yoki kup mandatli majoritar saylov tizimlari bulishi mumkin. Bir mandatli majoritar tizimda bir

okrugdan bir deputat saylanadi. Ko'p mandatam majoritar tizimda bir okrugdan bir necha deputat saylanadi.

**2.Proporsional saylov tizimi** ovoz berish natijalarini aniklashning birmuncha murakkab tartibi bo'lib, bunda mandatlar o'z nomzodlarini vakillik organlariga qo'ygan siyosiy partiyalar va b. ommaviy harakatlar o'rtasida ular tomonidan olgan ovozlarning soniga mos ravishda taqsimlanadi. Proporsional saylov tizimida katta-katta saylov okruglari tuzilib, ularda har bir partiya o'z vakillarining ro'yxatini ilgari suradi, saylovchilar esa tegishli partiyalar yoki ommaviy harakatlar tomonidan ko'rsatilgan vakillarning ruyxati uchun ovoz beradi. Ovoz berish natijalarini aniklash uchun saylov mezoni (yoki kvota), ya'ni bir deputatlik mandatini olish uchun zarur bo'lgan ovozlar miqdori (odatda, kamida 4-5% qilib) o'rnatiladi. Bunda, shartga ko'ra, muayyan jamoat birlashmalarining nomzodlari ana shu belgilangan ovozlarni olgandan keyingina mandatlarni taqsimlashda qatnashadi. Avvalo saylovchilar bergan ovozlar miqdori deputatlik o'rinlarining soniga bo'linadi. Shunda bitta mandat doirasidagi ovozlar soni ma'lum bo'ladi. Keyin har bir partiya olgan ovozlar alohidaalohida hisoblab chiqiladi. Bu miqdor deputatning bir mandati uchun zarur bo'lgan ovozlar miqdoriga bo'linadi. Shunda mazkur siyosiy partiya yoki ommaviy harakatga berilgan deputatlik o'rinlari soni kelib chiqadi. Bunday tizimda saylovchi amalda nomzod uchun emas, balki siyosiy partiya uchun ovoz beradi. Saylovchilarning ovozi belgilangan me'yor doirasida va mutanosib ravishda deputatlar mandatlari sonini keltirib chiqaradi. Bu o'rinlar partiya rahbar organlari tomonidan partiyaviy ro'yxatning bosh qismidan joy olgan nomzodlarga beriladi. Proporsional saylov tizimi Isroil, Vengriya, Avstriya, Daniya, Ispaniya, Polsha va b. mamlakatlarda mavjud.

Saylov tizimi o'zida ham majoritar, ham proporsional saylov tizimlari elementlarini mujassam etadi. Misol uchun Germaniyada Bundestagga saylovlarda aralash tizim qo'llaniladi. Uning deputatlarining yarmi butun mamlakat hududini qamrab olgan bir mandatli saylov okruglarida nisbatan ko'pchilik ovozigacha asoslangan majoritar tizim bo'yicha, 2-yarmi esa, ko'p mandatli saylov okruglari hisoblangan german yerlari (federatsiya sub'ektlari)da siyosiy partiyalar tomonidan ilgari surilgan nomzodlar ro'yxati asosida proporsional tizim bo'yicha saylanadi.

**3.Aralash saylov tizimi** Bolgariya, Gruziya, Litva, Italiya va b. mamlakatlarda qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasining saylov tizimi mamlakat Konstitutsiyasi va saylov to'g'risidagi tegishli qonunlar bilan tartibga solinadi. Ularga binoan, O'zbekistonda majoritar saylov tizimi qo'llaniladi. Macalan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzod saylov okrugi buyicha ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilarning yarmidan ko'pining ovozini olishi kerak. Agar saylovchilarning ro'yxatiga kiritilgan saylovchilarning yarmidan kam saylovda ishtirok etgan bo'lsa, saylov o'tmagan hisoblanadi. Agar saylov okrugi buyicha 2 tadan ortiq nomzod ovozga qo'yilgan bo'lsa va ulardan birontasi ham kupchilik ovozini ololmasa, ya'ni deputat bulib saylanmay qrsa, okrug saylov komissiyasi eng ko'p ovoz olgan 2 nafar nomzodni okrugda takroriy ovozga qo'yish to'g'risida qaror qabul qiladi. Bu qaror Markaziy saylov komissiyasiga yuboriladi. Markaziy saylov komissiyasining qarori asosida 2 hafta ichida takroriy ovoz berish o'tkaziladi.

**Saylov jarayoni** – saylov tizimining asosiy elementlaridan biri. U:

1) saylovlar tayinlashni (qoida tariqasida bu alohida huquq davlat boshlig'i yoki qonunchilik organiga tegishli);

2) qonun b-n belgilangan tartibda saylovchilarni ro'yxatga olishni;

3) tumanlar va b. joylarda saylov okruglari tashkil etishni, (vakillik prinsipiga muvofiq hududiylik, milliylik, ishlab chiqarish va b. xususiyatlarni shakllantiradi (ovoz berish uchun saylov uchastkalari va punktlari ham tashkil etiladi);

4) nomzod ko'rsatishni (siyosiy partiyalar tomonidan, saylov bloklari tomonidan, tashabbuskor guruhlar tomonidan);

5) ovoz berish o'tkazishni (bir yoki ikki turda);

6) ovoz berish natijalarini aniqlashni (berilgan ovozlarni hisoblashni) va mahalliy hamda markaziy saylov organlari tomonidan amalga oshiriluvchi deputatlar mandati bo'lishini o'z ichiga oladi.

**Saylov kampaniyasi** – bo'lajak saylovlarda o'ziga ko'proq saylovchilarni jalb etish, ularning qo'llab-quvvatlashini ta'minlash maqsadida siyosiy tomonidan olib boriladigan targ'ibot tadbirlari tizimi. Saylov kampaniyasida jamoat birlashmalari, ommaviy axborot vositalari, turli qo'llab-quvvatlash guruhlari va b. qatnashadi. Saylov kampaniyasi

davrida targ'ibotning asosiy shakllari (usullari): saylovoldi yig'ilishlari va mitinglar o'tkazish, ro'znomalarda pamfletlar va maqolalar chiqarish; saylovoldi afishalari, plakatlar yopishtirish, radio va televidenie orqali chiqishlar shaklida amalga oshiriladi. Hozirgi zamon saylov qonunlari odatda saylov kampaniyasolib borishni mufassal tartibga soladi. Birinchidan, saylov kampaniyasi olib borish muddati (ayrim hollarda esa hududi) aniq belgilanadi. Saylov kampaniyasi, odatda, saylovni tayinlash to'g'risida e'lon qilingan kundan yoxud nomzodni (partiya ro'yxatini) ro'yxatga olishdan boshlanadi va ovoz berish boshlanishiga 1-2 kun qolganda to'xtatiladi. Ikkinchidan, davlat tomonidan ommaviy axborot vositalarini saylovoldi targ'iboti uchun partiyalarga va nomzodlarga berish tartibi ishlab chiqiladi. Uchinchidan, Saylov kampaniyasini mablag' bilan ta'minlash tartibi va shartlari belgilanadi. Masalan, qator mamlakatlar (AQSh, Yaponiya, Buyuk Britaniya) qonuni saylov kampaniyasi ni o'tkazishga yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xarajatlar eng ko'p miqdorini belgilaydi. Qonun ko'pchilik mamlakatlarda partiyalar va nomzodlar foydasiga xususiy shaxslardan xayriya mablag'lari tushishining maksimal miqdorini, saylov kampaniyasi ni davlat tomonidan subsidatsiyalash imkoniyati miqdori va shartini belgilaydi. Saylov kampaniyasini noma'lum va chet el manbalaridan moliyalash qat'iyon taqiqlanadi.

**Saylov kvotasi** – deputatning saylanishi uchun zarur bo'lgan eng kam ovozlar soni. Saylov kvotasi har bir saylov okrugi uchun alohida aniqlanishi yoki butun mamlakat uchun belgilanishi mumkin. O'zbekistonda har bir okrugdagi ro'yxatga olingan saylovchilar kamida 33% saylovda ishtirok etib, shu saylovchilarning ko'pchilik (50%+1ta ovoz) ovozini olgan deputat saylangan hisoblanadi.

**Saylov komissiyalari** – fuqarolar tomonidan davlat organlari tarkibida bevosita saylovlarni o'tkazish uchun tashkil etilgan maxsus kollegial organlar. Saylov komissiyalari vakolati va tashkil etish tartibi, tizimi O'zRning saylov to'g'risidagi qonunlari b-n belgilanadi. O'zRda saylov komissiyalari tizimiga quyidagilar kiradi:

Markaziy saylov komissiyasi,  
okrug saylov komissiyasi  
saylovuchastkasi.

Saylov komissiyasi fuqarolarni o'z ishlaridan, saylov okruglari,

uchastkalari tuzilganligi, saylov komissiyalari tarkibi, ularning joylashgan yeri va ish vaqtidan voqif etadilar, saylovchilarning ro'yxatlari, saylovda ishtirok etayotgan siyosiy partiyalarning ro'yxati bilan tanishtiradilar, deputatlikka nomzodlar xususidagi ma'lumotlar, ovoz berish va saylov yakunlaridan xabardor qiladilar. "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi O'zR Qonunining 9-18-m.oddalarida saylov komissiyalari bilan bog'liq qoidalar belgilangan

**Saylov korpusi** – qonunga asosan (aktiv saylov huquqi) ovoz berish huquqiga ega bo'lgan fuqarolar yig'indisi.

**Saylov okrugi** – davlat organlariga nomzodlar saylanadigan hududiy birlik. Har bir saylov okrugidan qancha deputatlar saylanishiga qarab, bir mandatli va ko'p mandatli tashkil etiladi. shuningdek umumdavlat (proporsional saylov tizimida, davlat boshlig'ini saylashda) va regional (asosan, majoritar va gohida proporsional saylov tizimida) bo'lishi mumkin.

"O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi O'zR Qonunining 7-m.siga muvofiq, O'zR Oliy Majlisining QPga saylov o'tkazish uchun bir yuz o'ttiz beshta hududiy tuziladi. Har bir S.o.dan bitta deputat saylanadi. Qonunchilik palatasiga deputatlar saylovini o'tkazuvchi QR Jo'qorg'i Kengesining, viloyatlar va Toshkent sh. hokimliklarining takdimnomasiga binoan, Markaziy saylov komissiyasi tomonidan tuziladi. Saylov okruglarining chegaralari QR, viloyatlar va Toshkent sh.ning ma'muriy-hududiy tuzilishini inobatga olgan holda belgilanadi. **S.o.lari qoida tariqasida, O'zRning butun hududida saylovchilar soni teng holda tuziladi.** Har bir saylov uchun Saylov okrugga to'g'ri keladigan saylovchilar normasi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan belgilanadi. Markaziy saylov komissiyasi ro'yxatini ularning chegaralari va saylovchilar sonini ko'rsatgan holda saylovga kamida yetmish besh kun qolganida e'lon qiladi.

"Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida"gi O'zR Qonunining 7-moddasiga asosan deputatlar saylovini o'tkazish uchun xalq deputatlari vil. va Toshkent sh. Kengashlariga deputatlar saylashda - oltmishtadan ko'p bo'lmagan, xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlariga deputatlar saylashda o'ttizztadan ko'p bo'lmagan hududiy saylov okrugi tuziladi.

**Saylov organlari** – saylov tashkil etilishi va o‘tkazilishini ta’minlovchi organlardir. Saylov organlari turli davlatlarda turlicha bo‘lishi mumkin. Maxsus tashkil etiladigan saylov komissiyalari yoki davlat organlariga (munitsipalitetlar, sudlar, ichki ishlar organlari) ushbu vazifa yuklatiladi.

**Saylov tizimi** – saylov o‘tkazish tartiblarining hamda ularni o‘rnatuvchi huquqiy normalarning yig‘indisi hisoblanadi. U o‘z ichiga saylovni o‘tkazuvchi barcha huquqiy hujjatlar, saylov tizimi tamoyillari, fuqarolarning barcha saylov huquqlarini oladi.

**Saylov uchastkalari** – ovoz berish va ovozlarni hisoblash uchun tashkil etiladigan hududiy birliklar. Saylov uchastkasi komissiyalari 5-19 nafar a‘zodan, shu jumladan, rais, rais o‘rinbosari va kotibdan iborat tarkibda tuziladi.

**Saylov senzlari (saylovda cheklash shartlari)**– konstitutsiya yoki saylov to‘g‘risidagi qonunlarda saylov huquqlarini olish yoki amalga oshirish uchun o‘rnatilgan shartlar. Turli davlatlar konstitutsiyaviy tajribasida saylov senzlarining quyidagi turlari mavjud: yoshi, fuqaroligi, mulkiy, bilim, jinsi, irqi, xizmati, tiliga qarab shartlar belgilanadi. Bu cheklash shartlarining ba‘zilari - mulkiy, jinsiy, irqiy kabilar demokratik prinsiplarga mutlaqo to‘g‘ri kelmaydi. Boshqalari har bir davlatning saylov to‘g‘risidagi qonunlarida belgilangan doirada amalda mavjuddir. Masalan, saylash huquqi 18 yoshdan, saylanish huquqi nomzodning qaysi organga saylanishiga qarab turli yosh belgilanishi mumkin

**Saylov huquqi** – ikki ma’noda ishlatiladi. *Birinchi*dan, saylovni tashkil qilish va o‘tkazishni tartibga soluvchi huquqiy me‘yorlar yig‘indisi; *ikkinchi*dan, fuqarolarning saylov huquqlari, ya’ni ovoz berish, saylanish, saylov davrida boshqa tadbirlarda nomzodlar ko‘rsatish, nomzodlarni muhokama qilish, saylov komissiyalari tarkibida ishtirok etish huquqlari.

**Saylovchi** – saylab qo‘yiladigan davlat va jamoat organlaridagi lavozimlarga va vakillik organlari deputatligiga o‘tkaziladigan saylovlarda ishtirok etish huquqiga ega bo‘lgan shaxs. Saylov kuniga qadar yoki saylov kunida 18 yoshga to‘ladigan, tegishli saylov uchastkasi hududida doimiy yoki vaqtincha istiqomat qilib turgan fuqarolar saylovchilar hisoblanadi. Har bir saylovchi faqat bitta saylovchilar ro‘yxatiga kiritiladi. Biror-bir sababga ko‘ra, saylovchilar ro‘yxatiga vaqtida kirmay qolgan saylovchi

uning shaxsi, fuqaroligi va turar joyini tasdiqlovchi hujjatga asosan uchastka saylov komissiyasi tomonidan ro'yxatga kiritiladi. Ba'zi davlatlarda saylovchi ushbu funksiyani bajarish uchun saylanadi (AQSh Prezidentini saylash uchun saylovchilar) yoki egallagan lavozimiga asosan (Fransiyada senatni saylashda munitsipalitet a'zolari) bajaradi.

**Saylovchilarni ro'yxatga olish** – fuqaroning saylovda ishtirok etish huquqini tasdiqlash tartibi; bu ish tegishli organlar tomonidan amalga oshiriladi. Saylovchilarni ro'yxatga olishning ahamiyati shundaki, uning natijasida saylovdan oddin ovoz berish huquqiga ega fuqaroning shaxsini aniqlash va faqat shu shaxs saylov byulletenini to'ldirib, saylov qutisiga tashlash imkoniyati vujudga keladi. Saylov kuniga qadar yoki saylov kunida 18 yoshga to'lgan, ro'yxat tuzilayotgan vaqtda mazkur saylov uchastkasi hududida doimiy yoki vaqtincha istiqomat qilib kelayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari saylovchilar ro'yxatiga kiritiladi. Ro'yxatda har bir saylovchining familiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan sanasi va manzili ko'rsatiladi.

**Erkin saylovlar fuqarolik jamiyatining asosiy belgisi.** Saylov xalq hokimiyatchiligining timsoli bo'lib, eng avvalo o'zida jamiyat a'zolarining, qolaversa saylovchi – fuqaro manfaatini ifoda etadi. Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari amalga oshirilayotgan islohotlarda saylovlarning o'rni beqiyosdir. O'zbekiston mustaqil taraqqiyot yo'lining hozirgi bosqichida davlat hokimiyatining vakillik organlarini erkin, qonuniy va adolatli saylovlar asosida shakllantirilishi demokratik jarayonlar va yangilanishlarning ijtimoiy hayotda oliy qadriyat sifatida ifoda etilayotganligining yorqin namunasidir<sup>18</sup>.

Erkin saylovlarni o'tkazish jarayonida qonuniylik, tenglik kabi bir qator umumiy huquqiy tamoyillarga og'ishmasdan amal qilinishi ularni muvaffaqiyatli amalga oshirishga va fuqarolik jamiyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning e'tiroficha, **«demokratiya va saylov tushunchalari doimo yonma-yon yuradi, ular o'zaro birlashib ketgan. Saylov – demokratiya degani. Demokratiya – bu saylov degani»**. Darhaqiqat, saylovsiz demokratiyani, demokratiyasiz

---

<sup>18</sup> Парламент сайлови: миллий қонунчилик ва хорижий тажриба: илмий-амалий қўлланма // М.Абдусаломов ва бошқалар; Масъул муҳаррир проф. Ш.Х.Файзиёв; –Тошкент: Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузиридаги Амалдаги қонун ҳужжатлари мониторинги институти нашриёти, 2009. 26-бет.



saylovni tasavvur qilish qiyin. Demokratiya saylov asosida, erkin fikr mushtarakligida, siyosiy plyuralizm mavjudligida namoyon bo‘ladi.

Har qanday davlatning demokratik davlat, deb e‘lon qilishning o‘zi kifoya emas, muhimi, uning tashkil etilishi va faoliyatini tegishli huquqiy institutlar, huquqiy kafolatlar bilan ta‘minlashdan iboratdir. Bunday, konstitutsiyaviy-huquqiy institutlarning negizini saylov huquqi instituti tashkil etadi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, yuqorida ko‘rsatilgan maqsadlarga erishishda saylovlar bir vaqtning o‘zida ikkita yirik vazifani yechishga xizmat qiladi: birinchidan, saylovlar demokratiyani amalga oshirishning bevosita shakli bo‘lib, fuqarolarni uyushgan holda o‘zlari yashab turgan davlat va jamiyatni boshqarish jarayonlariga safarbar etadi. Haqiqatdan ham “xalq hokimiyatining bevosita oliy ifodasini erkin saylovlar tashkil etadi”<sup>19</sup>. Bunda fuqarolar har qanday jarayonning ishtirokchisi bo‘lganidek, saylov jarayonida ishtirok etib o‘ziga siyosiy tajriba orttiradilar. Ular, avvalambor, o‘zlarining siyosiy ongini charxlab, siyosiy-huquqiy madaniyatini oshiradi va bu jarayonda ishtirok etishning tashkiliy-huquqiy jihatlarini takomillashtirib boradilar. Shuningdek, fuqarolar uyushqoqlik, hamjihatlik bilan, o‘z harakatlarini kelishuv asosida namoyon qilishlarida siyosiy tajriba va ko‘nikmalarini orttirib boradilar.

Demokratik davlatning muhim belgilaridan birini vakillik demokratiyasi tashkil etadi. Vakillik demokratiyasi fuqarolarning manfaatlarini birlashtirib, qonunlar va qarorlar qabul qilishga mutloq huquq berilgan saylanadigan muassasalar orqali xalq hokimiyatini amalga oshirishidir. Bundan kelib chiqadiki, tom ma‘nodagi vakillik demokratiyasining amalga oshirilishi saylov jarayonining demokratik tamoyillarga amal qilishligi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqdir. Bundan xulosa qilish mumkinki, demokratiya va saylovlar bir-biri bilan uzviy bog‘liq tushunchalardir.

---

<sup>19</sup> Қаранг: Баглай М.В. Конституционное право Российской Федерации. – М.: ИНФРА, 2000. – С. 107.

## 18-MAVZU: SIYOSIY MADANIYAT

### Reja:

1. Siyosiy madaniyat tushunchasi
2. Siyosiy madaniyat asosiy elementlari
3. Siyosiy madaniyat darajalari
4. Siyosiy madaniyat modellari
5. Siyosiy madaniyat turlari

**Tushunchalar va tayanch iboralar:** Siyosiy madaniyat, siyosiy tajriba, siyosiy ong, siyosiy xulq-atvor, siyosiy tajriba, siyosiy ong, mafkuraviy, g'oyaviy komponent, emotsional-psixologik komponent, siyosiy xulq-atvor, siyosiy vaziyat.

Siyosiy madaniyatni tushunishdan oldin “madaniyat” so‘zining ma’nosini bilib olish kerak bo‘ladi. **Madaniyat deb insonning dunyoni o‘zlashtirishdagi, tabiat, jamiyat dunyosini bilib olishi, salohiyatini va ularning natijasi o‘laroq yuzaga kelgan moddiy borliqni tushunishiga aytiladi.** Bu ta’rif uchta muhim jihatga ega: a) inson faoliyati bilan bog‘liqligiga; b) inson tomonidan yaratilgan barcha moddiy va ma’naviy boyliklar; v) insonning ularni yaratishdagi salohiyatiga asosiy e’tibor qaratilgan. Haqiqatan ham madaniyat insonning jismoniy va aqliy faoliyati natijasida yuzaga keladigan moddiy va ma’naviy boyliklardan iborat. U nihoyatda keng qamrovli bo‘lganligi uchun ham, ularni to‘la o‘zida ifoda ettiruvchi ta’rif berish bugungacha dolzarbligicha qolib kelmoqda.

Biroz bo‘lsa-da osonroq tushunish uchun madaniyatni ikki yirik guruhga ajratamiz: moddiy va ma’naviy. **Moddiy** madaniyatga insonning jismoniy mehnati va aqliy salohiyati bilan yaratilgan binolar, texnik va texnologik asbob-uskunalar, mashina, transportning barcha turi, uy anjomlari, mebel, kiyim-kechak va boshqalardan iborat bo‘lsa, **ma’naviy** madaniyatga insonning moddiy madaniyatga bergan go‘zal, chiroyli “qiyofasi” va ularning insonga zavq, shavq, ruxiy qudrat bahsh etuvchi jihatlari kiradi. Moddiy madaniyat insonning jismoniy mehnatining mevasi bo‘lsa, ma’naviy madaniyat uning aql zakovati, ruhiyati, qalbi, tafakkuri, bir so‘z bilan aytganda, ichki botiniy salohiyatining mahsulidir.

**Siyosiy madaniyat umummilliy madaniyatning o'ziga xos, shu bilan birga, ajralmas qismi. Siyosiy madaniyat, avvalambor, katta va kichik ijtimoiy guruhlarning, umuman, insoniyatning tarixiy taraqqiyoti jarayonida olgan siyosiy tajribasidir.** Insonlarning bevosita ma'naviy hayoti, qadriyatlari, dunyoqarashi, urf-odatlar bilan bog'liq holda namoyon bo'luvchi siyosiy hodisa bo'lgan siyosiy madaniyat omili xuddi siyosatning o'zi kabi uzoq tarixga egadir. Siyosiy madaniyat tushunchasi u yoki bu tarzda qadimgi mutafakkirlar tomonidan ham ma'lum darajada talqin qilingan. Siyosat olamining buyuk donishmandlari bo'lmish Konfutsiy, Arastu, Aflotun, Abu Nasr Forobiy, Yusuf Xos Xojib, Makiavelli va boshqalarni bunga misol qilib keltirish mumkin.

**«Siyosiy madaniyat» terminini** ilmiy muomalaga birinchi bo'lib XVIII asrda nemis faylasufi va ma'rifatparvari **I. Gerder olib kirgan.** Empirik asosga ega bo'lgan siyosiy madaniyat to'g'risidagi ilmiy konsepsiyalar g'arbda XX asrning o'rtalariga kelib shakllana boshladi. Bunda yirik tadqiqotchilar bo'lgan G. Almond, X. Fayer, S. Verba, A. Lipset, M. Dyuverje, U. Rozenbaum, G. Pauell, L. Pay kabilarning ulkan hissalar bor. Masalan, hozirgi zamon siyosatshunosligida birinchilardan bo'lib «siyosiy madaniyat» tushunchasini ishlatgan amerikalik nazariyotchi X. Fayerning 1956 yilda bosilib chiqqan «Yevropaning buyuk davlatlari boshqaruv tizimi» nomli kitobi siyosiy madaniyatning mohiyatini anglash yo'lida qo'yilgan dastlabki muhim qadam bo'ldi, undan sal keyinroq G. Almond va S. Verba besh mamlakat AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Meksika va Italiya siyosiy jarayonlarini tadqiq qilish asosida 1963 yilda «Fuqarolik madaniyati» nomli kitobini e'lon qildilar. Shundan ikki yil keyin, 1965 yilda L. Pay bilan S. Verba o'nta mamlakat jamiyati siyosiy madaniyatini o'rganish asosida «Siyosiy madaniyat va siyosiy taraqqiyot» nomli asarni nashr qildilar. Mazkur ikki yirik ilmiy ish siyosiy madaniyatning hozirgi zamon konsepsiyasi shakllanishiga muhim turtki bo'ldi, hamda siyosiy madaniyat nazariyasining kelajakdagi taraqqiyotiga ma'lum darajada zamin tayyorlab berdi.

Siyosiy madaniyatning turli talqinlari keltiriladi:

**siyosiy madaniyat bu** - o'ziga siyosiy ma'rifatni, siyosiy onglilikni, hamda ijtimoiy-siyosiy faoliyatni ham qamrab olgan shaxs va ijtimoiy birlikning madaniyatidir;

**siyosiy madaniyat bu** - o'z ichiga ijtimoiy-siyosiy institutlar va siyosiy jarayonlar bilan bevosita aloqador bo'lgan elementlarni qamrab olgan jamiyat ma'naviy madaniyatining bir qismidir;

**siyosiy madaniyat bu** – konkret ijtimoiy birlik yoki shaxsga tegishli bo'lgan siyosiy ong va siyosiy xulq- atvor stereotiplari yig'indisidir;

**siyosiy madaniyat bu** – tarixan qaror topgan siyosiy munosabatlar tizimida ijtimoiy sub'ektning (shaxsning, ijtimoiy guruh, jamiyatning) o'z siyosiy bilimlarini, qadriyatlaridan kelib chiqqan holda mo'ljallangan niyatlarini hamda o'ziga xos siyosiy xulq-atvorini namoyon qilishi, amalga oshirilishidir.

**Siyosiy madaniyat bu** – siyosiy tafakkur va siyosiy faoliyat madaniyatidir, shuningdek, siyosiy institutlarning xarakteri va faoliyat tartibining va jamiyat siyosiy hayoti barcha jabhalarining sivilizatsiyalashganligi darajasidir.

#### **Siyosiy madaniyat asosiy elementlari quyidagilar:**

1.Siyosiy tajriba;

2.Siyosiy ong;

3.Siyosiy xulq-atvor.

Ularning komponentlari:

1. **Siyosiy tajriba:** a) xalqning O'ziga xos milliy-ma'naviy qadriyatlari; b) mentaliteti; v) tarixiy xotirasi va an'analari; g) milliy davlatchilikni amalga oshirish tajribasi, O'z milliy qadriyatlaridan kelib chiquvchi siyosiy mo'ljallari.

2. **Siyosiy ong:** a) mafkuraviy, g'oyaviy komponent; b) emotsional-psixologik komponentlardan iboratdir.

3. **Siyosiy xulq-atvor:** a) siyosiy vaziyat, jarayondagi xatti-xarakat, faoliyat yo'nalishi; b) ijtimoiy-siyosiy faoliyat uslubining, namunalari, turlari xususiyatlari.

Siyosiy madaniyatning **uchta darajasi** tilga olinadi:

a) tafakkur qilish, anglash darajasi;

b) fuqarolik darajasi;

v) siyosiy daraja.

**Tafakkur qilish, anglash darajasi.** Mazkur darajada shaxs tomonidan siyosat dunyosida o'z o'rnini aniqlab olish, u yoki bu

yo'nalishdagi siyosiy mo'ljallarni va siyosiy xulq-atvor normalarini aniqlab olish holati yuz beradi.

**Fuqarolik darajasi.** Bu - siyosiy madaniyatning asosiy o'zagi. Unda odamlarning siyosiy hokimiyatga munosabati shakllanadi. Inson siyosat dunyosi bilan duch kelib, muqarrar ravishda unga, jamiyat siyosiy tizimiga, siyosiy hokimiyat imkoniyatlari va vakolatlariga nisbatan o'z munosabatlarini shakllantiradi. Siyosiy hokimiyatning o'rni, rolini anglash natijasida, o'zining fuqarolik burchlari va majburiyatlarini ichki tuyg'usi bilan his qiladi.

**Siyosiy daraja.** Mazkur darajada insonning siyosat hodisasiga munosabatlari shakllangan qadriyat darajasiga yeta boshlaydi. Inson o'zini siyosatning sub'ekti sifatida qabul qiladi. Inson va siyosat o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikning barcha jihatlari oydinlashadi. Siyosatning o'rni aniq tasavvur qilingan bo'ladi. Odamlarning siyosiy qadriyatlardan kelib chiquvchi mo'ljallari ularning siyosiy xulq-atvorlarida aks etadi.

### **Siyosiy madaniyatning modellari:**

**1.Totalitar-avtoritar modeli** – shunisi bilan xarakterliki, unda birinchidan, shaxsning individual jihatlari sun'iy ravishda buziladi; ikkinchidan, jamiyatda siyosiy qadriyatlar va siyosiy ong markazlashgan tarzda davlat tomonidan shakllantiriladi va davlat manfaatlari ustun qo'yiladi; uchinchidan, jamiyatni siyosiy axborot bilan ta'minlash ishi hokimiyat tomonidan belgilab berilgan yo'nalishda olib boriladi va davlat tomonidan monopoliyalashtiriladi, siyosiy senzura amalga oshiriladi; to'rtinchidan, siyosiy hayot bir xil qolipda kechadi, jamiyatning siyosiy madaniyati hech qanday muqobilsiz yuqoridan turib shakllantiriladi; beshinchidan, aholi aksariyat qismining siyosiy madaniyati nihoyatda past bo'ladi; oltinchidan, siyosiy madaniyatning totalitar-avtoritar modeli tashqi dunyoga nisbatan sun'iy ajratib qo'yilganligi, biqiqiligi bilan ajralib turadi.

**2.Liberal-demokratik modeli** – fuqarolar siyosiy huquq va erkinliklarini huquq asosida yuqori darajada ro'yobga chiqarishga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi.

**3.Sharqona siyosiy madaniyat modeli** – o'zbek xalqining o'ziga xos siyosiy madaniyati asoslari ko'p asrlik taraqqiyot yo'lini bosib O'tgan nihoyatda boy madaniy va ma'naviy makonda shakllangani bilan xarakterlanadi. Buyuk donishmand bobokolonimiz Abu Nasr Farobiy «Fozil

odamlar shahri» nomli asarida mamlakatning xaqiqatdan ham «Fozil» bo'lishi uchun uning aholisi umumiy madaniy saviyasi yuksak bo'lishi kerakligi haqida shunday fikrlarni yozgandi: «Fozillar shahrining barcha aholisi uchun umumiy bo'lgan xususiyatlar quyidagilar: Birinchidan, ular asliy sababni va uning barcha sifatlarini bilishi zarur... Fozil odamlar yana shahar (davlatning) birinchi rahbari u yoki bu vaqt mobaynida yo'q bo'lib qolganida (bir yoqqa ketganida, kasalligida va hokazo), uning o'rnini bosa oladigan rahbarlarni bilishi zarur. Fozillar shahri, uning aholisi, ularning dillari erishadigan baxt-saodat nima ekanligini bilishlari zarur...»<sup>23</sup>. Buyuk alloma Yusuf Xos Xojib «Qutadg'u bilig» asarida, sohibqiron bobomiz Amir Temur tuzuklarida ham bugungi kunda biz «siyosiy madaniyat» deb atayotgan tushunchaning o'ziga xos elementlari, uning siyosiy xulq atvorda namoyon bo'lish holatlari haqida yaxshi fikrlar ilgari surilgan.

Siyosiy madaniyatning modellari bilan bir qatorda uning ko'pgina turlari ham mavjud. Quyida ularning eng asosiylari to'g'risida ma'lumot berib o'tamiz:

1. **Siyosiy madaniyatning «yopiq» turi** - o'zining siyosiy jihatdan biqirligi bilan xarakterlanadi, u boshqa turlariga nisbatan murosasiz bo'ladi, ularni mutlaqo qabul qila olmaydi. Faqat o'zining tor milliy qobig'ida qoladi.

2. **Siyosiy madaniyatning «ochiq» turi** – siyosiy madaniyatning boshqa turlarini ijobiy qabul qiladi. Siyosiy voqeliklardagi yangi real o'zgarishlarni qabul qiladi. O'z-o'zini boyitib boradi, ijtimoiy va siyosiy jihatdan harakatchan bo'ladi.

3. **Siyosiy madaniyatning patriarxal turi** – unchalik rivojlanmagan boy ma'naviy madaniyati, qadriyatlarga ega bo'lmagan xalqlarga xos bo'lib, ushbu tur vakillarining siyosiy faollik holati deyarli bo'lmaydi, ular siyosiy qadriyatlar, siyosiy normalar va institutlarga qiziqish bildirmaydi.

4. **Faol siyosiy madaniyat turi** – uning xususiyati shundaki, fuqarolar jamiyat siyosiy hayotiga faol ravishda shaxsiy aralashuvga intiladilar. Shu orqali jamiyat siyosiy tizimida shaxsan ma'lum bir status, imijga ega bo'lishlikni mo'ljallaydilar.

### **Topshiriqlar:**

1. Siyosiy madaniyat tushunchasi, uning paydo bo'lish tarixi.
2. Siyosiy madaniyatning siyosiy fikrlar rivojidadagi o'rni.
3. Siyosiy madaniyatning funksiyalari va turlari.

4. Siyosiy ishtirok va siyosiy madaniyatning xususiyatlari.
5. Siyosiy ishtirokning va siyosiy jarayonlarning o'ziga hosligi.

## **19-MAVZU. XALQARO MUNOSABATLARNI TIZIMLI O'RGANISH VA PROGNOZLASH**

### **Reja:**

- 1. Siyosiy "oldindan ko'rish" yoki "bashorat" masalasi va uning tadqiq etishning ayrim usullari**
- 2. Siyosiy bashorat qilish (prognozlash) ob'ekti**
- 3. Siyosiy bashorat qilish tamoyillari va usullari**
- 4. Siyosiy prognozlash bosqichlari**

***Tushunchalar va tayanch iboralar:*** mintaqa, mintaqaviy tashkilotlar, nizo, hududiy nizolar, ittifoqlar, urush, tizimli o'rganish, bashorat qilish..

Siyosat bilan shug'ullanuvchi shaxs uchun "hokimiyat" tushunchasi va undan foydalanish, belgilovchi ko'rsatkich omili hisoblanadi. Bashorat qilish qo'llanilayotgan sohalar orasida siyosatni alohida ko'rsatish mumkin. Uning o'ziga xos tomoni, u ijtimoiy hayotning iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy sohalariga kirib boradi, millionlab kishilarning manfaatiga ta'sir qiladi, jamiyatning kelajagi, xalq hayotining rivojlanishi, gullab-yashnashi va unga bog'liq jarayonlarni oldindan bilishda muhim rol o'ynaydi.

Bashorat qilish siyosatga yo'naltirilgan bir tomonlama tadqiqot emas, albatta. Siyosat, xususan, siyosiy ijod yangi kelajakni tug'diradi, ijtimoiy hayotning barcha yo'nalishlariga dastur bera oladi. Ma'lumki, xalqaro voqealarning asosiy zanjiri, tarixdagi tektonik o'zgarishlarning bosh mexanizmi hokimiyat vositasida amal qiladi. Bunday holatda bashoratchilikning vazifasi - zarur siyosiy qarorlar qabul qilish yo'li bilan mumkin bo'lgan o'zgarishlarning butun spektrini tahlil etib, maqbul bo'lmaganlarini rad qilishdan iboratdir.

Bunday tadqiqotning vazifasi siyosatda oldindan ko'rish (bashorat)ning ob'ektiv imkoniyatlarini, ushbu voqealar asoslanganligini ko'rsatish va uni amalga oshirish texnologiyasini aniqlashdan iborat. Uni bajarishdagi qiyinchiliklar, ya'ni kelajakni loyihalash mumkinligining o'zi muammoli ekanligi, unda ma'lum bir qonuniyatni aniqlash qiyinligi, ko'proq sub'ektiv sohada inson aqlini qo'llash zarurligi kabi ma'lumotlar bilan

qorishib ketgan. Yana bir masala shundan iboratki, ushbu mavzuni fundamental o'rganishga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlari, oldindan ko'rish bilan bog'liq masalalarni yoritgan ilmiy adabiyotlar ham nihoyatda kamligidir.

Oldindan ko'rish asoslari ma'lum vaqt va ma'lum ma'noda o'tmish, hozirgi kun va kelajak haqida emas, balki faqat o'tmish va kelajak haqida aytilishi mumkin, chunki ularning ikkinchisi uzluksiz ravishda shartli ajratilgan oqim - vaqt orqali birinchisiga "o'tishi", ya'ni hozirgi kunga o'tishi o'rganiladi.

Fan u yoki bu darajada o'tmish (tarixiy fanlar, jumladan, fizika, ximiya, biologiya va boshqa fanlar tarixi ham) yoki kelajak bilan shug'ullanadi, ular ma'lum darajada ma'lum vaqtdan so'ng o'tmish bo'lishi uchun) hozirgi kunga "kirib keladi" (tabiiy, falsafa, iqtisodiy, siyosiy fanlar shug'ullanayotgan), shuningdek tor ma'noda "hozirgi kun" doirasidan chiqib turadi.

Hozirgi zamon kishisining, u qaysi kasb egasi bo'lishidan qat'i nazar, boshqa jonzotlardan eng katta farqi uning boshqalardan o'zib keta olishi, kelajakni oldindan ko'ra olish va ayta olish qobiliyatidir. Mavjud shart-sharoitlarda axborotlar harakat omili bo'lib, kelajakdagi ko'lami, ayrim kishilarning favqulodda qobiliyati yoki ilm-fanga asoslangan harakati har qanday sohada muvaffaqiyatga erishishi uchun bosh omil bo'lib xizmat qiladi. Siyosat bilan shug'ullanuvchi shaxs uchun "hokimiyat" tushunchasi va undan foydalanish, belgilovchi ko'rsatkich omili hisoblanadi.

Bashorat qilish qo'llanilayotgan sohalar orasida siyosatni alohida ko'rsatish mumkin. Uning o'ziga xos tomoni, u ijtimoiy hayotning iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy sohalariga kirib boradi, millionlab kishilarning manfaatiga ta'sir qiladi, jamiyatning kelajagi, xalq hayotining rivojlanishi va gullab-yashnashi va unga bog'liq jarayonlarni oldindan bilishda muhim rol o'ynaydi.

Bashorat qilish siyosatga yo'naltirilgan bir tomonlama tadqiqot emas, albatta. Siyosat, xususan, siyosiy ijod yangi kelajakni tug'diradi, ijtimoiy hayotning barcha yo'nalishlariga dastur bera oladi. Ma'lumki, xalqaro voqealarning asosiy zanjiri, tarixdagi tektonik o'zgarishlarning bosh mexanizmi hokimiyat vositasida amal qiladi. Bunday holatda bashoratchilikning vazifasi - zarur siyosiy qarorlar qabul qilish yo'li bilan



mumkin bo'lgan o'zgarishlarning butun spektrini tahlil etib, maqbul bo'lmaganlarini rad qilishdan iboratdir.

Bunday tadqiqotning vazifasi siyosatda oldindan ko'rish (bashorat)ning ob'ektiv imkoniyatlarini, ushbu voqealar asoslanganligini ko'rsatish va uni amalga oshirish texnologiyasini aniqlashdan iborat. Uni bajarishdagi qiyinchiliklar, ya'ni kelajakni loyihalash mumkinligining o'zi muammoli ekanligi, unda ma'lum bir qonuniyatni aniqlash qiyinligi, ko'proq sub'ektiv sohada inson aqlini qo'llash zarurligi kabi ma'lumotlar bilan qorishib ketgan. Yana bir masala shundan iboratki, ushbu mavzuni fundamental o'rganishga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlari, oldindan ko'rish bilan bog'liq masalalarni yoritgan ilmiy adabiyotlar ham nihoyatda kamligidir.

Oldindan ko'rish asoslari ma'lum vaqt va ma'lum ma'noda o'tmish, hozirgi kun va kelajak haqida emas, balki faqat o'tmish va kelajak haqida aytilishi mumkin, chunki ularning ikkinchisi uzluksiz ravishda shartli ajratilgan oqim - vaqt orqali birinchisiga "o'tishi", ya'ni hozirgi kunga o'tishi o'rganiladi.

Fan u yoki bu darajada o'tmish (tarixiy fanlar, jumladan, fizika, ximiya, biologiya va boshqa fanlar tarixi ham) yoki kelajak bilan shug'ullanadi, ular ma'lum darajada ma'lum vaqtdan so'ng o'tmish bo'lishi uchun) hozirgi kunga "kirib keladi" (tabiiy, falsafa, iqtisodiy, siyosiy fanlar shug'ullanayotgan), shuningdek tor ma'noda "hozirgi kun" doirasidan chiqib turadi.

Ijtimoiy sohani o'rganishda "oldindan ko'rish" va "bashorat qilish" tushunchasi, bir tomondan, "oldindan ko'rish" va "boshqarish", boshqa tomondan esa o'zaro munosabatlarning metodologik muammolari yechimini topish ma'nosini anglatadi.

Oldindan ko'rish va boshqaruv o'rtasida turli darajadagi intensivlik nomutanosib aloqada bo'ladi: amaldagi yaqin yoki nolga teng (nazariy jihatdan hech qachon nolli ahamiyatga ega bo'lmagan) holatdan favqulodda intensiv bo'lgan, oldindan aytishni "o'ziga singdirib yuborish"ni keltirib chiqaruvchi sifatida prognozning o'zini amalga oshirish yoki aksincha o'zini vayron qilish kabi natijani berishi mumkin.

Ijtimoiy sohani o'rganishda "oldindan ko'rish" va "bashorat qilish" tushunchasi, bir tomondan, "oldindan ko'rish" va "boshqarish", boshqa

tomondan esa o'zaro munosabatlarning metodologik muammolari yechimini topish ma'nosini anglatadi.

Oldindan ko'rish va boshqaruv o'rtasida turli darajadagi intensivlik nomutanosib aloqada bo'ladi: amaldagi yaqin yoki nolga teng (nazariy jihatdan hech qachon nolli ahamiyatga ega bo'lmagan) holatdan favqulodda intensiv bo'lgan, oldindan aytishni "o'ziga singdirib yuborish"ni keltirib chiqaruvchi sifatida prognozning o'zini amalga oshirish yoki aksincha o'zini vayron qilish kabi natijani berishi mumkin.

Oldindan ko'rish (bashorat) asosi kuzatish hisoblanadi. Aniqrog'i, kuzatishning o'zi emas, kuzatilayotgan ob'ektning ahvoli, holatining ko'rsatkichi ahamiyatga ega (siyosatshunoslikda qo'llanganda saylovlar paytida nomzod reytingi ko'rsatkichlari). Ularning ma'lum vaqtdagi holati va ahamiyatini ko'rish uchun mavjud holatning o'zgarish jarayonining jadvali asosini olish mumkin. Olimlarning bunday matematik hisoblari tez-tez sodir bo'luvchi tahliliy jadvallar tuzishga olib keladi.

Kelajakni aniqlash usulining mohiyati quyidagilardan iborat: demografiya, marketing va siyosatshunoslikda ko'proq iqtisodiy ko'rsatkichlar, statistik ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish jarayonida ko'pincha savol paydo bo'ladi: "kuzatilayotgan natijalar ma'lum doirada sodir bo'layotgan ba'zi bir qonuniyatlar asosida kelajakni loyihalash imkonini beradi".

Kelajakni loyihalash va aniqlashning ushbu usulini aniq fanlarda qo'llash qulay, siyosatda iqtisodga nisbatan siyosiy faoliyat asosining qat'iy emasligi va siyosiy jarayonning sub'ektiv kuchiga ko'ra barqaror emasligi uchun uning samaradorligi nisbatan kamroq bo'ladi. Kelajakda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan voqealarni oldindan bilishda tez-tez takrorlanish tahlili, ko'p yoki kichik, ya'ni matematik va statistik ishlash mumkin bo'lgan mavjud holatlarni aniqlash imkoni bor. Shunday yo'l bilan qilingan hisoblar haqiqatga nisbatan yaqinroq bo'ladi. Shu bilan barcha ilmiy bashorat usullariga xarakterli bo'lgan xulosani chiqarish mumkin. Tahlil qilish lozim bo'lgan voqealar ko'lami qanchalik kichik bo'lsa, uni bashorat qilish (oldindan aytish) shunchalik aniqroq bo'ladi.

**Siyosiy bashorat** siyosiy fanlardagi ko'plab tushuncha va voqeliklar bilan o'zaro bog'liqdir. U siyosiy sub'ekt amalga oshirayotgan siyosiy faoliyatning tarkibiy qismi hisoblanadi. Siyosiy bashoratning mazmuni

ob'ektning kelajakdagi holati, amalga oshirishining muqobil yo'llari va muddati haqidagi ilmiy asoslangan mulohazadir. Oldindan ko'rishni ishlab chiqish, tayyorlash jarayoni bashorat (oldindan aytib berish) deb ataladi. Oldindan aytib berish (bashorat qilish) - ma'lum, aniq jarayonlar, holatlar, voqealarni va ularning ba'zilarini o'tmish yoki hozirgi kunda ma'lum ma'lumotlar asosidagi alohida ilmiy tadqiqot bo'lib, u orqali bashorat qilinayotgan ob'ektda bo'lishi mumkin bo'lgan holat haqida tushuncha yoki turli ma'lumot mavjud bo'ladi.

O'tmish, hozirgi kun va kelajak o'zaro aloqalarini kuzatish imkonini beruvchi asosiy qonunlardan biri sababiyat qonuni hisoblanadi, u esa vaqt va fazoda sabab hamda oqibat bog'liqligini kuzatish imkonini berishdir. Sabab ostida voqelik tushuniladi, u esa oqibatni keltirib chiqaradi. Sababi ma'lum bo'lgandan so'ng, oqibatini oldindan bilish mumkin. Agar u noxush bo'lsa, uni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan sabablarga chek qo'yish mumkin.

Oldindan ko'rish (yoki bashorat) o'zida bir necha funksiyalarni mujassamlashtiradi va qator vazifalarni bajaradi. G'arblik olimlar fikricha, bashorat o'zida:

**birinchidan**, siyosiy sub'ekt uchun qanday aniq siyosiy maqsadlarni qo'yish va amalga oshirish mumkinligi haqidagi axborotlarni berishi;

**ikkinchidan**, taraqqiyotning hozirgi bosqichida qo'yilgan maqsadlarning qay biri jamiyat manfaatlariga nisbatan ko'proq mos kelishini aniqlashga yordamlashishi;

**uchinchidan**, prognozlar muqobil siyosiy maqsadlar bo'lgan hollarda ularning qaysi biri jamiyat manfaatlariga ko'proq mos kelishi bo'yicha to'g'ri qarorlar qabul qilish uchun asos berishi;

**to'rtinchidan**, prognozlar mavjud va hozirgi kundagi vazifalar bilan, yaqin va uzoqdagi maqsadlar o'rtasidagi, minimum va maksimum talablar o'rtasidagi, maqsad va vositalar o'rtasidagi maqbul munosabatlar majmuini topishga yordam berishi;

**beshinchidan**, bashoratlar bugun qabul qilinayotgan qarorlarning qanday natijalarga olib kelishi mumkinligini ochib berish vazifasi turadi.

"Siyosiy bashorat" amaliy siyosatning bir qismidir. Ko'plab bashoratlar qilinadi, mutaxassislar fikricha ularning oqimida o'ralashib qolmaslik uchun bashoratlarni turlarga ajratish talab etiladi. Ular maqsadi, vazifasi, ob'ekti,

xarakteri, ogohlantirish davri va boshqalariga qarab, turli mezonlar asosida qurilishi mumkin.

**Siyosiy prognozlarning asosiy to'rt amaliy vazifalariga qarab, ushbu turlarini ajratib ko'rsatish mumkin:**

**1. Izlanuvchan bashoratlar** – ular aynan amaliy maqsadlar uchun tuziladi. BMT davriy chop etadigan Rekonstruksiya va rivojlanish xalqaro bankining ishlab chiqadigan ba'zi bashoratlari misol bo'ladi.

**2.Tahliliy bashoratlar** – ijtimoiy-siyosiy bashoratlarning ilmiy zaxirasini ishlab chiqish va takomillashtirish uchun tuziladi. Bunday prognozlarga Dj. Forestorning ishlari ("Olamshumul dinamika" kitobi) aloqadordir.

**3.Umumiy-me'yoriy bashoratlar** – ma'lum kelajakni aks ettirishning istalgan yoki turli muqobillari bilan taqqoslaganda nisbatan ustunroq bo'lgan vazifani hal etadi.

**4.Ogohlantiruvchi prognozlar**, bunday prognozlar mualliflari kelajakning noxush manzarasi bilan, uning oldini olish maqsadida jamoatchilik fikrini taxlikaga solish uchun intiladi.

**Prognozning rejalashtirilishiga qarab**, bugungi kun uchun, qisqa muddatli, o'rtacha muddatli, uzoq muddatli va juda uzoq muddatli prognozlarga bo'linadi.

Prognozlar muammoli-maqsadli me'yorlari bo'yicha izlanuvchan va normaga muvofiq ikki turga bo'linadi.

**"Izlanuvchan bashorat** – siyosiy boshqaruv vositasi qarorlari bilan istiqboldagi muammolarni aniqlash va tuzatishdan iboratdir". Bunday prognoz jamiyatda mavjud ijtimoiy-siyosiy tendensiyalar saqlab qolinganda nimalar kechishi mumkinligiga javob beradi.

**Normativ prognoz** – istalayotgan maqsadlarga qanday erishiladi, degan savolga javob beradi.

Bunday turlarga bo'linish aytilayotgan prognozlar oqimida o'ralashib qolmaslik imkonini beradi. Ammo, siyosiy bashorat qilishning yana bitta qirrasini mavjuddir. Bashorat qilishning ob'ekti siyosat (ichki va tashqi), predmeti voqealar, ko'rinishlar, jarayonlarning mumkin bo'lgan holatlarini bilish hisoblanadi. Shuning uchun ularni ichki siyosiy va tashqi siyosiy prognozlar (bashorat)ga ajratish maqsadga muvofiqdir.

Ichki siyosiy bashorat qilishga ichki siyosatning barcha mazmuni kiradi. Siyosiy taraqqiyotning murakkab xarakteri, bir tomondan, siyosiy jarayonlarni boshqarishning eng maqbul manfaatlari uchun kelajakdagi siyosiy muammolar va ularni hal etish yo'llarini, boshqa tomondan, xush va noxush siyosiy voqealarni oldindan bilish dolzarbligini ta'minlaydi. Uning ikki jihati: birinchisi, aniq siyosiy voqealarni prognoz qilish darajasi bilan, ikkinchisi, jamiyatdagi siyosiy institutlar faoliyati va unda kechayotgan siyosiy jarayonlarni prognoz (bashorat) qilishni qamrab oladi.

Tashqi siyosiy prognoz qilish yoki oldindan aytib berish - xalqaro aloqalar va tashqi siyosat sohasidagi bashoratlardir.

Umuman, prognoz (bashorat) qilishning ikki jihati: mumkin va maqbul bo'lgan kelajagi, ahvoli, qarorlar bayon etishni oldindan aytishni anglatuvchi va ushbu muammolarni aynan hal etishni oldindan aytish tushuniladi. Shunga ko'ra, prognoz (bashorat) qilish muammolarining ikki tomoni: nazariy-bilish va boshqaruvni ajratib ko'rsatish mumkin.

Bu masalada avvalo, **siyosiy prognoz ob'ektini aniqlashga** va uning murakkabligi bilan paydo bo'ladigan holatiga alohida e'tibor qaratish lozim, "Prognoz ob'ektini, uning amal qilishi va rivojlanishi, prognoz qilinayotgan tizim va jarayonga muayyan darajada ta'sir etuvchi umumiy ko'rinishdagi holatlarning o'zaro bog'liqligini aniqlash, prognozlarni tayyorlashning asosiy va birinchi darajadagi shartidir. Shunday qilib, siyosiy prognoz ob'ektlari: siyosiy sistemaning rivojlanishi (tuzilishi va boshqalar); siyosiy boshqaruv funksiyalarining rivojlanishi, ixtisoslashuvi va kengayishi; shaxsning siyosiy va huquqiy maqomi (mas'uliyat, intizom va boshqalar); siyosiy partiyalar va tashkilotlar faoliyatining shakl va usullari; davlatning rivojlanishi, uning shakl va vazifalari o'zgarishi; jamiyatning sinfiy tarkibi, sinfiy va siyosiy ongining o'zgarishi; siyosiy demokratiyaning rivojlanish yo'llari va shakllari; ijtimoiy fikrning amal qilish rivojlanishidir.

**Prognoz qilish ob'ektlarini aniqlashda quyidagi qiyinchiliklar tug'iladi:**

1. Ob'ektni belgilashda tasodifiy taassurot shakllanadi, chunki ob'ektlarni hisoblash hamda boshqaruvni bosqichma-bosqich bo'ysunuvchanligini aniqlash mantiqi va tamoyillarini aniq ko'rish qiyin, belgilangan ob'ektning hajmi va mazmuni qisman bir-biriga o'tib ketishi,

tayyorlanayotgan sxemani kengaytirish yoki qisqartirish imkonini beradi, xolos.

2. Ob'ekt siyosatning tarkibi sifatida chiqadi, ya'ni, uning elementlarini sanab o'tadi, lekin siyosatning strukturasi tarzida emas, balki elementlarining o'zaro xarakteri, mohiyatini ochib berishida kuzatiladi.

3. Jiddiy ilmiy siyosiy oldindan ko'rishning bosh ob'ekti bo'lib, siyosatning tarkibi va tizimini tashkil etuvchi yadrosi, ya'ni uning ko'p qirrali tomonlari, uning sodir bo'lish jihatini belgilovchi bo'lib chiqishi kerak.

Shunday qilib, siyosatda prognoz qilish ilmiy tadqiqotning murakkab tizimini aks ettiradi, uning xulosalari biridan ikkinchisiga asta-sekin o'tadi. Ushbu murakkab tizimning muvaffaqiyatli amal qilishi uchun ayrim tamoyillar va belgilangan usullardan foydalanish zarur.

1. Muqobillik tamoyili voqealar rivojlanishining bir necha aniq yo'nalishlari bilan bog'liqdir. Lekin, muqobillikni prognoz qilishning ehtimollik xarakteri bilan aralashtirib yubormaslik lozim. Ehtimollik o'zida prognozni tasdiqlash, qonunlarni boshlang'ich va yakuniy qoidalarini aniq bilishga asoslangan chegaralarini ifoda etadi. Muqobillik, o'z navbatida, siyosiy voqealar rivojining turli variantlarining tubdan amal qilishi va bajarilishi imkoniyatlarini bildiradi. Muqobillik tamoyili amaliy bajarilishining asosiy vazifasi, ya'ni rivojlanishning amalga oshirish mumkin bo'lgan variantini mavjud va ko'zda tutilgan sharoitlarda bajarish imkoni bo'lmagan variantlardan ajratish imkonini beradi. Shu bilan birga, voqealar rivojining muqobilligi o'zida qator muammolarni, ya'ni ularni prognozlashtirish jarayonida hisobga olishni taqozo etadi. Unda amalga oshirish darajasi imkoni bo'yicha variantlarni chegaralash va bosqichma-bosqich bajarish imkonini beradi. Ushbu tamoyilni hisobga olish voqealar haqiqiy rivoji, prognozlar aniqligini oshiradi hamda voqealarga ta'sir etuvchi omillari hisobiga tanlash imkonini beradi.

2. Prognozlashtirishning tizimliliigi tamoyili. Siyosat prognozlashtirishning yagona ob'ekti sifatida ko'rib chiqiladi, o'z vaqtida prognozlar mustaqil bir necha yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladi - bu siyosiy hayotni (har bir yo'nalishi bo'yicha) siyosiy kelishilgan va qarama-qarshi bo'lmagan prognozlar ishlab chiqish imkonini beradi.

3. Prognozlashtirishning uzluksizligi tamoyili. Tahlil ob'ekti dinamik harakatchandir, shuning uchun prognoz amalga oshirilayotgan ob'ektning

vazifasiga yangi axborotlarning to'planishiga qarab, prognozlarga uzluksiz ravishda tuzatishlar kiritib turish kiradi.

4. Verifikasiya tamoyili - ishlab chiqilgan prognoz to'g'riligini aniqlash.

Bashorat qilish tamoyillari ilmiy prognostik tadqiqotlarning aniq usullari orqali amalga oshiriladi. **Ilmiy asoslangan prognoz, umuman prognostika tadqiqotlari asosida qanday usul yoki usullar tizimi yotganligiga qarab qabul qilinadi.** Unda nafaqat tadqiqot natijalari, balki unga olib boradigan yo'l ham haqiqiy bo'lishi shart.

**1. Jamoaviy ekspert baholash usuli** - ichki va tashqi siyosat yoki uning ayrim sohalarini ba'zi mutaxassislar tomonidan taraqqiyotning istiqbolli yo'nalishlarini aniqlashga imkon beradigan siyosiy munosabatlar rivojlanishini belgilashda ekspertlar fikrlari hamohangligi ishlatiladi.

**2. Jamoaviy g'oyalar bo'g'ini - "aqliy hujum" kelajakni tadqiq qilishda keng foydalaniladigan usuldir.** Muammoli vaziyatlarda "aqliy hujum" orqali mutaxassislarni ijodiy potensialini faollashtirish, g'oyalarning yuzaga kelishi va keyinchalik buzilishi, bu g'oyalarni tanqid qilish orqali unga qarshi g'oyani shakllantirishdir.

**3. "Delfi" usuli.** Bu uch xususiyati bilan xarakterli bo'lib, ular ekspertlarning guruhliy o'zaro hamkorligi usulidan farq qiladi, ekspertlarning mavhumligi hamda birinchi o'tkazilgan so'rovlar bergan guruhliy javoblar natijalaridan foydalanish bilan farq qiladi.

**4. Rejalar tartibini tuzish usuli.** Tartib (ssenariy) rejasi - katta sistema (xalqaro munosabatlar, ijtimoiy munosabatlar va boshqalar) muqobil rivojlanish maqsadlarini aniqlash uchun voqealarning mantiqiy ketma-ketligini ta'minlash usulidir.

Yozilgan tartib harakatlarining ketma-ketligi quyidagicha bo'lishi mumkin: vaqt oralig'ini hisoblash - voqealarni aniq ifoda etish - voqealar mazmunini tushuntirish - eskalasiya (o'sish) shkalasidagi miqdoriy bahodir. Unda jadvallar tuzish samarali bo'lib, absissa o'qi bo'yicha vaqt oralig'ining ordinata o'qi bo'yicha oldindan ishlab chiqilgan va miqdoriy baholangan voqealar kategoriyasining o'sishidir.

**5. Ekstropolyasiya (kuzatish) usuli.** Prognozlashtirishda qo'pol xatolardan qochish uchun olingan xulosalarni uning boshqa qismiga tatbiq etishda ehtimollik nazariyasi xulosalarini qo'llagan holda matematik

statistika hisob qombinasiyalarini o'zida aks ettiruvchi murakkab kuzatish usuli qo'llaniladi.

**6. Modellashtirish** - tadqiqot usulida ob'ektning o'zi emas, balki modeli tadqiq etiladi. Lekin, modelning ob'ektga to'liq mos kelish imkoniyati yo'qligi tufayli, oldindan ko'rish (bashorat) yuqori aniqlik va haqiqiylikka da'vo qila olmaydi.

Siyosiy jarayonlar, voqealarni bashorat qilishning u yoki bu usulini tanlash, prognozlarni maqsadli guruhlashtirish, uni ishlab chiqish, belgilangan muddat va vaqt bilan bog'liqligidan kelib chiqadi.

**Siyosiy prognozni ishlab chiqishning eng muhim operatsiyalarini umumiy mantiqiy ketma-ketligi quyidagi asosiy bosqichlarga olib keladi:**

**Birinchi bosqich** - prognozning oldingi yo'nalishi (orientasiya). Unda prognoz uchun vazifalar aniqlanadi, prognozning xarakteri (xususiyati), ko'lami, maqsad va vazifalari, ishchi taxminlari asoslanadi, prognozashtirishni tashkil etish jarayoni va usullari aniqlanadi.

**Ikkinchi bosqich** - tizimli taxlil usuli bilan prognozashtirishda ob'ektning dastlabki holati modeli yaratiladi. Modelni aniqlash uchun aholi va ekspertlar orasida so'rov o'tkazish mumkin.

**Uchinchi bosqich** - yuqorida ta'kidlangan usullar orqali prognoz holati bo'yicha ma'lumotlar yig'ishdir. Prognoz asosi - siyosiy bashorat vazifalarini hal etish uchun zarur bo'lgan ob'ektga nisbatan bashorat shart-sharoitlarining tashqi majmuasidir. Masalan, iqtisodiy rivojlanish prognozni kelajakda hisobga olishning zaruriy shart-sharoiti sifatida e'tiborda tutadi. Busiz siyosiy prognozning aniqligiga ishonish qiyindir.

**To'rtinchi bosqich** - ko'rsatkichlarning dinamik qatorlarini qurish - ekstropolyasiya usuli bilan kelajak prognozi modellari o'zagining asoslarini hamda ushbu materiallarni bashorat modelining oldingi tartibi sifatida umumlashtirish mumkin. Dinamik qator - o'tmishni hisobga olgan holda prognozashtirishning o'zgaruvchan ob'ektdagi miqdoriy tavsifini bildiradi, ya'ni prognozda voqealar oldini olish davri davomidagi o'zgaruvchanligida qo'llaniladi.

**Beshinchi bosqich** - izlanayotgan tahliliy holat va umumiy ko'rinishiga oid ko'rsatkichlarning minimal, maksimal va nisbatan ehtimollilik ahamiyatini aniqlashtirish bilan dastlabki turkumini yaratish.



**Oltinchi bosqich** - prognozlashtirilayotgan ob'ektning normativ tahlil usuli bilan absolyut (prognoz holatini cheklanmaganligi doirasida) va nisbiy (ushbu doira bog'langanligi) ahamiyatini aniqlashtirilgan eng maqbul variantini oldindan belgilangan me'yorlar bilan hamohang bo'lgan normalar, ideallar, maqsadlarning taxminiy umumiy modelini yaratishdir. Bunda maqsad va normalar aniq bo'lishi kerak.

**Yettinchi bosqich** - prognozning ishonchliligi va to'g'rililigini hamda asoslanganligini baholash - ya'ni ekspertlarning so'rov usullari bilan taxminiy modellarni aniqlashdir. Prognozning ishonchliligini tekshirish usuli bilan uning ilmiy asoslanganligi, mantiqiy to'g'rililigi, tajribaviy tekshiruv va intuitiv (ichki his bilan sezish) aniqligi deb, hisoblash mumkin.

**Sakkizinchi bosqich** - boshqaruv sohasidagi qarorlar uchun izlanuvchan va normativ modellarni taqqoslash orqali ishlab chiqiladi. Ichki va tashqi siyosat sohasidagi o'zgarishlarda, siyosiy qarorlar qabul qilishda prognoz usuli maksimal ravishda hisobga olinishi kerak. Bu siyosatshunos-prognozchilarga katta mas'uliyat yuklaydi.

**To'qqizinchi bosqich** - tayyorlangan prognoz va tavsiyalarni qismlarga ajratib tahlil (ekspertiza) etish, muhokama natijalarini hisobga olgan holda uni qayta ishlash va buyurtmachiga berish.

**O'ninchi bosqich** - prognozdan oldingi yo'nalishni, ishlab chiqilgan prognoz materiallarini qayta solishtirish asosida prognoz holatini yangi ma'lumotlar va yangi sikllarini (prognozlashtirish uzluksiz bo'lishi lozim bo'lib, mo'ljallashtirish, rejalashtirish, umuman boshqaruv, uning samaradorligini yuksaltirishga xizmat qilishi kerak) tayyorlashni taqozo etadi.

Prognozni ishlab chiqish usullarining o'ziga xosligi prognozlar imkoniyatlarini vaqt ko'lamida ham (bir necha yil) va tadqiqot ob'ekti ko'lamida ham (har qanday holat ham bir xil darajada prognoz baholash imkonini bermaydi) jiddiy chegaralashga majbur qiladi.

**Xulosa qilib aytganda**, prognozlashtirish usullari va ularning mantiqiy ketma-ketligidan foydalanish tajribalari siyosat bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar, rahbarlar va ilmiy hodimlarga hozirgi kunda siyosat (ichki va tashqi) sohasida rejalar ishlab chiqish va uni amalga oshirish jarayonida mavjud holat va voqealarning rivoji, ob'ektiv va sub'ektiv omillarni hisobga olgan holda hayotga tatbiq etish imkonini

beradi. Bugungi kunda dunyoda ushbu yo'nalishda turli tadqiqot va izlanishlar o'tkazilmoqda.

Insoniyatni yaqin kelajakda nimalar, qanday voqelar kutmoqda, degan savolga javob berish, bo'lajak voqealarning taxminiy holatlarini aks ettirish, yer kurrasida bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy jarayonlarning rivojlanishi to'g'risida sifat va miqdor jihatdan o'ziga xos turli nazariy yo'nalishlar, prognozlar berilmoqda.

XX asr oxiri – XXI asr boshlarida globallashuv jarayonlari tobora chuqurlashib borayotgan bir davrda insoniyatni tashvishga solayotgan iqtisodiy taraqqiyot istiqboli, boylik va qashshoqlik, ekologiya, urush va qarama-qarshiliklar, terrorizm, korrupsiya, narkomaniya, alkogolizm, axloqiy buzuvchilik kabi muammolar va uning oldini olish, kelajakni tasavvur qilish turli doiralari, ya'ni davlat rahbarlari, siyosiy yetakchilar, olimlar, turli soha mutaxassislari, bashoratchi-futurologlar, astrolog va hayotga jiddiy nazar bilan qarovchi har bir shaxsni tashvishga solayotgan masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Insoniyat oldida turgan ushbu o'ta dolzarb muammolar dunyoning barcha mamlakatlari kabi O'zbekistonda ham siyosiy jarayonlarni prognoz qilish masalalari davlatning ichki va tashqi siyosat faoliyatining barcha yo'nalishlarida o'z aksini topmoqda. Chunki, O'zbekiston mustaqillikka erishgan mamlakatlar kabi o'z taraqqiyot yo'lini izladi, yangi jamiyat barpo etishda o'ziga xos va mos yo'lini ishlab chiqdi. O'zbekiston turli yo'nalishda o'z taraqqiyotini ta'minlagan davlatlarning to'plagan tajribalarini ijodiy rivojlantirdi, o'ziga maqbul yo'ldan bordi. o'zbekiston taraqqiyotining o'ziga xos modeli - mamlakatimiz sharoitidan kelib chiqib, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarning izchillik bilan olib borilishiga asoslangan taraqqiyot yo'lidir.

### **Topshiriqlar:**

- 1.Sabab qonuni mohiyatini tushuntirib bering.
- 2.Oldindan ko'rish (bashorat, prognoz)ning qanday funksiyalari mavjud?
- 3.Siyosiy prognozlash amaliy vazifalariga qarab qanday turlarga bo'linadi?

4.Siyosiy bashorat qilishda muqobillik tamoyili mohiyati nimalardan iborat?

5.Siyosiy bashorat qilishning asosiy bosqichlarini ketma-ketlikda aytib bering.

## **20-MAVZU. AQSH DAVLAT VA MUNITSIPAL BOSHQARUVI TIZIMI FAOLIYATINING TASHKILY-HUQUQIY ASOSLARI**

### **Reja:**

- 1. AQSh siyosiy tizimi haqida umumiy ma'lumot**
- 2. Amerika Qo'shma Shtatlari konstitutsiyasi**
- 3. AQSh Kongressi**
- 4. Siyosiy partiyalar**
- 5. Fuqarolik huquqlarini qonuniy himoya qilish**

***Tushunchalar va tayanch iboralar:*** AQSh Konstitutsiyasi, AQSh parlamenti, AQSh partiyaviy tizimi, Kongress, Respublikachilar, Demokratlar partiyasi, Prezidentning Ijroiya idorasi, Prezidentning ijroiya boshqarmasi (PIB), Milliy Mudofaa Kengashi, budget byurosi, Federal byurosi, Adliya vazirligi.

**AQSh Shimoliy Amerikada joylashgan davlat. 1776 yilning 4 iyulida o'z mustaqilligini e'lon qilgan. Poytaxti Vashington shahri.**

Davlat boshqaruv shakli respublika, tuzilish shakli - federatsiya.

Ma'muriy hududiy bo'linishi 50 ta shtat va bir Kolumbiya federal (poytaxt) okrugidan iborat.

**Shtatlar quyidagi nomlarga ega:** Aydao, Ayova, Alabama, Alyaska, Arizona, Arkanzas, Vayoming, Vashington, Vermont, Virjiniya, Viskonsin, Gavayi, Jorjiya, Delaver, G'arbiy Virjiniya, Illinoys, Indiana, Kaliforniya, Kanzas, Kentukki, Kolorado, Konnektikut, Luiziana, Massachusets, Minnesota, Missisipi, Missouri, Michigan, Montana, Mzi, Merilend, Nebraska, Nevada, Nyu-Gempshir, Nyu-Jersi, Nyu-York, Nyu-Meksiko, Ogayo, Oklaxoma, Oregon, Pensilvaniya, Rod-Aylend, Shimoliy Dakota, Shimoliy Karolina, Tennesi, Texas, Florida, Janubiy Dakota, Janubiy Karolina, Yuta. Shtatlar grafliklardan, grafliklar o'z navbatida jamoalardan iborat. Har bir shtat o'z konstitutsiyasiga, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi organlariga, o'z qonunchiligiga ega.

AQSh boshqaruvidagi qaram hududlar: Karib dengizidagi Puerto-Riko va Virjin oroli («Erkin ravishda AQShga qo'shilgan davlat»), Hind okeanidagi Sharqiy Samoa, Guam oroli, Miduey va Ueyk orollari mavjud.

**Amerika Qo'shma Shtatlari 50 shtat va Kolumbiya okrugidan tashkil topgan federativ davlat.** Siyosiy tuzumga ko'ra prezidentlik boshqaruvidagi demokratik respublika. Poytaxti – Vashington. Yer maydoni 9 363 123 kv.km. 274 milliondan ortiqroq aholiga ega. Ingliz tili davlat tili hisoblanadi. Asosiy siyosiy partiyalar – Respublikachilar va Demokratlar partiyasi. Parlament Senat va Vakillar palatasidan iborat.

Konstitutsiya so'zi lotincha constitutio - «qurmoq», «tashkil etmoq» so'zlaridan olingan. Konstitutsiyaning tarixi qadimgi grek davlatlari va Rim imperiyasiga borib taqaladi. **AQSh Konstitutsiyasi dunyodagi eng kichik va eng o'zgarmas Konstitutsiya hisoblanadi.** Mamlakat Konstitutsiyasining asosiy matniga hech qanday o'zgartirish kiritilmaydi, balki matn oxiriga alohida ilova sifatida qo'shimcha kiritiladi. AQSh Konstitutsiyasiga kiritilgan birinchi tuzatishda belgilanishiga ko'ra "Kongress so'z va matbuot erkinligini cheklovchi biron-bir qonun chiqarishi mumkin emas". AQSh Konstitutsiyasi tarixi davomida unga bor yo'g'i 26ta tuzatish kiritilgan halos. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ushbu tuzatishlarning har birining hajmi deyarli qonunga teng bo'lib, o'nlab moddalardan iborat bo'ladi. Dastlabki 10ta kiritilgan tuzatishlar "Huquqlar to'g'risida Bill" deb nomlanadi.

**AQSh Konstitutsiyasi muqaddima, 7 ta modda va 27 ta qo'shimchadan iborat.** Konstitutsiyaning ilk loyihasini tayyorlash uchun 100 kun ketgan. Mazkur hujjatni birinchi bo'lib imzolagan arbob Jorj Vashington sanaladi. Uni tayyorlashda jonbozlik ko'rsatgan Jeyms Medison "Konstitutsiya otasi" degan sharafli nomga sazovor bo'lgan. Konstitutsiya matni Pensilvaniya Bosh assambleyasi xodimi Jeykob Shallus tomonidan 30 dollar qalam haqi evaziga qog'ozga tushirilgan. Mazkur qo'lyozma ayni paytda Vashingtondagi Milliy arxiv binosida – yadro quroli zarbasiga ham dosh beradigan mustahkam zirhli bo'lmada saqlanadi. Jamoatchilik 17 sentabr – Konstitutsiya qabul qilingan kunda mazkur qo'lyozma bilan to'liq tanishish imkoniga ega. Konstitutsiyaning ilk bor o'zbek tilida nashr etilishi AQShning yurtimizdagi elchisi Jorj Krol tomonidan Amerika va O'zbekiston xalqlarini yanada yaqinlashtiradigan tarixiy tashabbus deb baholandi.

**AQShning hozir amalda bo'lgan Konstitutsiyasi 1787 yilda qabul qilingan** bo'lib, dunyodagi eng ko'hna konstitutsiyalardan biri hisoblanadi. Konstitutsiya qabul qilingunga qadar, 1776 yilning 4 iyulida mustaqillik Deklaratsiyasini, 1777 va 1781 yillarda Konfederatsiya moddalari va 1787 yilda Shimoliy-G'arbiy hududlar to'g'risida Akt qabul qilinib, ularning matnlari AQSh qonunlari to'plamining «AQSh organi qonunlari» bo'limiga kiritilgan.

**1787 yilgi AQSh Konstitutsiyasi** asosiy matn (federal hokimiyatni tashkil etilishini va ijro organlari tomonidan fuqarolarning huquq va erkinliklariga qilinadigan tazyiqlardan sud orqali himoyalash mexanizmiga bag'ishlangan) va 26 tuzatishdan iborat bo'lib, uning o'ntasi 1791 yilda kuchga kiritilgan hamda huquqlar to'g'risidagi Bill nomini olgan.

AQSh Konstitutsiyasining V moddasi Konstitutsiyaga tuzatishlar kiritishning murakkab tartibini ko'zda tutadi. Unga ko'ra «Kongressning ikkala palatalarining uchdan ikki qism a'zolari zarur deb hisoblasalar, mazkur Konstitutsiyaga tuzatish kiritishni taklif qilishlari yoki shtatlarning uchdan ikki qismi legistaturalarining murojaatlariga binoan, konstitutsiyaga tuzatishlar kiritishni taklif qilish uchun konvent chaqirilishi mumkin. Ikkala holatda ham taklif qilingan tuzatishlar, Kongressning ratifikatsiyani qanday tartibini taklif qilishidan qat'i nazar, shtatlarning to'rtidan uch qismi legistaturalari ratifikatsiya qilgandan so'ng kuchga kirib, Konstitutsiyaning bir qismiga aylanadi».

Amerika Konstitutsiyasining tarixiy ahamiyati shundaki, mamlakatning davlat-huquqiy tizimida hokimiyatlarni taqsimlanishi, federalizm va konstitutsiyaviy nazorat tamoyillarini joriy etdi.

Federalizm tamoyili, amerikalik federalistlar tomonidan shakllantirilgan bo'lib (ularning eng ko'zga ko'ringan vakillari - Gamilton, Medison, Djey), ular eng avvalo, federatsiya va shtatlar o'rtasidagi qonunchilik vakolatlarini cheklanishida o'zining huquqiy ifodasini Konstitutsiyada topgan. Konstitutsiyaning I moddasining 8 bo'limida shtatlarning federatsiyaga, ya'ni Kongressga bergan vakolatlari ko'zda tutilgan: Ular quyidagilar: federal soliqlar va yig'implarni belgilash; chet el davlatlari va alohida shtatlar o'rtasidagi savdo-sotiqni tartibga solish; yagona naturalizatsiya qoidalarini o'rnatish; pulni zarb qilish; yagona pochta xizmatini joriy qilish; Oliy sudga nisbatan quyi turuvchi sudlarni

ta'sis qilish; urushlar e'lon qilish; armiya va flotni shakllantirish va uni ta'minlash. Barcha qolgan vakolatlari shtatlar qo'lida bo'lib, shtatlarning qonun chiqaruvchi organlari o'z qonunlarini chiqarish uchun yetarli darajada imkoniyatga ega bo'ldilar. Shtatlar shuningdek, o'zlarining jinoyat, jinoyat-protsessual, fuqarolik qonunchiligiga egadirlar. Shtatlarning Konstitutsiyalarining mavjudligi va saylov qonunchiligiga egaligi, ularning ijro etuvchi va qonun chiqaruvchi hokimiyat organlarini shakllantirishga asos bo'lib xizmat qiladi.

Shuning bilan birga, federalizm tamoyili federal Konstitutsiyani, federal Qonunchilikni ustuvorligini ta'minlaydi (VI modda). Konstitutsiyada, shuningdek, federatsiya va shtatlarning birgalikdagi vakolatlari ko'zda tutilgan.

Federal davlat hokimiyatini tashkil etish asosida hokimiyatlarni taqsimlanishi tamoyili yotib, mazkur tamoyil «o'zaro tiyib turish va qarshi ta'sir etish» tizimi bilan to'ldirilgan: qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati organlarining vakolatlari Konstitutsiyada bir-birlarini samarali nazorat qila olishlari darajasida ko'rsatib, bayon qilib berilgan. Keyinchalik federal davlat organlari faoliyati va tashkil etish tartibini belgilovchi ko'pdan-ko'p qonunlarni qabul qilinishi, AQSh davlatini hozirgi ko'rinishga olib keldi.

Hokimiyatlarni taqsimlanish tizimida AQSh Konstitutsiyasi birinchi o'ringa AQSh Kongressini - federatsiyani oliy qonun chiqaruvchi organini qo'yadi. AQSh Kongressi ikki palatali - Senat va Vakillar Palatasidan iborat. Senat qonun chiqaruvchi organ sifatida shtatlarning manfaatini ifoda etadi. Senat shtatlar aholisining sonidan qat'i nazar, har bir shtatdan ikkitadan senatorlarni 6 yil muddatga saylash yo'li bilan tashkil etiladi va har ikki yilda Senat tarkibi 3 dan bir qismga yangilanadi. Mamlakat vitse-prezidenti Senat majlislarida raislik qiladi. Vakillar Palatasi qonun chiqaruvchi organ sifatida barcha millat manfaatlarini ifoda etadi va unga majoritar saylov tizimi bo'yicha umumiy ovoz berish yo'li bilan ikki yil muddatga saylanadilar. Hozirgi paytda Vakillar Palatasida 435 deputat bor.

Qonun chiqarish ishlari asosan ikkala palatada tuziladigan qo'mitalarda olib boriladi. Doimiy va maxsus (vaqtinchalik) qo'mitalarning umumiy soni 60 taga yetadi.

Qonun chiqarish jarayoni qonun loyihalarini bir qancha bosqichdan o'tishini ko'zda tutadi. Eng avvalo qonun ikkala palataning va prezidentning tasdig'idan o'tishi kerak. Prezident vetosi har bir palata a'zolarining uchdan ikki qismini tasdig'idan o'tish kerak. Agar 10 ish kunida prezident qonunni palataga qaytarib bermasa, qonun qabul qilingan bo'lib hisoblanadi.

**Ijro etuvchi hokimiyat boshlig'i prezident hisoblanadi.** Prezident saylovchilar tomonidan vitse-prezident bilan birga ikki darajali saylov asosida to'rt yil muddatga saylanadi va yana bir marta qayta saylanish huquqiga ega. Konstitutsiyaga kiritilgan XII tuzatish (1804 yilning 15 iyunida ratifikatsiya qilingan) AQSh prezidentini saylash va saylovchilar korpusini shakllantirish tartibini belgilab beradi. Agar prezident vafot etsa (masalan, 1963 yili J.Kennedi vafot etgan), iste'foga chiqsa, (masalan, 1974 yili R.Nikson iste'foga chiqqan) yoki lavozimidan tushirilsa, vitse-prezident prezident lavozimini egallaydi va yangi vitse-prezidentni tayinlash huquqiga ega bo'ladi. Yangi vitse-prezidentning tayinlanishi, AQSh Kongressini ikkala palatasi tomonidan ma'qullanishi kerak.

**AQSh Konstitutsiyasining II moddasiga ko'ra prezidentga keng vakolatlar berilgan. Prezident AQSh armiyasi va flotining bosh qo'mondoni bo'lib hisoblanadi.** Prezident ijro etuvchi hokimiyatning oliy mansabdor shaxslaridan ularning majburiyatiga tegishli har qanday masala yuzasidan yozma ravishda axborot olishga haqlidir. Prezidentga Senatning maslahati va roziligiga ko'ra xalqaro shartnomalar tuzish, oliy davlat lavozimlariga mansabdor shaxslarni tayinlash huquqi berilgan. Prezidentning muhim huquqlaridan yana biri, agar u Kongress palatalari majlisini chaqirishni lozim deb topsa, majlisni o'tkazishni yoki majlislarini o'tkazishni boshqa kunga qoldirishi mumkin.

Konstitutsiyaning II moddasi 4 bo'limi prezidentni, vitse-prezidentni, AQShning barcha mansabdor shaxslarni davlatga xiyonat qilishda, poraxo'rlikda va boshqa jiddiy jinoyat va huquqbuzarliklar uchun lavozimidan impichment bo'yicha bo'shatishni ko'zda tutadi.

Ijro etuvchi hokimiyat prezident tomonidan amalga oshiriladi. Prezident Senatning roziligiga ko'ra vitse prezidentni va hukumat vazirlarini lavozimiga tayinlaydi. Tashqi ishlar vaziri funksiyasini Davlat sekretari bajaradi.

**Kabinet tarkibi quyidagilardan iborat:** Davlat sekretari, moliya, mudofaa, adliya, ichki ishlar, qishloq xo'jaligi, savdo, mehnat, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat, transport, turar joy qurilishi va shahar rivojlanishi, energetika, ta'lim, veteranlar ishlari bo'yicha vazirliklar.

**Kabinet a'zolariga quyidagilar kiradi:** ma'muriy budjet boshqarmasi direktori, savdo muzokaralari bo'yicha AQSh vakili, BMT qoshidagi AQSh ning doimiy vakili.

**Kabinet tarkibiga quyidagilar kirmaydi:** armiya vaziri, harbiy-dengiz kuchlari vaziri, harbiy havo kuchlari vaziri.

**Kabinetdan tashqari ijro etuvchi hokimiyat tarkibiga quyidagilar kiradi:** Oq uy apparati maslahatchilari (600 ga yaqin), shuningdek prezident ijroiya apparati (ma'muriyati) (6 mingdan ortiq amaldor).

**AQSh sud tizimi amerika davlatining federativ xarakterini o'zida aks ettiradi.** Federal sudlarning yagona tizimi bilan birga shtatlarning mustaqil sud tizimi amal qiladi. Fuqarolik va shikoyat ishlarining asosiy qismi, shtat sudlari tomonidan ko'rib chiqiladi va bir oz qismi federal sudlar tomonidan ko'riladi (fuqarolarning federal hokimiyatga da'vosi, chet el davlatlari fuqarolari o'rtasidagi da'vo, 10 ming dollardan oshadigan da'volar).

**AQSh Oliy sudi to'qqiz a'zodan iborat bo'lib, prezident tomonidan tayinlanadi va Senat tomonidan tasdiqlanadi.** AQSh oliy sudi AQSh sud tizimida alohida muhim rol o'ynaydi. Konstitutsiyaviy nazorat organi funksiyasini bajara borib, Oliy sud Kongress akti shtat qonuni yoki har qanday sud qarorlari Konstitutsiya normalariga zid kelgan taqdirda ularni bekor qilish huquqiga ega. AQSh Oliy sudi Oliy mansabdor shaxslarni lavozimidan tushirishda muhim bo'g'indir. Oliy sudning asosiy funksiyasi - ikki yoki undan ortiq shtatlar o'rtasidagi nizolarni birinchi instansiya bo'yicha ko'rib chiqishdir.

**Federal sud tizimi tarkibiga apellyatsiya, okrug va maxsus sudlar kiradi.** Appelyatsiya sudlari 1891 yili Oliy sud va okrug sudlari orasidagi oraliq bo'g'in sifatida tashkil etilgan edi. O'n bitta appelyatsiya okruglari tashkil etilgan bo'lib, ularning har birida tarkibida 23 sudyasi bo'lgan appelyatsiya sudlari majlis o'tkazadi. Undan tashqari poytaxt Kolumbiya okrugida ham apellyatsiya sud mavjud. 1982 yili federatsiya miqyosida yurisdiksiyaga ega bo'lgan Apellyatsiya sudi tashkil etilib, bojxona, patent



ishlari bo'yicha, shuningdek, da'volar bo'yicha shikoyatlarni ko'rib chiqadi. Har bir appelyatsiya sudi ishida AQSh Oliy sud a'zolaridan biri qatnashadi va unga rahbarlik qiladi. Appelyatsiya sudlari okrug sudlarining hukm va qarorlariga bildirilgan shikoyatlarni, shuningdek, shtatlarning ma'muriy organlarining qarorlariga bildirilgan shikoyatlarni ko'rib chiqadi.

Okrug sudlari federal sudlar vakolatiga tegishli asosiy ishlarni ko'rib chiqadi. Okrug sudlari shtatlar hududida tashkil etiladi. Katta shtatlarda bir necha okrug sudlari tashkil etiladi. AQShda hammasi bo'lib 95 ta okrug sudlari tashkil qilingan.

Maxsus sudlardan da'vo sudi mavjud bo'lib, u xususiy shaxs va firmalarni federal hukumatga nisbatan da'volarini ko'rib chiqadi. Ularning da'volari 10 ming dollardan oshiq bo'lsa, da'vo sudi ko'rib chiqadi. Nyu-york shahrida Tashqi savdo bo'yicha sud ham amal qiladi.

Shtatlarning sud tizimi o'ziga xos xususiyatga ega. Shtatlarning sud tizimini Shtat Oliy sudi boshqaradi. Shtatlarda umumiy yurisdiksiyaga ega sudlardan tashqari ixtisoslashtirilgan sudlar mavjud bo'lib, ular uncha katta ahamiyatga ega bo'lmagan huquqbuzarliklarni yakka tartibda magistrantlar va sulhparvar sudyalardan tomonidan ko'rib chiqiladi.

**Amerika Qo'shma Shtatlarida Oliy qonun chiqaruvchi organ Kongress – ikki palatadan iborat.** Vakillar palatasi a'zolari shtatlar aholisi tomonidan to'g'ridan-to'g'ri ovoz berish yo'li bilan ikki yillik muddatga saylanadi. Senat esa shtatlar vakillaridan iborat. Har bir shtat olti yillik muddatga ikkitadan senator saylaydi.

**AQSh parlamenti – Kongress o'z ishini 1789 yildan boshlagan.** 1787 yil Filadelfiyada qabul qilingan mamlakat konstitutsiyasi uning vakolatlarini belgilab berdi va qonuniylashtirdi. Avvalgi Kongress 1789 yil 4 martdan 1790 yil 12 avgustgacha Nyu-York shtatining Nyu-York shahrida, 1790 yil 6 dekabrda 1799 yil 2 dekabrgacha esa Pensilvaniya shtatining Filadelfiya shahrida qo'nim topdi. 1800 yil 17 noyabrdan to hozirgi kunga qadar Vashington shahrining Konstitutsiyasi va Mustaqillik shox ko'chalari oralig'ida joylashgan mashhur Kapitoliya qarorgohida faoliyat yurgizib kelmoqda. AQSh parlamentini oyoqqa turg'izishda Mustaqillik Deklaratsiyasining muallifi, Amerikaning uchinchi prezidenti T.Jeferson (1801-1809) tomonidan yozilgan «Parlament amaliyotidan qo'llanma» dasturilamal bo'lib xizmat qildi.

1787 yilda qabul qilingan mamlakat Konstitutsiyasi 1-moddasining 1-bandiga asosan qonun chiqaruvchi hokimiyat – Kongress Senat va Vakillar palatasidan tashkil topgan.

**Yuqori palata** – Senat 100 nafar senatoridan iborat bo'lib, har bir shtatning katta-kichikligidan qat'i nazar, ikkitadan vakil qabul qilinadi. Mamlakat aholisining 20 foizini tashkil etuvchi 25 ta shtat senatorlari Senatda 50 foiz o'rinni egallaydi. qonunga ko'ra, 35 yoshdan kam bo'lmagan mamlakatda 9 yil muqim istiqomat qilayotgan AQSh fuqarolari senator bo'lib saylanishi mumkin. Senat 6 yil muddatga saylanadi va har ikki yilda senatorlarning uchdan bir qismi yangilanib turiladi. Har bir senator bittadan ovozga ega.

**Vakillar palatasi 435 deputatdan iborat** bo'lib, g'oyat qisqa – ikki yil muddatgagina saylanadilar. 1960-1962 yillarda saylangan Vakillar palatasi deputatlari soni 437 nafarga ko'paytirilgan edi, biroq ko'p o'tmay mazkur amaliyotdan voz kechildi va vakillarning avvalgi miqdori qayta joriy etildi. Vakillar palatasiga saylanish huquqi 25 yoshga to'lgan va AQSh xududida 7 yil muqim yashagan har bir fuqaroga beriladi. Palatalarning har ikkalasi umumiy va to'g'ridan-to'g'ri ovoz berish yo'li bilan noyabr oyining birinchi dushanbasidan keyin kelayotgan seshanba kuni saylanadi (1913 yil konstitutsiyasiga kiritilgan 17-o'zgartirishdan so'ng Senat ham shunday asosda saylanadigan bo'ldi).

**Kongressga birinchi saylovlar 1789 yili bo'lib o'tgan. Hozirgi kunga qadar 110 marta parlament saylovlari bo'lgan.**

1787 yil 17 sentabrda qabul qilingan AQSh konstitutsiyasining 8-bo'limi Kongressning umumiy vakolatlarini sanab o'tadi. Bunda har ikki palata teng huquq va mavqega egadek ko'rinadi. Biroq, 1-modda, 7-bo'limning 1-bandiga asosan «Daromadlar tushumi bo'yicha barcha qonun loyihalari faqatgina vakillar palatasidan chiqadi, lekin Senat qo'shimcha va tuzatishlar kiritishni taklif etishi va ularni kiritish bo'yicha muzokaralar olib borishi mumkin».<sup>1</sup>

**Palatalar yanvardan noyabrgacha davom etadigan (yoz ta'tilini hisobga olmaganda) sessiyalarda ish ko'radilar.** Parlamentning Vakillar palatasi faoliyatini yuritishda Spiker – raisning roli kattadir. Yangi saylangan palata eng avvalo o'z ishini Spiker saylashdan boshlaydi. U parlament debatlari (bahslarini), so'z berish navbati va reglamentini boshqaradi.

**Senat odatda vitse-prezident tomonidan boshqariladi.** Oldindan ko'zda tutilmagan parlament debatlari vaqtincha saylangan rais tomonidan olib borilishi mumkin. Har bir senator xoxlaganicha so'z olishi va imkoni yetguncha gapirishi mumkin, ular uchun vaqt cheklanmagan.

**Bugungi kunda AQSh parlamenti 435 nafar deputat vakil, 100 senator va taxminan 30000 xizmatchidan iborat** yirik tarmoqlashgan va ixtisoslashgan institutdir. 10000 dan ziyod siyosatshunos, huquqshunos, iqtisodchilardan iborat yetuk mutaxassislar deputat va senatorlarga assistent-yordamchi sifatida mehnat qiladilar.

**Shu kunga qadar Kongress 26 ta konstitutsiyaviy o'zgartirish, 10 mingdan ziyod qonun hujjatlarini qabul qildi va hayotga tatbiq etib kelmoqda.** Bu qonunchilik hokimiyatining mukammal tizimi vujudga kelganligidan darak beradi. Qolaversa, AQSh parlamenti 213 yillik uzoq tarixiy tajribaga ega. Bu davr maboynida Amerika parlamentarizmining o'ziga xos xususiyatlari, an'analari va mexanizmlari shakllandi. Shunday ekan, AQSh parlamenti tajribalarida parlament islohotlari uchun namunaviy jihatlar yo'q emas. Zero, jahonning eng yaxshi namunalari uchun islohotlar darvozasi xamisha ochiqdir.

**Kongress kutubxonasiga 1800 yilda asos solingan.** U kezlarda kutubxona Kapitoliy binosida joylashgan hamda huquqiy va jismoniy aloqalar masalalar bo'yicha ma'lumotlar adabiyotlardangina iborat edi. 1814 yili angliya-amerika urushi davrida ingliz askarlari Kapitoliyga o't qo'yishi oqibatida kutubxona ham kuyib kul bo'ldi.

Bir yil o'tib, 1815 yili sobiq prezident Tomas Jefferson o'zining 50 yil davomida yiqqan, o'sha paytlardagi eng boy kolleksiyaga ega shaxsiy kutubxonasini sotib olishni Kongressga taklif qiladi. Kutubxona harid qilinadi va aynan shu kitoblar Kongressning yangi kutubxonasiga asos bo'ladi. Tomas Jeffersonning shaxsiy kutubxonasida insoniyatning turli davrlaridagi eng sara ilmlarga oid kitoblar yig'ilgan edi, binobarin, **Kongress kutubxonasi** ham universal tus oldi. Ayni paytda u **dunyoning 470 tilidagi 130 mln. nusxadan ko'proq kitob fondiga ega.**

Umuman, bugungi kutubxona Kapitoliy tepaligidagi uchta korpusga joylashgan. 23 o'quv zalidan iborat. 1887 yili kutubxona uchun maxsus qurilgan T.Jefferson nomidagi birinchi bino Kapitoliy ro'parasida joylashgan.

Sharqda qad ko'targan Jon Adams binosi qurilishi 1938 yili tugallangan. 10 qavatli ushbu binoda bugun 10 mln jild kitob saqlanadi. 1980 yili bitkazilgan Jeyms Medison binosi Jefferson binosidan janubda. Bu yerdan kutubxona ma'muriyati va turli xizmatlar ofislari o'rin olgan. Kongress kutubxonasi o'z tarixiy maqsadiga ko'ra, kongressmenlarga xizmat qilish uchun mo'ljallangan bo'lsa-da, 18 yoshdan oshgan har bir kishi Jeyms Medison binosida ro'yxatdan o'tib, kutubxona materiallaridan bepul foydalanishi mumkin.

«Ochiq dunyo» dasturiga AQSh Kongressi tomonidan 1999 yil mayda asos solingan. Maqsad, dastur ishtirokchilariga Qo'shma Shtatlar demokratiyasi va ochiq tadbirkorligini o'rganish, amalda sinab ko'rish imkoniyatini yaratish. Dastur millatidan qat'iy nazar mahalliy va regional darajadagi barcha yoshdagi ijtimoiy-siyosiy yetakchilarga mo'ljallangan. 2003 yildan buyon unda O'zbekiston ham ishtirok etib kelmoqda. Uning boshqa dasturlardan farqi shundaki, «Ochiq dunyo» AQShda ilgari bo'lmagan va ingliz tilini bilmaganlar uchun xizmat qiladi.

Ma'lumki, AQSh Kongressi va Mudofaa Vazirligi o'rtasida harbiy budjetni qisqartirish masalasi qizg'in bahs-munozaralarga aylandi. Chunki Oq uy 2001 yil 11 sentabrdagi teraktlardan so'ng rekord darajaga yetgan harbiy sarf-harajatlarni jilovlash uchun birinchi marotaba Pentagonga bosim ko'rsata boshladi. Jorj Bush bu bilan ham cheklanmay, harbiy budjet hisobidan 32 milliard dollarni chegirib qolish niyatida. Vashington ma'muriyati oyiga 6 milliard dollar sarflanayotgan Iroq urushi davom etayotgan, qolaversa, Katrina to'fonida og'ir talofat ko'rgan xududlarni tiklash budjet taqchilligini qisqartirish va davlatning boshqa muhim dasturlarini bajarish masalalari ko'ndalang bo'lib turgan bir vaqtda yangi qurollarni harid qilishga davlatning qurbi yetmasligini ta'kidlay boshladi. 2001 yil 11 sentabr terrordan so'ng Kongress Mudofaa vazirligiga so'ralganidan ko'proq mablag' ajratdi. Lekin ayni paytga kelib, «Militarist kongressmenlar»da ham bunday siyosatning to'g'riligiga shubha tug'ildi va ular bir paytlar yillik budjeti 250 milliard dollardan oshmagan Pentagonning «Oltin asri» o'tmishiga aylanayotganini tushunib yetmoqdalar. 1990 yillarning ikkinchi yarmida, ya'ni SSSR imperiyasi qulagandan keyin ishlab chiqilgan «AQShning Umumbashariy jalb qilinishi» («Globalnoy vovlechnosti SShA») doktrinasi bugungi kunda Amerika tashqi

siyosatining konseptual asosi hisoblanadi. Ushbu doktrinaga asosan havfsizlik sohasida Vashingtonning xalqaro majburiyati bir-biri bilan o'zaro bog'liq umumbashariy tizimning vujudga kelishi va amal qilishida muhim omil sifatida qaralmoqda. **Shuning doirasida AQSh tashqi siyosati strategiyasida Markaziy Osiyo muhim o'rin tutadi.**

Prezident saylovlari kabi parlament saylovlari ham amalda ikki muholif partiya – respublikachilar va demokratlar partiyasi orasida kechadigan keskin kurash bilan xarakterlanadi. Birinchi (1789) va ikkinchi (1791) Kongress saylovlarida Federalistlar, Respublikachilar, Demokratlar va Viglar partiyasi ham o'z nomzodlarini ilgari surgan edilar. Hatto, ma'lum vaqt davomida (1801-1829) Respublikachilar va Demokratlar ittifoqi ham tashkil topgan edi. Aynan XIX asrning o'rtalarida mamlakat hayotida ikki asosiy partiya – Demokratlar va Respublikachilar partiyasi asosiy kuch sifatida maydonda qoldi.

Asosan, har ikki palatadagi o'rinlar ikki partiya o'rtasida uncha katta bo'lmagan farq bilan bo'lishib olinadi. Ya'ni, bir partiyaning qaysidir palatada mutlaq ko'pchilikni tashkil etish holati amaliyotda kam kuzatiladi. Lekin partiyalardan birining ko'proq o'rin egallash hollari ham uchrab turadi. Har ikki palatada ayni bir partiyaning g'alaba qozonishi muxolif partiyaning vakili sifatida saylangan prezident uchun bir qator muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. 1956 yil respublikachi D.Eyzenxauer (1953-1960), 1980 va 1984 yillarda R.Reygan (1981-1988), 1990 yilda prezident J.Bush (1989-1993) parlamentda ko'pchilikni tashkil etish demokratlar bilan "til topishish"ga majbur bo'lgan edilar. 1972 yil ikkinchi mandatga mamlakatning 37-prezidenti etib saylangan respublikachi R.Nikson (1969-1974) esa Vakillar palatasida va Senatda ham mutlaq ko'pchilikni tashkil etib qolgan Demokratlar partiyasi bilan keskin murosasizlik tufayli tahlikali Uotergeyt ishidan so'ng 1974 yil 8 avgustda iste'fo berishga majbur bo'lgan edi.

AQSh parlamenti hayotida yana bir xodisa shuki, g'oyat qisqa ikki yil vaqt ichida parlamentda siyosiy kuchlar tarkibi tubdan o'zgarishi va prezident Kongressdagi o'z tayanchidan mahrum bo'lib qolishi mumkin. 1994 va 1996 yillarda Demokratlar partiyasining prezidenti B.Klinton parlament tarkibining respublikachilar foydasiga o'zgarishi natijasida asosiy siyosiy ko'makdan ajralib qolgan edi. Shunday holat yana bir

demokrat (1945-1952) prezidentligida ham ro'y berganligi qayd etilgan. Lekin, Kongress palatalarining har birida qanday siyosiy tarkib tashkil topmasin, palatalar qonunchilik hokimiyatini teng asosda va o'zaro hamkorlikda amalga oshirdilar. Qonun loyihalari har ikki palatada navbatma-navbat yoki ayni bir paytda ko'rib chiqiladi.

Har ikki palata a'zolari qonunchilik tashabbusiga ega. Shu bilan birga ko'pgina qonun loyihalari prezident ma'muriyati tomonidan ham tayyorlanadi. Bu loyihalarning qabul qilinishi uchun prezident parlament bilan «do'stona» aloqada bo'lishi kerak. Shu bilan birga, prezident ham parlamentning qonunchilik faoliyatiga o'zining veto (rad etish) huquqi bilan ta'sir o'tkaza oladi. «Kechiktirish» yoki «paysalga solish» deb ataladigan mazkur mexanizmga ko'ra Kongress tomonidan qabul qilingan qonun matni prezident tomonidan imzolanmaydi va qayta ko'rib chiqish uchun Senatga yoki Vakillar palatasiga ko'tariladi. Agar Kongressning har ikki palatasi uchdan ikki qism – malakali ko'pchilik ovoz bilan qonun loyihasini qabul qilsagina (bunday holat Amerika hayotida juda kam uchraydi) prezident tomonidan rad etilgan qonun matni qabul qilingan hisoblanadi, aks holda uning taqdiri yana prezidentga bog'liq bo'lib qoladi. AQSh prezidentlaridan F.D.Ruzvelt (1933-1945) 631 marta, X.Trumen (1945-1953) 250 marta, D.Eyzenxauer (1953-1961) 181 marta veto huquqidan foydalangan. R.Xarding (1921-1924) atigi 6 marta, U.Klinton esa (1993-1999) 19 marta o'z vetosini ishga solgan.

Har ikki palatada ayni bir partiyaning g'alaba qozonishi muxolif partiyaning vakili sifatida saylangan prezident uchun bir qator muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. 1956 yil respublikachi D.Eyzenxauer (1953-1960), 1980 va 1984 yillarda R.Reygan (1981-1988), 1990 yilda prezident J.Bush (1989-1993) parlamentda ko'pchilikni tashkil etish va demokratlar bilan "til topishish"ga majbur bo'lgan edilar. 1972 yil ikkinchi mandatga mamlakatning 37-prezidenti etib saylangan respublikachi R.Nikson (1969-1974) esa Vakillar palatasida va Senatda ham mutlaq ko'pchilikni tashkil etib qolgan Demokratlar partiyasi bilan keskin muvohiqchilik tufayli tahlikali Uotergeyt ishidan so'ng 1974 yil 8 avgustda iste'fo berishga majbur bo'lgan edi.

**Kongress ham prezident hokimiyatiga ta'sir eta oladi. Bu jihat uning nazorat qilish huquqi doirasida amalga oshadi.** Chunonchi,

prezident tomonidan tuzilgan muhim xalqaro shartnomalar amalga kirishi uchun Senat tomonidan ratifikatsiya qilinmog'i shart. Ba'zan shunday shartnomalar Senat tomonidan bekor qilinishi ham mumkin. Bunday holat 1937, 1947, 1995 yillar qayd etilgan. Chunonchi, Versal shartnomasi ham Senat qarshiligiga uchragan va ratifikatsiya qilinmagan. Bundan tashqari eng muhim mansabdor shaxslar, Oliy sud sudyalari, elchilar prezident tomonidan tayinlangach, Senat tasdig'idan o'tishi lozim. Shuningdek, prezidentning urush e'lon qilish va harbiy harakatlar olib borish huquqi tamomila Kongress nazorati ostidadir.

### **Impichment (prezident iste'fosini talab qilish) huquqi Vakillar palatasi taqdimoti bilan Senat orqali amalga oshiriladi.**

AQSh Kongressida palatalar orasida vakolatlarning tugal va aniq taqsimoti yo'q.

XIX asrning ikkinchi yarmida rivojlangan ikki partiyaviy tizim XX asrda mustahkamlandi. AQSh siyosiy hayotining ustuvor tamoyili sifatida. Federal darajada barcha davlat organlarining faoliyati – siyosiy ma'noda-faqat Respublika va demokratik partiyalarning kuchlari muvozanati bilan belgilanadi. Bu, albatta, siyosiy kurashda va davlat tuzilmalarining bir qismi sifatida mustaqil nomzodlar yoki "uchinchi kuchlar" vakillarining ishtirokini istisno qilmaydi.

**Respublikachilar partiyasi** xususiy erkinlik va iqtisodiy individualizmni mustahkamlash yo'lida islohotlarni o'z bayrog'ini shior qilgan ("federal hukumat g'oyib bo'lsa, oddiy odamlar uzoq vaqt kundalik ishlarda hech qanday o'zgarishlarni sezmay qolishadi").

**Demokratik partiya**, ayniqsa, XX asrning eng taniqli vakili F. D. Ruzvelt (1933-1945) tomonidan uzoq vaqtdan keyin iqtisodiyotni va ijtimoiy hayotni davlat tomonidan tartibga solish tarafdoriga aylandi. 1980 va 1990 yillarda ijtimoiy siyosat, boylarni soliqqa tortish va kambag'allarga yordam berish masalalari bo'yicha tomonlar o'rtasida sezilarli farqlar paydo bo'ldi.

Amerika partiyalari asosan saylovlar munosabati bilan faoliyati jonlantirilgan saylov uyushmalari. Ular taniqli fransuz siyosatshunosi M. Dyuverje tomonidan berilgan zamonaviy G'arb partiyalarining ta'rifini to'liq oqlaydi: **"Partiya - bu jamoa emas, balki jamoalar to'plami, butun mamlakat bo'ylab tarqalgan kichik guruhlar Ittifoqi"**.

Saylov maqsadlarida ham Respublikachilar, ham demokratik partiyalar deyarli bir xil faoliyat tizimini shakllantiradilar. Birlamchi hujayra kapitan boshchiligidagi saylov uchastkasi komissiyasidan iborat; ularning ko'pchiligi fakultativ uchastkalarda (130 ming) bor. Uchastkalarga okrug komiteti yoki okrug komiteti (shaharda bo'lsa) Birlashgan bo'lib, unga rais rahbarlik qiladi. Saylangan rais bilan davlat Markaziy komiteti (72-300 nafar saylangan delegatelardan iborat) partiyalar harakatlarining asosiy bo'g'ini bo'lib hisoblanadi.

Partiyaning milliy Konvensiyasida faqat ulardan prezidentlikka nomzod ko'rsatiladi. 1972 yildan beri AQShda nomzod davlat tomonidan boshlang'ich saylovlarda tanlanadi. Prezidentlikka nomzod vitse-prezidentlikka nomzodni tanlaydi, milliy qo'mita raisini tayinlaydi va shu bilan uning saylov shtabi boshlig'i bo'ladi.

**AQSh barcha davlat institutlarining faoliyati 1787 yilgi Konstitutsiya bilan belgilangan.** Konstitutsiyaning yangilanishi ahamiyatsiz bo'lib, ko'p hollarda tasodifiy holatlar bilan belgilandi. Konstitutsiyaviy huquqning bunday barqarorligi, birinchi navbatda, 1787 yilgi Konstitutsiyasining huquqiy sifati bilan oldindan belgilab qo'yilgan edi.

"Bizning Konstitutsiyamiz", degan edi Prezident F. Ruzvelt juda sodda va amaliy, u har doim favqulodda ehtiyojlarga moslashtirilishi mumkin, chunki uning asosiy shaklini yo'qotmasdan urg'u va qo'llash usullarini o'zgartiradi... Shuning uchun bizning konstitutsiyaviy tizimimiz zamonaviy dunyoda yaratilgan eng barqaror siyosiy mexanizm ekanligini isbotladi..."

Eng muhimi, Konstitutsiyaga 22-tuzatish (1951 yil) bo'lib, unga ko'ra "hech bir shaxs prezident lavozimiga ikki martadan ortiq saylanishi mumkin emas" yoki prezidentlik lavozimini ikkitadan ortiq saylov muddatiga o'tkazadi.

Bu cheklov Prezident F. Ruzveltning (1933-1945) haddan tashqari uzoq davom etishiga reaksiya bo'lib, bu qisman haqiqiy siyosatda prezidentlik hokimiyatining haddan tashqari kuchayishiga olib keldi. 20-tuzatish (1933) prezident va vitse-Prezidentning lavozimini egallash tartibi va vaqtini aniqladi. 25-tuzatish (1967) favqulodda bo'sh taqdirda vitse-Prezidenti prezidentlik lavozimini to'ldirish uchun konstitutsiyaviy tartibini, shuningdek, vitse-prezidenti tayinlashni aniqlab berdi.



Zamonaviy AQShning haqiqiy tarixida asosiy davlat organlarining munosabatlari Konstitutsiya normalarida belgilanganidan biroz boshqacha rivojlandi. 20-asr davomida mamlakatning siyosiy hayoti davlat ishlarini hal qilishda prezidentlik hokimiyati va vakillik organi - hukmronlik uchun Kongressning raqobati bilan ajralib turardi. Bu raqobat yanada muhimroq edi, chunki har doim ham (saylov natijalariga ko'ra) prezident o'z siyosatida Kongressning ikkala palatasida o'z partiyasining ko'pchiligiga tayanishi mumkin emas edi. Faqat 1930-yillar, 1940-yillar oxiri, 1950-yillarning birinchi yarmi va Reygan prezidentligining birinchi muddati (1980-1984) davrida prezidentlik partiyasi bir vaqtning o'zida Vakillar palatasi va Senatda katta ko'pchilikka ega bo'ldi. Ma'lumki, mamlakatda Prezident saylovi Vakillar palatasiga saylovlar va senatorlarning uchdan bir qismini qayta saylash bilan bir vaqtda o'tkaziladi.

Prezidentga ortiqcha vakolatlarning berilishi Kongress muxolifatini qo'zg'atdi, ayniqsa 1960 va 1970-yillarda u kuchli edi. So'ng, prezident hokimiyati qisman konstitutsiyaviy chegaralarga qaytarilib, 1974-1975 yildan AQShning davlat va siyosiy hayoti Kongressning yetakchilik roli ustunligi bilan ajralib turdi.

Huquqni muhofaza qilish organlari va Adliya markazlashtirilgan boshqaruv mustahkamlash tergov **Federal byurosi** (1908 yil, qayta tashkil etilishi 1935) **Adliya vazirligiga bo'ysunadi**. Ushbu muassasa ma'muriy va huquqni muhofaza qilish vazifalari bilan bir vaqtda prezident hokimiyatining kuchli qo'liga aylandi. D. E. Guver (1924-1972) davrida FBI nazorat ostida Amerika Qo'shma Shtatlarida uyushgan jinoyatchilik qo'yish, siyosiy faoliyat konstitutsiyaviy tizimiga qarshi qatag'on va siyosiy reaksiya sodir bo'ldi. Ma'muriy apparatning keskin kengayishi ma'muriy qoidalarning o'sishini oldindan belgilab qo'ydi, fuqarolar hayotining turli jihatlarini va muassasalar faoliyatini qonunlar bilan birgalikda tartibga soluvchi ko'plab ichki hujjatlarni nashr etdi.

XX asrning ikkinchi yarmiga kelib davlat va siyosiy hayotning dolzarb masalalaridan biri fuqarolik huquqlari va tenglikni mustahkamlash masalasi bo'ldi. Turli holatlar tufayli (ko'p sonli irqiy, milliy, diniy ozchiliklar, huquqiy tizimning maxsus an'analari mavjudligi, XVIII-XIX asrlarda e'lon qilinganlarni amalga oshirishga federal ma'muriyatning yetarli e'tiborsizligi. fuqarolik huquqlarining turli asoslarda ichki va ma'muriy buzilishi siyosiy

tus oldi, o'rnatilgan huquqiy-davlat tizimining adolatligiga jamoatchilik tomonidan shubha tug'dirdi. Amerika qo'shma Shtatlari Qonunchilik va oliy sud organlari muammolarga yetarlicha tez reaksiya berib, fuqarolar va davlat organlari o'rtasidagi munosabatlarning deyarli yangi huquqiy "maydon" shakllantirish. 1957-yilgi fuqarolik huquqlari to'g'risidagi qonunga muvofiq ijroiya qo'mitasi tarkibida fuqarolik huquqlari bo'yicha maxsus komissiya tuzildi (uning a'zolari Prezident tomonidan Senatning roziligi bilan tayinlangan).

Fuqarolik huquqlarining real ta'minlanishida fuqarolarning murojaatlari bo'yicha harakatlarida barcha darajadagi ma'muriyatni nazorat ostiga oluvchi qonunlar muhim rol o'ynaydi. Axborot erkinligi to'g'risidagi qonun (1967) fuqarolarga hokimiyat va huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan to'plangan turli ma'muriy fayllarga kirish imkonini beradi. Boshqa qonunga ko'ra (1974), ma'muriyat fuqarolarning murojaatlariga javob berishi va ular tomonidan so'ralgan ma'lumotlarni (agar u xavfsizlik masalalari va davlat sirlari bilan bog'liq bo'lmasa) 10 kun ichida taqdim etishi shart edi; uni taqdim etishdan bosh tortish mumkin. (Bundan oldin "davlat manfaatlariga nisbatan deyarli mutlaq rad etish qoidasi mavjud edi). Axborot to'g'risidagi qonun hujjatlari turli xil ma'muriy huquqbuzarliklarga qarshi muhim kafolat bo'lib xizmat qildi. (Ayniqsa, ommaviy axborot vositalari, huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan) shaxsiy istalmagan yoki Konstitutsiyaga xilof bostirib kelgan, boshqa tomondan, shaxsning fuqarolik manfaatlarini himoya qilish maqsadida, qonun hujjatlari "maxfiylik" maxsus tushunchasini tashkil, tajovuz bundan buyon jinoyat sifatida qabul qilingan. A maxsus qonun (dekabr 31, 1974) bunday shaxsiy hayoti bilan bog'liq, deb ma'lumot hukm (sog'liqni saqlash, oilaviy munosabatlar, shaxsiy mayl, oila sirlariva boshqalar) fuqaroning yoki uning qonuniy vakillarining rozilgisiz oshkor yetilishi mumkin emas, ruxsatsiz shaxslarning bunday ma'lumotlarni o'z ichiga olgan turli xil fayllariga kirishi cheklangan.

Siyosiy va ijtimoiy hayotning fuqarolik tengligi jihatida AQSh Oliy sudining faoliyati, ayniqsa, Bosh Adliya raisi **Ye. Uorren (1960) davrida kuchaydi, oliy sud tomonidan qabul qilingan fuqarolik huquqlarini buzish holatlarining yarmidan ko'pi hukumat foydasiga hal bo'lmadi.** XX asr oxirida yangi qonun va sud amaliyoti sezilarli darajada o'zgardi,

ayniqsa, bolalar huquqlarini himoya qilish, ayollar, milliy ozchiliklar, nogironlar va aholining boshqa ijtimoiy himoya qilish guruhlarini tengligiga o'zgartirishlar kiritildi. XX asrda AQSh davlat-siyosiy tizimining (Anglo-sakson siyosiy va huquqiy an'analari boshqa mamlakati - Buyuk Britaniya) rivojlanishi eski dunyoning boshqa barcha mamlakatlari uchun odatiy bo'lgan avtoritarizmga bo'lgan intilishlardan ta'sir qilmadi. Bu yaqin tarixning deyarli eng muhim xususiyatiga aylandi. Bu esa federalizm tamoyillarining konstitutsiyaviy demokratiya tamoyillarini saqlab qolish uchun muhimligini isbotladi, biroq ayni paytda Amerika hukumati modeli va huquqiy faoliyatining o'ziga xosligi, tajribasi butunlay o'z tarixi va an'analari bilan boshqa davlatlarga o'rnak bo'ldi.

### **Topshiriqlar:**

1. AQShda davlat boshqaruvining ob'ektiv shart-sharoitlari. AQShning davlat-hududiy tashkil etilishi asoslari.
2. AQSh Prezidenti: saylanish tartibi, davlat boshqaruvi tizimidagi o'rni.
3. AQSh Mahkamasi va federal ijroiya organlari tizimi.
4. AQSh Kongressi: davlat boshqaruvi tizimidagi o'rni va tuzilishi tartibi.
5. Qo'shma Shtatlarda davlat fuqarolik xizmati tizimining xususiyatlari.

## **21-MAVZU. GERMANIYA DAVLAT SIYOSIY TIZIMI**

### **Reja:**

- 1. Zamonaviy Germaniyani davlat sifatida tavsiflovchi asosiy konstitutsiyaviy tamoyillar**
- 2. Shaxsning huquqiy maqomini tartibga solish xususiyatlari**
- 3. Germaniya qonun chiqaruvchi hokimiyatining xususiyatlari**
- 4. Germaniya Federativ Respublikasi ijroiya qo'mitasi**
- 5. Davlat boshlig'i**
- 6. Germaniya sud tizimi**

**Tushunchalar va tayanch iboralar:** Germaniya Prezidenti, Germaniya Federal Majlisi, Germaniya parlamenti, Bundesrat, Bundestag, Federal Kansler, Vazirlar Mahkamasi, Germaniya davlat fuqarolik xizmati.

**1990 yil 3 oktabrda** Germaniya Federativ Respublikasi, Germaniya Demokratik Respublikasi hamda maxsus xalqaro maqomga ega mustaqil siyosiy birlikka ega G'arbiy Berlining qo'shilishi natijasida tashkil topgan G'arbiy Yevropadagi davlat.

Poytaxti - Berlin shahri. Hukumat qarorgohi Bonn shahrida joylashgan.

**GFR - federativ davlat. Ma'muriy jihatdan 16 yer (viloyat)ga bo'linadi:** Bavariya, Baden-Vyurtemberg, Berlin, Brandenburg, Bremen, Gamburg, Gessen, Meklenburg-Old Pomeraniya, Quyi Saksoniya, Reynland-Pfals, Saar, Saksoniya, Saksoniya-Anxalt, Shimoliy Reyn-Vestfaliya, Tyuringiya, Shlezvig-Golshteyn. Har bir yer (land) o'z konstitutsiyasiga, saylab qo'yiladigan qonunchilik organi - landtagga (15 yerda - bir palatali, Bavariyada - ikki palatali parlament) va bosh vazir boshchiligidagi hukumatga ega.

Amaldagi konstitutsiyasi - GFR Asosiy qonuni 1949 yil 23 mayda Parlament kengashi tomonidan qabul qilingan, unga 1954, 1956, 1990, 1994 yillarda qo'shimchalar kiritilgan.

Boshqaruv shakli - parlamentar respublika (1919 yil 31 iyulda qabul qilingan Veymar Konstitutsiyasida respublika deb e'lon qilingan).

**Davlat boshlig'i - Federal prezident.** U maxsus chaqiriladigan Federal majlis tomonidan 5 yil muddatga saylanadi va yana faqat bir marta saylanishi mumkin.

**Qonun chiqarish hokimiyatini GFRda Bundestag va Bundesrat kabi palatalardan iborat parlament amalga oshiradi.**

Bundestag aralash majoritar-proporsional saylov tizimiga asoslangan umumiy saylovda to'g'ridan-to'g'ri ovoz berish orqali 672 deputatdan (Germaniya birlashgunga qadar - 496 deputat) iborat tarkibda 4 yil muddatga saylanadi.

Bundesrat esa yer hukumatlari aholi soniga teng kvotalar bo'yicha o'z orasidan 4 yil muddatga tayinlaydigan vakillardan iborat (har yerdan 3-6 vakil tayinlanadi). Bundesrat jami 68 nafar a'zoga ega. Bundesrat raisi har yili saylanadi.

**Ijro etuvchi hokimiyatni GFR da Federal kansler boshchiligidagi federal hukumat amalga oshiradi.** Federal kansler Federal prezidentning taklifiga binoan Bundestag tomonidan saylanadi. Vazirlarni kanslerning taklifiga binoan Federal prezident tayinlaydi hamda lavozimidan ozod etadi.

**Konstitutsiyaning 63-moddasiga muvofiq, Bundestag a'zolari yarmidan ortig'ining ovozi olingan shaxs kansler etib saylanadi.** Basharti, taklif etilgan shaxs saylanmasa, Bundestag saylovlardan o'n to'rt kun o'tgach, o'z a'zolarining mutlaq ko'pchilik ovozi bilan federal kanslerni saylashi mumkin. Agar bu muddat ichida kansler saylanmasa, yangi tur ovoz berish o'tkazilib, unda eng ko'p ovoz olgan nomzod saylangan hisoblanadi. Bu holda Federal prezident uni saylovdan keyin 7 kun mobaynida yo kanslerni tayinlashi yoki Bundestagni tarqatib yuborishi shart. Vazirlarning nomzodini Kansler tavsiya etadi, prezident esa tayinlaydi.

Konstitutsiyaga ko'ra, hukumat katta vakolatlarga ega, xususan qonunchilik tashabbusi huquqini amalga oshiradi. Ayniqsa Federal kanslerning vakolatlari ancha keng. Jumladan: Kansler mamlakat siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilaydi va uni amalga oshishi uchun javobgar bo'ladi. Ushbu asosiy yo'nalishlar doirasida har bir vazir o'z mas'ulligi asosida sohani boshqaradi. Federal kansler o'zgarsa, hukumat iste'foga ketadi. Kanslerning mamlakatni boshqarishdagi faol rolidan kelib chiqib, ba'zi tadqiqotchilar **Germaniyaning boshqaruv shaklini «kansler respublikasi» deb ataydilar.**

GFRda sud hokimiyatini Federal konstitutsiyaviy sud, federal sudlar va yerlarning sudlari amalga oshiradi. Federal konstitutsiyaviy sud ikki palata (senatlar)dan iborat. Sudyalarning yarmi (8 a'zosi)ni Bundestag, ikkinchi yarmini esa - Bundesrat saylaydi. Sudyalarning vakolat muddati - 12 yil.

Federal Konstitutsiyaviy sud keng vakolatlarga ega. U: Asosiy qonunga sharh beradi; federatsiya huquqi va yerliklarning huquqi o'rtasidagi nomutanosibliklarni hal etadi; ularning Konstitutsiyaga muvofiqligini aniqlaydi; federatsiya va yerliklarning vakolatlari yuzasidan izoh beradi; fuqarolarning davlat hokimiyati g'ayrikonstitutsiyaviy faoliyati va chiqargan hujjati muayyan huquqlarni buzdi deb hisoblab yo'llagan shikoyatlarini ko'rib chiqadi.

Umumiy, ma'muriy, moliya, mehnat va ijtimoiy yurisdiksiya sohalarida odil sudlovni amalga oshirish uchun beshta sud tizimi joriy etilgan bo'lib, ularning har biri oliy sud organiga ega.

**Umumiy sudlar tizimini Karlsruhe shahrida joylashgan Oliy federal sud boshqaradi.** U sud raisi, senatlarning raislari va sud a'zolaridan iborat. Oliy federal sud tarkibida fuqarolik ishlari bo'yicha 11 senat, jinoyat ishlari bo'yicha 5 senat va maxsus masalalarni ko'rib chiqishga mo'ljallangan 7 senat faoliyat ko'rsatadi.

Ma'muriy adliya tizimiga Berlin shahrida joylashgan Federal ma'muriy sud rahbarlik qiladi. U 12 senatdan (har birida - 5 tadan sudya) iborat. Yerlarda Oliy ma'muriy sudlar faoliyat ko'rsatadi.

Moliya sudlari tizimi soliqlar va boj yig'imlarini to'lashga doir nizolarni hal qilish uchun tuzilgan. Mazkur tizim Myunxendagi Federal moliya sudini hamda yerlarning 15 moliya sudlarini o'z ichiga oladi.

Mehnat ishlari bo'yicha sudlar ish beruvchilar va yollanma ishchilar o'rtasida chiqqan mehnatga haq to'lash, ishdan bo'shatish masalalariga doir va boshqa sh.k. nizolarni, shuningdek kasaba uyushmalari va tadbirkorlarning birlashmalari o'rtasida chiqqan ish tashlashlar, korxonalar yopilishining qonuniyligi masalalariga doir nizolarni ko'rib chiqadi. Kassel shahrida joylashgan Mehnat ishlari bo'yicha Federal sud 5 senatdan iborat.

Ijtimoiy sug'urta, ishsizlik bo'yicha nafaqa to'lash, tibbiy yordam ko'rsatish bilan bog'liq nizolarni ko'rib chiqish uchun Kassel shahrida Mehnat ishlari bo'yicha Federal sud rahbarligida ijtimoiy masalalar bo'yicha sudlar tizimi tashkil etilgan. U 12 senatdan iborat.

Odil sudlovning yagonaligini ta'minlash va oliy federal sudlar o'rtasida huquq masalalari yuzasidan chiqadigan ixtiloflarni hal qilish uchun GFR Konstitutsiyasining 95-moddasiga muvofiq Oliy federal sudlar umumiy senati tuzilgan bo'lib, u barcha tizimlardagi sudlar uchun majburiy bo'lgan qarorlar chiqaradi.

Myunxen shahridagi Federal intizomiy sud hamda Federal patent sudi mustaqil sud idoralari hisoblanadi.

**Germaniya davlat huquqi uzoq tarixiy davrda shakllangan. Germaniyada imperatorlik qonunlari, Veymar Konstitutsiyasining bir qator normalari, shuningdek, 1949-yilgi amaldagi asosiy qonun o'z faoliyatini davom ettirmoqda.** Zamonaviy Germaniyani davlat sifatida

tavsiflovchi asosiy konstitutsiyaviy tamoyillar Germaniyaning 1949 yilgi asosiy Qonuniga asoslanib, hozirgi kunda zamonaviy Germaniya davlatiga asos bo'lgan va **bugungi Germaniyani tavsiflovchi asosiy konstitutsiyaviy tamoyillar quyidagilar:**

\*Germaniya (FRG) 16 yerlarining federatsiyasi;

\* asosiy qonunga ko'ra, yer Germaniya Federativ Respublikasi tarkibida o'z tarixi, tarixan shakllangan hududi, milliy tarkibining o'ziga xos xususiyatlari, ko'pincha nemis tilining o'z shevasi, Konstitutsiyasi, parlamenti (Landtag), hukumati, boshqa davlat organlari, shuningdek, o'z ramzlari (gerb, madhiya va bayroq) ga ega bo'lgan davlat deb e'lon qilinadi;

\* Germaniya Federatsiyasi "kuchli markaz-kuchli yerlar" tamoyiliga, markaz va yerlar o'rtasida bo'ysunish va vakolatlarning bo'linishi, shuningdek muvofiqlashtirish va yerlar o'rtasida "gorizontal aloqalar" mavjudligiga asoslanadi;

\* Germaniya asosiy inson huquqlari va erkinliklarini tan oladi;

\* Asosiy qonunda mustahkamlangan huquqlarning eng muhimi nemislarning qadr-qimmatini va tengligi huquqidir;

\* mamlakatda qonun chiqaruvchi hokimiyatni bir palatali parlament - Bundestag, shuningdek yerlarning maxsus vakillik organi - Bundesrat tomonidan amalga oshiriladi;

\* ijro etuvchi hokimiyatni kuchli ("kuchli") kansler - hukumat boshlig'i va aslida davlatning birinchi shaxsi boshchiligidagi Bundestag tomonidan tuzilgan hukumat amalga oshiradi;

\* Germaniya davlati maxsus kengash tomonidan saylanadigan prezident tomonidan boshqariladi;

\* Germaniya demokratik va ijtimoiy davlat.

**Shaxsning huquqiy maqomini tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari** Germaniya asosiy Qonuni konstitutsiyaviy tartibga solish masalalari orasida inson huquq va erkinliklarini birinchi o'ringa qo'yadigan birinchi Yevropa va jahon konstitutsiyalaridan biri bo'ldi. Ushbu misolni keyinchalik boshqa bir qator davlatlar kuzatdilar. Asosiy qonunda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklar orasida yeng ustuvor mavqega ega tomonidan

\* qadr-qimmat huquqi, bu boshqa ko'plab huquqlar asosida yotadi;

\* barcha nemislar tengligi.

Bu degani:

- a) qonun oldida barchaning tengligi;
- b) erkaklar va ayollar tengligi;
- v) kelib chiqishi, irqi, tili, tug'ilgan joyi, qarindoshligi, dini, diniy yoki siyosiy qarashlaridan qat'iy nazar tenglik;
- g) nikohda va undan tashqarida tug'ilgan bolalarning tengligi;
- d) har qanday davlat idorasiga kirish tengligi; ye) har bir yerdagi har bir nemisning tengligi.

\*hayot va jismoniy yaxlitlik huquqi;

\* shaxsning erkin rivojlanishi huquqi;

\* vijdon erkinligi;

\* axborotni qidirish va olish erkinligi;

\* o'qitish, fan va san'at erkinligi;

\* onaning jamiyatdan qo'llab-quvvatlash va himoya qilish huquqi;

\* uyushish huquqi;

\* yurishlar va namoyishlar erkinligi;

\* yozishmalar, pochta aloqasi va boshqa aloqalarning maxfiyligi;

\* harakat erkinligi huquqi;

\* majburiy mehnatni taqiqlash;

\* mulk huquqi va meros erkinligi;

\* iltimoslar huquqi;

\* qurolli kuchlarda yoki muqobil fuqarolik xizmatida xizmat qilish majburiyati.

### **Insonning asosiy huquqlarini tartibga soluvchi huquqlar:**

\* matbuot erkinligi;

\* o'qitish erkinligi;

\* yig'ilish erkinligi;

\* uyushma erkinligi;

\* yozishmalar, pochta, telegraf va boshqa telekommunikatsiyalarning maxfiyligi;

\* mulkchilik;

\* Boshpana huquqi.

Demokratik tuzumga qarshi kurashgan mahalda, Federal Konstitutsiyaviy sudning qarori bilan ushbu huquqlardan mahrum qilinishi mumkin.



Germaniya Federativ davlati 16 o'lkadan iborat bo'lib, ularning ko'pchiligi o'z davlatchiligining ko'p asrlik an'analariga ega bo'lgan (Bavariya, Saksoniya, Shlezvig-Golshteyn, Baden va boshqalar.), ba'zilar sun'iy ravishda Prussiyaning ittifoqchilar tomonidan tugatilgan qismlaridan - butun Germaniya davlatchiligining yadrosidan (Brandenburg, Berlin, Meklenburg) paydo bo'lgan.

**Asosiy qonun Federal markaz va yerlar o'rtasida vakolatlarning taqsimlanishini tartibga soladi. Bular:**

- \* federatsiyaning mutlaq vakolati;
- \* qo'shma vakolat;
- \*yerlarning vakolatlari. Federatsiyaning mutlaq vakolatiga quyidagilar kiradi:

- \* Germaniyaning xalqaro siyosati;
- \* mudofaa;
- \* fuqaro mudofaasi;
- \* fuqarolik;
- \* valyuta;
- \* og'irliklar va o'lchovlar rejimi, aniq vaqt;
- \* bojxona;
- \* havo xizmati;
- \* pochta va telekommunikatsiya;
- \* mualliflik huquqi va boshqa intellektual mulk;
- \*federal davlat xizmati;
- \* statistika.

**Bulardan tashqari, Germaniya Federatsiyasining tavsiflovchi boshqa alohida xususiyatlarni ham ta'kidlash lozim:**

- \* Har qanday yerdagi nemis teng huquqlarga ega;
- \*yerlarning konstitutsiyaviy tuzumi Germaniya Federativ Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumiga, respublika, demokratik, ijtimoiy davlatning asosiy tamoyillariga mos kelishi kerak;
- \* Davlat butun yer yuzida yagona turmush darajasini ta'minlashga intiladi;
- \* federatsiya oliy o'quv yurtlarida barcha yerlardagi mansabdor shaxslardan tegishli nisbatda foydalanish kerak;

\* federatsiyaning barcha muassasalari va yerlar bir-biriga o'zaro huquqiy va ma'muriy yordam ko'rsatishlari kerak;

\* federatsiya va har bir yer alohida moliyaviy xarajatlarni amalga oshiradi.

Germaniya Federatsiyasining muhim xususiyati-yer asosiy qonun va boshqa qonunlarda o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarmagan hollarda yerni har qanday harakatlarni amalga oshirish uchun federal majburlash imkoniyatidir.

Federal majburlash turli shakllarda federal hukumat tomonidan Bundesratning roziligi bilan qo'llaniladi. Zarur hollarda yerlar hududi o'zgarishi mumkin, yerlar birlashish, o'z tarkibidan yangi yerlar ajratish huquqiga ega. Bunday qarorlar manfaatdor yerlarda referendumlar orqali qabul qilinadi. Biroq, umuman federalizm va federatsiyani yerlarga bo'lish prinsipi qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas.

#### **Topshiriqlar:**

1. Germaniyada davlat boshqaruvining ob'ektiv shart-sharoitlari. Davlat hokimiyati oliy organlari tizimi.

2. Germaniya Prezidenti: saylanish tartibi, davlat boshqaruvi tizimidagi o'rni.

3. Germaniya Federal Majlisi. Bundesrat: davlat boshqaruvi tizimida tutgan o'rni, tuzilish tartibi, vakolatlari.

4. Bundestag: saylanish tartibi, vakolatlari, davlat boshqaruvi tizimidagi o'rni.

5. Federal Kansler va Vazirlar Mahkamasi: tuzilish tartibi, vakolatlari, hukumatning qonun chiqaruvchi tarmog'i bilan o'zaro munosabatlari. Germaniyada davlat fuqarolik xizmati.

## **22-MAVZU. BUYUK BRITANIYA DAVLAT BOSHQARUVI TASHKIL ETILISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

### **Reja:**

- 1. Mamlakatning statut huquqi normalari.**
- 2. Konstitutsiyaviy monarxiya shaklidagi boshqaruv.**
- 3. Buyuk Britaniya parlamenti**
- 4. Siyosiy partiyalar tizimining evolyusiyasi**
- 5. Sud tizimi**

**Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan Qirolligi - G'arbiy Yevropada Britaniya orollarida joylashgan davlat.** Yevropa Ittifoqining a'zosi. Britaniya Hamdo'stligining ta'sis etuvchisi. Poytaxti - London shahri.

**Buyuk Britaniyaning tarkibiy qismlari:** Angliya, Uels, Shotlandiya, Shimoliy Irlandiya (Olster). La-Mansh bo'g'ozida Fransiya sohillari yaqinidagi Men oroli va Normand orollari mustaqil ma'muriy birliklarga ajratilgan. Angliya va Uels grafliklar va shahar-grafliklarga, Shotlandiya - viloyatlarga, Shimoliy Irlandiya - okruglarga bo'lingan.

Irlandiyaliklar zamonaviy asrning katta qismini inglizlar hukmronligi ostida o'tkazgan bo'lishiga qaramay, **1782 yildagi Konstitutsiya ularni rasmiy ravishda mustaqil qirollikka aylantirdi.** Ular ko'p jihatdan Buyuk Britaniya Qirolligiga qaram bo'lib qolishdi, ammo endi ingliz hududining rasmiy qismi emas edi. Mamlakat o'z parlamentini yaratdi va Buyuk Britaniyadan mustaqil ravishda ish yuritdi.

Ittifoq to'g'risidagi akt Buyuk Britaniya va Irlandiya Qirolligi parlamentlari tomonidan Irlandiya ittifoqini Buyuk Britaniya bilan rasmiylashtirish uchun imzolangan rasmiy hujjat edi. Ushbu shartnoma asosida Irlandiyaliklar Buyuk Britaniya parlamentida 100 o'rinni egalladilar va 100 yillik inglizlar hukmronligidan so'ng qirollikka rasmiy ravishda qo'shildilar.

Ko'plab irlandiyaliklar Angliyaga qayta qo'shilishni rad etishgan. Irlandiyalik siyosatchilar, aslida, 1798 yilda Ittifoq aktini imzolashning birinchi g'oyasini rad etishdi, ammo ittifoq foydasiga bo'lgan mamlakatda qo'zg'olon mamlakat siyosatchilarida g'oyalarning o'zgarishiga olib keldi.

Bundan tashqari, Buyuk Britaniya Qirolligi Irlandiya parlamentini tashkil etgan irlandiyalik siyosatchilarga zodagonlar, boylik va yer unvonlarini taqdim etdi. Va nihoyat, 1800 yilda kelishuvga erishildi va ikkala davlat rasmiy ravishda hujjatni imzoladilar.

Birlashgan Qirollikning amaldagi bayrog'i uchta mamlakat ittifoqini hech kimni kamsitmasdan namoyish etishning uyg'un usuli hisoblanadi. **Darhaqiqat, Shotlandiya xochi va Angliya xochidan tashkil topgan bayroqning birinchi takrorlanishi yaratilgan vaqtga kelib, bu birlashma shakli sifatida qaraldi, unda biron bir mamlakat boshqasidan kam emas edi.**

Shu sababli, Irlandiya Buyuk Britaniyaga qo'shilganda, irlandlar Shotlandiya va Angliya bilan bir xil huquq va dolzarblikka ega bo'lishini ko'rsatish uchun bayroq yana o'zgartirildi. Bayroqda aks ettirilmagan yagona Buyuk Britaniya a'zo davlati Uelsdir, chunki u hech qachon mustaqil davlat bo'lmagan. Uels parlamenti faqat 1998 yilda tashkil etilgan.

**Britaniyada yozib qo'yilgan konstitutsiya yo'q.** Yozilmagan konstitutsiya, an'anaga ko'ra, avvalo parlament tomonidan qabul qilingan hujjatlar - statutlardan iborat bo'ladi. Konstitutsiyaviy huquq manbalari jumlasiga shuningdek sud pretsedentlari, konstitutsiyaviy odatlar va doktrinal (ilmiy) manbalarni kiritadilar. Statut huquqini parlamentning 1215 yilda "Erkinliklarning Buyuk xartiyasi" e'lon qilinganda qabul qilingan konstitutsiyaviy huquq masalalariga doir hujjatlari tashkil etadi.

Statut huquqining eng muhim normalari jumlasiga Habeas korpus akti (1679 yil), Huquqlar to'g'risidagi bill (1689 yil), Valiahdlik to'g'risidagi qonun (1701 yil), Parlament to'g'risidagi qonunlar (1911 va 1949 yillar), Perlar to'g'risidagi akt (1963 yil), Jamoalar palatasi to'g'risidagi akt (1978 yil), Xalq vakilligi to'g'risidagi aktlar (1949, 1969, 1974, 1983 yillar), Mahalliy boshqaruv to'g'risidagi aktlar (1972 va 1985 yillar) va h.k. kiradi.

**Boshqaruv shakli - konstitutsiyaviy monarxiya.** Vindzorlar sulolasidan bo'lmish Yelizaveta II 1952 yildan buyon Qirolchadir.

**Davlat boshlig'i - Qirol (Qirolicha) rasman katta vakolatlarga ega:** parlamentni chaqirish va tarqatib yuborish, bosh vazirni va hukumat a'zolarini, boshqa oliy mansabdor shaxslarni va sudyalarni, shuningdek cherkovning oliy mansabdorlarini tayinlash va vazifasidan ozod qilish, parlament hujjatlariga veto (taqiq) qo'yish huquqi, parlamentning ochilishi chog'idagi qirollik nutqida ichki va tashqi siyosatning asosiy yo'nalishlarini belgilash, urush va tinchlikni e'lon qilish, xalqaro shartnomalarni tuzish va h.k. shular jumlasidan.

Amalda Qirol (Qirolicha) ana shu va boshqa ko'plab vakolatlarini hukumat amalga oshiradi. Hukumat monarx chiqaradigan hujjatlar uchun javobgardir. Shu sababli ana shu hujjatlarning barchasi bosh vazir tomonidan imzo chekib ma'qullanadi.

**Britaniya monarxi** Britaniya Hamdo'stligining (49 ta davlat) rahbari bo'lgani bois Hamdo'stlikdagi 18 ta davlatning (Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Karib havzasi mamlakatlari, Afrika va Okeaniyadagi ayrim

davlatlarning) boshlig'i sifatida e'tirof etiladi. An'anaga ko'ra, u anglikan va presviterian cherkovining rahnamosi hamdir.

**Monarxiya - Britaniya davlatining juda qadimdan qolgan instituti. Faqat 1649 yildan 1660 yilga qadar Kromvel respublikasi mavjud bo'lgan.**

Britaniya parlamenti dunyodagi eng qadimgi parlamentlardan biri. Umum (jamoalar) palatasi nisbiy ko'pchilikka asoslangan majoritar tizim asosida umumiy ovoz berish orqali besh yil muddatga 659 deputatdan iborat tarkibda saylanadi. Yuqori palata - Lordlar palatasi saylanmaydi, unga yo vorislik bo'yicha, yo Qirolicha tayinlashi bo'yicha a'zo bo'linadi. **Hozirgi vaqtda uning tarkibiga 1100 dan ziyod lord, baron, per kiradi.**

**Parlamentning eng muhim vazifasi bo'lgan qonunchilik ijodkorligi asosan doimiy va muvaqqat qo'mitalar orqali ro'yobga chiqariladi.** Qonunchilik tashabbusi huquqidan parlament a'zolari ham, hukumat a'zolari ham (bular palatadan birining deputatlari bo'lishlari shart) foydalanadilar. Shunisi ham borki, hukumatning qonun loyihalari ustuvorlikka ega va istalgan vaqtda kiritilishi mumkin. Qonun loyihasi uch o'qishdan o'tadi. U Umum palatasi tomonidan uchinchi o'qishda ma'qullangach, Lordlar palatasiga yuboriladi.

Shuningdek maxsus qonunchilik tartib-taomillari: berilgan vakolat asosida qonun chiqarish (hukumat tomonidan chiqariladigan qonunlar), moliyaga oid qonun hujjatlarini moliyaviy tartib-taomil bo'yicha ko'rib chiqish va petitsiyalar (jamoatchilik murojaati) shaklida berilgan xususiy qonun loyihalarini ko'rib chiqish nazarda tutilgan.

**Britaniya parlamenti yana bir muhim vazifasi - hukumat ustidan nazoratni amalga oshirishdir.**

An'anaga va konstitutsiyaviy kelishuvlarga muvofiq hukumat parlament tomonidan shakllantiriladi va uning oldida javobgardir. Odatda, muhokama ochish huquqga ega bo'lgan muholifat tomonidan kiritiladigan takliflar tariqasida hukumatning siyosati yuzasidan umumiy muzokaralar o'tkaziladi. Buning uchun sessiyada 20 kun ajratiladi. Parlamentning hukumatga ham yozma, ham og'zaki savollar berishi keng qo'llaniladi ("savollar soati" televidenie orqali ko'rsatiladi). Tasdiqlangan pul mablag'larining hukumat tomonidan sarflanishiga doir parlament tekshiruvini Oshkora hisobdorlik qo'mitasi (15 a'zo) o'tkazadi. Unga Milliy

taftish idorasi (**900 dan ziyod taftishchi**) yordam ko'rsatadi va zarur axborotni taqdim etadi. Qo'mitaning ma'ruzalari har yili Jamoalar palatasida muhokama qilinadi.

**Hukumatni parlament saylovidan keyin Jamoalar palatasida ko'pchilik o'rinni olgan partiya yetakchisi tuzadi.** Hukumatning qolgan a'zolarini bosh vazir tavsiyasi asosida Qirolicha tayinlaydi.

Bosh vazir va asosiy vazirlar Mahkama tarkibiga (hukumatning 18-25 a'zosi) kiradi. Hukumatning jami tarkibi kengroq bo'lib, davlat vazirlari va parlament kotiblarini qo'shgan holda 100 kishigacha borishi mumkin.

Asosiy qonun loyihalarini ishlab chiqishga, davlat apparati faoliyatiga, tashqi va ichki siyosatni belgilashga Mahkama rahbarlik qiladi. Hukumat o'zining qonunchilik tashabbusi huquqidangina emas, balki qonunosti hujjatlari va vakolat bilan qonun hujjatlari chiqarish huquqidan ham keng foydalanadi.

**Jamoat hayotini umumiy demokratlashtirish,** Buyuk Britaniyaning ijtimoiy tuzilishidagi o'zgarishlar, Britaniya imperiyasining qiyofasini o'zgartirish (uning mavjudligi 18-19-asrlarda rivojlangan siyosiy kuchlar muvozanatini katta darajada saqlab qolgan) zamonaviy davrda siyosiy partiyalarning an'anaviy tizimini sezilarli darajada o'zgartirishga olib keldi. Ikki partiyaviy tizim parlament institutlari siyosiy tashkilotining asosi bo'lib qoldi, biroq partiyalararo "qarama-qarshilik"ning mazmuni o'zgardi.

**Konservativ partiya** (tarixiy Torilar vorisi) mamlakatning eng yirik partiyasi sifatida o'z ahamiyatini saqlab qoldi va davlat tarixidagi eng muhim davrlarda hokimiyat tepasida edi. Ikkinchi jahon urushi yillarida hukumatga boshchilik qilgan V. Cherrill (1874-1965) partiya mavqeini mustahkamlashga alohida hissa qo'shdi. XX asr oxiriga kelib, partiya a'zolari soni 2 millionga yaqinlashdi, saylovchilarning taxminan 40% an'anaviy ravishda parlamentga ham, mahalliy hukumatlarga ham saylovlarda o'z ovozlari konservatorlarga berdi. 20-asrning so'nggi o'n yilliklarida partiyaning hokimiyatda uzoq vaqt qolishi. (1979-1997) Buyuk Britaniya iqtisodiyotini barqarorlashtirishga, mamlakatning xalqaro maydondagi obro'-e'tiborini oshirishga hissa qo'shdi (ko'p jihatdan partiya rahbari - M. Tetcher faoliyati tufayli).

**Liberal partiya** Buyuk Britaniyada asta-sekin konservatorlarga alternativa sifatida o'z ahamiyatini yo'qotdi. Partiyaning so'nggi siyosiy

“ko‘tarilishi” asrning boshlariga to‘g‘ri keldi, o‘shanda uning rahbari bir muddat 1916-1922-yillarda bosh vazir D. Lloyd Jorj bo‘lgan. 1920-yillarda partiya o‘z davlat-siyosiy pozitsiyasining amorfligi tufayli saylovlarda aholining ommaviy qo‘llab-quvvatlashini asta-sekin yo‘qotdi va asr oxiriga kelib u ahamiyatsiz siyosiy harakatlar toifasiga o‘tdi. Uning ayrim a‘zolari ajralib chiqqan sotsial-demokratlar bilan birgalikda sotsial-liberal partiyani tuzdilar (1988), u parlamentni isloh qilish va fuqarolar erkinliklari kafolatlarini mustahkamlash dasturini ishlab chiqdi.

Hozirda konservatorlar va leyboristlar partiyasida hokimiyat uchun kurash olib bormoqda. **Buyuk Britaniya bosh vazirligini 2022 yil avgust oyidan boshlab Liz Trass boshqarmoqda.** Trass xonim Boris Jonson iste’fosidan keyin bo‘lib o‘tgan saylovlarning oxirgi bosqichida sobiq moliya vaziri, asli hindistonlik Rishi Sunakni yengib, ushbu lavozimni egalladi. Bu ishga o‘tgunga qadar u tashqi ishlar vaziri bo‘lgandi.

**Sud tizimi qadimgi an‘analarni va Britaniya huquq tizimining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘zida mujassam etgan.** Lordlar palatasi Birlashgan Qirollikning oliy sud instansiyasi hisoblanadi. Uning nomidan ishlarni Lordlar palatasining sudi ko‘rib chiqadi. Bu sud unga boshchilik qiluvchi lord-kanslerdan, apellyatsiyalar bo‘yicha shtatdagi lordlar va ilgari sud lavozimini egallagan perlardan tarkib topadi. Lordlar palatasi fuqarolik va jinoyat (Shotlandiya uchun - faqat jinoyat) ishlariga doir qarorlar ustidan tushgan apellyatsiyalarni ko‘rishga qabul qiladi.

Angliya va Uels Oliy sudi Apellyatsiya sudini (fuqarolik va jinoyat bo‘limlari bilan), Yuqori sudni (bir necha ixtisoslashtirilgan bo‘limlari va boshqa tarkibiy qismlari bilan), Qirollik sudini (eng jiddiy jinoyatlar uchun, shuningdek quyi sudlarning hukmlari ustidan apellyatsiyalar uchun qasamyod qabul qilgan sudyalarning sudini) o‘z ichiga oladi. Ishlarning asosiy qismi ko‘riladigan sudlar jumlasiga graflik sudlari (ular da fuqarolik ishlari ko‘riladi) va magistrat sudlari (ular da qasamyod qabul qilgan sudyalarsiz jinoyat ishlari ko‘riladi) kiradi. Shuningdek, ixtisoslashtirilgan sudlar (tribunallar): sanoat tribunallari, mehnat nizolari bo‘yicha apellyatsiya sudlari mavjud.

Birlashgan Qirollikka 1707 yilda qo‘shilgan Shotlandiya sud tizimi Angliyanikidan farq qiladi. Edinburgdagi Yustitsinariylar Yuqori sudi jinoyat ishlari bo‘yicha oliy instansiya bo‘lib qolmoqda. Sessiya sudi fuqarolik

ishlari bo'yicha oliy sud instansiyasi hisoblanadi. Quyi sudlarning tizimini sherif sudlari va okrug sudlari tashkil etadi.

Shimoliy Irlandiya Oliy sudi Shimoliy Irlandiyaning oliy sud instansiyasi hisoblanadi. U Birlashgan Qirollikning oliy sudlari vazifalariga o'xshash vazifalarga ega bo'lgan Yuqori sudni, Apellyatsiya sudini va Qirollik sudini o'z ichiga oladi.

Nizoli masalalar bo'yicha qarorlari tavsiya xususiyatiga ega bo'lgan Maxfiy kengash Sud qo'mitasi mustamlakalar, dominionlar va Britaniya saltanatining suverenitetini tan oladigan Britaniya Hamdo'stligi mamlakatlari uchun oliy apellyatsiya instansiyasiga aylangan.

Mamlakat sud tizimi ayrim o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda: 1967 yilda Ma'muriyat ishlari bo'yicha parlament vakilining xizmati tashkil etildi, 1983 yildan buyon kambag'allarga huquqiy yordam xizmatlari vujudga keltirilmoqda.

**Shu o'rinda, ayrim qiziqarli ma'lumotlarni keltiramiz. Aniqlanishicha, Londonga** Rim bosqinchilari shaharga miloddan avvalgi 43-yilda asos solishgan. Ular shaharni Londinium deb nomlashgan.

Ajablanarlisi shundaki, Buyuk Britaniya va Angliya bir xil nom emasligini hamma ham bilmaydi. Birlashgan Qirollik bir vaqtning o'zida 4 ta davlatni birlashtirgan unitar davlatdir: Shotlandiya, Angliya, Uels va Shimoliy Irlandiya.

## **23-MAVZU. ZAMONAVIY ROSSIYA JAMIYATI SIYOSIY TIZIMINING XUSUSIYATLARI**

**Reja:**

- 1. Bugungi Rossiya davlat tizimi evolyusiyasi**
- 2. Rossiya Federatsiyasi Prezidenti vakolatlari**
- 3. Rossiya parlamenti va ko'ppartiyaviylik tizimi.**

***Tushunchalar va tayanch iboralar:*** Rossiya Federatsiyasi, Federal Majlis, Davlat Dumasi, Federal okruglar, veto huquqi, Federatsiya, munitsipal boshqaruv, gubernator, mer.

**1993 yilning 12 dekabrda umumxalq ovoz berishi yo'li bilan qabul qilingan Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasiga muvofiq**



Rossiya respublika boshqaruv shakliga ega demokratik federativ huquqiy davlatdir. Rossiya davlatining Rossiya Federatsiyasi va Rossiya deb nomlanishi bir xil ma'noni anglatadi (Konstitutsiyaning 1-moddasi).

Rossiya davlatining ilgari nomi - RSFSR (Rossiya Sovet Federativ Sotsialistik Respublikasi). 1991 yilning 25 dekabridagi RSFSR qonuniga ko'ra R.F. (Rossiya) nomi berilgan. 1992 yilning 21 aprelida bu nom Konstitutsiyaga kiritilgan.

Rossiya Federatsiya sifatida Rossiya Federatsiyasining teng huquqli sub'ektlaridan tashkil topadi. (Konstitutsiyaning 5-moddasi). R.F. sub'ektlari 21 ta respublikadan, 6 ta o'lkadan, 49 ta viloyatdan, ikkita federal ahamiyatga ega shahardan, bitta avtonom viloyatdan, 10 ta avtonom okrugdan iborat. R.F. sub'ektlarining maqomi R.F. ning Konstitutsiyasi, shunga mos ravishda R.F. sub'ektlarining Konstitutsiya va nizomlari bilan belgilanadi. Sub'ektlarning maqomi R.F. va sub'ektlarning o'zaro kelishuvi orqali federal konstitutsiyaviy qonunlar asosida o'zgarishi mumkin (Konstitutsiyaning 65-moddasi).

R.F. davlat sifatida qonun bilan tasdiqlangan o'z davlat ramzlari - bayrog'i, gerbi va madhiyasiga ega. R.F. ning davlat tili rus tilidir. Poytaxti - Moskva shahri.

R.F. hududida yagona fuqarolik o'rnatilgan. R.F. qonunchiligida davlat fuqaroligini olish va uni to'xtatish qoidalari belgilab qo'yilgan (Rossiya Federatsiyasi fuqaroligi to'g'risidagi qonuni 1991 yilda qabul qilinib, 1993 va 1995 yilda unga tuzatish va o'zgartirishlar kiritilgan). R.F. ning hududi o'z ichiga federatsiya sub'ektlarining hududlarini, suv va dengiz hamda havo hududlarini qamrab oladi. R.F. ning suvereniteti uning butun hududida amal qiladi.

### **R.F. quyidagi belgilari bilan ajralib turadi:**

-Konstitutsiya va qonunchiligining mavjudligi, federatsiya aktlarining ustuvorlik prinsipining amal qilishi, ya'ni, qoidaga ko'ra federal aktlar, Rossiya sub'ektlarining aktlariga ko'ra oliy yuridik kuchga ega ekanligi;

-davlat organlarining federal tizimi - R.F. Prezidenti, Federal majlisi (parlament), Hukumati, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralari, Konstitutsiyaviy Sud, Oliy Sud, Oliy Hakam sudi - ya'ni, sud tizimi yagonaligi, Bosh prokurori;

- yagona ichki va tashqi siyosat yuritishi, mazkur ichki va tashqi siyosat R.F. sub'ektlarining ishtirokida shakllanib barcha organlari tomonidan amalga oshirilishi; R.F. ning xalqaro miqyosda tan olinishi, ya'ni uning xalqaro munosabatlarda teng huquqda ishtirok etishi;

-Qurolli kuchlarining Oliy Bosh Qo'mondoni rahbarlik qiladigan yagona federal Qurolli kuchlarining mavjudligi (R.F. Prezidenti Oliy Bosh Qo'mondoni hisoblanadi).

- ichki ishlar, xavfsizlik xizmatining yagona tizimi mavjudligi;

- davlatning yagona pul-moliya tizimining mavjudligi (yagona pul birligi - rublning, soliq tizimi pul-kredit muomalalari Markaziy banki tomonidan amalga oshirilishi va hakoza);

- mulkning turli xil ko'rinishlari, iqtisodiy faoliyat va raqobatning erkinligi asosida tashkil topgan yagona iqtisodiy tizimning mavjudligi.

R.F. ning butun hududida davlatning iqtisodiy va ijtimoiy- madaniy hayotiga rahbarlik qilishning vakolatlari ham ko'p qirrali. Konstitutsiyaga ko'ra, R.F. davlati organlarining vakolatini ikki guruhga bo'lish mumkin. Birinchi guruhga R.F. davlati organlarining vakolatlari kiradi. Ikkinchi guruhni R.F. davlati organlari bilan uning sub'ektlarini birgalikdagi vakolatlari tashkil qiladi.

**R.F. davlati organlarining vakolatlari o'zi quyidagi guruhlarga bo'linadi:**

**1) davlat qurilishi sohasidagi vakolatlar** - Konstitutsiyasi va federal qonunlarni qabul qilish va o'zgartirish, ularga rioya etilishini nazorat qilish, hududiy va federativ tuzilishi; fuqaro va insonlarni huquq va erkinliklarini muhofazalash va tartibga solinishi; R.F. fuqaroligini o'rnatish; milliy ozchilikni huquq va erkinliklarini himoya qilinishi va tartibga solinishi; qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati federal organlari tizimini o'rnatish, ularni tashkil etish va faoliyat yuritish tartibini belgilash; mazkur organlarni shakllantirish; faxriy unvonlar va davlat ordenlarini ta'sis etish; federal davlat xizmati; R.F. milliy rivojlantirish va davlat qurilish sohasidagi federal dasturlarni ishlab chiqish.

**2) Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniyat sohasidagi vakolatlar:** federal davlat mulki va uni boshqarish; R.F. ni iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va madaniy rivojlantirish sohasidagi federal dasturlar va federal siyosat asoslarini o'rnatish, yagona bozor siyosatini huquqiy asoslarini o'rnatish;

davlat bo'jlarini, pul missiyasini, qiymat siyosati asoslarini tartibga solish; federal iqtisodiy qiymat, federal banklar; federal energetika tizimi, yadro energetikasi; federal transport, temir yo'llar, axborot va aloqa; koinotdagi faoliyat; minerologik xizmat, standartlar, etalonlar, metrik tizim va vaqt o'lchovi; geodeziya va kartografiya; jo'g'rofiy ob'ektlarning nomlanishi; rasmiy statistika va buxgalteriya hisobi.

### **3) tashqi siyosat, xavfsizlik va mudofaa sohasidagi vakolatlar:**

R.F. tashqi siyosati va xalqaro munosabatlar, R.F. xalqaro shartnomalari; urush va tinchlik masalalari; R.F. tashqi iqtisodiy munosabatlari; mudofaa va xavfsizlik; mudofaaga doir ishlab chiqarish; qurol, o'q dori; harbiy texnika va boshqa harbiy mulklarni sotish va sotib olish tartibi; zaharli moddalarni ishlab chiqarish; narkotik moddalarni ishlab chiqarish va undan foydalanish tartibi; R.F. davlat hududini, dengiz, havo hududlarini, alohida iqtisodiy zona va kontinental shelfni himoyasi va maqomini belgilash.

**4) odil sudlov, inson huquqlari va jamoat tartibini muhofaza qilish sohasidagi vakolatlar:** sud ishlarini yuritish; prokuratura; jinoyat, jinoyat-protsessual va jinoiy jazoni ijro etish qonunchiligi; amnistiya va afv etish; fuqarolik, fuqarolik-protsessual, arbitraj - protsessual qonunchiligi; intellektual mulkni huquqiy tartibga solish.

**R.F. va federatsiya sub'ektlarining birgalikdagi vakolatlarini ham shartli ravishda bir necha kichik guruhlariga bo'lish mumkin:**

**1) davlat qurilishi sohasida:** R.F. sub'ektlarining konstitutsiyalarini, qonunlarini va boshqa normativ-huquqiy aktlarini R.F. Konstitutsiyasi va federal qonunlarga mos kelishini ta'minlash; fuqaro va insonlarni huquq va erkinliklarini himoya qilish; milliy ozchilikning huquqlarini himoya qilish; kam sonli etnik jamoalarni hayot tarzini va ularning turar joylarini himoya qilish, davlat hokimiyati organlari va mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari tizimini tashkil qilishning umumiy prinsiplarini o'rnatish.

**Diqqatga sazovor joylari.** Kolizey – Italiyaning asosiy diqqatga sazovor joyi. Shunday bir naql bor: “Kolizey turguncha Rim turadi, Rim turguncha butun dunyo turadi”. Uning qurilishi melodning 72 yilida Vespasian tomonidan boshlangan va u 80 yilda Tit tomonidan tantanali ochilgan, uning me'mori noma'lum, lekin ayrimlar uni 188x156 metrli va balandligi 57 m ga teng elliptik shaklga ega, Rim sivilizatsiyasining eng katta yodgorligi hisoblangan Domitsion Saroyi, Amfiteatrni qurgan me'mor Rabiriy bilan aynanlashtirilgan.

**Vatikan Pinakotekasiga Papa Piy VI asos solgan va 1908 yilning 19 martida Belveder saroyining qanotlaridan biri sifatida ochilgan.** Keyinroq (1932 yilda) papaning buyurtmasiga ko'ra, 18 ta zaldan iborat maxsus bino qurilgan, bu zallarda xronologik tartibda XI-XIX asrlardagi Vizantiya va Yevropaning rassomlik asarlari (taxminan 460 ta asar) qo'yib chiqilgan edi. Kartinalarning ko'pchiligi 1797 yilda Napoleonning buyrug'iga ko'ra Parijga jo'natilgan edi. 1815 yilda Vena kongressida kartinalarni Vatikanga qaytarish to'g'risida qaror qabul qilindi.

**Oltin uy (boshqa nomi – Ka'd'Oro yoki Palasso Santa-Sofiya)** qachonlardir haqiqatan ham tilla suvi bilan bezatilgan va qimmatbaho metallar bilan qoplangan edi. Dekorning (bezakning) qo'shimcha elementlari vermilon va ultramarindan tayyorlangan ham o'z ulushini qo'shgan edi: bino haqqoniy ravishda Venesiyaning gotik me'morchiligining ajoyib namunasi bo'lib hisoblanadi.

Ka'd'Oro XV asrning ikkinchi choragida Kontorini oilasi uchun qurilgan, uning me'morlari – Jovanni va Bartolomeo Bon, ota va o'g'il bo'lishgan. Qachonlardir ayna shu joyda vizantiya saroyi qad ko'tarib turgan. Uning ayrim qismlari hali ham bor, ular Oltin uying fasadini bezab turadi. 1927 yildan beri bino odamlar tomosha qilish uchun ochiq. Ayni paytda unda Franketti galereyasi – o'rta asrlardagi rassomlik asarlari va haykallarining noyob va juda g'ayri tabiiy to'plami joylashtirilgan.

Duomo maydonida Milanning yana bir diqqatga sazovor joyi – **Viktor Emmanuil II ning galereyasi** joylashgan. Bino 1865-1877 yillarda qurilgan va uning yaratuvchisi – Djuzeppe Mengonining halok bo‘ligi sababchisi bo‘lgan – u va katta balandlikdagi havodan tushib ketgan. Galereya Italiyani o‘z hukmronligi ostida birlashtira olishga erishgan, Savoy dinastisidan (sulolasidan) kelib chiqqan qirol Vittorio Emmanuel Ikkinchi sharafiga nomlangan. Galereyaning markaziy seksiyasi temir va shishadan tayyorlangan gumbaz bilan tugallangan, bu esa o‘z vaqti uchun ancha ilg‘or va jur‘atli yechim edi. Bugungi kunda bu inshoot “shisha bilan o‘ralgan ko‘cha” deb nomlanadi va o‘ziga xos Milanning Arbati bo‘lib, bu yerda juda ko‘p mashhur magazinlar, restoranlar va kafelar to‘plangan. Galereyada shaharning ramzlaridan biri – mozaikali buqa ham “yashaydi”. Shunday o‘yin-afsona bor, buqaning sababli joyida chap oyog‘ida turib o‘zining atrofida bir marta aylana olgan kishi o‘zining orzu qilayotgan istagining bajarilishi huquqiga ega bo‘ladi. Mana ko‘p yillardan beri butun dunyodan kelgan sayyohlar vestibular apparatni aynan Milanda, Viktor Emmanuil II galereyasida mashq qilinadi.

**Ponte-Vekko ko‘prigi – (ital. Ponte Vecchio – “eski ko‘prik”)** – haqiqatan ham Florensiyada Arno daryosi ustiga qurilgan sakkizta ko‘prikdan eng eskisidir. Uning yog‘och o‘tmishdoshi bu joyda Rim imperiyasi davrida qurilgan edi, hozirgi toshdan yasalgan ko‘prik unga qaraganda yangi – o‘n to‘rtinchi asrda qurilgan. O‘rta asr an‘analariga ko‘ra ko‘prik o‘lchami bo‘yicha mutlaq teng bo‘lgan 38 ta bo‘lakka bo‘lingan bo‘lib, bu bo‘laklarda savdo olib borilar edi. Dastlab u yerda go‘sh va ko‘katlar sotuvchi do‘konlar joylashtirilgan edi, lekin o‘n oltinchi yuz yillik oxirida ular joyini zarlarga bo‘shatib berishdi, zargarlar Ponte-Vekko ko‘prigida hozir ham savdo qilishadi. Aynan shu ko‘prikni Patrik Zyuskind o‘zining “Parfyumer” romanida tavsiflagan deb hisoblanadi.

**Iqtisodi.** Italiya dunyodagi yirik iqtisodiy davlatlar qatoriga kiradi, uning aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan YaIM Fransiya va Buyuk Britaniya bilan bir xil darajada. Italiya Yevro hududiga kirsada, uning budjeti kamomadi belgilangan me‘yordan 3% ortadi. Iqtisodi ham sanoati rivojlangan shimolga va agrar janub ajralgan, ko‘pchilik xomashyo resurslari va iste‘mol qilinadigan energiya eltuvchilarning taxminan 75% import qilinadi. Italiyaning iqtisodida sayyohlik va xizmat ko‘rsatish sohasi

katta rol o'ynaydi. Italiya iqtisodiyotida hukmronlikni moliyaviy kapital o'z qo'liga olgan. Uning asosini sanoat va bank monopoliyalari tashkil etib, ularning qo'shilishi mamlakatning xo'jalik hayotining borishi ustidan monopolistik nazorat markazlari tashkil etadi.

**Tarixi.** Mil. av. 2—1 ming yilliklarda hozirgi Italiya hududida ligurlar, etrusklar yashagan, asta-sekin italiklar (shu jumladan, lotinlar) ko'chib kelib joylasha boshlagan. Italiklar guruhiga mansub bo'lgan sabinlar bilan birga lotinlar Rimga asos solganlar (mil. av. 754—53-yillar).

Mil. 3-asrida, asosan, Italiya hududidan iborat bo'lgan Rim imperiyasida quldorlik tuzumi inqirozga uchragan. Quldorlik jamiyati zamirida feodalizm unsurlari vujudga kela boshladi: yirik yer egaligi bilan birga mayda xo'jalikning mavjudligi, natural xo'jalik hukmronligi Rim imperiyasi davrida butunlay barxam topmagan yer egalarining siyosiy hokimiyati oshib bordi. 4—5-asrda Italiyaga bostirib kirgan german qabilalari va boshqa varvar qabilalar Rim imperiyasiga sezilarli zarba berdilar. 5-asr boshlarida Italiyaga kirib kelgan vestgotlar 413 yilda Rimni ishg'ol qildilar. 455 yilda Rim vandallar tomonidan tor-mor qilindi. Mil. 5-asrda german, vestgot, vandal va b. kabilalarning hujumi, qullar hamda kolonlarning qo'zg'olonlari natijasida G'arbiy Rim imperiyasi yemirilgach, 476 yilda Odoakr boshchiligida qirollik hokimiyati o'rnatildi.

488 yilda Teodorix boshchiligida ostgotlar qirolligi bunyod etildi. 554 yilda Italiyani Vizantiya bosib oldi va Vizantiya imperatori Yustinian I 554 yili Pragmatik sanksiya chiqardi, bu hujjat Rim imperiyasining ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarini qayta tiklashga qaratilgan edi.

773-74 yillarda Italiyani franklar qiroli Buyuk Karl bosib oldi. Italiyaning franklarga tobe bo'lishi unda zamindorlik munosabatlarining rivojlanishini tezlashtirdi. 781 yilda Italiya qirolligi tashkil topdi. Buyuk Karlning o'g'li Pipin uning qiroli bo'ldi. Franklar istilosidan so'ng Italiyada mulkdorlik munosabatlari tez rivojlana boshladi. 887 y. Buyuk Karl sulolasidan bo'lgan Karl III ag'darilgach, yirik zodagonlar o'rtasida Italiya taxti uchun kurash avj oldi. 9-asrda Italiyaga janubdan arablar, shimoldan vengerlar hujum qildi. 10-asrning 2-yarmidan 12-asr boshlarigacha Italiyaning ko'p qismi german imperatori Otton I ta'sirida bo'ldi.



Shahar kommunalar tovar-pul munosabatlari rivojlangan qudratli markazlarga aylandi; salib yurishlari esa bu yerda port shaharlar (Venesiya, Genuya, Piza, Ankona) ravnaq topishiga, ularni Yevropa bilan Sharq o'rtasidagi asosiy savdo vositachilariga aylantirdi. Shu davrdagi shaharlar aholisi Italiyaga bostirib kirgan german zamindorlariga qarshi qahramonlarcha kurashdi.

1158 yilda imperator chiqargan Ronkal qaroriga binoan, Italiya kommunalari siyosiy mustaqillikdan mahrum bo'ldi. German zamindorlariga qarshi kurash davrida Italiya shaharlarida gvelflar va gibellinlarning siyosiy partiyalari vujudga keldi. 1162 yilda german bosqinchilariga qarshilik ko'rsatishning asosiy markazi bo'lgan Milan vayron qilindi. 1167 yilda Shimoliy Italiya shaharlari birlashib, «Muqaddas Rim imperiyasi» imperatorlariga zarba berish uchun Lombardiya ligasini tuzdilar. German zamindorlariga qarshi kurash italyan xalqining milliy o'zligini anglash unsurlari paydo bo'lishiga ko'maklashdi. 1183 y. Konstansa sulhiga ko'ra, Italiya shaharlari imperatordan haqiqiy mustaqillikni yana tiklab oldilar.

Italiya shahar va qishloqlarida ishlab chiqarish kuchlarining jadal rivojlanishi tufayli 14—16-asrlarda dunyoda birinchi marta ilk tovar-pul munosabatlari paydo bo'lishi va rivojlanishi sodir bo'ldi. Asosan movut to'qimachiligida manufaktura paydo bo'ldi. 14—15-a. larda xalq qo'zg'olonlari kuchayib borishidan cho'chigan «semiz» popolanlar shaharlarda respublika idora usulini tiraniya bilan almashtirdilar. 15-asrda Florensiya, Milan, Bolonya, Ferrara, Urbino va boshqa joylarda tiraniya mustahkam qaror topdi.

16-asr 2-yarmida Italiyada mulkdorlik inqirozi va savdo-sanoat munosabatlarining keng ildiz otishi Italiyada ma'rifatparvarlik oqimini keltirib chiqardi. Savdo-sanoatning rivojlanishi va ma'rifatparvarlik xarakati Italiya tarixida yangi davr — chet el hukmronligiga qarshi kurash boshlanishiga sabab bo'ldi. 1789 — 94 yillarda Fransiyada bo'lib o'tgan inqilob Italiyadagi inqilobchilar faoliyatini kuchaytirdi. Fransiyadagi kabi Italiyada ham yakobinchilar harakati paydo bo'ldi. 1796—97 yillardagi Napoleon yurishidan so'ng Italiya Respublikasi (1797) tuzildi. Shunday qilib, butun Italiya (Sardiniya va Sitsiliya orollaridan tashkari) Fransiya qo'l ostida birlashtirildi. 1814 y. dan Italiyada Fransiya

hukmronligiga karshi kurashuvchi tashkilotlar tuzildi. Napoleon imperiyasi yemirilgach, Vena kongressi (1814—15) mamlakatning Avstriyaga karamligi va ko'plab qirolliklarga bo'linganligini rasmiylashtirdi. 19-asr 40-yillaridan Lombardiya, so'ngra Pemontda sanoat inkilobi boshlandi.

**Italiya ikkinchi jahon urushida gitlerchilar Germaniyasining asosiy ittifokchisiga aylandi.** 1940 yil oktabrda Italiya Gresiyaga, 1941 yil aprelda Yugoslaviyaga hujum qildi. 1941 yil 22 iyunda Italiya sobiq SSSRga urush e'lon qildi, sharqiy frontga italyan ekspeditsion korpusi (1942 yildan armiya)ni yubordi.

Lekin 1943 yil Italiya qo'shinlari sobiq Sovet armiyasi tomonidan tor-mor qilindi. Sitsiliyaga Angliya-Amerika qo'shinlari bostirib kirdi. Bu voqealar Mussolini siyosatining inqirozga uchrashiga va hukumatning marshal P. Badolo ko'liga o'tishiga sabab bo'ldi (1943 yil 25 iyul). Badolo Angliya-Amerika qo'mondonligi bilan yarash (so'zsiz taslim bo'lish) shartnomasiga yashirincha imzo chekdi. Bundan xabardor bo'lgan Germaniya Italiyaning katta qismini bosib olib, Mussolini boshliq qo'g'irchoq hukumat tuzdi. 1943 yil kuzidan italyan xalqi ozodlik uchun kurash boshladi. Nihoyat, 1944 yil aprelda barcha antifashist partiyalarning vakillaridan iborat yangi hukumat (Badolo boshliq) tuzildi. Umumxalq qurolli ko'zg'oloni natijasida 1945 yil aprelda mamlakat fashistlardan ozod bo'ldi. 1946 yil 2 iyunda respublika deb e'lon qilindi.

Italiya —1945 yildan BMT a'zosi. Milliy bayrami — 2 iyun — Respublika e'lon qilingan kun (1946).

### **Topshiriqlar:**

1. Italiya siyosiy tizimida Prezidentning o'rni
2. Parlament tizimi haqida nimani bilasiz?
3. Italiya sud tizimi
4. Italiyaning jahon siyosatida tutgan o'rni haqida gapirib bering

## 28-MAVZU. KOREYA RESPUBLIKASINING ZAMONAVIY SIYOSIY TIZIMI

### Reja:

1. Koreya Parlament respublikasi
2. Koreya ijroiya hokimiyati
3. Ikki Koreyaning siyosiy tizimi xususiyatlari

Koreya (Koreya Respublikasi, Janubiy Koreya) Koreya yarim orolining janubiy qismida joylashgan davlat. 1948 yilning 18 avgustida vujudga kelgan. Poytaxti - Seul shahri.

**Ma'muriy bo'linishi 9 ta provinsiya va provinsiya maqomiga ega 2 ta shahar (Seul va Pusan) dan iborat.**

Mamlakatda 1988 yil 25 fevralda kuchga kirgan hamda 1980 yil 27 oktabrdagi Konstitutsiyani bekor qilgan yangi Konstitutsiya amal qiladi. Asosiy qonun mamlakatni parlament respublikasi, deb e'lon qilgan. Ammo 1988 yilgacha mamlakatda avtoritar rejim mavjud bo'lib, Prezident cheklanmagan vakolatlarga ega edi.

**Davlat boshlig'i - Prezident**, umumiy va to'g'ridan-to'g'ri shaklda 5 yil muddatga saylanadi.

Parlament - Milliy yig'in - 299 ta a'zodan iborat bo'lib, ularning 237 tasi to'g'ridan-to'g'ri shaklda 4 yilga saylanadi, qolgan 62 tasi to'g'ridan-to'g'ri saylovlarda olingan o'rinlarga qarab, proporsional tarzda siyosiy partiyalardan tayinlanadi.

**Ijro hokimiyatining oliy organi - Prezident boshchiligidagi Davlat kengashi.** Vazirlar Kengashi a'zolari Prezident tomonidan Milliy yig'inning albatta ma'qullashi olingandan keyin tayinlanadi.

Shu o'rinda, tarixga murojaat qilamiz. Manbalarda yarim orolda yashagan turli qabilalar haqida ma'lumotlar mavjud. Shimolda koguryo, yemek, ochko kabilalari, Xangan daryosidan janubrokdan xan qabilasi yashagan. U 3 ta shoxchaga bo'lingan: Maxan (xan), chinxan, pyonxan. Aholi chorvachilik, baliqchilik, ovchilik bilan mashg'ul bo'lgan.

Koguryo davlati kachon paydo bo'lganligi xususida tarixchilarda yagona fikr yo'q, lekin u IV-asr oxiri V-asr boshlarida yarim orol shimoli hamda qo'shni Lyaodun yarim oroli territoriyasini egallagan kuchli davlat bo'lgan. Koreya janubiy g'arbida Xangan va Kimgan daryolari

havzalarida ancha kuchli Pekche davlati, V-VI asrlarda yarim orolning janubiy sharqiy qismida Silla davlati paydo bo'lgan.

Xitoydan davlat boshkaruvi tizimi bilan birga, mafkura xam o'zlashtirib olingan. Koreys davlati hukmdorlariga konfutsiylik ko'proq yoqardi. Davlat xizmati uchun chinovniklar maxsus konfutsiylik maktablarida tayyorlangan. Feodal tuzum shakllanuvda muhim rol o'ynagan buddizm xam Xitoydan kirib kelgan. Koguryoda dastlabki budda rohiblari 372 yili paydo bo'lganlar.

Koguryo Xitoy xujumiga bir necha marta duchor bo'lgan. 342 yili poytaxt egallangan...

Diniy va siyosiy g'oyalar xam janubdan olingan (buddizm konfutsiylik boshqaruv tizimi). Koreyada Xitoy adabiyoti va yozuvi keng tarqalgan, hatto Xitoy iegrofligida koreys tilida yozilgan, deyiladi manbalarda<sup>32</sup>.

Yana tarixdan misol keltiradigan bo'lsak, 1945-yilda SSSR va AQSh Koreyani birgalikda boshqarish to'g'risida shartnomaga qo'l qo'yishadi. Ikki katta davlat Koreyani 38-parallel chizig'idan bo'lishib olishadi.

1950-53-yillarda bo'lib o'tgan Koreya urushi Shimol va Janub o'rtasida harbiysizlashtirilgan hudud o'tkazilishiga sabab bo'ladi. Shunday qilib bir butun Koreya davlati shimolda Kommunistik boshqaruvli Koreya Xalq Demokratik Respublikasi va janubda kapitalistik boshqaruvga ega bo'lgan Koreya Respublikasiga bo'linib ketadi.

**Birinchi respublika.** Koreya Respublikasiga 1948-yil 15-avgustda asos solingan. Li Sin Man esa KRning birinchi prezidenti etib tayinlanadi, ayni shu yilning 9-sentabrida Kim Ir Sen boshchiligidagi Koreya Xalq Demokratik Respublikasi (KXDR) tashkil topadi. 1948-yil KRning birinchi konstitutsiyasi ham qabul qilinadi.

Birinchi Respublika boshqaruv davri BMT, Xitoy va SSSRning qurolli kuchlarining faol ishtiroki bilan bo'lgan Shimoliy va Janubiy Koreya urushi bilan ta'riflanadi. Bu urush natijasida ikkala koreys davlati ham katta moddiy va iqtisodiy talafot ko'radi. Birinchi respublika 1960-yili aprel inqilobidan so'ng tugatiladi.

---

<sup>32</sup> <https://e-tarix.uz/jahon-tarixi/177-ilk-asrlarda-koreya.html>

**Ikkinchi respublika.** Talabalar inqilobidan so'ng vaqtinchalik davlat boshqaruviga Ho Chon ismli shaxs keladi. 1960-yil 29-iyulda saylov bo'lib o'tadi va unda Demokratik partiya g'alaba qozonadi. Bu esa Ikkinchi Respublikaning boshlanishiga sabab bo'ladi va prezident etib Yun Bo Son saylanadi.

**Harbiy hukumat.** Ikkinchi Respublika Davlat boshliqlarining muvafqiyatsiz olib borgan siyosati harbiylarga yoqmaydi, bu esa harbiylarning ko'tarilishiga sabab bo'ladi. 1961-yili harbiy to'ntarish bo'ladi va davlat tepasiga general-mayor Pak Chon Hi keladi.

Harbiylar hukumati davlatni demokratik boshqaruvga o'tkazishlikka hayrihox bo'ladi, bu esa 1963-yilda saylovga olib keladi. Saylov natijalariga ko'ra general Pak Koreya Respublikasi prezidenti etib saylanadi.

**Uchinchi respublika** davrida Yaponiya bilan tinchlik shartnomasi tuziladi. Koreya Respublikasi o'z hududida AQSh harbiy bazalarining joylashiga qonuniy tarzda ruxsat bergandan so'ng, AQSh bilan bo'lgan aloqalari yanada kuchayadi. Undan tahsqari, Koreya Respublikasi AQSh harbiylarining Vetnamda olib borgan urushida 320 000 askar bilan quvvatlab turadi, ya'ni Koreya Respublikasi o'z harbiylarini Vetnamga AQSh harbiylariga yordam berish uchun yuboradi. Bu esa o'z natijasini bermay qolmaydi, AQSh Koreya Respublikasini har tomonlama qo'llab-quvvatlay bo'shlaydi.

Iqtisodiyot tezlik bilan ko'tarila boshladi, ayrim iqtisodiy islohotlarning o'tkazilishi yalpi milliy mahsulotining o'sishiga olib keladi.

**To'rtinchi respublika** 1972-yili Yusin konstitutsiyasining qabul qilinishi bilan boshlanadi. Bu konstitutsiya prezidentlik boshqaruvini yanada mustahkamlaydi va keng vakolatlar beradi. Bu davr juda tez o'sib borayotgan Koreya Respublikasi iqtisodiyotining regressiyaga uchrashi bilan xarakterlanadi.

**Beshinchi respublika.** 1979-yilda general Pak o'ldirilishi bilan Koreya Respublikasida uzoq yillarga cho'zilgan siyosiy inqiroz boshlanadi. 8 yil davomida xalq demokratiya uchun kurash olib boradi. Uzoq davom etgan kurashlardan so'ng 1987-yilda Koreya Respublikasida demokratik saylovlar o'tkaziladi.

1988-yilda Seulda Olimpiada o'yinlari o'tkaziladi. Shu yillarda Xitoy va Sovet Ittifoqi bilan aloqalar tiklanadi. 1992-yilda demokratik yo'l bilan Kim Yon Sam saylanadi. Ammo uning boshqaruvi davrida davlat amaldorlari

orasida poraxo'rlik judayam kuchayib ketadi, bu esa davlatning yana siyosiy inqiroz yoqasiga olib kelinishiga sabab bo'ladi.

1997-yil Koreya Respublikasi uchun juda ham muvaffaqiyatsiz yil bo'ladi. Koreya Respublikasi iqtisodiyoti rivojlanishi pastlashib boradi, von (Koreya Respublikasi pul birligi) qadri tushib ketadi. Turizm oqimi ham ozayib boradi. 1998-yil fevral oyida prezidentlik saylovi oldidan iqtisodiy va demokratik islohotlar o'tkazishi, Shimoliy Koreya bilan aloqalarni tiklash to'g'risida va'dalar bergan Kim De Chjun yangi prezident etib saylanadi. 1998-yilning o'rtalariga kelib Koreya Respublikasi oxirgi 20 yil ichida uchramagan iqtisodiy inqiroz boshlanadi, ishsizlik va inflatsiya (pul qadrsizlanishi) kuchayib ketadi. Ammo prezident o'z va'dalarini bajarishi tufayli tez orada yana Koreya Respublikasi iqtisodiyoti ko'tarila boshlaydi. Shimoliy Koreya bilan ilk marta aloqalar o'rnatiladi. 2000-yilda Koreya Respublikasi prezidenti shaxsan KXDRga rasmiy tashrif buyuradi, bu esa ikki davlat orasida ozgina bo'lsa-da iliqlikni vujudga keltiradi.

Aynan shu prezident boshqaruvi davrida G'arb bilan siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar yanada rivojlanadi. 2002-yil prezident Kim De Chjunga tinchlik yo'nalishi bo'yicha Nobel mukofoti topshiriladi.

2002-yilda esa yangi prezidentlik saylovlari o'tkaziladi, unda No Mu Xyon g'alaba qozonadi. Uning prezidentlik boshqaruvi davrida Koreya Respublikasi iqtisodiyoti ancha rivojlanadi. Ammo 2004-yil 12-martda Janubiy Koreya Milliy Assambleyasi (Koreya Respublikasi parlamenti) vakillari Prezident No Mu Xyonni poraxo'rlik va ayrim shaxslarga siyosiy homiylikda ayblab unga qarshi ovoz beradilar. Biroq prezidentni qo'llab-quvvatlab turuvchi Uri siyosiy partiyasi Parlamentning prezidentga qarshi ovozlarini boykot qiladi. Bu holat mamalakatda parlament saylovlarining muddatdan avval o'tkazilishiga sabab bo'ladi va 2004-yil 15-aprelda saylovlar o'tkaziladi. Saylov natijalariga ko'ra Uri partiyasi parlamentdagi 299 o'rindan 152 o'rinni egallaydi. 18 yil deganda parlamentda bir partiya ko'pchilik mandatni egallaydi. Ammo 2005-yilda o'tkazilgan saylovlarda Uri partiyasi parlamentdagi ko'pchilik mandatini yo'qotadi.

2008-yilda o'tkazilgan saylov natijalariga ko'ra Seul shahrining sobiq hokimi Li Myon Bak prezident etib saylanadi<sup>33</sup>.

---

<sup>33</sup> Қапанг.: [https://uz.wikipedia.org/wiki/Koreya\\_Respublikasi](https://uz.wikipedia.org/wiki/Koreya_Respublikasi)

Endi **Shimoliy Koreyaning** siyosiy tizimiga ham ozgina to'xtalib o'tamiz.

Osiyoning Koreya yarim oroli shimolida joylashgan davlat. 1948 yil 9 sentabrda tashkil topgan bo'lib, poytaxti Pxenyan shahri.

**Mamlakatning ma'muriy bo'linishi: 9 ta provinsiya va 2 ta shahar (Pxenyan va Keson) provinsiya maqomiga ega.** 1971 yil 27 dekabrda qabul qilingan (tuzatish va qo'shimchalar) Konstitutsiya amal qiladi. Asosiy Qonunga binoan, **davlat hokimiyatining asosiy organi Oliy xalq yig'ini** umumiy va to'g'ridan-to'g'ri shakldagi saylovlar yordamida 4 yilga saylanadi. Sessiyalar orasida Oliy xalq yig'ini funksiyalarini uning doimiy kengashi amalga oshiradi.

**Koreya xalq - demokratik respublikasi davlat boshlig'i - Prezident** bo'lib, 4 yilga Oliy xalq yig'ini tomonidan saylanadi. Hozirgi kunda Kim Chen In davlatni boshqarmoqda. Prezidentning taklifiga binoan, 4 ta vitse-prezident saylanadi. Shu bilan birga, prezident taklifiga ko'ra Oliy xalq yig'ini tomonidan shakllantiriladigan davlat hokimiyatining oliy rahbariy organi bo'lgan Markaziy Xalq qo'mitasi saylanadi. Ushbu organ Prezident rahbarligi asosida ish olib boradi.

Qonun chiqaruvchi hokimiyat 687 ta deputatdan iborat bo'lgan Oliy xalq yig'ini tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu yig'inda Oliy xalq yig'ini doimiy kengashi va uning raisi saylanadi.

Koreya xalq - demokratik respublikasi hukumati Ma'muriy kengash - bosh vazir tomonidan boshqarilib, Oliy xalq yig'ini tomonidan Prezidentning taqdimi bo'yicha saylanadi yoki chaqirib olinadi. Ma'muriy kengash Prezident va Markaziy Xalq qo'mitasi rahbarligida ish olib boradi hamda Oliy xalq yig'ini oldida javobgar bo'ladi.

**Endi KXDR bugungi ijtimoiy-siyosiy hayotiga oid ayrim faktlarga murojaat qilamiz.** Shuni bilingki, 14 ta ta'qiq va cheklovlar faqat Shimoliy Koreyada mavjud. Jahonning eng yopiq davlatida nimalar mumkin emasligi yoki cheklanganligi haqida quyidagilarni haqola etamiz:

**1. Ko'k jinsi kiyish mumkin emas.** Agar jinsi olishga qurbingiz yetsa, hech kim buni ta'qiqlamaydi. Biroq, u faqat qora rangda bo'lishi mumkin, chunki mamlakatda ko'k rang jinsi ta'qiqlangan – butun dunyoda ommalashgan shimlar jahon imperializmining aksi sifatida ko'riladi. Shunga qaramay, sayyohlar moviy rang jinsilarda yurishlari mumkin, ammo Kim Ir

Sen va Kim Chen Ir haykallarini ko'rishga borish uchun baribir boshqa rangga kiyinishga to'g'ri keladi.

**2. Internetga kirish va Wi-Fi ishlatish imkoniyati yo'q.** Shimoliy Koreyada kompyuterlar va internet bor. Aniqrog'i, intranet – «Kvanmyon» kompyuter tarmog'i bo'lib, turli hisoblarga ko'ra, unda 1 000 dan 5 500 gacha saytlar qayd etilgan. Tabiiyki, boshqa davlatlarning saytlariga kirish haqida gap bo'lishi mumkin emas, bu faqatgina yuqori mansabli shaxslarga ruhsat etilgan. Shuningdek, mahalliy "Qizil yulduz" operatsion tizimi so'nggi versiyada MacOS X tizimini eslatadi. Aytishlaricha, bu Apple mahsulotlariga mehri bo'lakcha bo'lgan Kim Chen Inning hoxishiga ko'ra amalga oshirilgan. Biroq, Shimoliy Koreyada Wi-Fi mavjud emas. Oddiy aholida hattoki «Kvanmyon»ga kiradigan mobil qurilmalar ham yo'q. Bundan tashqari, KXDR uchun moslashtirilgan Xitoy planshetlarida shunchaki keraksiz bo'lgani uchun Wi-Fi va Bluetooth modullari o'chirib tashlanadi.

**3. Xorijliklar mahalliy valyutadan foydalana olmaydi.** Shimoliy Koreyaga kelgan sayyohlarga milliy valyuta – shimoliy koreys vonlaridan foydalanish ta'qiqlangan. Chet elliklar uchun mo'ljallangan mahalliy do'konlarda faqat yevro, yuan, janubiy koreys voni va, qanchalar g'alati bo'lmasin, dollarda hisob-kitob qilinadi. Lekin, koreyaliklarning o'zi xaridlar amalga oshirayotgan do'kondan nimadir sotib olish mumkin emas. Chet elliklarga, hattoki, ularning ostonasiga qadam bosish ham ta'qiqlangan.

**4. KXDRda ko'chmas mulk sotib olish mumkin emas.** Shimoliy Koreyada xonadonlar sotilmaydi (har holda rasman), ularni davlat taqsimlab beradi. Qishloqdan Pxenyanga ko'chib kelishning deyarli imkoni yo'q – bunday imkoniyat faqat ma'lum shaxslarga alohida xizmatlari uchun beriladi. Shunga qaramay, bugun mamlakat hayotining barcha jabhalarini qamrab olgan qora bozorda 70-90 ming dollarga xonadon sotib olishning iloji bor. Faqat qochoqlarning ta'kidlashicha, oddiy koreyalikning rasmiy maoshi oyiga 4 dollardan oshmaydi.

**5. Avtoullov sotib olish deyarli imkonsiz.** Shimoliy Koreya mezonida shaxsiy avtoullov egasi – juda badavlat yoki juda nufuzli odam hisoblanadi. Bu yerda hashamat sanalgan to'rt g'ildirakli harakatlanish vositasining qiymati koreyaliklar uchun haddan tashqari baland narxni tashkil etadi – mazkur sayt ma'lumotlariga ko'ra, u taxminan 40 ming dollarga teng. Hattoki, velosiped ham barchaning qurbi yetadigan vosita emas va



Pxenyandan tashqari, boshqa hududlarda kamdan-kam uchraydi. Ularning shu qadar kamki, har birida huddi avtoullovda bo'lgani kabi o'z raqami bor.

**6. Kutubxonadan bir necha yil avval chiqqan gazetani olish mumkin emas.** Kutubxonadan bir necha avval chiqarilgan gazetani topish imkonsizdir. Gap shundaki, Koreya Mehnat partiyasining yo'nalishida yuz berishi mumkin bo'lgan o'zgarishlar haqida koreys xalqining bilishi shart emas. Tushunarli sabablarga ko'ra, xorijiy nashrlar, ayniqsa, jurnallar haqida gapirishga hojat ham yo'q. Biroq, kundalik gazetalarni sotib olishning kerakgi yo'q – ularni ko'chalar yoki metrodagi maxsus peshtaxtalarda o'qish mumkin.

**7. Diniy adabiyot sotib olishning iloji yo'q.** Shimoliy Koreya – 100% dunyoviy mamlakat. Albatta, bu yerda din ta'qiqlanmagan, har holda qonuniy darajada. Bundan tashqari, Pxenyanda, hattoki, nasroniylar uchun cherkovlar ham bor. Biroq, ular qat'iy davlat nazorati ostida bo'lgan qorong'u o'rmon kabidir. Boshqa tomondan, nasroniylik chuchxe “dinining” raqibi hisoblangani bois, u qadar hushlanmaydi. Mamlakatda buddaviylik ibodatxonalar ham bor, ammo ular ko'pincha tarixiy va madaniy obidalar sifatida qabul qilinadi.

**8. Mahalliy sim-kartadan chet elga qo'ng'iroq qilish mumkin emas.** Shimoliy Koreyada uyali telefonlar kamyob narsa holatidan chiqdi. Biroq, mobil aloqa mavjudligiga qaramay, KXDR hududida bo'lgan oddiy koreyalik boshqa davlatga yoki chet ellikka qo'ng'iroq qila olmaydi. Barcha mahalliy sim-kartalar faqat mamlakat ichidagi qo'ng'iroqlar uchun mo'ljallangan. Axir, ogoh bo'lish kerak.

**9. Uyda issiq dush qabul qilish imkonsiz.** Shimoliy koreyaliklarning uylarida va xonadonlarida issiq suv ta'minoti mavjud emas – ular cho'milish uchun, odatda, mamlakatda ancha ko'p bo'lgan hammomlarga borishadi. Bundan tashqari, markaziy isitish batareyasida qo'llarni isitib olish ham ilojsiz, chunki ular shunchaki mavjud emas. Isitish uchun o'tinda ishlaydigan pechlardan foydalaniladi. Hattoki Pxenyanda ham. Kimdir boshqa Osiyo davlatlarida ham markaziy isitish tizimi yo'qligini ta'kidlashi mumkindir. Biroq, u davlatlarda zamonaviy elektr isitgichlar ishlatiladi, ammo KXDRda, hattoki poytaxtda ham elektr tanaffuslar bilan uzatiladi.

**10. Do'konlardan koka-kola sotib ololmaysiz.** 2015 yilgacha jahonda ommabop gazlangan koka-kola ichimligi savdosi rasman

ta'qiqlangan 2 davlat bo'lgan: Kuba va Shimoliy Koreya. Ozodlik orolida ichimlik sotilishi ruhsat etilganidan so'ng Koreya yarim orolining shimoliy qismi faqatgina g'oyaviy sabablarga ko'ra, do'konlarda ushbu ichimlik bo'lmagan jahondagi yagona hududga aylandi.

**11. Boshqa davlatga sayohat qilish mumkin emas.** Shimoliy Koreya aholisi samolyotga chipta olib, boshqa davlatga dam olishga ketishi mumkin emas. Bu qimmat ekanligi bilan bir qatorda, shunchaki ta'qiqlanadi. Aytish kerakki, ta'qiq mamlakat ichida erkin harakatlanishga ham ta'sir qiladi – boshqa qishloq yoki shahardagi qarindoshlarnikiga mehmonga borish uchun ruxsat olish kerak. Ba'zida koreyaliklar xorijga, Xitoy yoki Rossiyaga borishadi, ammo faqat pul topish uchun.

**12. Xorijliklar ruxsatsiz suratga olishi yoki mahalliy aholi bilan gaplashishi mumkin emas.** Albatta, keng tarqalgan fikrga zid ravishda chet ellik bilan suhbat uchun Shimoliy Koreyada qamoqqa olinmaydi va otib tashlanmaydi. Biroq, shu kabi muloqot yuz bergan taqdirda “aybdor”ning mahalliy maxsus xizmat vakili bilan jiddiy suhbatdan o'tishiga to'g'ri keladi. Agar o'zingiz o'tib ketayotgan odam bilan gaplashishga yoki uni suratga olishga urinsangiz, unda aholi tezda qochib ketadi. Umuman olganda, KXDRda hamma narsani suratga olish mumkin emas – barcha xorijliklarga biriktiriladigan gid bunga yo'l qo'ymaydi. Ayniqsa, harbiy ob'ektlar (deyarli hammasi shu maqomga ega) yoki mamlakat hayotining “yopiq” tomoni shular jumlasidandir.

**13. Homiladorlikka qarshi va gigiena vositalarini sotib olish deyarli imkonsiz.** Bunga ishonish qiyin, ammo aksariyat shimoliy koreyaliklar homiladorlikka qarshi vositalar mavjudligidan bexabar. Bunday buyumlar bir necha o'n yilliklar avval qora bozorda paydo bo'lgan, ammo yuqoridagi sabab tufayli ommalashmagan. Endilikda ularni mamlakat ichida sotib olishning deyarli imkonsiz, chunki talabning o'zi yo'q. Bundan tashqari, butun dunyoda muammosiz xarid qilish mumkin bo'lgan oddiy tamponlar kabi shaxsiy gigiena vositasini koreys do'konlaridan, xususan, mahalliy aholi uchun mo'ljallanganlarida topa olmaysiz.

**14. KXDRda o'ziga xos turmakka o'rin yo'q.** Bu holat bir oz bo'rttirilgan desak ham bo'ladi. To'g'ri, mahalliy sartaroshxonalarda ayollar va erkaklar soch turmaklarining suratlari bo'ladi, ammo ular tavsiya ma'nosida osib qo'yilgan. Boshqa tomondan, modani ko'p jihatdan malakat

yetakchisi belgilab beradi, shu bois aksariyat erkaklar huddi Kim Chen Indek turmakka ega. Ayollarda esa yana o'sha Kim Chen In tashabbusi bilan uzunligi dahangacha tushadigan kare urfga aylangan. Xususan, yetakchi koreys xonimlariga aynan shu turmak juda yarashishi aytib o'tilgan.

Shimoliy Koreya radiosida dasturlar, filmlar, teatr postanovkalari va boshqalarni uzatib beradigan bir nechta televizion va radio kanallari ham siyosiyashtirilgan<sup>34</sup>.

**Yuqoridagilar avtoritar davlatga xos, hayotda uchraydigan, isbotini topgan haqiqiy faktlardir.** Siyosiy tizim haqida yana qo'shimcha qiladigan bo'lsak, Shimoliy Koreyada butunjahon internet tarmog'i mavjud emas. Faqat davlat tomonidan targ'ib etiladigan portal ishlaydi. Bundan ham dahshatli fakt shuki, bir necha yil oldin Shimoliy Koreyada 80 ta odam Janubiy Koreya televideniesi shousini tomosha qilgani aniqlangani uchun ommaviy ravishda otib tashlangan. Hukumat bolalarni ham qo'shib hisoblaganda, **so'nggi o'n yil ichida 10 ming nafar odam siyosiy tizimga bo'ysunmagani uchun qatl etilgan. Hukumat rejimini tanqid qilgan har bir odam zudlik bilan "aqlni kiritib qo'yadigan" oromgohga yuboriladi. Mamlakat tashqarisiga chiqish ta'qiqlangan.**

**Shimoliy Koreya maktablari haqida 12 fakt mashhur<sup>35</sup>. Bular quyidagilar:**

1. Boshlang'ich sinflarda 871 akademik soat davomida Kim Chen Inning bolalik va o'smirlik yillari, siyosiy yutuqlari o'rgatiladi. O'quvchilar o'rganadigan ma'lumotlar orasida hatto Kimning 9 yoshida yaxtalar poygasida g'olib chiqqanligi ham bor;

2. Maktabda 300 dan ortiq darslar sobiq prezidentlar hayotini o'rganishga bag'ishlanadi va shu tarzda o'quvchi ongida bolaligidanoq hukmron partiyaga nisbatan muhabbat va muhtaram rahbar uchun jonini berishga tayyorlik hissi shakllantiriladi;

3. Mamlakatda Kim Chen In oilasi, ya'ni o'zi, dadasi Kim Chen Ir va bobosi Kim Ir Senlarning portretlari muqaddas hisoblanadi. Agar portretlar yong'in, to'fon yoki boshqa ofatlar paytida yo'qolsa, aybdor shaxs darhol hibsga olinadi. Ammo bironta jinoyatchi portretlarni saqlab qolsa, u millat qahramoniga aylanadi va hatto davlat mukofotiga sazovor bo'ladi;

---

<sup>34</sup>Қараһг.: <http://lifehaq.uz/> © LifeHaq.uz

<sup>35</sup>Қараһг.: <https://aniq.uz/yangiliklar/shimoliy-koreya-maktablari-haqida-12-fakt>

4. 2014 yildan buyon har qanday bilim olishga qodir bo'lgan yosh yigitlar sochlarini xuddi davlat yetakchisining o'xshab turmaklab yurishlari shart qilib qo'yilgan;

5. Bolalarga juda yoshligidan Amerikadan nafratlanishni o'rgatishadi, shu bois har bir o'spirin Amerikani Shimoliy Koreyaning ashaddiy dushmani sifatida tan oladi;

6. Har bir koreys 5 yoshidan boshlab o'z mamlakatiga "ishchilik qarzi"ni to'lashi lozim. Shu asosda 5 yashar bolalar dalalarga va polizlarga ishlashga jo'natiladi;

7. Agar ota yoki ona davlat oldida aybdor deb topilsa, farzand mehnat lageriga yuboriladi va u yerda og'ir mehnat qilishga majburlanadi. Bunday bolalar keyinchalik maktabga qabul qilinmaydi;

8. O'quvchilarga she'rlar, rahbarlarning bayonotlari, qoidalar, turli tashkilotlarga a'zo bo'lish uchun qasamyodlar yodlatiladi. O'qituvchiga o'qiganlari haqida savol berishlari va biror mavzu bo'yicha o'z fikrini bildirishlari mumkin emas. Shu sababli ham hozirgi kunda tamoman boshqa dunyoda yashayotgan qochoqlar shaxsiy fikrlarini ifoda etishda qiynalishadi;

9. Bolalar bog'chasida ilk kundan boshlab bolalarga davlat rahbari suv ustida yuradigan, granata yasaydigan va bitta tosh bilan kemalarni cho'ktirib yuboradigan milliy qahramonlar va yarim afsonaviy personajlar sifatida namoyish etiladi;

10. Mumtoz adabiyotdagi mamlakat targ'ibotiga ozgina zid parchalar darhol olib tashlanadi. Ba'zi tarixiy dalillar "qayta ishlanadi". Masalan, KXDR telekanallaridan biri kutilmaganda mamlakat terma jamoasining 2014 yilda Braziliyada bo'lib o'tgan Jahon chempionatida muvaffaqiyat qozonganligi haqida xabar bergan. O'sha xabarda aytilishicha, "Shimoliy Koreya guruhdagi uchta o'yinda g'alaba qozongan va finalga chiqqan. Finalda Portugaliyaga qarshi o'ynaydi. Koreyslar guruhda Yaponiyani 7:0, AQShni 4:0 hisobida, Xitoyni esa 2: 0 hisobida mag'lub etishgan". Aslini olganda, o'shanda Shimoliy Koreya terma jamoasi saralash bosqichidan ham o'ta olmagan edi;

11. Yangi ma'lumotlar jamlangan zamonaviy darsliklardan foydalanish mumkin emas. Aks holda, bolalar juda ko'p "ortiqcha" narsalarni o'rganib qolishlari mumkin;

12. Maktab o'quvchilari 12 yoshidan boshlab ommaviy qatllarni (otishmalar) tomosha qilishga majburlanadi va shu sahnalar orqali ongiga singdiriladi. Shunday vaziyatlarda maktablarda darslar bekor qilinadi.

**Xulosa shuki**, siyosiy tizim masalasi murakkab hodisa bo'lib, demokrat yoki totalitar ekanligiga qarab, har bir mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayoti shakllanib boriladi.

#### **Topshiriqlar:**

1. Janubiy Koreya parlament respublikasining roli
2. Janubiy Koreyaning iqtisodiy siyosatidagi ustuvor jihatlar
3. Shimoliy Koreya siyosiy tizimiga jahon mamlakatlari munosabati
4. Shimoliy Koreya prezidenti Kim Chen In qurgan yopiq jamiyatning ayrim jihatlari

### **29-MAVZU. SINGAPUR DAVLAT TUZILISHI VA SIYOSIY TIZIMI**

#### **Reja:**

- 29.1. Singapur davlatining tuzilishi va siyosiy tizimi.
- 29.2. Singapur parlamenti va siyosiy partiyalar faoliyati.
- 29.3. Ijroiya hokimiyati faoliyati va hukumat.
- 29.4. Singapur saylov tizimining o'ziga xos xususiyatlari.
- 29.5. Singapurdagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning ahamiyati.

**Tushunchalar va tayanch iboralar:** Singapurning siyosiy tizimi, Singapur davlati, Singapur Konstitutsiyasi, Xalq harakati partiyasi, "Bosh qamchi", davlat xizmatlari agentligi, ijtimoiy adolat, aybdorlik prezumpsiyasi.

**Singapurning siyosiy tizimi.** 1965 yil 9 avgustda Singapur rasmiy ravishda suverenitetga ega bo'lgan kundan keyin uning siyosatini Xalq harakati partiyasi (People's Action Party — PAP) boshqardi. 2006 yilgi saylovlarda XHP mamlakat parlamentidagi 84 o'rindan 82 tasini qo'lga kiritdi. Rahbarligining dastlabki kunlaridanoq so'nggi bir necha o'n yilliklarda kommunistlar bilan munosabatlariga qaramay, uni eng yaxshi sotsial demokratiya partiya, deb ta'riflash mumkin. Mamlakat Xalq harakati

partiyasi rahbarligida turli siyosiy madaniyat ko'rinishlari - avtoritar, pragmatikka ega bo'ldi.

Singapurning iqtisodiy o'sishi va siyosiy barqarorligi XHP partiyasi tomonidan qo'llab quvvatlab kelindi. Shunday qilib, davlat na siyosatchilar, na amaldorlar tomonidan boshqarilmaydi, balki mahorat va boy tajriba, mahsuldorlik va millatga sodiqlik orqali amalga oshiriladigan meritokratiyaga suyanadi. Singapurda turli xil diniy konfessiyalarga ega ko'p irqli aholi yashaydi, bu yerda ta'lim, uy-joy va sog'liqni saqlash sohasida barcha irq'larga adolatli munosabatda bo'lish taomilga kirgan. Maxsus guruhlar vakillik okrugi yoki Group Representation Constituency (GRC) tizimi orqali ozchilik parlamentdagi vakillik teng ekanligini kuzatib boradi. Iqtisodiyotda hukumat tomonidan boshqariladigan kompaniyalarning ustunlik qiladi. Ammo o'zining qudratli mavqeiga qaramay, hukumat pok, korrupsiyadan xoli mamlakat imijini saqlab qolgan.

Bundan tashqari, rahbariyatda kelishmovchilik juda kam uchraydi. Qaror qabul qilish tartibi konsensusga, rahbarlik uslubi esa jamoaviylikka asoslanadi. Singapur Respublikasining rasmiy davlat rahbari Prezidentdir. Sellapan Ramanatan Singapurning amaldagi prezidenti bo'lib, 1999-yil 1-sentabrda qasamyod qabul qilgan. Bosh vazir va hukumat boshlig'i esa Li Sen Lung bo'lib, 2004 yil 12 avgustda qasamyod qilgan.

**Konstitutsiya** Singapur Respublikasining oliy qonunidir. U davlatning uch organi – ijro etuvchi, qonun chiqaruvchi va sud hokimiyatlarining asosiy tamoyillari va asoslarini belgilab bergan. Konstitutsiyani ikkinchi va uchinchi o'qishda parlament a'zolarining uchdan ikki qismidan ko'prog'ining ma'qullashisiz o'zgartirish mumkin emas. O'n to'rt qismdan iborat Konstitutsiya IV-qismida Singapur fuqarolari asosiy erkinliklarining quyidagi kafolatlari yozilgan:

- shaxs erkinligi;
- qullik va majburiy mehnatni ta'qiqlash;
- retrospektiv jinoiy qonunchilik va qayta ko'rib chiqishdan himoyalanih;
- qonunning teng himoyasi;
- chiqarib yuborishni ta'qiqlash va erkin harakatlanish;
- so'z, yig'ilishlar va uyushmalar erkinligi;
- vijdon erkinligi;

- ta'lim olish huquqi.

**Singapur parlamenti.** Prezident bilan birgalikda parlament qonun chiqaruvchi organ (Legislature) sifatida tanilgan. Parlamentda parlament demokratiyasining Vestminster tizimidan namuna olingan. Vestminster tizimi umumiy saylovlarda ovozga ega bo'lgan parlament a'zolariga ega. Parlamentda eng ko'p o'rinlarni qo'lga kiritgan siyosiy partiya rahbari Singapur Bosh vaziri ((Prime Minister — PM) etib saylanadi. Bosh vazir saylangan deputatlar orasidan o'z vazirlarini tanlashi, shuningdek, Vazirlar Mahkamasini tuzishi kerak. Har bir parlament davri umumxalq saylovidan keyin birinchi majlis o'tkazilgan kundan boshlab 5 yilni tashkil etadi. Umumiy saylovlar parlament tarqatib yuborilganidan keyin 3 oy ichida o'tkaziladi. Singapur parlamenti uchta asosiy vazifani bajaradi:

- 1) qonunlar ishlab chiqish;
- 2) davlat moliyasini boshqarish;
- 3) hukmron partiya va vazirliklarning harakatlarini tekshirish uchun (tanqidiy/ayblovchi) nazoratni amalga oshirish.

**Singapur parlamentining tuzilishi.** Parlament spikeri – Parlament raisi parlament majlislariga raislik qiladi va parlament ishini tartibli olib borish uchun parlament Reglamentida belgilangan qoidalarni qo'llaydi.

Hukumat – Prezident saylangan deputatlar orasidan Bosh vazir va Vazirlar Mahkamasining boshqa a'zolarini tayinlaydi. Bosh vazir vazirlar mahkamasiga hukumat boshqaruviga rahbarlik qiladi.

Parlament rahbari - parlament palatasining rahbari hukumat ishini tartibga solish va parlamentning qonunchilik dasturlari uchun javobgardir.

"Bosh qamchi", parlamentdagi bosh partiya tashkilotchisi – partiya, partiya ichida yaxshi munosabatlarni yo'lga qo'yish va parlament mexanizmi ishtirokchilarining bir tekis ish olib borishiga hissa qo'shish maqsadida faoliyat olib boradi.

Parlament a'zolari – xalq muammolari parlamentda ko'rib chiqilishini ta'minlash orqali xalq va hukumat o'rtasida vositachi vazifasini bajaradi.

Parlament kotibiyati – Kotibiyat parlamentga o'z vazifalarini bajarishda hamda uning tartiblari va amaliyoti bilan bog'liq barcha masalalarda, o'z faoliyatini tashkil etishda hamda qo'mitalarining majburiyatlarini bajarishda yordam beradi.

**Singapurdagi siyosiy partiyalar.** Xalq harakati partiyasi (XHP) Singapurning hukmron partiyasi bo'lib, 1954-yil 21-noyabrda tashkil etilgan.

U o'z hukumatini ikki chap qanot fraksiyasi – Li Kuan Yu boshchiligidagi sotsialistik qanot va Lim Chin Sion boshchiligidagi kommunistik qanotning birligidan boshladi.

Ikkinchisi tez orada XHPdan ajralib chiqdi. XHP Singapur tarixidagi eng uzoq vaqt saqlanib qolgan va eng muvaffaqiyatli siyosiy partiyadir. 2006 yilgi saylovlarda uchta asosiy muxolif partiya - Mehnatkashlar partiyasi (Workers' Party — WP), Singapur Demokratik Alyansi (SDA) (Singapore Democratic Alliance — SDA) va Singapur Demokratik partiyasi (SDP) (Singapore Democratic Party — SDP) bor edi.

Bugungi kunga qadar Singapur siyosiy hayotining faol ishtirokchilari:

1. Demokratik taraqqiyparvar partiya – Democratic Progressive Party;
2. Milliy birdamlik partiyasi – National Solidarity Party;
3. Xalq harakati partiyasi – People's Action Party;
4. Xalq liberal-demokratik partiyasi-People's Liberal Democratic Party;
5. Islohotlar partiyasi – Reform Party;
6. Singapur Demokratik Alyansi - Singapore Democratic Alliance;
7. Singapur Demokratik partiyasi – Singapore Democratic Party;
8. Singapur adolat partiyasi - Singapore Justice Party;
9. Singapur xalq partiyasi – Singapore People's Party;
10. Singapur milliy fronti - Singapore National Front;
11. Ishchilar partiyasi - Workers' Party.

Singapurda jami 43 ta faol, nafaol va tarixiy partiyalar mavjud.

### **Singapurda saylovlar**

**Prezident saylovini** o'tkazishni tartibga soluvchi qonun hujjatlari quyidagilar:

- Singapur Respublikasi Konstitutsiyasi (Hukumat, V qism) — The Constitution of the Republic of Singapore (The Government, Part V);
- Prezident saylovi to'g'risidagi qonun — The Presidential Elections Act;
- Siyosiy xayriya akti - The Political Donations Act;



- qo'shimcha qonun hujjatlari.

Prezident Singapur fuqarolari tomonidan davlat rahbari sifatida saylanadi va 6 yil davomida hokimiyat tepasida turadi.

Prezidentlik saylovlari prezidentlik vakolatlari muddati tugagunga qadar prezidentlik lavozimi bo'shab qolganidan keyin 6 oy ichida yoki prezidentning vakolat muddati tugashiga 3 oydan ko'p bo'lmagan muddatda o'tkazilishi kerak.

**Parlament saylovini** o'tkazish to'g'risidagi qonun hujjatlari quyidagilar:

- Singapur Respublikasi Konstitutsiyasi (Hukumat, V qism) — The Constitution of the Republic of Singapore (The Government, Part V);

- Parlament saylovlari to'g'risidagi qonun — The Parliamentary Elections Act;

- Siyosiy xayriya akti — The Political Donations Act.

Faqat nomzodlarning o'zlarigina savlovoldi tashviqoti to'xtatilganidan keyin va saylov kuni boshlanishidan oldin o'z tashviqotini tahrir qilishlari mumkin.

Saylov kuni har bir saylovchiga ma'lum bir partiya uchun qaerda ovoz berishi mumkinligi to'g'risidagi ma'lumotlar yozilgan byulleten beriladi. Ovoz berish majburiy va har bir ovoz maxfiy hisoblanadi. Saylov jarayoni tugagandan so'ng saylov natijalari Hukumat gazetasida e'lon qilinadi.

**Vazirlar Mahkamasi** hukumatning barcha siyosati va davlat ishlarining kundalik boshqaruvi uchun javobgardir. Vazirlar Mahkamasiga Bosh vazir boshchilik qiladi va u vazirlardan tashkil topadi.

Turli vazirliklar ijtimoiy rivojlanish dasturlarini o'z ichiga oladi: yoshlar va sport; mudofaa, ta'lim, atrof-muhit va suv resurslari; moliya, tashqi ishlar; sog'liqni saqlash, ichki ishlar, axborot, aloqa va san'at; qonunlar, inson resurslari; milliy taraqqiyot; savdo va sanoat, transport.

Vazirlar Mahkamasi kotibi (Secretary to the Cabinet) boshchiligidagi Devonxona (Cabinet Office) tomonidan taqdim etiladigan kotibiyat va ma'muriyat Vazirlar Mahkamasiga yordam beradi.

**Davlat xizmatlari komissiyasi** (Public Service Commission — PSC) (DXK) Singapur davlat xizmati tizimining muhim elementiga kiradi. Bu davlat xizmatining yaxlitligi va qadr-qimmatini oshiradi. Davlat xizmati Singapur vazirliklari va idoralaridan iborat.

DXKga mansabdor shaxslarni tayinlash, tasdiqlash, lavozimga ko'tarish, lavozimga o'tkazish, lavozimidan ozod etish va intizomiy nazoratni amalga oshirish vakolati berilgan. Uning hayotiy roli davlat xizmatining halolligi, xolisligi va meritokratiyasini himoya qilishdan iborat. Shunday qilib, asosiy davlat amaldorlarini lavozimga ko'tarish yoki joylashtirish malakasi, tajribasi va xizmatlariga asoslanadi.

**Singapur hukumati.** Singapur davlat xizmatida jami 60,0 ming kishi ishlaydi. Davlat xizmatidagi vakant ish o'rinlariga xizmatlar, korporativ va operativ hamda ma'muriy yordam ko'rinishida o'qitish amalga oshiriladigan ijtimoiy, iqtisodiy va xavfsizlik sohalarida qabul qilinadi. Singapur mehnat resurslari vazirligining **2008 Career Compass** - davlat xizmatidagi professional ro'yxatlarni o'z ichiga olgan hujjatdir. U ish izlovchilarga Singapurdagi hozirgi va kelajakdagi ish imkoniyatlarini yaxshiroq tushunish imkonini beradi. Ko'p talab qilinadigan toifalar - inson resurslari, boshqaruvni qo'llab-quvvatlash, korporativ qo'llab-quvvatlash bo'yicha mutaxassis. Bunday kadrlarga doimiy talab oshib bormoqda.

**Singapur hukumatining biznesdagi roli.** Singapurda davlat ijtimoiy mas'uliyatni tashkil etib, korporativ amaliyotda ishtirok etadi, bu hukumatning mahalliy iqtisodiyotdagi ustun rolini belgilab beradi.

Iqtisodiy rivojlanish qonuni — **Economic Development Board Act** Singapur iqtisodiyotining o'sishi, kengayishi va rivojlanishini rag'batlantirish uchun yuzaga kelgan. Singapur hukumati iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishdagi roliga **Changi** aeroporti va **Singapore Airlines**ni misol qilib keltirsak bo'ladi. Singapur hukumati aksiyadori bo'lgan **Temasek Holdings** (54% ulush), shuningdek **Singapore Airlines** kabi kompaniyalarga sarmoya kiritadi va ularga egalik qiladi.

Biroq Singapur hukumati uning kompaniyalar boshqaruvida ishtirok etmasligi haqida muntazam gapirib keladi. Singapur hukumati, shuningdek, 1975 yilda Paya Lebar Airport aeroporti o'rniga qurilgan Changi aeroportiga egalik qiladi. Bu ikkala tashabbus ham nihoyatda muvaffaqiyatli bo'lib, Singapur hukumatining istiqbolli iqtisodiy siyosatining namunalari hisoblanadi.

**Iqtisodiy islohotlar.** Singapur Malayziya tarkibidan ajralib chiqqan paytda (**1960 yillar oxirida**) tabiiy resurslar mavjud bo'lmagan, kichik bir

ichki iqtisodiy bozorga ega edi, xolos. Aholining yarmi savodsiz, ishsizlik 14 foizga, aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot 516 AQSh dollariga teng edi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida mamlakatda 7 ta asosiy taraqqiyot yo'nalishi – moliya, transport xizmatlari, logistika, shaharsozlik, sog'liqni saqlash, raqamli iqtisodiyot va ilg'or ishlab chiqarishni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlar sifatida tanlab olingan edi.

**Avvalo, Singapur iqtisodiy taraqqiyotining eng muhim omili sifatida qulay geografik hududda joylashganini aytish kerak. Malakka bo'g'ozi ostonasida joylashgan bu hududdan jahon dengiz savdosotig'ining 40 foizi kesib o'tadi.**

Mamlakatda 1970 yil boshida belgilangan islohotlarni o'tkazish uchun mablag' zarur edi. Shu maqsadda xorijiy tadbirkor va sarmoyadorlarga turli imtiyozlar berilib, mamlakatga jalb qilindi. **«Biz har bir sarmoyadorni mamnuniyat bilan kutib oldik. Ishlab chiqarishni boshlash uchun, ularga jon-jahdimiz bilan yordam qildik»**, deb yozadi Li Kuan Yu o'z tarjimai holida.

Xorijiy sarmoyalarni mamlakatga jalb qilishni kuchaytirish maqsadida dastlabki bosqichda chet elliklar uchun yuz foiz mulkka ega bo'lish hamda topilgan foydani to'liq olib ketish uchun imkoniyatlar yaratildi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, xorijiy sarmoyadorlar uchun rasmiy imtiyozlardan ko'ra, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik, adolatli qonunchilik va ishchilar harakati uzra nazoratning mavjudligi muhimroq ahamiyat kasb etgan. Bosh vazir Li Kuan Yu topshirig'iga ko'ra, mahalliy va xorijiy tadbirkorlar o'rtasida biznesni osonlashtirishga oid so'rovlar muntazam o'tkazilgan, tadbirkorlar dardiga quloq tutilgan. Buning natijasida Singapurda tadbirkorlik faoliyati keng quloq yoydi. Tadbirkorlarning faoliyati hukumat tomonidan rag'batlantirildi. Biznes sohasida qonunchilik soddalashtirildi va mamlakatda qabul qilinadigan qonunlar manfaatdor tomonlarning fikrlarini o'rganish bilan birgalikda olib borildi. Natijada ko'pgina xalqaro transmilliy kompaniyalar Singapurda keng ko'lamlı yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarish uchun poydevor qurishadi. Ma'lumot uchun, Jahon bankining [«Biznes yuritish 2020»](#) yillik hisobotida biznes yuritish qulayligi bo'yicha Singapur 2-pog'onada qayd etiladi.

**Bugungi kunda Singapurda 5,7 million aholi istiqomat qiladi va mamlakat YaIM 379 million dollarga teng. Ishsizlik darajasi 2,6 foiz. Yillik daromad har bir fuqaroga 60 ming dollardan yuqori.**

**Ijtimoiy islohotlar.** Ko'pchilik tomonidan Malayziya tarkibidan ajralib chiqqan bu mitti mamlakat tez orada demografik tanglikka duch kelishi bashorat qilingandi. Sababi mamlakat aholisining asosini xitoyliklar va malayyaliklar tashkil etadi. Shuningdek, mamlakatda katta miqdorda hind diasporasi ham mavjud edi. Yetuk mutaxassisleri 3 ta katta sivilizatsiya vakillaridan tarkib topgan mamlakat tez orada etnik nizolar o'chog'iga aylanib qoladi, deb taxmin qilishgandi. Hukumat turli millat vakillari tinchtotuv yashashi uchun zarur choralarni ko'rdi. Ularga ba'zi imtiyozlar belgilandi. Masalan, malayyalik va xitoylik turmush qursa, ularga kollej ta'limi kafolatlandi. Bundan tashqari, bu oilalarga hukumat tomonidan ma'lum miqdorda yordam ham berildi, ya'ni turli sivilizatsiyaga mansub millatlarni bir-biri bilan aralashtirishga oid dasturlar ishlab chiqildi. Boshlang'ich iqtisodiy rejada kam daromadli odamlarga qo'shimcha ish o'rinlarini yaratish orqali ishsizlik muammosini hal qilishga e'tibor berildi.

**Ijtimoiy sohada amalga oshiradigan eng ustuvor yo'nalish sifatida hukumat dastlab uy-joy masalasiga e'tibor bera boshladi.** Shuni hisobga olgan holda uy-joy qurish loyihasi qabul qilindi. Natijada Singapurda zamonaviy uy-joylar qurila boshlandi. Uylar aholining ijtimoiy kelib chiqishiga qarab belgilandi. **Kam ta'minlangan aholiga turar joylar bepul berildi.**

Ijtimoiy sohada ustuvor yo'nalishdan ikkinchisi ta'lim tizimidir. 1966 yildan yoshlar uchun ikki tilli maktablar joriy etildi. Keyinchalik esa bu tizim kengayib to'rt tilli maktablar joriy etildi. **Ingliz tili ikkinchi ta'lim tiliga aylantirildi.** Chunki tijorat tili bo'lgan ingliz tilini o'qitish ko'pchilik otanalar uchun ma'qul edi. Ta'lim sohasidagi ekspertlarning fikricha, Singapur iqtisodiy taraqqiyot va turmush darajasini yuksaltirishni ta'lim bilan bog'ladi. Xususan, **Singapurda birinchi o'rinda ta'lim berish milliy standartlari ishlab chiqildi. Buning uchun katta mablag' sarf qilindi.** Ayniqsa, eng yaxshi o'qituvchilarni jalb etish va ularning nufuzini oshirishga avvalboshidanoq alohida e'tibor qaratilgdi. **Hozir ham Singapurda o'qituvchilarni jahonning eng nufuzli ta'lim muassasalari bitiruvchilari orasidan yollash an'anasi saqlab qolingani.** Li Kuan Yu

**“iqtidorlar rahnamosi”, “millat yetakchisi” deb xotirlanadi.** U iqtidorli fuqarolarni mas’uliyatli lavozimlarga qo’yish va ularga yaxshi maosh tayinlash masalasida to’g’ri yo’lni tutgan. Shu bilan birga, Singapurda mansabni suiiste’mol qilish ham qattiq jazolanar edi.

Ha, Li Kuan Yu (1923-2015) buyuk davlat arbobi va islohotchi edi.

### **Xulosa o’rnida**

Mamlakat rahbari Li Kuan Yu (1923-2015) boshchiligida Singapur davlati 1970-2000 yillarda katta iqtisodiy o’sishga erishdi va dunyoni lol qoldirdi<sup>36</sup>. Uddaburon yetakchilik va to’g’ri tashkil etilgan boshqaruv natijasida mazkur qashshoq davlat jahonning beqiyos qazilma boyliklariga ega bo’lgan ko’plab mamlakatlarni bir qancha sohalarda ortda qoldirdi. O’z fuqarolari uchun erkin va farovon jamiyat taqdim qildi. Halollik prinsiplari asosida yuqori salohiyatli odamlar millatga bosh bo’lishdi va keng ko’lamli ishbilarmonlik muhiti yaratildi. Misol uchun, **Singapur davlatining sobiq bosh vaziri Li Kuan Yuning poraxo’rlik bilan kurashish tajribasini bilish juda muhim**, deb hisoblaymiz.

U bunday yozadi: **“Agar korrupsiyani yo’q qilmoqchi bo’lsangiz, dastlab o’zingizning eng yaqin uch nafar do’stingizni fosh qiling. Siz nimaga shunday qilayotganingizni aniq bilasiz, ular ham xuddi shunday — nimaga fosh qilinganini aniq bilishadi”**. Singapur davlati 1965 yilda mustaqillikka erishganida uning qisqa muddatda eng rivojlangan mamlakatlar qatoridan joy olishiga shubha qilganlar ko’p bo’lgan. Ammo Singapurning sobiq bosh vaziri **Li Kuan Yu o’zining “Uchinchi dunyodan — birinchiga” kitobida** davlatning rivojlanishiga oid juda ko’p qimmatli fikrlarini o’rtoqlashgan. Vazirlik lavozimiga kelganida, dastlab ish boshlaganida esa u shunday yozadi: “Menda ikkita yo’l bor edi: birinchisi, yurtni talash, qarindosh-urug’larimni atrofimga yig’ish, ularga mansab berish, ularni “Forbes” (dunyoning eng boy odamlari ro’yxati e’lon qilinadigan jurnal) ro’yxatiga kiritish, buning evaziga xalqni hech narsasiz qoldirish. Ikkinchi yo’l, o’z xalqimga xizmat qilish va mamlakatni jahondagi 10 ta eng rivojlangan mamlakat safiga qo’shish. Men ikkinchi yo’lni tanladim”.

---

<sup>36</sup> Бу хақида муфассал қаранг.: Ли Куан Ю. Из третьего мира - в первый. История Сингапура (1965-2000). Пер. с англ. яз. А. Боня. -3-е издание.- М.: Манн, Иванов и Фербер, 2015. -576 с.

## **Li Kuan Yu o'zi o'ylaganidek Singapurni eng rivojlangan davlatlar qatoriga qo'shdi!**

Ko'pchilik undan Singapurning rivojlanib ketishiga yana nima sabab, qanday qilib ulkan davlatdan ajrab chiqib rivojlangan davlatga aylandinglar, buni qanday amalga oshirdingiz? deb so'rashganida ularga javoban shunday deydi: «...Men faqat Vatanim oldidagi burchimni bajardim. Davlat budjetini ta'limga yo'naltirdim. Muallimni eng quyi tabaqadan Singapurdagi eng yuqori martabaga ko'tardim. Davlatdagi «mo'jiza»larni amalga oshirgan insonlar — muallimlardir. Ular ilm, axloq, mehnat va haqiqatni sevadigan, kamtarin avlodni yetishtirib chiqardilar. Buning uchun ulardan minnatdormiz!»<sup>37</sup>.

Xulosamiz shuki, muallimlar avvalo, kamtar, mehnatkash, aqlli va haqiqatni sevadigan avlodni yetishtirib chiqarishlari juda zarur ekan. Albatta, buning uchun siyosiy tizim va ta'lim tizimi ham mukammal ishlangan bo'lishi talab etiladi.

Men Li Kuan Yuning “Uchinchi dunyodan — birinchiga” kitobi barcha mansabdorlar, vazirlar, o'qituvchilar, siyosatchilar stolida turadigan qo'llanma vazifasini o'taydi.

### **Topshiriqlar:**

1. Singapur konstitutsiyasi. Singapur parlament tipidagi davlat sifatida.
2. Davlat boshqaruv tamoyillari. Bir palatali parlament-qonun chiqaruvchi hokimiyatning oliy organi.
3. Vazirlar mahkamasi- ijro etuvchi hokimiyatning oliy organi. Prezident- davlat boshlig'i.
4. Singapurning sud-huquq tizimi, nazorat organlari va ularning faoliyati.
5. Singapurning saylov tizimi va uning xususiyatlari.
6. Singapurning ko'ppartiyaviylik tizimi va uning o'ziga xosligi.

---

<sup>37</sup> <http://Tafakkur.egalari.uz> 2021 йил 24 февраль.

## 30-MAVZU. TARAQQIYOTNING YANGI BOSQICHIDA O‘ZBEKISTON SIYOSIY TIZIMINING XUSUSIYATLARI

### Reja:

1.O‘zbekistonning davlat mustaqilligiga erishishi, uning rivojlanishidagi muhim bosqichlar.

2.Rivojlanishning "O‘zbek modeli" va uning o‘ziga xosligi

3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli "O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida"gi Farmoni va . va uning mazmun mohiyati.

*Tushunchalar va tayanch iboralar:* mustaqillik, suverenitet, davlat suvereniteti, strategiya, taktika, Harakatlar strategiyasi, Taraqqiyot strategiyasi, milliy xavfsizlik, millatlararo totuvlik, inson manfaatlari.

O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Abdug‘anievich Karimov (1938-2016) «Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati» nomli risolasida «O‘zbek millati azaldan o‘z fikr-zikri o‘z istiqloli uchun kurashib yashagan. Bunga moziy guvoh. Millatimiz tarixi haqidagi haqiqat, yurtimizning fidoiy, o‘z yo‘lidan, maslagidan, so‘zidan qaytmaydigan farzandlariga ochilishi lozim. Bilishimiz shart bo‘lgan tarix sahifalarini qunt bilan varaqlash hammamiz uchun ham, qarz ham farz», degan edi. Xalqimizning ming yillik tarixida ozodlik, istiqlol uchun tinimsiz kurashlar olib borilgan sahifalar juda ko‘p.

**Turkiston o‘zining keyingi bir yarim ming yillik tarixida bor-yo‘g‘i 376 yil hur mamlakat rutbasida bo‘lgan (akademik B. Ahmedov),** boshqa paytlar esa bosqinchilar zulmi ostida kun kechirgan. Xo‘sh, mustaqillikning o‘zi nima? Istiqlol nimalarga asoslanadi va uning mazmun-mohiyati nimalardan iborat? Eng avvalo shuni aytish kerakki, mustaqillik tenglik sari qo‘yilgan birinchi qadam. Chunki, tenglik bo‘lmagan joyda kimdir kimgadir tobe bo‘ladi. Mutelik bor joyda hukmronlik, o‘zgarlar hisobiga yashash kabi illatlar paydo bo‘ladi. Natijada biz so‘nggi bir yarim asr mobaynida boshimizdan o‘tkazgan mustamlakachilik dunyoga keladi. **«Tenglik» so‘zining qudrati shundaki, u odamlarning o‘zaro munosabatlaridan tortib, mamlakatlararo munosabatlargacha**

**hamma narsani me'yor-mezonga soladi, turli kamsitishlar yoki ortiqcha ta'zim-tavozega chek qo'yadi.**

**Istiqlol** — o'zaro hurmat, bir-birini tan olish, bir birini qadrlash asosida mamlakat fuqarolari o'zaro munosabatida ham, jahon davlatlari o'rtasidagi aloqalarda ham ana shu umuminsoniy qadriyatlarga tayanish, ana shu umumiy mezonlar asosida yashash demakdir.

**Mustaqillik** — jamiyatdan ajralmagan holda dunyo muammolari va o'z taqdiri bilan bog'liq bo'lgan istiqbol haqida o'ylashdir.

**Istiqlol** — erkin dunyoqarash, erkin tafakkurga suyanib yashash salohiyati demak.

**Mustaqil yashashga, mustaqil fikrlashga, o'z taqdirini o'zi belgilashga, o'z hayotini o'zi izga solishga qodir odam ziddiyatlarni osonlik bilan yengadi, dunyoning shiddatli muammolar bo'roni qarshisida dovdirab qolmaydi.**

Ana shu oddiy hayotiy haqiqatni davlat mustaqilligiga ham qiyoslash mumkin

**«O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi Qonun (1991 yil 31 avgust)** o'zbek xalqining asriy orzusi ro'yobga chiqqanligining huquqiy ifodasi bo'ldi.

Mazkur qonun asosida O'zbekistonning huquqiy holati tubdan o'zgardi. O'z mohiyatiga ko'ra bu hujjat respublika uchun vaqtincha konstitutsiya rolini ham o'ynadi. Bor-yo'g'i 17 moddadan iborat ushbu qonun suveren O'zbekiston Respublikasining asosiy belgilarini aniqlab beradi. Jumladan:

**1-moddada** O'zbekiston Respublikasi o'z tarkibidagi Qoraqalpog'iston Respublikasi bilan birga mustaqil demokratik davlat deb e'lon qilinadi.

**2-moddada** O'zbekiston Respublikasining xalqi suveren ekanligi va u respublika davlat hokimiyatining birdan-bir sohibi ekanligi haqida gapiriladi.

**3-moddada** O'zbekiston Respublikasi to'la davlat hokimiyatiga ega, o'zining milliy davlat va ma'muriy-hududiy tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv idoralari tizimini mustaqil belgilash qonunlashtirildi.

**5-moddada** O'zbekiston Respublikasida Konstitutsiya, uning qonunlari ustun ekanligi va davlat idoralarining tizimi, hokimiyatni qonun



chiqaruvchi, ijroiya va sud hokimiyatiga ajratish tartibi asosida qo‘rilganligi haqida gapiriladi.

**8; 12; 14-moddalar** O‘zbekiston mustaqilligining iqtisodiy asoslarini izohlab bergandi.

**13; 14-moddalarda** O‘zbekistonning tashqi siyosiy aloqalaridagi mustaqilligi sharhlandi.

**15-moddada** O‘zbekiston Respublikasi hududida inson huquqlari umumiy deklaratsiyasiga muvofiq holda respublika fuqaroligi joriy etilishi, u fuqarolar, millati, elati, ijtimoiy kelib chiqishi, qaysi dinga mansubligidan qat’i nazar, bir xil huquqlarga egaligi va ular respublika Konstitutsiyasi qonunlari himoyasida bo‘lishlari qonunlashtirildi.

**16-moddada** davlat ramzi bo‘lgan gerb, bayroq va madhiya hamda davlat tili haqida gap ketadi.

**17-moddada** O‘zbekistonning Qoraqalpog‘iston bilan munosabatlari xususida so‘z borib, O‘zbekiston Qoraqalpog‘istonning hududiy yaxlitligini tan olishi haqida fikr yuritiladi, u O‘zbekiston tarkibida ekanligi e’tirof etiladi (*bu moddada O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston o‘zaro munosabatlari ikki tomonlama tenglik asosida tarkib topishi kerakligi qonunlashtirilgan*).

*Bunday Qonunning qabul qilinishi Mustaqillik davrida qo‘lga kiritilgan yutuqlarning natijasidir. Bu esa huquqiy, iqtisodiy hamda ma’naviy -axloqiy munosabatlarning natijasi sifatida ulkan ahamiyatga ega.*

**Taraqqiyotning “O‘zbek modeli” yaratilishining siyosiy-ijtimoiy asoslari va konseptual zaminlari.** O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning «O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li» (1992), «O‘zbekiston - bozor munosabatlariga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li» (1993) nomli ilk asarlarida islohotlarni amalga oshirishning 5 ta tamoyilidan iborat “O‘zbek modeli” chuqur va atroflicha ilmiy asoslandi.

O‘zbekiston – kelajagi buyuk davlat. Bu – mustaqil, demokratik, huquqiy davlatdir. Bu - insonparvarlik qoidalariga asoslangan, millati, dini, ijtimoiy ahvoli, siyosiy e’tiqodlaridan qat’iy nazar fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta’minlab beradigan davlatdir.

**Xalq davlat hokimiyatining manbaidir.** Uning xohish-irodasi davlat siyosatini belgilab beradi. Bu siyosat inson va jamiyatning farovonligini,

O'zbekiston barcha fuqarolarining munosib turmushini ta'minlashga qaratilgan bo'lishi kerak"<sup>38</sup>

Tarixdan ma'lumki, o'z mamlakati milliy manfaatlarini hisobga olmay, Vatan taraqqiyoti va xalq farovonligini ta'minlab bo'lmaydi. Turli xorijiy mamlakatlar taraqqiyot modeliga ko'r-ko'rona tayanib, ish tutgan MDH doirasidagi ayrim mamlakatlarda islohotlarda depsinish hollari, tashqi qarzga botish, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida zaif tomonlarini oshkor qildi.

XX asr boshlarida mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishining Amerika va Yevropa modellari, Ikkinchi jahon urushidan keyin esa o'ziga xos Germaniya va Yaponiya modellari shakllandi. Keyinchalik o'zini to'liq oqlagan Janubiy Koreya, Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari taraqqiyot modernizatsiya modellari yuzaga keldi. Shuningdek, mustaqillikka erishgan Osiyo va Afrika mamlakatlarida ko'proq boshqa modellardan andoza olingan yo'llar tanlandi.

Lekin ushbu davlatlar tajribasi biron bir davlatning rivojlanish yo'lini to'g'ridan-to'g'ri qabul qilib bo'lmasligini amalda isbotladi. Yuqorida ko'rib chiqilgan bozor iqtisodiyotiga o'tishning turli modellari barcha mamlakatlarni bitta manzilga – erkin bozor iqtisodiyoti tizimiga olib keladi. Ammo, bozor munosabatlari shakllanishining ijtimoiy-iqtisodiy, tarixiy, milliy va xalqaro sharoiti hamda fuqarolarning siyosiy ongi, madaniyati va darajalari har xil bo'lganligi tufayli, biror mamlakatning taraqqiyot modelini qabul qilib bo'lmaydi. Fransiyada chop etiladigan «Liberason» gazetasi muxbirining «Turkiya modeli» xususida bergan savoliga O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov quyidagicha javob bergan edi: «Turkiya bozor munosabatlari yo'lga o'tib erishgan tub o'zgarishlari bilan ham hurmatga loyiqdir. Biroq, mustaqil O'zbekiston Turkiya yo'lidan ko'r-ko'rona nusxa ko'chirmoqchi emas. Odamzod birovning bo'yiga qarab o'ziga to'n bichmaydi».

O'zbek modeliga xos tamoyillar quyidagilar:

**1-tamoyil**, iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi-mafkuradan holi ekanligi.

**2-tamoyil**, davlat bosh islohotchi.

---

<sup>38</sup> Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли. -Т.: Ўзбекистон, 1992. –Б. 15-16.

**3-tamoyil**, qonun ustuvorligi.

**4-tamoyil**, kuchli ijtimoiy siyosat.

**5-tamoyil**, bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish.

**Milliy rivojlanish ushbu bosqichlardan iborat bo'ldi:**

**1-bosqich: O'tish davri va milliy davlatchilik asoslarini shakllantirish davri (1991-2000 yillar)**

O'zbekistonda davlat rahbari boshchiligida qisqa vaqt ichida Sovet davridagi ma'muriy-buyruqbozlik tizimiga barham berildi, milliy davlatchilikni shakllantirishning huquqiy asoslari yaratildi, davlat xokimiyatining qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud xokimiyati tarmoqlari tashkil etildi, ijtimoiy va fuqarolik institutlari faoliyati yo'lga qo'yildi, iqtisodiyotni erkin bozor munosabatlariga o'tkazish jarayoni amalga oshirildi.

Eng muhimi aholining ongi va dunyoqarashida "tub o'zgarishlar ro'y berdi, odamning o'zi o'zgardi".

Bu yangilanish va islohotlarga 5 tamoyil asos qilib olingan edi. Asosiy maqsad sari xarakterimizning birinchi qadamlarida quyidagi vazifalar uddalandi:

- ✓ Asosiy qonunimiz qabul qilindi;
- ✓ Hokimlikning samarali tizimi joriy etildi;
- ✓ Sud hokimiyati tizimi shakllantirildi;
- ✓ Milliy xavfsizlik tizimi barpo etildi;
- ✓ Neft va g'alla mustaqilligi ta'minlandi;
- ✓ Milliy qadriyatlarimiz, tilimiz, dinimiz, tariximiz tiklandi;
- ✓ Bozor iqtisodiyotining asoslari, infrastrukturasi, bank-moliya tizimi, xususiylashtirish jarayoni natijasida ko'p ukladli iqtisodiyot, mulkdorlar sinfi shakllandi, milliy valyuta muomalaga kiritildi.

- ✓ Kuchli iqtisodiy siyosat amalga oshirildi;
- ✓ O'zbekiston qurolli kuchlarini shakllantirishga alohida ahamiyat qaratildi;

- ✓ Tashqi siyosat va diplomatik xizmatni shakllantirishga ham kuchli e'tibor berilib,

- ✓ Tashqi ishlar vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi tuzildi.

**2-bosqich: Faol demokratik yangilanishlar va mamlakatni modernizatsiya qilish davri (2001-2010 yillar).**

Mazkur bosqichning muhim vazifalari siyosiy, iqtisodiy xayot, davlat va jamiyat qurilishining barcha jabxalarini yanada demokratlashtirish va erkinlashtirish, mustaqil sud tizimini mustahkamlash, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, fuqarolarning iqtisodiy va siyosiy faolligini oshirish, fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishdan iborat. Bunda:

✓ Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyatiga bosqichma-bosqich o'tish davlat tizimini isloh etishning hal qiluvchi vazifasiga aylandi.

✓ Oliy Majlis ikki palatali bo'lishi ta'minlandi.

Quyi palata Qonunchilik palatasi muntazam faoliyat olib boruvchi professional organga, Senat fuqarolar manfaatini ifoda qiladigan vakillik organiga aylantirildi:

✓ Prezident vakolatlarining bir qismini Senatga o'tkazish, Bosh vazir huquq va vakolatlarini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etdi.

✓ "Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish, mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalar rolini kuchaytirish to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonunning qabul qilinishi demokratik islohotlarni chuqurlashtirishda hal etuvchi rol o'ynadi.

✓ Siyosiy partiyalar fuqarolarning siyosiy va ijtimoiy faolligini oshirish, ayniqsa aholining saylov jarayonlarida xoxish-irodasini ifodalash, hokimiyat organlarini shakllantirishning muhim ta'sir o'tkazuvchi vositasiga aylandi.

✓ Iqtisodiy jazo choralari kengaytirildi.

✓ 2008 yil 1 yanvardan o'lim jazosi bekor qilindi.

✓ Sanksiya berish xuquqi prokuraturadan sudga o'tkazildi.

✓ Fuqarolik jamiyati institutlari tizimi yanada rivojlandi. Ularning fuqarolar manfaatlarini himoya qilish, muxim ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish borasidagi faoliyati uchun zarur xuquqiy baza va kafolatlar yaratildi.

**3-bosqich: mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish davridir (2010 yildan hozirgacha davom etmoqda).**

O'tgan davr ichida uchta buyuk tarixiy hujjat:

«Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi» (2010 yil 12 noyabr) qabul qilindi.

“O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmon (2017 yil 7 fevral) qabul qilindi.

“2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmon (2022 yil 28 yanvar) qabul qilindi.

**Rivojlanish nima va u qanday ta‘minlanadi? Uning barcha jamiyatlar uchun umumiy yoxud qandaydir alohida qonuniyatlari mavjudmi? Rivojlanishni ta‘minlovchi qanday ijtimoiy omillar va talablar hukmronlik qiladi?**

**Rivojlanish** – bu bir sifatdan ikkinchi bir sifatga yoki bir holatdan boshqa bir holatga o‘tishda tabiat va jamiyatda sodir bo‘ladigan o‘zgarishlar hamda harakatlar turi. Falsafaning hukmron tasavvurlariga ko‘ra materiya va ongning yaxlit holatda rivojlanishi spiralsimon cheksizdir. Zero, uning orqaga qaytishi va turg‘unligi e‘tirof etilsada, uning tamoyillari oddiylikdan murakkab shakllar tomon o‘sib boradi. Ya‘ni u rivojlanish ob‘ektning o‘zida mavjud bo‘lgan harakatlarga asoslanadi.

• **“Strategiya” tushunchasi yunoncha so‘zdan olingan bo‘lib aslida “jang san‘ati”** ma‘nosini bildiradi. Bugungi kunga kelib “strategiya” keng tushuncha bo‘lib, turli siyosiy-ijtimoiy sohalarda qo‘llaniladi. Jumladan, “Davlat strategiyasi” siyosiy terminologiya sifatida bugungi kunda fan nazariyasi va amaliyoti darajasida o‘zining alohida tushuncha va kategoriyalariga ega bo‘lib, ma‘nolari quyidagilar:

- Uzoqqa mo‘ljallangan rejalashtirish san‘ati.
- Boshqaruv va rahbarlik mahorati san‘ati.
- Siyosiy va ijtimoiy jarayonlarni idora qilish san‘ati.
- Aholini ma‘lum maqsadlar sari safarbar etish san‘ati.
- Mavjud resurslardan oqilona foydalanish san‘ati.
- Taqsimlash va samaradorlikni ta‘minlash san‘ati.

XXI asrga kelib strategiya tushunchasi ancha kengaydi.

**Strategiya deganda dunyo miqiyosida va davlat ichki hayotidagi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hamda boshqa sohalarda vujudga kelgan inqiroziy vaziyatlarni prognozlashtirish va bartaraf etishga qaratilgan boshqaruvni tashkil etish masalalari tushuniladi.**

“Siyosat”, “doktrina”, “milliy manfaatlar”, “milliy xavfsizlik”, “modernizatsiya”, “innovatsiya” tushunchalari davlat strategiyasining mohiyatini belgilaydi.

**Davlat strategiyasi** aniq maqsadlarni belgilash imkoniyatini yaratuvchi vositalarni tanlash asosida samarali boshqaruv ta'minlash orqali jamiyatning ijtimoiy asoslarini rivojlantirishga, mamlakat suvereniteti hamda xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan kompleks harakatlar majmuidir.

• **Strategiyaning mohiyati** taktik vazifalarni belgilashdan iborat. Siyosat, strategiya va taktika – strategik rahbarlik va boshqaruv jihatlari bilan bog'liq uchta mustaqil kategoriyadir.

Ularning farqi shundan iborat:

**Strategiya** tasdiqlangan va amalga oshirish uchun qubul qilingan bo'lsa, uning joriy qilinishi strategiyalashtirilayotgan ob'ektning yo'l ko'rsatuvchisiga, mayog'iga aylanadi.

**Taktika** strategik vazifalarni amalga oshirish bo'yicha kundalik, oylik va yillik (joriy) rejalarni va ularning yechimi bo'yicha tadbirlarni taqozo etadi. Siyosat – bu strategiya va taktikani yagona samarali amal qiluvchi tizimga agregatsiya va integratsiya qilinishidir.

Ya'ni: **Strategiya + Taktika = Siyosat.**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 4947-son Farmoni 2017 yil 7 fevralda qabul qilindi<sup>39</sup>. U quyidagi 5 ta yo'nalishlardan iborat:

I. Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirish;

II. Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish;

III. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish;

IV. Ijtimoiy sohani rivojlantirish;

V. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish.

O'tgan yillar ichida mazkur Davlat dasturining barcha chora-tadbirlarini amalga oshirishga **37,7 trillion so'm va 8,3 milliard AQSh dollari** yo'naltirildi.

Islohotlarni bosqichma-bosqich davom ettirish maqsadida yangi hujjat: **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Prezidentining 2022 yil 28**

---

<sup>39</sup> ПФ-4947-сон 07.02.2017. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида (lex.uz)

yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni qabul qilindi<sup>40</sup>. Unda yozilganidek, mamlakatimizni 2017-2021 yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha [Harakatlar strategiyasi](#) doirasida o'tgan davr mobaynida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh etishga qaratilgan 300 ga yaqin qonun, 4 mingdan ziyod O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari qabul qilindi. Shuningdek, inson huquqlarini ta'minlash, davlat organlarining hisobdorligi va ochiqligini kuchaytirish hamda fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalarining roli, aholi va jamoat birlashmalarining siyosiy faolligini oshirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirildi.

Davlat boshqaruvi organlarining «**Davlat – inson uchun**» tamoyili asosida hududiy masalalarni hal qilishdagi mas'uliyati va javobgarligini kuchaytirish hamda ularning strategik yo'nalishlarni rejalashtirishga qaratilgan yangi tizim yaratish maqsadida:

barcha bo'g'indagi davlat boshqaruvi organlarining bir yillik ish dasturini, shu jumladan jamoatchilik ishtirokida ishlab chiqish, ularning ijro holatini doimiy e'lon qilib borish amaliyoti yo'lga qo'yildi;

davlat organlarida murojaatlarni tahlil qilish, ijtimoiy so'rovlar va jamoatchilik muhokamalarini o'tkazish natijalaridan kelib chiqib, hududlar (tuman, shahar, qishloq va mahalla) kesimida o'z tuzilmalarining faoliyati bo'yicha dasturlar ishlab chiqilib, e'lon qilib boriladi;

davlat boshqaruvi organlari tomonidan qabul qilinayotgan qarorlarning ijro etilishi jarayonini jamoatchilik tomonidan kuzatib borish, shu jumladan ommaviy axborot vositalarida muntazam e'lon qilib borish tizimi yaratiladi;

har bir tarmoq va hudud bo'yicha qabul qilingan dasturlar ijrosi yuzasidan rahbarlarning hisobot berish tizimi yo'lga qo'yildi.

Mamlakatimizda jamiyatni modernizatsiyalash, isloh etish jarayonlari izchil va tizimli ravishda davom etmoqda.

---

<sup>40</sup> ПФ-60-сон 28.01.2022. 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида (lex.uz)

### **Topshiriqlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruvi tizimi faoliyatining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari.

2. O'zbekiston davlati hududiy tashkil etilishining o'ziga xosligi. O'zbekistonning siyosiy tizimi: institutsional o'lchov.

3. Davlat suvereniteti. Davlat qurilishi va jamiyatni tashkil etishda milliy komponent.

4. Taraqqiyotning yangi bosqichida siyosiy tizim faoliyatining xususiyatlari. Siyosiy tizimdagi tub o'zgarishlar.

5. O'zbekistonda Harakatlar strategiyasi (2017) va Taraqqiyot strategiyasi (2021)ga oid Farmonlarning qabul qilinishi. Tarixiy hujjatlarning mazmun-mohiyati va vazifalari.



## **MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI**

### **Mustaqil ta'limni tashkil etish bo'yicha tavsiyalar**

Mustaqil ta'limning turli xil shakllari mavjud bo'lib, bunda asosiy e'tibor talabanning berilgan seminarlar (amaliy masalalar, topshiriqlar va keys-stadilar)ni mustaqil ravishda, ya'ni auditoriyadan tashqarida bajarishi, o'qib o'rganishi va shu yo'nalish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini chuqurlashtirishiga qaratiladi. Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning hususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik yoki o'quv qo'llanmalar bo'yicha fanlar boblari va seminarlarini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha fanlar bo'limlari yoki seminarlari ustida ishlash;
- seminarlar bo'yicha referat, esse, taqdimotlar tayyorlash;
- ilmiy anjumanlarga ilmiy maqolalar va tezislar tayyorlash.

Mustaqil ishni bajarishda bo'lajak mutaxassislariga kerakli maslahatlar va ko'rsatmalar berish, ishni kerakli darajada tashkil qilishlariga imkoniyat yaratish, ularning individual yutug'ini qayd qiluvchi baholash talab etiladi.

Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni, o'qitishning interfaol usullarini qo'llash talaba tomonidan mustaqil tanlanadi. Talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish tizimli tarzda, ya'ni uzluksiz va uzviy ravishda amalga oshiriladi. Talaba olgan nazariy bilimni mustahkamlash uchun mustaqil ravishda tayyorgarlik ko'rish kerak.

### **Mustaqil ish uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi**

#### **(jami 324 mavzu):**

1. Jamiyat tizimliliigi haqidagi g'oyalarning paydo bo'lishi va rivojlanishi.
2. Siyosiy partiya tushunchasi va mohiyati.
3. Qadimgi davr olimlarining tizim haqidagi qarashlari.
4. Davlat ijtimoiy-siyosiy tizimlarning sub'ekti sifatida.
5. Avtoritarizm ijtimoiy-siyosiy tuzumning alohida turi sifatida.
6. «Tizim» tushunchasi haqidagi qarashlarning evolyusiyasi.
7. Prezidentlik instituti tushunchasi va uning mohiyati.

8. Demokratiya jamiyat siyosiy tizimining boshqaruv shakli sifatida.
9. D.Istonga ko'ra siyosiy tizim rivojini tahlil qilishning tizimli yondashuvi.
10. Ijro etuvchi homiyat tushunchasi va mohiyati.
11. Siyosiy tizimlar tipologiyasi.
12. Siyosiy partiyalar jamiyat siyosiy tizimining ajralmas qismi sifatida
13. Totalitarizm ijtimoiy-siyosiy tuzumning alohida turi sifatida.
14. O'zbekistonda parlament faoliyati va uning xususiyatlari.
15. G.Almondga ko'ra siyosim tizimning funksiyalari.
16. T.Parsons ijtimoiy tizim konsepsiyasining tahlili.
17. Parlamentarizm siyosiy hokimiyat legitimligining omili sifatida.
18. Siyosiy tizim va fuqarolik jamiyati.
19. Jamiyatni tizimli tahlil qilishning o'ziga xos xususiyatlari.
20. "Fraksiya", "muxolifat", "elektorat" tushunchalarining mohiyati.
21. K.Doychga ko'ra siyosiy tizimning kibernetik modeli.
22. Ijro etuvchi hokimiyat va uning vakolatlari.
23. Siyosiy tizim tahliliga institutsional va tizimli yondashuvlar.
24. Totalitarizm ijtimoiy-siyosiy tuzumning alohida turi sifatida.
25. Davlat boshlig'i – prezidentlik instituti.
26. O'tish tipidagi siyosiy tizimlar.
27. «Tizim» tushunchasi haqidagi qarashlarning evolyusiyasi.
28. Prezidentlik Respublikasi va uning o'ziga xos xususiyatlari.
29. Siyosiy tizimlarni tahlil qilishda modernizatsiya nazariyalari.
30. Davlat ijtimoiy-siyosiy tizimlarning sub'ekti sifatida.
31. Demokratiya jamiyat siyosiy tizimining boshqaruv shakli sifatida.
32. Jamiyat siyosiy tizimining tuzilmaviy komponentlari.
33. OAV axborot tarqatishning va jamoatchilik fikri ni shakllantirishning asosiy vositasi.
34. T.Parsons ijtimoiy harakat nazariyasining tahlili.
35. Ochiq va yopiq siyosiy tizimlarning zamonaviy xususiyatlari.
36. Siyosiy hokimiyat legitimligi tushunchasi va turlari.
37. Prezidentning umumiy belgilari va prezidentlik boshqaruvining o'ziga xos xususiyatlari.
38. T.Parsons ijtimoiy tizim konsepsiyasining tahlili.

39. Siyosiy modernizatsiya nazariyalari va modernizatsiya turlari.
40. Siyosiy tizimda davlat boshqaruvi.
41. Ijro etuvchi hokimiyat organlari va ularning faoliyati.
42. Sh.Ayzenshtadtlarning siyosiy tizim tasnifi.
43. Parlament tushunchasi mohiyati va uning faoliyati.
44. Siyosiy tizimning tuzilishi: institutsional, me'yoriy, kommunikativ, siyosiy-madaniy, funksional quyi tizimlar.
45. Demokratiya va uning modellari.
46. Jamiyatning ijro etuvchi organlari tizimi.
47. Siyosiy tizimga "kirish"da siyosiy talablarni ifodalovchi va jamlovchi (artikulyatsiya va agregatsiya) agentlari.
48. Siyosiy rejim (tartibot) tushunchasi va turlari.
49. Siyosiy tizim fanining boshqa ijtimoiy fanlar bilan o'zaro aloqadorligi.
50. Modernizatsiya bosqichlari va undagi asosiy qarama-qarshiliklar
51. Siyosiy partiya tushunchasi va mohiyati.
52. «Tizim» tushunchasi to'g'risidagi qarashlar evolyusiyasi.
53. Siyosiy rivojlanish va modernizatsiya o'rtasidagi munosabatlar.
54. Parlament instituti faoliyati: asosiy huquqiy normalar.
55. Parlamentarizm institutini me'yoriy tartibga solish masalalari:
56. Modernizatsiya: asosiy tushunchalar.
57. Siyosiy partiyalarning huquqiy asoslari.
58. Parlamentarizm siyosiy hokimiyat legitimligining omili sifatida.
59. Siyosiy tizimlar tipologiyasi.
60. Partiyalar tasnifi. .
61. «Tizim» tushunchasining ta'rifi. Tizim sifatleri.
62. Siyosiy hokimiyatning tuzilishi: sub'ekt, ob'ekt va resurslar.
63. Parlamentarizm institutining jamiyat siyosiy tizimini rivojidadagi roli. Davlat tushunchasi va paydo bo'lishi nazariyalari.
64. Siyosiy tizimga "kirish"da siyosiy talablarni ifodalovchi va jamlovchi (artikulyatsiya va agregatsiya) agentlari.
65. Siyosiy partiyalarning demokratik institutlar rivojlanishidagi o'rni va ahamiyati.
66. Boshqaruv turiga ko'ra davlatning shakllari va ularning xususiyatlari.

67. Siyosiy tizimlarning G.Almond, J. Blondelga ko'ra tasnifi.
68. Partiyaviy tizimlarning tipologiyasi.
69. Demokratiya va uning asosiy modellari.
70. Siyosiy rivojlanish va modernizatsiya o'rtasidagi munosabatlar.
71. Davlatning tuzilishi va funksiyalari.
72. O'zbekistonda siyosiy partiyalar faoliyatining huquqiy asoslari.
73. Siyosiy tizimning "kirish" va "chiqish" impulslari.
74. Siyosiy hokimiyat legitimligi tushunchasi va turlari.
75. Parlamentarizm institutining mohiyati.
76. Siyosatning kommunikativ quyi tizimini tavsiflash.
77. Davlat ijtimoiy-siyosiy tizimlarning sub'ekti sifatida.
78. Ijro etuvchi hokimiyat organlari va ularning faoliyati.
79. D. Iston "kirish-chiqish" siyosatining tizimli modeli.
80. Davlat tushunchasi va uning paydo bo'lishidagi asosiy yondashuvlar.
81. Siyosatni tizimli tahlil qilishning asosiy xususiyatlari.
82. Prezidentning zamonaviy siyosiy tizimlardagi konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi va ahamiyati.
83. Hokimiyat tushunchasi va uning asosiy talqinlari.Siyosiy tizim tahliliga institutsional va tizimli yondashuvlar.
84. Parlament Respublikasi va uning xususiyatlari.
85. Siyosiy hokimiyat tushunchasi va uning resurslari.
86. Aralash turdagi Respublikalar va ularning o'ziga xos xususiyatlari.
87. Modernizatsiyalash paradigmasining inqirozi.
88. Siyosiy rejimlar tipologiyasi.
89. Me'yoriy quyi tizim elementlari.
90. Ijro etuvchi hokimiyat belgilari va funksiyalari.
91. Hokimiyat tushunchasi va uning asosiy talqinlari.
92. Avtoritarizm nodemokratik siyosiy rejim turi sifati.
93. G.Almondga ko'ra siyosim tizimning tuzilmaviy-funksional modeli.
94. Parlamentarizm institutini me'yoriy tartibga solish masalalari.
95. D.Istonga ko'ra siyosiy tizim rivojini tahlil qilishning tizimli yondashuvi.
96. Avtoritarizm ijtimoiy-siyosiy tuzumning alohida turi sifatida.

97. «Siyosiy tizim» fanini o'rganishning ahamiyati.
98. Zamonaviy jamiyatda davlat hokimiyatining vakillik organini shakllantirish masalalari
99. Totalitarizm ijtimoiy-siyosiy tuzumning alohida turi sifatida.
100. Siyosiy partiyalarning demokratik institutlar rivojlanishidagi o'rni va ahamiyati.
101. Demokratiya jamiyat siyosiy tizimining boshqaruv shakli sifatida.
102. Partiyaviy tizimlarning tipologiyasi.
103. K.Doychga ko'ra siyosiy tizimning kibernetik modeli.
104. Siyosiy tizim tahliliga institutsional va tizimli yondashuvlar.
105. Saylov tizimining demokratlashuvi partiyaviy tizim rivojining asosiy omili sifatida.
106. Hokimiyat tushunchasi va uning asosiy turlari.
107. O'zbekiston Respublikasi siyosiy tizimining faoliyati va dinamikasi.
108. T.Parsons ijtimoiy tizim konsepsiyasining tahlili.
109. Siyosiy rejim tushunchasi va turlari.
110. Parlamentarizm siyosiy hokimiyat legitimligining omili sifatida.
111. Siyosiy rejim institutsional tuzilish usuli sifatida.
112. Tuzilmaviy-funksional va tizimli yondashuvlar .
113. Jamiyatning ijro etuvchi organlari tizimi.
114. Avtoritarizm ijtimoiy-siyosiy tuzumning alohida turi sifatida.
115. Siyosiy tizim fani siyosatshunoslikning asosiy tarkibiy qismi sifatida yuzaga kelishi.
116. Siyosiy tizim fanining boshqa ijtimoiy fanlar bilan o'zaro aloqadorligi.
117. Talablar va qo'llab-quvvatlash, rejimni qo'llab-quvvatlash manbalari.
118. Siyosiy tizimlarning siyosiy rejimlar turiga ko'ra tasnifi.
119. "Fraksiya", "muxolifat", "elektorat" tushunchalarining mohiyati.
120. Modernizatsiya bosqichlari va undagi asosiy qarama-qarshiliklar
121. Hokimiyat tushunchasi va uning asosiy talqinlari.
122. Davlatning konstitutsiyaviy tuzilishi va huquqiy tizim asoslari.
123. Totalitarizmning mohiyati va tarixiy shakllari.

- 124.** «Tizim» tushunchasi to‘g‘risidagi qarashlar evolyusiyasi.
- 125.** Jamiyat siyosiy tizimining institutsional: davlat, siyosiy partiyalar, ijtimoiy-siyosiy harakatlar komponentlari.
- 126.** «Tizimlarning umumiy nazariyasi» konsepsiyasi.
- 127.** “fraksiya”, “muxolifat”, “elektorat” tushunchalarining mohiyati.
- 128.** Parlament vakolati, uni shakllantirish tartibi, deputatlik vakolatlari, ularning saylovchilar va umuman aholi bilan o‘zaro munosabati xarakteri.
- 129.** Siyosiy qo‘llab-quvvatlash ob‘ektlari va uning turlari.
- 130.** Siyosiy partiya tushunchasi va mohiyati.
- 131.** Ijro etuvchi hokimiyat belgilari va funksiyalari.
- 132.** Ijtimoiy va siyosiy tizimlarni tahlil qilishda tuzilmaviy-funksional yondashuvning prognostik imkoniyatlari.
- 133.** Partiyalar tasnifi.
- a. Siyosiy tizim fanining boshqa ijtimoiy fanlar bilan o‘zaro aloqadorligi.
- 134.** Prezidentlik instituti tushunchasi va uning mohiyati.
- 135.** Siyosiy partiyalarning huquqiy asoslari.
- 136.** Tizimli yondashuv va tizimli tahlil tamoyillari.
- 137.** Ijtimoiy harakatning tuzilishi.
- 138.** Parlamentarizm institutini me‘yoriy tartibga solish masalalari: parlament vakolati, uni shakllantirish tartibi, deputatlik vakolatlari, ularning saylovchilar va umuman aholi bilan o‘zaro munosabati xarakteri.
- 139.** Boshqaruv shakliga ko‘ra prezidentlik, aralash va parlamentar davlatlarning o‘ziga xos xususiyatlari.
- 140.** Siyosatning kommunikativ quyi tizimini tavsiflash.
- 141.** Ijro etuvchi hokimiyat organlari.
- 142.** Parlamentarizm institutining jamiyat siyosiy tizimini rivojidadagi roli.
- 143.** Jamiyat tizimliliigi haqidagi g‘oyalarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi.
- 144.** Siyosiy partiyalarning demokratik institutlar rivojlanishidagi o‘rni va ahamiyati.
- 145.** T.Parsonsning ijtimoiy harakat va ijtimoiy tizim konsepsiyasi.

- 146.** Postsotsialistik jamiyatlarning transformassiyalashuvi jarayonlarida iqtisodiyot va siyosat o'rtasidagi munosabatlar.
- 147.** Hokimiyat legitimligi tushunchasi va uning turlari.
- 148.** Prezidentning zamonaviy siyosiy tizimlardagi konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi va ahamiyati.
- 149.** Siyosiy tizimning anglo-amerikan va kontinental yevropa modellarining o'ziga xos xususiyatlari.
- 150.** Qadimgi davr olimlarining tizim haqidagi qarashlari.
- 151.** Modernizatsiya tushunchasi va uning mohiyati, bosqichlari va undagi asosiy qarama-qarshiliklar.
- 152.** Avtoritarizm ijtimoiy-siyosiy tuzumning alohida turi sifatida.
- 153.** «Tizim» tushunchasi haqidagi qarashlarning evolyusiyasi.
- 154.** Demokratiya jamiyat siyosiy tizimining boshqaruv shakli sifatida.
- 155.** Siyosiy partiyalar siyosiy tizimning ajralmas qismi sifatida.
- 156.** D.Istonga ko'ra siyosiy tizim rivojini tahlil qilishning tizimli yondashuvi.
- 157.** Ijtimoiy tizim nazariyasi asoschilarining g'oyalari.
- 158.** Siyosiy tizimlar tipologiyasi.
- 159.** Siyosiy partiyalar jamiyat siyosiy tizimining ajralmas qismi sifatida .
- 160.** Totalitarizm ijtimoiy-siyosiy tuzumning alohida turi sifatida.
- 161.** Parlamentarizm institutining mohiyati va xususiyatlari.
- 162.** G.Almondga ko'ra siyosim tizimning funksiyalari.
- 163.** Jamiyat tizimliliigi haqidagi g'oyalarning paydo bo'lishi va rivojlanishi.
- 164.** Siyosiy partiya tushunchasi va mohiyati.
- 165.** Qadimgi davr olimlarining tizim haqidagi qarashlari.
- 166.** Davlat ijtimoiy-siyosiy tizimlarning sub'ekti sifatida.
- 167.** Avtoritarizm ijtimoiy-siyosiy tuzumning alohida turi sifatida.
- 168.** «Tizim» tushunchasi haqidagi qarashlarning evolyusiyasi.
- 169.** Prezidentlik instituti tushunchasi va uning mohiyati.
- 170.** Demokratiya jamiyat siyosiy tizimining boshqaruv shakli sifatida.

171. D.Istonga ko'ra siyosiy tizim rivojini tahlil qilishning tizimli yondashuvi.

172. Ijro etuvchi homiyat tushunchasi va mohiyati.

173. Siyosiy tizimlar tipologiyasi.

174. Siyosiy partiyalar jamiyat siyosiy tizimining ajralmas qismi sifatida .

175. Totalitarizm ijtimoiy-siyosiy tuzumning alohida turi sifatida.

176. O'zbekistonda parlament faoliyati va uning xususiyatlari.

177. G.Almondga ko'ra siyosim tizimning funksiyalari.

178. T.Parsons ijtimoiy tizim konsepsiyasining tahlili.

179. Parlamentarizm siyosiy hokimiyat legitimligining omili sifatida.

180. Siyosiy tizim va fuqarolik jamiyati.

181. Jamiyatni tizimli tahlil qilishning o'ziga xos xususiyatlari.

182. "Fraksiya", "muxolifat", "elektorat" tushunchalarining mohiyati.

183. K.Doychga ko'ra siyosiy tizimning kibernetik modeli.

184. Ijro etuvchi hokimiyat va uning vakolatlari.

185. Siyosiy tizim tahliliga institutsional va tizimli yondashuvlar.

186. Totalitarizm ijtimoiy-siyosiy tuzumning alohida turi sifatida.

187. Daavlat boshlig'i – prezidentlik instituti.

188. O'tish tipidagi siyosiy tizimlar.

189. «Tizim» tushunchasi haqidagi qarashlarning evolyusiyasi.

190. Prezidentlik Respublikasi va uning o'ziga xos xususiyatlari.

191. Siyosiy tizimlarni tahlil qilishda modernizatsiya nazariyalari.

192. Davlat ijtimoiy-siyosiy tizimlarning sub'ekti sifatida.

193. Demokratiya jamiyat siyosiy tizimining boshqaruv shakli sifatida.

194. Jamiyat siyosiy tizimining tuzilmaviy komponentlari.

195. OAV axborot tarqatishning va jamoatchilik fikri ni shakllantirishning asosiy vositasi.

196. T.Parsons ijtimoiy harakat nazariyasining tahlili.

197. Ochiq va yopiq siyosiy tizimlarning zamonaviy xususiyatlari.

198. Siyosiy hokimiyat legitimligi tushunchasi va turlari.

199. Prezidentning umumiy belgilari va prezidentlik boshqaruvining o'ziga xos xususiyatlari.

200. T.Parsons ijtimoiy tizim konsepsiyasining tahlili.



- 201.** Siyosiy modernizatsiya nazariyalari va modernizatsiya turlari.
- 202.** Siyosiy tizimda davlat boshqaruvi.
- 203.** Ijro etuvchi hokimiyat organlari va ularning faoliyati.
- 204.** Sh.Ayzenshtadtlarning siyosiy tizim tasnifi.
- 205.** Parlament tushunchasi mohiyati va uning faoliyati.
- 206.** Siyosiy tizimning tuzilishi: institutsional, me'yoriy, kommunikativ, siyosiy-madaniy, funksional quyi tizimlar.
- 207.** Demokratiya va uning modellari.
- 208.** Jamiyatning ijro etuvchi organlari tizimi.
- 209.** Siyosiy tizimga "kirish"da siyosiy talablarni ifodalovchi va jamlovchi (artikulyatsiya va agregatsiya) agentlari.
- 210.** Siyosiy rejim (tartibot) tushunchasi va turlari.
- 211.** Siyosiy tizim fanining boshqa ijtimoiy fanlar bilan o'zaro aloqadorligi.
- 212.** Modernizatsiya bosqichlari va undagi asosiy qarama-qarshiliklar
- 213.** Siyosiy partiya tushunchasi va mohiyati.
- a. «Tizim» tushunchasi to'g'risidagi qarashlar evolyusiyasi.
- 214.** Siyosiy rivojlanish va modernizatsiya o'rtasidagi munosabatlar.
- 215.** Parlament instituti faoliyati: asosiy huquqiy normalar.
- 216.** Parlamentarizm institutini me'yoriy tartibga solish masalalari:
- 217.** Modernizatsiya: asosiy tushunchalar.
- 218.** Siyosiy partiyalarning huquqiy asoslari.
- 219.** Parlamentarizm siyosiy hokimiyat legitimligining omili sifatida.
- 220.** Siyosiy tizimlar tipologiyasi.
- 221.** Partiyalar tasnifi. .
- 222.** «Tizim» tushunchasining ta'rifi. Tizim sifatlari.
- 223.** Siyosiy hokimiyatning tuzilishi: sub'ekt, ob'ekt va resurslar.
- 224.** Parlamentarizm institutining jamiyat siyosiy tizimini rivojidadagi roli.
- 225.** Davlat tushunchasi va paydo bo'lishi nazariyalari.
- 226.** Siyosiy tizimga "kirish"da siyosiy talablarni ifodalovchi va jamlovchi (artikulyatsiya va agregatsiya) agentlari.
- 227.** Siyosiy partiyalarning demokratik institutlar rivojlanishidagi o'rni va ahamiyati.

**228.** Boshqaruv turiga ko'ra davlatning shakllari va ularning xususiyatlari.

**229.** Siyosiy tizimlarning G.Almond, J. Blondelga ko'ra tasnifi.

**230.** Partiyaviy tizimlarning tipologiyasi.

**231.** Demokratiya va uning asosiy modellari.

**232.** Siyosiy rivojlanish va modernizatsiya o'rtasidagi munosabatlar.

**233.** Davlatning tuzilishi va funksiyalari.

**234.** O'zbekistonda siyosiy partiyalar faoliyatining huquqiy asoslari.

**235.** Siyosiy tizimning "kirish" va "chiqish" impulslari.

**236.** Siyosiy hokimiyat legitimligi tushunchasi va turlari.

**237.** Parlamentarizm institutining mohiyati.

**238.** Siyosatning kommunikativ quyi tizimini tavsiflash.

**239.** Davlat ijtimoiy-siyosiy tizimlarning sub'ekti sifatida.

**240.** Ijro etuvchi hokimiyat organlari va ularning faoliyati.

**241.** D. Iston "kirish-chiqish" siyosatining tizimli modeli.

**242.** Davlat tushunchasi va uning paydo bo'lishidagi asosiy yondashuvlar.

**243.** Siyosatni tizimli tahlil qilishning asosiy xususiyatlari.

**244.** Prezidentning zamonaviy siyosiy tizimlardagi konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi va ahamiyati.

**245.** Hokimiyat tushunchasi va uning asosiy talqinlari.

**246.** Siyosiy tizim tahliliga institutsional va tizimli yondashuvlar.

a. Parlament Respublikasi va uning xususiyatlari.

b. Siyosiy hokimiyat tushunchasi va uning resurslari. Aralash turdagi Respublikalar va ularning o'ziga xos xususiyatlari.

**247.** Modernizatsiyalash paradigmasining inqirozi.

**248.** Siyosiy rejimlar tipologiyasi.

**249.** Me'yoriy quyi tizim elementlari.

**250.** Ijro etuvchi hokimiyat belgilari va funksiyalari.

**251.** Hokimiyat tushunchasi va uning asosiy talqinlari.

**252.** Avtoritarizm nodemokratik siyosiy rejim turi sifati.

**253.** G.Almondga ko'ra siyosim tizimning tuzilmaviy-funksional modeli.

**254.** Parlamentarizm institutini me'yoriy tartibga solish masalalari.

255. D.Istonga ko'ra siyosiy tizim rivojini tahlil qilishning tizimli yondashuvi.
256. Avtoritarizm ijtimoiy-siyosiy tuzumning alohida turi sifatida.
257. «Siyosiy tizim» fanini o'rganishning ahamiyati.
258. Zamonaviy jamiyatda davlat hokimiyatining vakillik organini shakllantirish masalalari
259. Totalitarizm ijtimoiy-siyosiy tuzumning alohida turi sifatida.
260. Siyosiy partiyalarning demokratik institutlar rivojlanishidagi o'rni va ahamiyati.
261. Demokratiya jamiyat siyosiy tizimining boshqaruv shakli sifatida.
262. Partiyaviy tizimlarning tipologiyasi.
263. K.Doychga ko'ra siyosiy tizimning kibernetik modeli.
264. Siyosiy tizim tahliliga institutsional va tizimli yondashuvlar.
265. Saylov tizimining demokratlashuvi partiyaviy tizim rivojining asosiy omili sifatida.
266. Hokimiyat tushunchasi va uning asosiy turlari.
267. O'zbekiston Respublikasi siyosiy tizimining faoliyati va dinamikasi.
268. T.Parsons ijtimoiy tizim konsepsiyasining tahlili.
269. Siyosiy rejim tushunchasi va turlari.
270. Parlamentarizm siyosiy hokimiyat legitimligining omili sifatida.
271. Siyosiy rejim institutsional tuzilish usuli sifatida.
272. Tuzilmaviy-funksional va tizimli yondashuvlar .
273. Jamiyatning ijro etuvchi organlari tizimi.
274. Avtoritarizm ijtimoiy-siyosiy tuzumning alohida turi sifatida.
275. Siyosiy tizim fani siyosatshunoslikning asosiy tarkibiy qismi sifatida yuzaga kelishi.
276. Siyosiy tizim fanining boshqa ijtimoiy fanlar bilan o'zaro aloqadorligi.
277. Talablar va qo'llab-quvvatlash, rejimni qo'llab-quvvatlash manbalari.
278. Siyosiy tizimlarning siyosiy rejimlar turiga ko'ra tasnifi.
279. "Fraksiya", "muxolifat", "elektorat" tushunchalarining mohiyati.
280. Modernizatsiya bosqichlari va undagi asosiy qarama-qarshiliklar

- 281.** Hokimiyat tushunchasi va uning asosiy talqinlari.
- 282.** Davlatning konstitutsiyaviy tuzilishi va huquqiy tizim asoslari.
- 283.** Totalitarizmning mohiyati va tarixiy shakllari.
- 284.** «Tizim» tushunchasi to‘g‘risidagi qarashlar evolyusiyasi.
- 285.** Jamiyat siyosiy tizimining institutsional: davlat, siyosiy partiyalar, ijtimoiy-siyosiy harakatlar komponentlari.
- 286.** «Tizimlarning umumiy nazariyasi» konsepsiyasi.
- 287.** “fraksiya”, “muxolifat”, “elektorat” tushunchalarining mohiyati.
- 288.** Parlament vakolati, uni shakllantirish tartibi, deputatlik vakolatlari, ularning saylovchilar va umuman aholi bilan o‘zaro munosabati xarakteri.
- 289.** Siyosiy qo‘llab-quvvatlash ob‘ektlari va uning turlari.
- 290.** Siyosiy partiya tushunchasi va mohiyati.
- 291.** Ijro etuvchi hokimiyat belgilari va funksiyalari.
- 292.** Ijtimoiy va siyosiy tizimlarni tahlil qilishda tuzilmaviy-funksional yondashuvning prognostik imkoniyatlari.
- 293.** Partiyalar tasnifi.
- 294.** Siyosiy tizim fanining boshqa ijtimoiy fanlar bilan o‘zaro aloqadorligi.
- 295.** Prezidentlik instituti tushunchasi va uning mohiyati.
- 296.** Siyosiy partiyalarning huquqiy asoslari.
- 297.** Tizimli yondashuv va tizimli tahlil tamoyillari.
- 298.** Ijtimoiy harakatning tuzilishi.
- 299.** Parlamentarizm institutini me‘yoriy tartibga solish masalalari: parlament vakolati, uni shakllantirish tartibi, deputatlik vakolatlari, ularning saylovchilar va umuman aholi bilan o‘zaro munosabati xarakteri.
- 300.** Boshqaruv shakliga ko‘ra prezidentlik, aralash va parlamentar davlatlarning o‘ziga xos xususiyatlari.
- 301.** Siyosatning kommunikativ quyi tizimini tavsiflash.
- 302.** Ijro etuvchi hokimiyat organlari.
- 303.** Parlamentarizm institutining jamiyat siyosiy tizimini rivojidadagi roli.
- 304.** Jamiyat tizimliliigi haqidagi g‘oyalarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi.

- 305.** Siyosiy partiyalarning demokratik institutlar rivojlanishidagi o'rnini va ahamiyati.
- 306.** T.Parsonsning ijtimoiy harakat va ijtimoiy tizim konsepsiyasi.
- 307.** Postsotsialistik jamiyatlarning transformatsiyalashuvi jarayonlarida iqtisodiyot va siyosat o'rtasidagi munosabatlar.
- 308.** Hokimiyat legitimligi tushunchasi va uning turlari.
- 309.** Prezidentning zamonaviy siyosiy tizimlardagi konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi va ahamiyati.
- 310.** Siyosiy tizimning anglo-amerikan va kontinental yevropa modellarining o'ziga xos xususiyatlari.
- 311.** Qadimgi davr olimlarining tizim haqidagi qarashlari.
- 312.** Modernizatsiya tushunchasi va uning mohiyati, bosqichlari va undagi asosiy qarama-qarshiliklar.
- 313.** Avtoritarizm ijtimoiy-siyosiy tuzumning alohida turi sifatida.
- 314.** «Tizim» tushunchasi haqidagi qarashlarning evolyusiyasi.
- 315.** Demokratiya jamiyat siyosiy tizimining boshqaruv shakli sifatida.
- 316.** Siyosiy partiyalar siyosiy tizimning ajralmas qismi sifatida.
- 317.** D.Istonga ko'ra siyosiy tizim rivojini tahlil qilishning tizimli yondashuvi.
- 318.** Ijtimoiy tizim nazariyasi asoschilarining g'oyalari.
- 319.** Siyosiy tizimlar tipologiyasi.
- 320.** Siyosiy partiyalar jamiyat siyosiy tizimining ajralmas qismi sifatida .
- 321.** Totalitarizm ijtimoiy-siyosiy tuzumning alohida turi sifatida.
- 322.** Parlamentarizm institutining mohiyati va xususiyatlari.
- 323.** G.Almondga ko'ra siyosim tizimning funksiyalari.
- 324.** Harakatlar strategiyasi (2017) va Taraqqiyot strategiyasi (2022)ga doir Farmonlarda O'zbekiston siyosiy tizimiga qo'yilgan talablar.

## GLOSSARIY

**Abolitsionizm** – (lot. bekor qilish) biror qonunni bekor qilishga qaratilgan ommaviy harakat. XVIII asr oxiri va XIX asrning birinchi yarmida AQShda negrlarni qullikdan ozod qilish uchun boshlangan harakat ishtirokchilari – abolitsionist deb atalgan.

**Avtonomiya** (yunon. autos+nomos-o'zi+qonun); 1.yagona Davlat miqyosida hududiy-milliy tuzilmalarga (viloyat, o'lka) o'zini o'zi boshqarish vakolatlarini berish; 2.Ma'muriy-hududiy birlik; 3.Qandaydir organlar (xo'jalik, davlat, partiya va boshqalar) faoliyatlaridagi o'zini o'zi boshqarish huquqi.

**Avtonomiya** (yunon. autos+nomos-o'zi+qonun); 1.yagona Davlat miqyosida hududiy-milliy tuzilmalarga (viloyat, o'lka) o'zini o'zi boshqarish vakolatlarini berish; 2.Ma'muriy-hududiy birlik; 3.Qandaydir organlar (xo'jalik, davlat, partiya va boshqalar) faoliyatlaridagi o'zini o'zi boshqarish huquqi.

**Agregatsiya** - (lot.) nodavlat va jamoat tashkilotlari ayrim manfaatlarni agregatsiya qilish, ya'ni turli munozaralar va muhokamalar vositasida turli manfaatlar uyg'unlashtiriladi va ular o'rtasida muayyan munosabatlar tizimini shakllantiradi. Bu jarayonda asosiy va muhim manfaatlar tanlab olinadi ularni qondirish chora va tadbirlari ko'riladi.

**Advokatura**-huquqiy institut, advokatlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslarning mustaqil, ko'ngilli, kasbiy birlashmalarini o'z ichiga oladi. O'zb.Res. fuqarolari, ajnabiy fuqarolar, fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarga yuridik yordam ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasining advokatura to'g'risidagi qonuni 1996 yil 27 dekabrda qabul qilingan.

**Adliya**-(arab.-adolat)-sud muassasalarining butun majmuini, ularning odil sudlovni amalga oshirish faoliyatini, shuningdek, sud idorasini bildiruvchi atama.

**Adolat** (arab. – odillik, to'g'rilik) – u yoki bu qadriyatlarining o'zaro umumiy munosabatini va ularning individlar o'rtasida konkret taqsimlanishini ifodalovchi tushuncha; insonning mohiyati va uning ajralmas huquqlarini haqidagi tasavvurlarga mos bo'lgan jamoa tartibi.

**Aktor** - (lot. "actor" - arbob); muayyan xatti-harakatlarni amalga oshiruvchi individ, ijtimoiy guruh, institut yoki boshqa sub'ekt, ziddiyatlarda ishtirok etuvchi tomonlar. Siyosatshunoslikda aktor va sub'ekt tushunchalari sinonim sifatida ishlatiladi.

**Alarmizm** - intellektual va ekspertlarni birlashtiruvchi zamonaviy g'oyaviy oqim. U xavf solayotgan global muammolar - yaroviy, ekologik v.x. - borasida ogohlantiradi

**Amnistiya**-jinoiyat sodir etgan shaxslarni jinoiy javobgarlikdan to'liq yoki qisman jazodan ozod qilish, shuningdek, ilgari sud tomonidan belgilangan jazoni o'tab bo'lgan shaxslardan sudlanganlikni olib tashlash. Amnistiya akti normativ xususiyatga ega, ya'ni amnistiya akti bilan belgilangan talablarga javob beradigan barcha shaxslarga nisbatan qo'llaniladi.

**Anaxronizm** - (yunon. ana-orqaga,chromos-vaqt, zamon); yangilish holda bir davrdagi voqea yoki hodisalarni boshqasiga almashtirib qo'yish.

**Apatiya** - (yunon.) butunlay befarqlik holati, loqaydlik.

**Artikulyatsiya** - (lot.) nodavlat va jamoat tashkilotlari individlar va ijtimoiy guruhlarning tarqoq qarashlari, ijtimoiyruhiy kechinmalari va umidlarini aniq va ma'lumsiyosiy maqsadlar va talablarga aylantirishjarayonini anglatadi.

**Axborot** - ("informatio" lotinchadan ma'lumotlar, tushuntirishlar, bayonlarni anglatadi) - bu ma'muriy, tashkiliy tadbirlar o'tkazish haqida qarorlarni qabul qilish uchun, shuningdek taklif va tavsiyalarni tayyorlash uchun asos bo'lib xizmat qiluvchi muhim faktlar (shaxslar, harakatlar, tashkilotlar, voqealar) to'g'risidagi ma'lumotdir. Falsafiy nuqtai nazardan axborot bizning ma'lumot (belgi) olish natijasida o'rganilayotgan hodisalar (jarayonlar) haqida tasavvurlarimizning noaniqligini kamaytirish yoki olib tashlashni ta'minlaydi.

**Axborot**- (informatsiya) - lot. informare-tasvirlamoq, nimadir haqida tushuncha tuzish; kimnidir faoliyati, nimadir faoliyati yokiishning ahvoli haqida habar, habardorlik.

**Axborot madaniyati** - jamiyatning axborot resurslar va axborot-kommunikatsion texnologiyalardan samarali foydalanish, shuningdek bu maqsadlarda axborotlashtirish vositalar va axborot texnologiyalarni rivojlantirish sohasida ilg'or yutuqlarni qo'llash qobiliyati. Axborot

madaniyati kishida axborot muhiti bilan o'zaro munosabatda bilim, mahorat, ko'nikma va refleksli ko'rsatmalar mavjud bo'lishi bilan ifodalanadi. Kishining axborot madaniyatining eng muhim elementlaridan biri – axborot resurslarini bilish (ulardan erkin foydalanish imkoniyati).

**Axborot makoni** – (Axborot muhiti) axborotni saqlash, ishlash va uzatish bo'yicha texnikaviy va dasturiy vositalar, shuningdek axborotlashtirish jarayonining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy shart-sharoitlari majmuasi.

**Axborot sohasini liberallashtirish** – (libera lis lotinchadan erkinlikka taalluqli) OAV huquq va erkinliklarini kengayish jarayoni, shuningdek ularning faoliyatidagi cheklovlarini olib tashlash va davlat nazoratini susaytirish.

**Axborot erkinligi**-fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlaridan biri bo'lib, so'z, matbuot va boshqa ommaviy axborotga ega bo'lgan axborotni olish huquqi va qonuniy asosda olingan axborotlarni tarqatish huquqi axborot erkinligi hisoblanadi. O'z.Res. Konstitutsiyasiga asosan, ommoviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to'g'riligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar, senzuraga yo'l qo'yilmaydi (67-modda).

**Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari** – axborot foydalanuvchilari manfaatida uni yig'ish, ishlash, saqlash, tarqatish, aks etish va foydalanish maqsadida integrallashgan metodlar, ishlab chiqarish jarayonlar va dasturiy-texnikaviy vositalar majmui. Bugungi kunda AT tushunchasiga mikroelektronika, kompyuterlar va dasturiy ta'minotni ishlab chiqish va ishlab chiqarish, aloqa va telefoniya, mobil servislar, Internetdan foydalanishni ta'minlash, Internet axborot resurslarini ta'minlash kiradi.

**Bill** – ingl. Buyuk Britaniya, AQSh va boshqa davlatlarda qonun chiqaruvchi tashkilot e'tiboriga havola qilinuvchi qonun loyihasi.

**Bipartizm**-ijtimoiy sheriklikning ikki sub'ekti o'rtasidagi kelishuv

**Bozor** – ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar (sotuvchilar va xaridorlar) o'rtasida pul orqali ayirboshlash jarayonida bo'ladigan munosabatlarni yig'indisidir.



**Bozor iqtisodiyoti** – tovar ishlab chiqarish, ayirboshlash va pul muomalasi qonun – qoidalari asosida tashkil etiladigan va boshqariladigan iqtisodiy tizimdir.

**Bozor mexanizmi** – bozor iqtisodiyotining faoliyat qilishini tartibga solishni va iqtisodiy jarayonlarni uyg'unlashtirishni ta'minlaydigan dastak va vositalardir.

**Bundesrat** – nem. GFRda yerlar palatasi. Germaniya Yerlari hukumatlarining uchdan beshtagacha vakillaridan iborat. Bundestag – nem. GFR parlamenti. 1949 yilda tashkil etilgan. Aralash saylov tizimida 4 yillik muddatga saylanadi.

**Bunyodkor g'oya** — jamiyatni taraqqiyot sari yetaklovchi, turli guruh va qatlamlarni, millatlarni ezgu maqsad yo'lida birgalikda harakat qilishga undovchi, amalga oshirishning real asoslari bo'lgan g'oya.

**Vayronkor (buzg'unchi) g'oya** — yovuzlik va jaholatga, ayrim jinoyatkor kuchlarning hukmronligini o'rnatishga xizmat qiladigan, insonlar, millatlar va jamiyatning mustaqilligiga, erkinligiga, ijodkorligiga zid bo'lgan g'oyalar majmuini ifodalovchi tushuncha.

**Vatan** ( arabcha "Vatan" – ona yurt ) – kishilarning yashab turgan, ularni avlod va ajdodlari tug'ilib o'sgan joyi, hududi, ijtimoiy muhiti, mamlakati. Vatan bir-birini taqozo etuvchi tashqi muhit va ichki kechinmalar hamda tushunchalarni o'z ichiga oladi. Tashqi muhit nuqtai nazaridan Vatan kishi yoki avlodlar tug'ilib o'sgan va kamol topgan joy.

**Vatan ravnaqi** – milliy istiqlol mafkurasining Islom Karimov tomonidan asoslab berilgan g'oyalaridan biri. Prezidentimiz Vatan ravnaqi g'oyasini ilgari surar ekan, uning mazmunini har bir kishining manfaatlarini yurt manfaatlari bilan uyg'unlashtiruvchi, uni xalq baxt-saodati yo'lida xizmat qilishga undovchi bunyodkor g'oyadir deb ta'riflaydi. Zero, u milliy istiqlolning oliy maqsadi - O'zbekistonda yashayotgan barcha fuqarolarning el-yurt kamoli bilan bog'liq orzu-umidlarini amalga oshirishni ifodalaydi.

**Vatanparvarlik** – Vatanining ozodligi va obodligi, uning sarhadlari daxlsizligi, mustaqilligining himoyasi yo'lida fidoyilik ko'rsatib yashash, ona xalqining or-nomusi, shon-sharafi, baxtu saodati uchun kuch-g'ayrati, bilim va tajribasi, butun hayotini baxsh etishdek dunyodagi eng muqaddas va olijanob faoliyatni anglatadigan insoniy his-tuyg'udir. Vatanparvarlik - ona-yurtning, xalqning tarixi va taqdiriga chuqur hurmat bilan qaraydigan, Vatan

manfaatlari yo'lida fidoiylik namunalarini ko'rsatishga qodir bo'lgan shaxslarga xos fazilat.

**Verbal** – (lot.) og'zaki; bunda siyosiy ishtirokni shaxsning sub'ektiv jihatiga bog'liq emasligiga ishoraqilinmoqda.

**Veto** – (lot. taqiqlayman) davlat boshlig'i yoki parlament oliy palatasining qonun chiqaruvchi tashkilot qabul qilgan qonunni kuchga kirishini bir muddatga to'xtatib qo'yish yoki uni kuchga kiritmaslik huquqi: mutloq veto, kechiktiruvchi veto.

**Vijdon erkinligi** – ijtimoi-falsafiy tushuncha; har kimning o'z e'tiqodiga ko'ra, mazkur jamiyatda mavjud ijtimoiy me'yorlarni buzmaganda holda vijdoni buyurgani bo'yicha yashash, ishlash imkoniyati. Bunda dinga munosabat masalaning bir tomoni hisoblanadi.

**Vijdon erkinligi** – fuqarolarning istagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qanday dinga e'tiqod qilmaslik huquqi.

**Genezis** - yunon. genesis- kelib chiqish; paydo bo'lish, tashkil topish jarayoni.

**Gildiya tizimi** – (nem. korporatsiya) elitarni shakllantirish tizimlaridan biri. Unga 1) yepiklik, yuqori lavozimlarga elitaning quyi qatlamlaridan nomzod tanlash, yuqoriga siljishning pog'onaviyligi; 2) lavozimlarni egallash uchun ko'plab rasmiy shartlarning mavjudligi; 3) tanlovni alohida imtiyozli kichik guruh amalga oshirishi; 4) mavjud yetakchi tipini tiklashga, yaratishga, saqlab qolishga harakat qilinishi sigarilar xos.

**Gipotetik** – faraz qilingan, taxmin qilingan.

**Global** - fran. global-umumiy); umuman olganda, butun yer yuzi bo'ylab.

**Global** - fran. global-umumiy); umuman olganda, butun yer yuzi bo'ylab.

**G'oya** – inson tafakkurida vujudga keladigan, ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan, ruhiyatga kuchli ta'sir o'tkazib, jamiyat va odamlarni harakatga chorlaydigan, maqsad-muddao sari yetaklaydigan kuchli, teran fikr

**G'oyaviy bo'shliq** - deb, eski xukmron mafkura halokatga uchrab, u bilan bog'liq tushunchalarning qadrsizlanishi, bugungi hayot, o'tmish va kelajakka dahldor qadriyatlar, tushuncha va tasavvurlarni to'liq anglab yetmasligi oqibatida odamlarning qalbi va ongida vujudga keladigan bo'shliqqa aytiladi.

**Gumanizm** (insonparvarlik) – tenglik, adolat, o‘zaro hurmat, inson qadrini ardoqlash, odamlar farovonligi uchun g‘amxo‘rlik qilish g‘oyalari singdirilgan dunyoqarash.

**Guruh** - manfaatlar, qarashlar, kasbiy, faoliyat tarzi bo‘yicha birlik va umumiylik kasb etgan shaxslar yig‘indisi, birlashmasi.

**Davlat** – muayyan hududda jamiyat va uning siyosiy tizimini tashkil etish usuli, hokimiyatning markaziy instituti, jamiyatning siyosiy tashkiloti bo‘lib, ma‘lum bir hudud va unda yashovchi xalqlarni o‘z ichiga oladi. Jamiyatni boshqaruvga tizim sifatida Davlat ichki tizimga o‘z vakolatlarini amalga oshirish uchun maxsus organlarga ega. Davlat odamlar va jamoat guruhlarning faoliyati hamda munosabatlarini tashkil etadi, ularni yo‘naltiradi va nazorat qiladi.

**Davlat subsidiyasi** – sotsial va ijtimoiy ahamiyatga molik faoliyatni amalga oshirayotgan nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti, davlat maqsadli jamg‘armalari mablag‘lari hisobidan beriladigan hamda aniq loyihalar bilan bog‘liq bo‘lmagan moliyaviy yoki boshqa moddiy ko‘mak. Davlat subsidiyalaridan faqat nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining ustavida belgilangan maqsad va vazifalarni bajarish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda ijtimoiy foydali maqsadlarga erishish uchungina foydalaniladi.

**Davlat granti** – ijtimoiy foydali maqsadlarga erishishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti mablag‘lari, shuningdek, jamoat fondlarining mablag‘lari hisobidan nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlariga ularning buyurtmalari bo‘yicha tanlov asosida beriladigan pul mablag‘lari va moddiy resurslar. Davlat grantlarini ajratish Oliy Majlis huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi, shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondlari orqali amalga oshiriladi.

**Davlat-xususiy sherikligi** – investitsiya, innovatsiya, infratuzilma va boshqa loyiha hamda muhim bo'lgan davlat, ijtimoiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy ahamiyatga ega dasturlarni ko'zda tutuvchi chora-tadbirlar majmui. Bunda davlat boshqaruvi, hududiy hukumat organlari va Vazirlar Mahkamasi tomonidan vakolatlangan boshqa davlat tashkilotlari davlat sherigi bo'la oladi.

Xususiy sherik – O'zbekistondagi yuridik yoki jismoniy shaxs, xorijiy yuridik yoki jismoniy shaxs, davlat-xususiy sherikligini tuzgan yoki tuzish istagida bo'lgan xalqaro tashkilot. Ular faoliyatining asosiy maqsadi foyda olishdir. Davlat-xususiy sherikligi quyidagi sohalarda amalga oshiriladi: fan, texnika va innovatsiyalar, tibbiyot; ta'lim, madaniyat va ijtimoiy xizmatlar; telekommunikatsiya; transport xizmatlari; yo'l sektori; uy-joy va kommunal xizmatlar; qurilish materiallari ishlab chiqarish; yoqilg'i-energetika va kimyo sanoati; energiyaning qayta tiklanuvchi manbalari; mexanik muhandislik; metallurgiya; qishloq va suv xo'jaligi; tabiatni muhofaza qilish.

**Davlat tassarrufidan chiqarish** - davlat mulki hisobidan boshqa nodavlat mulk shakllarining vujudga keltirilishi.

**Daxldorlik hissi**– fuqarolarning tug'ilgan joyi, ona Vatani, mustaqillikni anglash, uni asrab-avaylash, himoya qilish, uni yanada rivojlantirishga chorlaydigan, shart-sharoit, omillar majmui.

**Demokratik institutlar** – bu, davlat va jamiyatda demokratik tuzumni shakllantiruvchidemokratik tamoyillarni amalga oshirishning tashkiliy shakllari hisoblanadi.

**Demokratik institutlar** - jamiyat hayotida demokratik tamoyillarni qaror topishga xizmat qiladigan tashkilotlar va tuzilmalar majmuasi.

**Demokratik kuchlar bloki**–parlamentdagi ko'pchilikni tashkil etish maqsadida o'zdasturiy maqsadli vazifalarining yaqinligidan yoki mosligidan kelib chiqqan holdabir nechta siyosiy partiyalar fraksiyalari va O'zbekiston ekologik harakatidan saylangan deputatlar o'z sa'y-harakatlarini birlashtirishi.

**Demokratiya**(yunoncha, “demos” – xalq, “kratos” – hokimiyat) – xalq hokimiyati ma'nosini anglatib, xalqni hokimiyat manbai, deb biluvchi siyosiy tizimni shakli. Demokratiya insonni har tomonlama barkamol rivojlanishi uchun berilgan imkon bo'lib, davlat konstitutsiyasida ozchilikning ko'pchilikka bo'ysunishi tamoyili rasmiy e'lon qilindi, hamda fuqarolarning

erkinligi teng huquqligi e'tirof etildi. Demokratiya har bir davrning ijtimoiy – iqtisodiy sharoitlariga mos shakllanib, rivojlanib boruvchi chegarasiz tabiiy – tarixiy jarayondir.

**Detsentralizatsiya** - nomarkazlashtirish; markaziy hokimiyat organlari vakolatlarining bir qismini mahalliy hokimiyat organlari, o'zini o'zi boshqarish organlari va nodavlat tashkilotlarga berish; markazlashuvnibo'shashtirish yoki bekor qilish, tugatish.

**Diaspora** – yun. diaspora -tarqalish ma'nosida bo'lib, ma'lum bir davlat hududida yashovchi, ammo boshqa bir davlatda o'z davlat tuzilmasiga ega, ma'lum bir xalq millat vakillarining yig'indisi (masalan O'zbekistonda yashovchi rus, ukrain millatining diasporasi).

**Diversifikatsiya** – lot. diversification – o'zgarish, turli-tumanlik, faoliyatni har tomonlamava turli-tuman yo'nalishlarda rivojlantirishga strategik mo'ljal olish. Masalan, kapitalni diversifikatsiyalash – iqtisodiy tavakkalchilikning xavfli oqibatini kamaytirish maqsadida kapital mablag'larni turli ob'ektlar o'rtasida bo'lib-bo'lib joylashtirish.

**Diniy bag'rikenglik** - bizning dunyomizdagi turli boy madaniyatlarni, o'zini ifodalashning va insonning alohidaligini namoyon qilishning xilma-xil usullarini hurmat qilish va to'g'ri tushunishni anglatadi. Uni bilim, samimiyat, ochiq muloqot hamda hurfikr, vijdon va e'tiqod vujudga keltiradi.

**Diskurs** - ingl. discourse < lat. discursus – suhbat, muomala, monolog, dialog.

**Differensiatsiya** – (lot. differentia-farqlash, har xillik); taqsimlanish, nimanidir alohida turli xil unsurlargaajralishi, bo'laklarga bo'linish.

**Dualizm** – (lot.) ikki taraflamalik (shuningdek, falsafadagi dunyo asosida ikkita mustaqil bosh sabab – ruh va modda, ideallik va moddiylik mavjud degan qarashlar haqidagi ta'limot).

**Yevropotsentrizm** - G'arbiy Yevropa madaniyati butun insoniyat uchun na'muna, deb qarovchi konsepsiya. Unga ko'ra G'arbiy Yevropa – jahon taraqqiyoti markazidir.

**Jazo** – huquqbuzarlik sodir etishda ayblangan shaxslarga nisbatan qo'llanadigan ma'naviy, moddiy yoki jismoniy cheklashlar bilan bog'liq bo'lgan majburlov chorasi.

**Jamiyat** – insonlar munosabati va ijtimoiy aloqalar yig'indisi. Jamiyat tarixiy, moddiy-ma'naviy hayot tarzidan kelib chiqqan holda umumiy orzu-

maqsadlari bilan birlashgan insonlar uyushmasining alohida shakli. Jamiyat doimo o'zgarish va rivojlanishda bo'lib, uning asosini doimo insonlar tashkil etadi.

**Jamoa manfaati** – kishilar guruhi, korxonalar va firmalarga tegishli manfaatlar majmuidir.

**Jamoat birlashmalari** – fuqarolarning qonunda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan birlashmalari. Ularga kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, faxriylar va yoshlarning tashkilotlari, ijodiy uyushmalar va fuqarolarning boshqa birlashmalari kiradi. *J.b.* – ma'naviy yoki boshqa nomoddiy ehtiyoj-larni qondirish uchun o'z manfaatlarining mushtarakligi asosida qonunda belgilangan tartibda birlashgan fuqarolar ixtiyoriy birlashmasi.

Jamoat birlashmasi qatnashchilari mazkur birlashmaga mulk qilib bergan mol-mulklariga, shu jumladan, a'zolik badallariga bo'lgan huquqlarini saqlab qolmaydilar. Ular a'zo sifatida qatnashayotgan jamoat birlashmasining majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar, mazkur birlashma esa o'z a'zolari majburiyatlari bo'yicha javob bermaydi.

**Jamoat fondi** – jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriy mulkiy badallar qo'shish asosida tashkil etilgan, xayriya, ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy yoki boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarni ko'zlaydigan, a'zoligi bo'lmagan nodavlat notijorat tashkiloti.

**Jarayon** – muayyan vaqt oralig'ida bo'lib o'tgan o'zgarishlar, voqea va hodisalarning davomiyligi. J.lar uzluksiz va uzluksiz, tabiiy va sun'iy, takrorlanuvchi va betakror, boshqariluvchi va boshqarilmas bo'lishi mumkin.

**Jinoyat** – qonundanazarda tutilgan ijtimoiy xavfli qilmish.  
zamin, o'lkadir.

**Identifikatsiya** – (lot. o'xshatmoq, tenglashtirmoq, baravarlamoq) monandlik. Siyosiy identifikatsiya - u yoki bu siyosiy guruhga o'zini boshqalardan ajratish imkonini beruvchi barqaror belgilar, xususiyatlar birligi.

**Ijtimoiy adolat** – barcha ijtimoiy toifalarning jamiyatda o'z o'rni mavjudligini va qonun oldida ularning o'zaro teng huquqlarga ega ekanligini e'tirof etish.

**Ijtimoiy manfaat** – bu barcha jamiyat a'zolarining birgalikda ro'yobga chiqadigan manfaatlaridir.

**Ijtimoiy uyushmalar** – fuqarolar manfaatlari umumiyligi va ixtiyoriylik asosida vujudga keluvchi, lekin o'z faoliyati natijasida daromad olishni ko'zlamaydigan tashkilotlar (siyosiy partiyalar, ommaviy harakatlar, kasaba uyushmalari, ayollar, keksalar, nogironlar, yoshlar, bolalar tashkilotlari, ilmiy texnik, madaniy-ma'rifiy, sport va boshqa ko'ngilli jamiyatlar, jamg'armalar, assotsiatsiyalar, boshqa tuzilmalar). Demak, fuqarolarning har qanday ko'ngilli uyushmasi – ijtimoiy uyushmadir. Mavjud siyosiy hayotni o'zgartirishga yoki unga ta'sir etishga urinuvchi ijtimoiy uyushmalar siyosiy, deb qaraladi.

**Ijtimoiy hamkorlik** – turli millat, irq va dinga mansub kishilar hamda guruhlarining umumiy maqsad yo'lidagi hamjihatligi. Shuningdek, jamiyat barcha a'zolari va ijtimoiy guruhlarining umumiy maqsad yo'lida birgalikda faoliyat olib borishi, ularning o'zaro hamjihatligini ifoda etadi. U jamiyatning bosh strategik maqsadi, rivojlanish g'oyasi va maqsadi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning tub manfaatlari yo'lida aholi hamda ijtimoiy guruhlarining taraqqiyotini ta'minlash uchun keng miqyosda olib boriladigan birgalikdagi faoliyat.

**Ijtimoiy sheriklik** - davlat organlarining nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini, shu jumladan tarmoq, hududiy dasturlarni, shuningdek normativ-huquqiy hujjatlarni hamda fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo'lgan boshqa qarorlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish borasidagi hamkorligidir

*Ijtimoiy sherikchilik* – ijtimoiy hamkorlikni amalga oshirish-ning muhim mexanizmi bo'lib, bu davlat organlari, jamoat tashkilotlari hamda biznes vakillarining ijtimoiy hamkorlik asosidagi tarmoqlararo, sohalararo, idoralararo faoliyati.

*Ijtimoiy sheriklik* – davlat organlarining nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini, shu jumladan, tarmoq, hududiy dasturlarni, shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar hamda fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo'lgan boshqa qarorlar ishlab chiqish hamda amalga oshirish borasidagi hamkorligi.

**Ijtimoiy sheriklik sub'ektlari** –davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari.

**Ijtimoiy sheriklikning asosiy prinsiplari** – qonunga bo'ysunish; teng huquqlilik; ochiqlik va shaffoflik; hammaboplik; mustaqillik; xolislik; o'zaro hurmat, manfaatlarning inobatga olinishi va mas'uliyat; majburiyatlar qabul qilishning ixtiyoriyligi.

**Ijtimoiy sheriklik sohalari** – bu quyidagi sohalarda amalga oshirilishi mumkin:

aholini ijtimoiy muhofaza qilish, qo'llab-quvvatlash va uning ijtimoiy faolligini oshirish;

aholi bandligini ta'minlash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, fermerlikni rivojlantirish;

atrof muhitni, aholi sog'lig'ini muhofaza qilish va sog'lom turmush tarzini qaror toptirish;

har tomonlama barkamol va sog'lom yosh avlodni shakllantirish, yoshlarga bilim berish, ularni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash va kasbga yo'naltirish;

onalik va bolalikni, shuningdek, xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish, ularning mamlakat ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy, madaniy hayotida to'laqonli ishtirok etishini ta'minlash, sog'lom oilani shakllantirish;

fan, ta'lim, axborotlashtirish, madaniyat va sportni rivojlantirish;

aholining huquqiy bilimi, huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, fuqarolik jamiyati va demokratik huquqiy davlat asoslarini mustahkamlash;

millatlararo, madaniyatlararo totuvlik va fuqarolar totuvligi g'oyalarini mustahkamlash, ko'p asrlik, an'anaviy ma'naviy-axloqiy hamda tarixiy-madaniy qadriyatlarni tiklash va saqlash;

iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish.

**Ijtimoiy sheriklikning asosiy shakllari** – bu quyidagilardan iborat:

nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etishi;

nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etishi;



nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati boshqa institutlari vakillarining davlat organlari huzuridagi ishchi guruhlar, komissiyalar va jamoatchilik-maslahat organlari faoliyatida ishtirok etishi;

ijtimoiy sheriklik sub'ektlari tomonidan birgalikda tadbirlar, maslahatlashuv va muzokaralar o'tkazish;

ijtimoiy sheriklik sub'ektlari tomonidan ijtimoiy sheriklik to'g'risida bitim va shartnomalar tuzish, birgalikda loyiha va rejalar ishlab chiqish hamda amalga oshirish;

ijtimoiy sheriklik sub'ektlari o'rtasida o'zaro qo'llab-quvvatlash, axborot almashish.

**Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar** - bu kishilar uchun zarur bo'lgan hayotiy ne'matlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va is'temol qilish jarayonida vujudga keladigan munosabatlar.

**Iqtisodiy mustaqillik** –muayyan bir mamlakatning shu mamlakatda mavjud ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish vositalariga, tabiiy va ma'naviy boyliklarga va shu boyliklar tufayli yaratilgan mahsulotdan tushgan milliy daromadga va uni taqsimlashga yagona egalik qilishi.

**Iqtisodiy resurslar** – ma'lum davrda ma'lum bir mamlakat ixtiyorida to'plangan va mavjud bo'lgan ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, ularni iste'molchilarga yetkazib berish va iste'mol jarayonlarida qo'llanilishi mumkin bo'lgan vositalar, qo'r-qutlar, imkoniyatlar va manbalardir

**Individ** - lot. individuum-bo'linmas, alohida; inson zotining alohida olingan namunasi, uning vakillaridan biri; har biri alohida, mustaqil mavjud bo'lgan tirik organizm; shaxs esa u yoki bu inson sifatida namoyon bo'lib, u ma'lum va betakror individuallikka ega bo'ladi.

**Inson omili** – inson mohiyatiga xos bo'lgan eng muhim xususiyatlarni – insondagi jismoniy – ruhiy tomonlarning birligi.

**Inson huquqlari**- unga tor ma'noda faqat davlat himoya qiladigan va kafolat beradigan huquqlar kirib, bu huquqlarga barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi, yashash va jismoniy daxlsizlik huquqi, inson qadr-qimmatini hurmat qilish, o'zboshimchalik va noqonuniy ushlab yoki qamash, vijdon va din erkinligi, ota-onalarning o'z bolalarini tarbiya qilish huquqlari kiradi. Keng ma'nodagi inson huquqlari esa o'zida shaxs erkinligi va huquqlarining keng majmuasi va turlarini ifodalaydi

**Insonparvar demokratik huquqiy davlatning o'ziga xos belgilari** - birinchidan, jamoat va davlat turmushining barcha sohalarida huquq va qonunning ustuvorligi, qonun talablarining davlat hokimiyati va barcha organlari, o'zini o'zi boshqarish organlari, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan ijro etilishi; ikkinchidan, shaxs huquqlari va erkinliklarining realligi, uni erkin kamol toptirish ta'minlanishi, davlat bilan shaxsning o'zaro mas'ulligi; uchinchidan, davlat hokimiyatini qonunchilik, ijrochilik va sudhokimiyatiga bo'lish asosida amalga oshirish.

**Institut** - lot. institutum-mahkama, idora, muassasa; tizimlashtirilgan, hammaga tanilgan, amalda qo'llanilayotgan va e'tirof etilgan (har qachon ham o'z rasmiy tasdig'ini topavermaydigan), u yoki bu tarzda mustahkamlangan qoidalar va me'yorlarga muvofiq o'zaro xatti harakat qilish uchun qo'llab-quvvatlanayotgan ko'rsatmalarga ega bo'lgan ijtimoiy agentlarning o'zaro hatti harakatlari shakllari kiradi.

**Integratsiya** - lot. integratio-tiklanish, bajarish; integer-bir butun; qandaydir qismlarning bir butunlikka birlashishi.

**Interaktiv davlat xizmatlari** - idoralar tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarga idoralarning axborot tizimlari vositasida telekommunikatsiya tarmoqlari orqali ko'rsatiladigan xizmatlar. Bizning mamlakatimizda bu xizmatlar 2013 yil 1 iyuldan harakat qiluvchi hamda davlat organlarining aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar bilan o'zaro hamkorligining qulay va samarali vositasi sifatida xizmat qiluvchi my.gov.uz Interfaol Davlat xizmatlari yagona portali orqali ko'rsatiladi.

**Internet** - axborot bilan almashish uchun ham kompyuter tarmoqlari foydalanuvchilarni, ham shaxsiy kompyuterlarni o'zaro bog'lovchi butun dunyo axborot kompyuter tarmog'i.

**Internet jurnalistika** - bu internet makonida axborot shakllar dolzarbligini shakllantirish va taqdim qilish bo'yicha faoliyatni kasb etuvchi sifat jihatidan yangi va sivilizatsiyali fenomendir, bunda bunday shakllar tashuvchisiga nafaqat so'z, balki rasm, fotosurat, kino, video, tovush, veb-sahifa - keng ma'noda axborot yoki matn tashuvchisi sifatida namoyon bo'lishga qodir har qaysi ob'ekt aylanishi mumkin.

**Interpellyatsiya** - fr. interpellation < lat. interpellatio < interpellare - munosabat, aloqa, suhbat va boshqa shu kabilarni bo'lib qo'yish, qarshi chiqish.

**Interfaol muloqot** – real vaqt rejimida turli OAV (asosan Internet) vositasida “jonli” muloqot qilish. Shartli ravishda bunday muloqotning bir necha shaklini belgilash mumkin:

**Informatsiya** – lot. informatio – xabardor qilish, tushuntirish, bayon qilish ma’nolarini beradi. Shuningdek, lot. informare- shakl berish qabilida ham ishlatiladi.

**Irratsional** – (lot.irrationalis) bilishning asosiy vositasi sifatida his-tuyg’u, instinkt va e’tiqodni tan oluvchi falsafiy qarash.

**Ishlab chiqarish usuli** - ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlari birligi hamda o‘zaro ta’siri.

**Ishlab chiqaruvchi kuchlar** - ishlab chiqarishning shaxsiy va moddiy omillari, ya’ni ishchi kuchi bilan ishlab chiqarish vositalari birligi.

**Ixtilof** (arab. qarama-qarshilik, kelishmovchilik, ziddiyat, nizo) – odamlarning birgalikda harakat qilish usuli bo‘lib, bunda qarama-qarshilik, g‘animlik, erishilgan yakdillik, kelishuv va hamkorlikni buzish tamoyillari ustun turadi

**Kadrlar tayyorlashning milliy modeli tizimi** - O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1997 yilning 29 avgustida “Kadrlartayyorlashmilliy dasturi to‘g‘risida” qaror qabul qilindi. Ushbu dasturda (3-bandi) kadrlar tayyorlashning milliy modeli quyidagi tarkibiy qismlardan iboratligi belgilab qo‘yilgan:

1. Shaxs – kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub’ekti va ob’ekti, ta’lim sohasidagi xizmatlarning iste’molchisi va ularni amalga oshiruvchisi.

2. Davlat va jamiyat – ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga amlga oshiruvchi kadrlar tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillari.

3. Uzluksiz ta’lim – malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo‘lib, ta’limning barcha turlarini, davlat ta’lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi va uning faoliyat ko‘rsatish muhitini o‘z ichiga oladi.

4. Kadrlar tayyorlash tizimida – fan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiquvchi.

5. Kadrlar tayyorlash tizimida ishlab chiqarish – kadrlarga bo‘lgan ehtiyojini, shuningdek, ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo‘yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash

tizimini moliya va moddiy-texnik jihatidan ta'minlash jarayonining qatnashchisi ("Barkamol avlod–O'zbekiston taraqqiyotining poydevori", T., 2008., 41-53 b.).

**Kasaba uyushmalari** -korxonalar, muassasalar, o'quv yurti va boshqa mehnat jamolarida ishlayotgan ishchi va xodimlarni ijtimoiy manfaatlarini himoya qilish, ish beruvchilar bilan ishlovchilarning ijtimoiy sherikchiligini tashkil etish maqsadida faoliyat yuritadigan nodavlat notijorat tashkiloti;

**Kvazi...** – lot. turli so'zlar boshiga qo'yiluvchi va «go'yo», «sohta» ma'nolarini beruvchi qo'shimcha. Masalan, kvazidemokratiya.

**Kvintessensiya** – (lot. beshinchi asos) biror narsaning asos, mohiyati; eng muhim, eng asosiy.

**Kompetent** – (lot. sompetents- loyqlik, mutanosiblik); o'z bilimi yoki vakolati bilan biron-bir qarorni qabul qilish, masalani yechish yoki ular yuzasidan hukm chiqarish uchun zarur bo'lgan ilmga yoki qobiliyatga ega bo'lishni anglatadi.

**Konsensus** (lot. consensus – uyg'unlik, yakdillik, kelishuv) – qaror qabul qilish, nizolarni hal etish usuli. Ushbu tushuncha fikr, mulohazalar birligi, o'zaro kelishuv, ovoz beruvchilar barchasining roziligi olingan holdagina kuchga kiruvchi qaror qabul qilish ma'nolarini ham beradi. Keng ma'noda, biror-bir masala yuzasidan e'tiroz yo'qligi asosiy masalalar bo'yicha umumiy kelishuv bo'ladi. Ko'p fikr asosidagi ovoz. Xalqaro shartnomalar tuzishda parlament yoki kengashlarda tegishli qaror qabul qilish; bunda rasman e'tiroz bildirilmasa, ishtirokchilarning umumiy roziligi asosida rasmiy ravishda ovoz berilmaydi. K. usuli, shuningdek, BMT organlarida tan olingan bo'lib, shu tashkilot doirasida o'tkaziladigan halqaro konferensiya va kengashlarda qo'llaniladi.

**Konfessiya** -lat. cōfessio dinlar va uning shaxobchalari, tarmoqlari, mazhab, oqim va yo'nalishlarini ifodalovchi umumiy tushuncha.

**Kompromiss** – (lot.) turli fikr, yo'nalish, qarash, harakatlar kelishuvi.

**Konsepsiya** - lot. conceptio-idrok qilish, idrok, o'zlashtirish; u yoki bu hodisalarga nisbatan qarashlar tizimi; qandaydir hodisalarni ko'rib chiqish, nimanidir anglash usuli.

**Kon'yunktura** – lot. conjunctura - bog'lash, qo'shish. Bozorkon'yunkturasi – talab va taklif, baholar darajalari, mollar zaxiralari, shuningdek, iqtisodiy sikllar o'zgarishlar davri – ko'tarilish yoki tanazzul

kabilar o'zaro tegishli nisbati natijasida erkin bozordayuzaga kelgan iqtisodiy vaziyatlar. Kon'yunkturaning birinchi belgisi uning tez o'zgaruvchanligi, doimiy emasligi va aksariyat hollarda tebranib turishi hisoblanadi.

**Kooperatsiya**- lot. cooperatio-hamkorlik; ko'pchilik kishilarning birgalikda bitta yoki o'zaro bir-birlariga bog'lik o'lgan bir necha faoliyatlardagi ishtiroki, mehnatni tashkil etish shakllaridan biri; ishlab chiqarish va mahsulot ayirboshlash sohasidagi jamoaviy birlashma.

**Kosmopolitizm** - (yunon. kosmopolites — dunyo fuqarosi) — dunyo fuqaroligini da'vo qilish, shuningdek, milliy va davlat suverenitetini rad etish, turli milliy an'ana, madaniyat hamda vatanparvarlik tuyg'usidan voz kechish g'oyasini ilgari suradigan qarash. Kosmopolitizm- ya'ni, qaerda yaxshi hayot bo'lsa o'sha yerni vatan deb bilish. Bu tamoyil insonda vatan hissini yo'qotadi, g'ururni o'ldiradi. Bu esa har bir jamiyat uchun halokatlidir.

**Ko'ppartiyaviylik**—mamlakat parlamentida ko'pchilik o'rinni olish uchun teng imkoniyatga ega bir necha siyosiy partiyalar mavjud bo'lgan siyosiy tizim.

**Kuchli davlat** -omma faoliyatiga asoslangan kuchli boshqaruv tizimiga, rivojlangan iqtisodiyot, yuksak ma'naviyatga egabo'lgan davlat. Bunday davlat mustahkam iqtisodiy, huquqiy va ma'naviy asosga ega bo'ladi.Uningqudrati fuqarolar hamjihatligi, jamiyatdagi do'stlik va bag'rikenglik, har bir fuqaroning onglilik darajasi, davlat boshqaruvidagi faol ishtirokiga asoslanadi.

**Kuchli davlatdan-kuchli jamiyat sari** - ushbu konsepsiyaning mohiyati odamlarning siyosiy ongi, siyosiy madaniyati va faolligi yuksalib borgani sari davlat vazifalarining nodavlat tuzilmalari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tishi, mahallalarning nufuzi va mavqeining oshishi demakdir.

**Kuchli jamiyat**-mustahkam negizning barqaroligi ta'minlangan, davlatning boshqaruvchilik faoliyati qisqarib, jamoat tashkilotlarining roli kuchaygan, fuqarolarning qonun asosida, ularning huquq va erkinliklari oliy qadriyatlarga aylangan jamiyat.

**Kuchli fuqarolik jamiyati** – inson manfaatlari ustuvorligi va fuqarolik jamiyati institutlari orqali ularning davlat va jamiyat boshqaruvida faol ishtirok etishi ta'minlangan, qonun ustuvor bo'lgan jamiyat.

**Qonun** – qonunchilik hokimiyatining fuqarolar, jamiyat va davlat hayotiga taalluqli munosabatlarda muayyan tartib joriy etish borasidagi irodasining namoyon bo'lishi.

**Qonun ustuvorligi** – ushbu tamoyilning mazmuni shuni anglatadiki, qonun ijtimoiy hayotning barcha sohalarida qat'iy hukmron bo'ladi. Ya'ni, hech kim, hech birdavlat organi, mansabdor shaxs, tadbirkor yoki boshqa bir fuqaro qonunga bo'ysunishi, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy munosabatlar faqat qonun bilan tartibga solinadi, uning barcha ishtirokchilari esa, hech bir istisnosiz, huquq normalarini buzganligi uchun javobgarlikka tortilishi kerak. Huquqiy normalarni tadbiiq etishda konstitutsiya va qonunlarning normalari boshqa huquqiy normalardan ustun turadi.

**Legitimlik** – (lot. qonuniy) muayyan davlat hokimiyatining qonuniyligini a) fuqarolar tomonidan; b) xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilishini anglatuvchi qadriyatiy tushuncha. Tarixan an'anaviy, xarizmatik, oqilona-qonuniy shakllarda nomoyon bo'ladi.

**Liberalizm** – (lot. erkinlik) mafkura, ijtimoiy-siyosiy harakat. U ijtimoiy imtiyozlar va avloddan-avlodga o'tuvchi hokimiyatga qarshi chiqib burjua qatlamlarining qarashlarini o'zida mujassam etadi. Asosiy tamoyillari: individualizm, erkinlik, bozor va raqobatning mutloqligi, davlatni cheklash zarurligi (asoschilari I.Bentam, J.Mill, A.Smit, G.Spenser).

**Liberallashtirish** – ijtimoiy hayotning barcha sohalarida erkinlik ustuvor bo'lishini, jamiyatning evolyusion rivojlanish yo'lini e'tirof etuvchi va asoslovchi nazariya, amaliyot.

**Liga**- lot. ligare-bog'lamoq; ijtimoiy-siyosiy birlashma; davlatlar, tashkilotlar, alohida shaxslar ittifoqi.

**Lobbi** - lot. lobby-kuluar; jamiyatdagi ma'lum bir siyosiy doiralar, kuchli iqtisodiy tizimlar manfaatlarini ifodalovchi, ana shu manfaatlarini amalga oshirish parlament va mansabdorshaxslarga bosim o'tkazishga intilayotgan guruhlar.

**Madaniyat** – kishilarning tabiatni, borliqni o'zlashtirish va o'zgartirish jarayonida yaratgan moddiy, ma'naviy boyliklar hamda bu boyliklarni qayta tiklash va bunyod etish yo'llari va uslublari majmui.

**Madaniyatli odam** – o‘qimishli, zamon talablari asosida kiyinish va muomala me‘yorlariga amal qiluvchi, ahloq normalariga to‘la amal qiladigan, ilg‘or falsafiy g‘oyalarga ega bo‘lgan, jahon madaniyati durdonalaridan xabardor bo‘lgan shaxsga aytiladi.

**Manfaat** – individ va ijtimoiy guruhlar faoliyatining asosiy sababi.

**Manfaatlar** - lot. interest ahamiyat kasb etish, muhim; ob‘ektiv ravishda ahamiyat kasb etgan, inson, jamoa, millat, jamiyat kabilar uchun zarur bo‘lgan zaruriy ehtiyojlar; kimgadir farovonlik bag‘ishlaydigan, kimgadir foyda keltiradigan narsalar.

**Manfaatlar guruhleri** – unga a‘zo bo‘lgan kishilarning manfaatlarini boshqa guruhlar va siyosiy institutlarning o‘zaro munosabatlarida, shuningdek, o‘z guruhi ichida ifoda qilish uchun tuzilgan ixtiyoriy tashkilotlar.

**Marginal** – (fr. “marginal”) ikkinchi darajali, oxirgi, chetda turuvchi; siyosatshunoslikda – oldingi ijtimoiy aloqalarini yo‘qotgan, yangi hayot shart-sharoitlariga hali moslasha olmagan, qandaydir ijtimoiy guruhlar orasida yoki eng chekkasida turgan ijtimoiy odam, jamiyatning sirtida qolgan: lyumpen, miskin va hokazo.

**Mahalliy (yoki munitsipal) boshqaruv** - ma‘muriy-hududiy birliklardagi aholining manfaatlarini ifodalaydigan va saylab qo‘yiladigan organlar hamda ularning ma‘muriy apparati tomonidan amalga oshiriladigan mahalliy ahamiyatga molik ishlarni boshqarish.

**Ma‘naviy barkamol inson** – komil inson tushunchasi bilan hamohangdir. Ayni vaqtda ma‘naviy barkamol inson tushunchasi sog‘lom avlod tushunchasi bilan ham bog‘lanib ketadi. Ilmiy adabiyotlarda bu tushunchalar alohida-alohida ishlatilsa-da, mohiyatan ularning hammasi inson axloqi va odobini, ularda shakllangan barcha ijobiy xislatlarni, ularning insonlarga, jamiyatga va Vatanga bo‘lgan munosabatlaridan tortib, toki oilaga, ota-onaga va boshqalarga munosabatlarining barcha qirralarini qamrab oladi.

**Ma‘naviy jasorat** – yer yuzida barcha o‘lmas obidalarni, insoniyat hayotini tubdan o‘zgartirib yuborgan jamiki ulug‘ kashfiyot va ixtirolarni, mumtoz san‘at va adabiyot durdonalari hamda mardlik va qahramonlik namunalarini ko‘rsatgan insonlarning mislsiz aql-zakovati vayuksak ma‘naviy salohiyatini ifodalaydi.

**Ma'naviy tahdid** – tili, dini, e'tiqodidan qat'i nazar, har qaysi odamning tom ma'nodagi erkin inson bo'lib yashashiga qarshi qaratilgan, uning aynan ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko'zda tutadigan mafkuraviy, g'oyaviy va informatsion hurujlarni nazarda tutadi.

**Ma'naviyat** – insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, imon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir.

**Ma'naviyatga tahdid** – inson qalbi va imon e'tiqodini susaytirishga qaratilgan hamda insonning o'zligidan begonalashtirib, kelajagidan mahrum etishga yo'naltirilgan yot va begona g'oyalar.

**Ma'naviyatni shakllantiradigan mezonlar** – inson ongiga ta'sir ko'rsatadigan, uning dunyoqarashi tafakkur tarzini muayyan yo'nalishga soladigan, o'zgartiradigan, jamiyat, millatga xos ma'naviy, madaniy va moddiy asoslar, an'analar, qadriyatlar, meros, turmush tarzi, g'oyalar va qarashlarni umumlashtiruvchi tushuncha.

**Ma'rifat** – ta'lim tarbiya, iqtisodiy, siyosiy, falsafiy, diniy va ma'naviy boyliklarning, ularni yanada ko'paytirib hamda takomillashtirib borish usullarining majmui.

**Mentalitet** - fran.mentalite; lot mentalis-aqliy, ruhiy, ma'naviy, aql yo'nalishi aql bichimi, akliy yetuklik, zakovat; ma'lum shaxs, ijtimoiy guruh (kichik, katta, milliy) uchun xarakterli bo'lgan dunyoqarash, dunyoni anglash, atrof voqelikni qabul usuli; fikrlash tarzi.

**Mexanizm** - yunon. mechane-qurol, inshoot; harakat va tezlikni amalga oshirish yoki uzatish qurilmasi. Siyosatda ma'juziy ma'noda biron-bir reja, dastur, maqsadni amalga oshirish yo'l-yo'riqlarini va vositalariga nisbatan qo'llaniladi.

**Millat** — til, ma'naviyat, milliy o'zlikni angash ruhiyati, urf-odatlar, an'analar va qadriyatlar yagonaligi asosida muayyan hududda yashovchi iqtisodiy aloqalar bilan bog'langan mustaqil sub'ekt sifatida o'ziga xos moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratuvchi kishilarning etnik birligidir.

**Millatlararo munosabatlar** — birga yoki ayri tarzda yashaydigan har xil millatlar o'rtasida amalga oshadigan turli-tuman shakllardagi aloqalarni anglatuvchi tushunchadir.



**Millatlararo totuvlik g'oyasi** - milliy istiqloq mafkurasining asosiy g'oyalaridan biri bo'lib, mamlakatimizda istiqomat qilib kelayotgan barcha etnik vakillari bilan, avvalambor, o'zbek millati va shu bilan birga o'zlarining o'rtasida ko'p yillarga mo'ljallangan ezgulik, ishonchlik, do'stonalik, yakdillik, qarindoshlik, ma'naviy-axloqiy va mafkuraviy yaqinlik va birdamlik, muvofiqlik va boshqa insoniylik munosabatlari mavjudligini va kelajakda ham u yanada kamol topishini ifodalaydi.

**Millatchilik** bu - millat ayirish, bir millatni har tomonlama ulug'lab, boshqalarining huquq, ehtiyoj va manfaatlarini nazar-pisand qilmaslik, ularni yerga urishdan iborat bo'lgan nodemokratik mafkura.

**Milliy g'oya** – ajdodlardan avlodlarga o'tib, asrlar davomida e'zozlab kelinayotgan, shu yurtda yashayotgan har bir inson va butun xalqning qalbida chuqur ildiz otib, uning ma'naviy ehtiyoji va hayot talabiga aylanib ketgan, ta'bir joiz bo'lsa, har qaysi millatning eng ezgu orzu-intilish va umid-maqсадlari yig'indisi.

**Milliy g'oya negizlari** – ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan, xalqning o'ziga xos milliy xususiyatlarini ifodalagan milliy ma'naviy meros qadriyatlari hamda dunyo xalqlari tomonidan e'tirof etilgan demokratiyaning umuminsoniy prinsiplar majmuidir.

**Milliy qadriyat** – millat uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan etnik jihat va xususiyatlar bilan bog'liq bo'lgan qadriyat shakli.

**Milliy mafkura** – millatning etnoijtimoiy birlik sifatida mavjud bo'lishi va rivojlanishini, erkin va ozod taraqqiyotini g'oyaviy asoslash, ta'minlashga qaratilgan qarashlar tizimi

**Model**- fran. modele-namuna, tarx, nimanidir tasviri tavsifi.

**Modernizatsiyalash**- fran. modernizer-zamonaviy; zamonaviylashtirish, hozirgi davr talablari, tarzi va didiga mutanosib ravishdagi o'zgarishlarni amalga oshirish.

**Mulk ob'ektlari** - mulkka aylangan barcha boylik turlari. Mulk sub'ektlari - mulk ob'ektini o'zlashtirishda qatnashuvchilar, mulkiy munosabatlar ishtirokchilari.

**Mulkdan foydalanish** - mol-mulkning Iqtisodiy faoliyatda ishlatilishi yoki ijtimoiy hayotda qo'llanilishi, ya'ni uning nafli jihatlarining bevosita iste'mol qilinishi.

**Mulkni tasarruf etish** - mol-mulk taqdirini mustaqil hal qilish. Mulkka egalik qilish - mulkdorlik huquqining uning egasi qo'lda saqlanib turishi va yaratilgan moddiy boyliklarni o'zlashtirishning ijtimoiy shakli.

**Mulkchilik munosabatlari** - mulkka egalik qilish, undan foydalanish, uni o'zlashtirish va tasarruf etish jarayonida vujudga keladigan munosabatlar.

**Munitsipal boshqaruv** - ingl. municipal o'zini o'zi boshqarish; bu boshqaruvning nisbatan nomarkazlashgan shaklidir. Shu bilan bir vaqtning o'zida u fuqarolik jamiyatining instituti hisoblanadi. Bunday boshqaruv organlarining asosiy belgilari, - ularning saylanishligi va o'z hududidagi aholi manfaatlari asosida mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan ishlarga rahbarlik qilishdagi nisbatan mustaqillik.

**Munitsipalitet**- fran.municipalite-shahar o'zini o'zi boshqarish organi; ko'pchilik mamlakatlardagi o'zini o'zi boshqarish organlari.

**Mustaqil bosma OAV lari** -davlat boshqaruvidan holi bo'lgan, o'zining fikr va so'z erkinligini ro'yobga chiqaruvchi, lekin bunda o'z faoliyatini amaldagi qonunchilik doirasidagina olib boruvchi ommaviy axborot vositalaridir.

**Nizom**- muayyan davlat yoki jamoat tuzilmalarini tashkil etish tartibini, tuzilishi, vazifasi, funksiyalari va vakolatlarini belgilovchi kodekslashtirilgan normativ hujjat hisoblanadi.

**Nodavlat notijorat tashkiloti (NNT)** - jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad (foyda) olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foydani) o'z qatnashchilari (a'zolari) o'rtasida taqsimlamaydigan o'zini o'zi boshqarish tashkilotidir.

Nodavlat notijorat tashkiloti jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, boshqa demokratik qadriyatlarni himoya qilish, ijtimoiy, madaniy va ma'rifiy maqsadlarga erishish, ma'naviy va boshqa nomoddiy ehtiyojlarni qondirish, xayriya faoliyatini amalga oshirish hamda boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarda tuziladi.

**Nodavlat elektron ommaviy axborot vositalari** - o'z oldida Internet tarmog'ida ommaviy axborot vositasi (OAV) funksiyalarini bajarish vazifasini qo'yuvchi nodavlat tusdagi ro'yxatga olingan veb-saytlari.

**Okkultizm**, - fr. occultisme, nem. Okkultismus < lat. occultus – sirli, yashirin, dunyoning yashirin, g'ayrishuuriy, ilmiy tafakkurga sig'maydigan, ammo "tanlangan", "taqim etilgan"largagina nasib etuvchi qudrati haqida notabiiy qarash.

**Ommaviy axborot vositalari** – keng ko'lamda axborotni yig'ish, ishlash va tarqatishni ta'minlovchi ijtimoiy institutlar va kanallar (matbuot, kitob nashriyotlari, matbuot agentliklari, radio, televidenie va h.k.).Ommaviy axborotni davriy tarqatishning doimiy nomga ega bo'lgan hamda bosma tarzda (gazetalar, jurnallar, axborotnomalar, byulletenlar va boshqalar) va (yoki) elektron tarzda (tele-, radio-, video, kinoxronikal dasturlar, umumfoydalanishdagi telekommunikatsiya tarmoqlaridagi veb saytlar) olti oyda kamida bir marta nashr etiladigan yoki efirga beriladigan shakli hamda ommaviy axborotni davriy tarqatishning boshqa shakllari ommaviy axborot vositasidir. «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida.(O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2007 y., 3-son, 20-modda)

**Parlament** - ingl. parlament, frans. parlargapirmoq va so'zlamoq; parlament oliy qonun chiqaruvchi vakillik organi hisoblanadi.

**Parlamentdagi ko'pchilik**–O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasida ko'pchilik o'rinni egallagan siyosiy partiya fraksiyasi.

**Parlamentdagi muxolifat**–yangitdانشakllantirilgan hukumatning tutgan yo'li va dasturiga yoki uning ayrim yo'nalishlariga qo'shilmaydigan siyosiy partiyalar fraksiyalari, shuningdek O'zbekiston ekologik harakatidan saylangan deputatlar guruhi.

**Partitsipatsiya** – (ingl) ishtirok etmoq; fuqarolar tomonidan davlat va jamiyat ishlarini boshqarish jarayonida u yoki bu funksiyalarni bajarishini shart qilib qo'yadigandemokratiyaning modeliga doir nisbat.

**Partiya** - lot. pars (partis)-qism, guruh; qandaydir ijtimoiy qatlam yoki guruhmanfaatlarini ifodalovchi, qandaydir siyosiy maqsadlarni ko'zlovchi tashkilot.

**Passiv saylov huquqi** - fuqarolarning saylanadigan davlat organlari va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlariga saylanish huquqi.

**Plyuralizm** - lot. pluralis-turlicha, turli tuman; turli ijtimoiy qatlamlar manfaatlarini ifodalovchi turli tuman ijtimoiy-siyosiy kuchlar mavjud bo'lgan siyosiy tizim.

**Plyuralizm** - lot. pluralis-turlicha, turli tuman; turli ijtimoiy qatlamlar

**Polietnik** – ko'pmillatli, monoetnik – yakka, yagona yoki bir millatli.

**Prezident** – lot. praesidens (praesidentis) – oldinda o'tiruvchi, raislik qiluvchi, boshda turuvchi so'zlaridan olingan bo'lib, ko'pchilik Prezidentlik va parlament respublikalari joriy etilgan mamlakatlarda ma'lum bir muddatga saylangan davlat boshlig'i.

**Pressa** - fran. presse; ommaviy axborot vositalari; ommaviy joriy matbuot.

**Prinsip**- lot. principium-asos, dastlabki, boshlang'ich; asos bo'ladigan poydevor g'oyalar; xulq, faoliyat va hatti-harakatning asosiy qoidasi.

**Proporsional** (- ot. proportionalis-mutanosib; saylovlarda nomzodlar uchun beriladigan ovozlar ro'yxatlar bo'yicha beriladigan, har bir ro'yxat uchun berilgan ovozlarga mutanosib ravishda joy egallanadigan saylov huquqi tizimi.

**Profitsit** – budjetga nisbatan qo'llanilganida budjetning daromad qismini uning xarajat qismiga nisbatan ortiq bo'lganligini ifodalaydi.

**Ratsional** – (lot. rationalis-oqilona); maqsadga muvofiq, asoslangan, dalillangan (eng to'g'ri yo'l ma'nosida ham ishlatiladi).

**Rejim**- fran. rejime; davlat tuzumi, idora etish obrazi.

**Saylov** – aholining rasmiy mansabni egallash uchun biror shaxsni tanlashi jarayonidir.

**Saylov huquqi** – davlat boshlig'i, vakillik organlari va boshqani saylash tartibini belgilab beruvchi huquqiy normalar yig'indisi. Saylov huquqi, odatda, konstitutsiya va saylov to'g'risidagi maxsus qonunlar bilan belgilanadi.

**Sektorlararo nazariya**- ijtimoiy sheriklikning uch sektor: davlat organlari, biznes vakillari va fuqarolik jamiyatining institutlari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishi to'g'risidagi nazariya

**Senat** - lot. senatus-eski, qariya; ko'pchilik mamlakatlar parlamentining yuqori palatasi.

**Siyosat seb'ekti** – siyosiy munosabatlarda ishtirok etayotgan kuchlar, sotsial guruhlar, qatlamlar, tashkilotlar siyosiy faoliyatning tashuvchilari, siyosatning sub'ekti hisoblanadi.

**Siyosiy jarayonlar** – turli siyosiy institutlar, ijtimoiy guruhlar, tashkilotlar individlar munosabati sifatida namoyon bo'ladi.

**Siyosiy qarashlar** – siyosiy qarashlarning shakllanishi va qaror topishida o'ziga xos an'analar mavjud bo'lib, siyosiy hodisalar turli xil talqin etilgan.

**Siyosiy madaniyat** - insonning siyosiy hodisalarga doir qadriyatlarga oid tasavvurlari va uning amaliyotda namoyon bo'ladigan xulqi kodeksi yoki uning siyosiy hokimiyat sub'ekti sifatidagi faoliyat uslubi. Shu ma'noda, siyosiy madaniyat fuqaroning umuminsoniy ahamiyatga molik bo'lgan siyosiy faoliyat namunalarini qay darajada egallaganligini namoyish qiladi.

**Siyosiy ong** – turli ijtimoiy guruhlar davlat hokimiyatiga, siyosiy tashkilotlar, ularning jamiyat hayotidagi rolga, boshqa davlat va millatlar bilan munosabatiga oid qarashlarning bir tizimga solingan nazariy ifodasi.

**Siyosiy partiyalar** – ijtimoiy guruhlar manfaatlarini ifodalovchi, ularning eng faol vakillarini birlashtiruvchi siyosiy tashkilotlar. Siyosiy partiyalar jamiyat siyosiy tizimining muhim qismi, ular davlatning siyosiy yo'nalishini belgilashda ishtirok etadi, hukumatning vakillik va ijro etuvchi muassasalarini shakllantiradi.

**Siyosiy tashkilotlar** – siyosiy partiyalar, turli ijtimoiy qatlam va guruhlarining manfaatlarini, maqsadlarini ifoda etadi.

**Siyosiy tizim** jamiyatda davlat hokimiyati va boshqaruvni shakllantirish va amalga oshirish bilan bog'liq munosabatlar harakatlarida o'z ifodasini topadi.

**Sotsial** – lot. socialis – ijtimoiy, jamoatchilik; jamiyat va ijtimoiy munosabatlar bilan bog'langan.

**Sotsium** - lot. socium-umumiy, birgalikdagi; insonlar hayot faoliyati shart-sharoitlarini birligini xarakterlovchi ijtimoiy umumiylik, birlik.

**Strata** – (lot.stratum)-qatlam.

**Struktura** (lotincha “structura” –“tuzilma”, “tuzilish”) – ob'ektning bir butunligini va uning o'ziga o'zi aynanligini, ya'ni turli ichki va tashqi o'zgarishlarda o'zining asosiy xususiyatlarini saqlay olishini ta'minlovchi barqaror aloqalar yig'indisidir.

**Subordinatsiya** – (lot.) tartibga keltirish; xizmat intizomi qoidalariga tegishli holda martaba darajalari bo'yicha kichik mansabdorlarni katta mansabdorlarga bo'ysunishiga qat'iy amal qilish.

**Suveren** – fran. souverain-oliy so'zidan olingan bo'lib, oliy, suverenitetga ega bo'lish, mustaqil, qaram bo'lmagan ma'nolarini beradi.

**Suverenitet** – (fran. “souveränität”) davlatning ichki ishlar va tashqi munosabatlarda xorijiy aralashuvlarga yo'l qo'ymagan holdagi mustaqilligi va muxtoriyati.

**So'z erkinligini ta'minlash** – insonning fundamental va tabiiy huquqlaridan biri – o'z fikrini (hayolini) oshkora (og'zaki, yozma ravishda va/yoki ommaviy axborot vositalardan foydalangan holda) ifoda etish huquqini amalga oshirish uchun kompleksli shart-sharoitlarni yaratish.

**So'z erkinligini ta'minlash** – insonning fundamental va tabiiy huquqlaridan biri – o'z fikrini (hayolini) oshkora (og'zaki, yozma ravishda va/yoki ommaviy axborot vositalardan foydalangan holda) ifoda etish huquqini amalga oshirish uchun kompleksli shart-sharoitlarni yaratish.

**Tabaqa** (qatlam) - o'xshash kasb-hunar, mashg'ulot, holati va ahvoli bilan manfaatlar umumiyliги asosida birlashgan shaxslarning yirik guruhi.

**Taraqqiyot** – jamiyat rivojlanishining oddiydan murakkabga, Yu quyidan yuqoriga yo'nalgan, bir sifat bosqichidan yangi sifat bosqichiga o'tishi jarayoni.

**Taraqqiyotning “O'zbek modeli”** - istiqlolning dastlabki yillarida Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov rahbarligida ishlab chiqilgan islohotlar strategiya bo'lib, taraqqiy topgan mamlakatlarning bozor munosabatlariga o'tish tajribasi, mamlakatimiz boshidan kechirgan tarixiy sinovlar va ularning saboqlari, xalqimizning turmush va tafakkur tarzi asos qilib olindi. Shu tariqa yurtboshimiz tomonidan jamiyatni isloh etishning chuqur ilmiy asoslangan quyidagi besh tamoyili vujudga keldi: Birinchi tamoyil: iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi; Ikkinchi tamoyil: davlat – bosh islohotchi; Uchinchi tamoyil: jamiyat hayotining barcha sohalarida qonunning ustuvorligi; To'rtinchi tamoyil: aholining demografik tarkibini hisobga olgan holda, kuchli ijtimoiy siyosat yuritish; Beshinchi tamoyil: bozor iqtisodiyotiga ob'ektiv iqtisodiy qonunlarning talablarini hisobga olgan holda, tadrijiy asosda, puxta o'ylab, bosqichma-bosqich o'tish.

**Tashabbus**- lot. initsiativa initiative-tashabbus; qandaydir ishni boshlashga undash, ishbilarmonlik; muhokama qilish uchun takliflar berish.

**Texnotronika** -ingl. technetronic;. Elektronikadan foydalanib jamiyatga ta'sir etuvchi texnika vositalari.

**Tinchlik** – insonning hayotiy ehtiyoji, emin-erkin yashashi va kamol topishining eng zarur omili.

**Tolerantlik** - fr. tolyrant (lat. Tolerāns-tolerantis) hozirgi o'zbek tilida lug'aviy tarjima qilganda chidamlilik, sabrlilik, bardoshlilik, toqatlilik ma'nolarini anglatadi. Antik davr va o'rta asrlarga qadar asosan tabobat sohasida keng istifoda etilgan mazkur tushuncha hayvonlar va insonlar organizmlarining turli-tuman kasalliklar, jarohatlar va umuman, hayot uchun kurashish jarayonlariga doir immun qobiliyatini o'rganish masalalariga aloqador bo'lgan. Keyinchalik boshqa fanlar doirasida ham e'tiborli asarlar yaratgan mashhur tabobat olimlari va aksincha, tabobat borasida ham diqqatga sazovor fikrlar bildirgan boshqa soha olimlari mazkur tushunchani kengroq ma'noda qo'llay boshlaganlar (Epimenid, Gorgiy, Aristotel, Epiktet, Ibn Sino). XX asrga qadar tolerantlik tushunchasining ayniqsa din bilan bog'liq muruvvat ma'nosidagi talqinlariga ko'p duch kelish mumkin. Lekin mazkur asr boshlaridan texnika taraqqiyoti va uning asosida mehnatni tashkil etish munosabatlarining jadal rivojlanishi natijasida tolerantlik tushunchasi davlat va xalq munosabatlarida, ayniqsa huquqiy munosabatlar tizimida keng mazmun kasb etadi. Endi tushuncha chidam, sabr-toqat ma'nolarini yo'qotmagan holda ko'proq bag'rikenglik, hamjihatlik, hamkorlik kabi mazmunda talqin etila boshlandi.

**Totalitar** - lot. totalis-butun, to'la, bir butun); davlat hokimiyati organlari tomonidan jamiyat hayotining hamma sohalarini nazorat qiladigan davlat shakli, amalda konstitutsion huquq va erkinliklarni tugatilishi; bu rejimda davlat hokimiyati biron-bir guruh (siyosiy partiya) qo'lida to'planib, mamlakatda demokratik erkinliklar va siyosiy muholifatni amal qilishi uchun imkoniyatlar bo'lmaydi.

**Tranzaksiya** – ingl. bank transaction, ot lot. transactio - kelishuv, shartnoma; tranzaksiya – bu sotib olishga doir sharnomani tuzish/moliyaviy vositalarni sotishga doir shartnoma. Bank tranzaksiyasi,

deganda bir bank hisob raqamidan ikkinchisiga yoki bank ichidagi bir hisob raqamidan ikkinchisiga pul mablag'larini o'tkazish tushuniladi.

**Transformatsiya** - lot. transformatio – o'zgarish; tuzilmalarni, shakllarni va usullarni o'zgartirish, faroliatning maqsadli yo'nalishini o'zgartirish.

**Tred-yunionistik nazariya-** ijtimoiy sheriklikning mhnat munosabatlarni tartibga solishi to'g'risidagi nazariya

**Tripartizm**-ijtimoiy sheriklikning davlat organlari, biznes vakillari va nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari o'rtasidagi kelishuv.

**O'zini o'zi boshqarish** (ingl. municipal o'zini o'zi boshqarish); u yoki bu ma'muriy-hududiy birliklardagi aholining vakolatlarini ifodalovchi saylangan organlar va ularning ma'muriy apparati tomonidan amalga oshiriladigan mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan ishlarni boshqarishga aytiladi. O'zbekistonda o'zini o'zi boshqarish organlari tarkibiga mahalla, qishloq, ovul va shaharcha fuqarolar yig'inlari kiradi.

**O'zini o'zi boshqarishning asosiy prinsiplari** - O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida va qonunlarida mustahkamlangan o'zini o'zi boshqarish organlarining tabiati bilan bog'liq bo'lgan mustaqil faoliyatni amalga oshirishni tashkil qiluvchi rahbariy g'oyalar yig'indisidir.

**Uklad** - tartib, tarz; ma'lum ijtimoiy-iqtisodiy tuzumning asosiy xo'jalik shakli.

**Umumbashariy qadriyat** – dunyo xalqlarining ko'pchiligi tomonidan tan olingan, huquqiy me'yorlar tarkibiga kiritilgan yoki qadriyat, an'ana va mas'uliyatiga aylangan, voqe'lik vayohud munosabatlar tizimiga nisbatan qo'llaniladigan tushuncha.

**Umuminsoniy qadriyatlar** – butun insoniyatning tajribasini ifodalovchi va ma'lum farqlanishlar bo'lishidan qat'i nazar, barcha odamlar uchun mushtarak bo'lgan dunyoqarashning ideallari yoki axloqiy normalar.

**Uchinchi sektor** – dunyodagi barcha mamlakatlarda notijorat va xayriya maqsadlarida tashabbus ko'rsatayotgan va keng faoliyat yuritayotgan nodavlat notijorat tashkilotlariga (NNT) nisbatan qo'llaniladi (birinchi sektor – davlat, ikkinchi sektor – tijorat sektori yoki shaxsiy sektor deyiladi).



**O'ng** – siyosiy kuchlar joylashuvida jamiyatning ijtimoiy-siyosiy tuzilishini saqlanishini maqsad qilib olgan konservativ siyosiy oqim.

**Universal** – (lot. universalis –umumiy); har tomonlama, keng qamrovli, ko'plab maqsadlar uchun yaroqli, turli vazifalarni va funksiyalarni bajara oladigan.

**Uchinchi sektor** - dunyodagi barcha mamlakatlarda notijorat va xayriya maqsadlarida tashabbus ko'rsatayotgan va keng faoliyat yuritayotgan nodavlat notijorat tashkilotlarga (NNT) nisbatan qo'llaniladi (birinchi sektor - davlat, ikkinchi sektor - tijorat sektori yoki shaxsiy sektor deyiladi).

**Faol (aktiv) saylov huquqi** - fuqaroning saylanadigan davlat organlari va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlariga saylash huquqi.

**Feminizm-** lot. femina-ayol; erkaklar bilan ayollar huquqlarini tenglashtirish uchun faoliyat yuritadigan ayollar harakati.

**Feminizm-** lot. femina-ayol; erkaklar bilan ayollar huquqlarini tenglashtirish uchun faoliyat yuritadigan ayollar harakati.

**Fikr erkinligi-** bu jamiyat a'zosi bo'lgan har bir shaxs tabiiy va ijtimoiy jarayonlarga, fuqarolar bilan siyosiy tashkilotlarga va milliy, irqiy, diniy, sinfiy munosabatlarga ega bo'lgan mustaqil fikrlarini huquqiy, siyosiy diniy va boshqa muassasalar tomonidan bo'lishi mumkin bo'lgan turli tazyiqlardan muhofaza qiladigan ijtimoiy muhit.

**Fiskal** - [ingl.](#) fiscal policy; [lot.](#) fiscus - savat;kassa, kazna, moliya, soliq-budjet siyosati hukumat siyosati, ya'ni istiqbolda barqaror iqtisodiy tizimni ta'minlash va biznes-sikllarni tebranishini kamaytirish maqsadida davlatning iqtisodiyotga aralashuv usullaridan biri; fiskal siyosatining asosiy quroli davlat budjetining daromadlari va harajatlari, ya'ni: soliqlar, transfertlar va davlat sotib olgan tovarlar va xizmatlar.

**Forum-** lot. forum;vakillar majlisi, qurultoyi, kongressi; qadimgi Rimda xalq majlisi o'tkazilgan maydon.

**Fraksiya** - lot. fractio-buzish, sinish, darz ketish; parlament a'ziligiga yoki boshqa vakillik organlariga saylangan deputatlar birlashmasi.

**Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining hududiy asosi** - fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini tuzish, birlashtirish, tugatish hamda ularning chegaralarining o'rnatish va o'zgartirish tartib-qoidalarini belgilab beruvchi huquqiy normalarning mushtarak tizimidir.

**Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishi** -O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Qonunlari bilan kafolatlanadigan ularning o'z manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy xususiyatlaridan, shuningdek milliy va ma'naviy qadriyatlardan, mahalliy urf-odatlar va an'analardan kelib chiqqan holda mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal qilish borasidagi mustaqil faoliyatidir.

**Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishning tashkiliy asosi** - o'zini o'zi boshqarish huquqining instituti sifatida o'zini o'zi boshqarish organlarining tuzilishi, faoliyat tartibi, shakli va prinsiplarini, faoliyat doirasini belgilab beruvchi huquqiy normalarning mushtarak tizimidir.

**Fuqarolarning o'zini o'ziboshqarish organlari faoliyatining moliyaviy asosi** - fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining o'z mablag'laridan, ushbu organlarga xalq deputatlari tuman va shahar kengashlari belgilangan tartibda ajratgan budjet mablag'laridan, yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy hayr-ehsonlaridan, shuningdek, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa mablag'lardan tashkil topadi.

**Fuqarolik** – insonlarni muayyan davlat, davlatchilik bilan bog'liq huquqiy holatlarini, munosabatlarini ifoda etuvchi tushunchadir.

**Fuqarolik jamiyati** – fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvida tegishli fuqarolik institutlari orqali faol ishtirok etishi ta'minlangan ijtimoiy makondir.

**Fuqarolik jamiyati institutlari** – fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvida ishtirok etishiga xizmat qiladigan nodavlat, notijorat tashkilotlari, jamiyat birlashmalari, oila, mahalla, ijtimoiy harakatlar va boshqa tuzilmalar majmuidir.

**Fuqarolik mas'uliyati** – qonun ustivorligini tan olish va har bir shaxsning ijtimoiy hayotni takomillashtirish jarayonida ishtirok etish vazifasini teran his qilish.

**Funksiya** - lot. functio-faoliyat, o'tash, bajarish; faoliyat, majburiyat, ish, tayinlash, burch, vazifa, topshiriq.

**Funksiya** - lot. functio-faoliyat, o'tash, bajarish; faoliyat, majburiyat, ish, tayinlash, burch, vazifa, topshiriq.

**Xalq** - (arab. yaratilgan jonzot, odamlar) –keng ma'noda, muayyan mamlakatning barcha aholisi, tor ma'noda, tarixiy-etnoijtimoiy birliklarning turli shakllari, chunonchi, millat, elat, etnik birlik, urug' va boshqalarni ifoda

etuvchi tushunchadir. Xalq - birinchi marta xalqaro huquq sub'ekti sifatida 1945 yili BMT Ustavida "Xalqlarning tengligi va o'z taqdirini o'zi belgilash" tamoyilining mustahkamlanishi natijasida tan olingan.

**Xalq farovonligi** – milliy istiqlol mafkurasining asosiy g'oyalaridan biri. Xalq farovonligi har bir shaxs va oila farovonligi bilan bog'liqdir. Bunda insonning shaxsiy manfaatlari jamiyat manfaatlari bilan uyg'unlashib ketadi va har bir fuqaroning farovonligi butun jamiyat farovonligidir, degan tamoyil amalga oshadi.

**Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT)** – Birlashgan Millatlar Tashkiloti tizimining ixtisoslashgan muassacasi bo'lib, u ijtimoiy adolat tamoyillarini, xalqaro tan olingan inson huquqlari va mehnat sohasidagi huquqlarni ilgari surishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. 1919 yilda tashkil topgan XMT 1946 yilda BMT tizimiga kirgan birinchi ixtisoslashgan muassasa bo'lgan.

**Xartiya** – (yun. qog'oz, yorliq) o'rta asrlarda ommaviy huquqiy siyosiy xarakterdagi xujjat bo'lgan. Hozirgi xalqaro huquqda deklaratsiyaning sinonimi. U – majburiy kuchga ega bo'lmagan, umumiy tamoyillar va maqsadlarni ifoda etuvchi xujjat.

**Xususiylashtirish** - mulkka egalik huquqining davlatdan xususiy shaxslarga o'tishi.

**Hamkorlik siyosati** – xalqaro siyosat sub'ektlarining birgalikdagi siyosiy harakatlarda vujudga keladigan masalalar yuzasidan yagona nuqtai nazarlarni ishlab chiqishida ifodalanuvchi munosabat turlaridan biri. Unga ko'ra tomonlar o'z faoliyatining asosiy yo'nalishlarida mustaqillikni saqlab qolgani holda qarashlar mos tushuvchi amaliy masalalarda birgalikda faoliyat ko'rsatadilar. Masalan, gitlerchi Germaniyasiga qarshi davlatlar hamkorligi.

**Huquq** - davlat qonunlari bilan beriladigan erkinlik, harakat qilish imkoniyati, nimanidir amalga oshirish yoki nimadandir foydalanish, nimagadir egalik qilish; jamiytdagi munosabatlarni, kishilar va ularning harakati va xulqini muvofiqlashtirish, davlat va jamiyat organlarini yashashini ta'minlashga imkoniyat berish maqsadlarida davlat tomonidan o'rnatilgan va himoya qilinadigan umum majburiy ijtimoiy me'yorlar va qoidalar.

**Huquqiy davlat** - huquq, Konstitutsiya va Qonun hukmronlik qiladigan davlatdir. Davlat va uning institutlari, mansabdor shaxslar jamiyat

va fuqaro oldidagi o'z ma'suliyatlarini his qilishlari, o'z navbatida jamiyat va fuqaro, uning tashkilotlari davlat oldidagi ma'suliyatlarini his qilishlari kerak. Bu ma'suliyatni oshirish orqali huquqiy demokratik davlat shakllantiriladi va rivojlantiriladi hamda bu jarayon uzoq muddatni talab etadi.

**Huquqiy madaniyat** – umumiy madaniyatning muhim qismi. Huquqiy madaniyat tarixan asta – sekin shakllangan ijtimoiy voqea bo'lib, hozirgi davrda ilg'or huquqiy davlatlarning va ularning fuqarolarining zaruriy xislati va taraqqiyot omiliga aylangan.

**Shok terapiyasi** (iqtisodiyotda) – iqtisodiyotni sog'lomlashtirishga yo'naltirilgan qator salbiy oqibatlarni (narxlarning o'sishi, inflyatsiya, bandlikning pasayishi va shunga o'xshash boshqa holatlar) o'z ichiga oluvchi radikal chora-tadbirlar majmuasi.

**Evolyusiya** (lotin tilidan tarjimasi – boshlash, vujudga kelish) – tizimning rivojlanish jarayonini anglatadigan tushuncha bo'lib, birinchi galda jamiyatga xosdir. Unga ko'ra, jamiyatda asta-sekin yuz berayotgan o'zgarishlar tizimga, uning tuzilmalari tashkil qilinishi va funksiyalari sifatli o'zgarishiga olib keladi.

**Egalitarizm** – fran. egalite-tenglik; umumiy tenglashtirishni jamiyatni tashkil etishning prinsipi g'oyasiga asoslangan ijtimoiy-siyosiy fikr yo'nalishlaridan biri.

**Elat** – bir tilda so'zlashuvchi, o'ziga xos madaniyati mavjud bo'lgan va ma'lum hududda yashaydigan hamda muayyan maqsad asosida birlashgan va o'z tuzilmasiga ega bo'lgan ijtimoiy-tarixiy birlik tushuniladi. Elat— kishilarningtil, hudud, iqtisodiy va madaniy jihatdan tarixan tarkib topgan birligi.

**Elektoral** – lot. elector-saylovchi; saylanadigan, tanlanadigan.

**Elektorat** – saylovlarda ma'lum siyosiy partiyaga (siyosiy lider)ga ovoz beruvchi saylovchilar davrasi; ma'lum bir saylov okrugi yoki mamlakat saylovchilari majmui.

**Elektron huqumat** – (angl. e-Government) – bu fuqarolar, biznes, davlat hokimiyatining boshqa tarmoqlari va davlat xizmatchilariga axborotni taqdim qilish va shakllanib bo'lgan davlat xizmatlarining to'plamini ko'rsatish usulidir, bunda davlat va arizachi o'rtasidagi o'zaro shaxsiy aloqa minimallashtirilgan va imkon boricha maksimal ravishda

axborot texnologiyalardan foydalaniladi. Elektron huquqat – mamlakat miqyosida boshqaruv jarayonlarning butun majmuasini avtomatlashtirishga asoslangan hamda davlat boshqaruvining samaradorligini sezilarli darajada oshirish va jamiyatning har bir a’zosi uchun ijtimoiy kommunikatsiyalar harajatlarini kamaytirish maqsadiga xizmat qiluvchi davlat boshqaruvi elektron hujjat almashinuvi tizimi. Elektron xuquqatni yaratish hujjatlarni va ularni ishlash jarayonlarini boshqarish bilan bog‘liq vazifalarning to‘liq ko‘lamini hal etishni amalga oshiruvchi ijtimoiy boshqaruvining umumdavlat taqsimlash tizimi qurilishini nazarda tutadi.

**Emissiya** – fr. émission – chiqarish; pul emissiyasi - muomalaga yangii pullarni chiqarish, muamaladagi pul hajmini ko‘paytirish. Emissiya naqd yoki naqd pulsiz bo‘lishi mumkin.

**Empirizm** - yunon. emperia-tajriba; tajribani bilishning birdan-bir vositasi, deb tan oluvchi ta’limot.

**Erkinlashtirish** - mamlakatning demokratikjamiyatgao‘tish va islohotlar o‘tkazishjarayonidamavjud bo‘ladigan turli to‘siqlar, cheklashlar va yonberishga majbur etadigan omillardan qutilishga qaratilgan amaliy faoliyatdir. U demokratik jarayonlarning samarali rivojigayangikuch, quvvat va ilhom bag‘ishlash imkoniyatini yaratadi.

**Etnos** – yun. ethnos - xalq, qabila, to‘da, kishilar guruhi, irq ma’nolarni anglatadi.

**Yuksak ma’naviyat** – inson ma’naviyatining eng yuqori darajasi bo‘lib, u insonlarni eng ezgu va ulug‘ maqsadlarga yo‘naltirishga xizmat qiladigan ona Vatan baxti iqboli yo‘lida buyuk jasoratga chorlaydigan yengilmas kuchdir.

**Yurt tinchligi** – milliy istiqlol mafkurasining asosiy g‘oyalaridan biri, mamlakat barqaror taraqqiyotining asosiysharti.

**ISESCO** - Islom Konferensiyasi tashkilotining Ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha muassasi.

**Uz domen zonasi** – ma’lum darajadagi “Uz” domeniga kiruvchi domen nomlarining majmuasi; barcha ro‘yxatga olingan “Uz” domen nomli saytlarni birlashtiruvchi va shu tarzda mazkur domen bilan yagona Internet-makonini tashkil etuvchi veb-zona.O‘zbekiston Respublikasining mamlakat kodini ifodalovchi, maxsus vakolatli tashkilot tomonidan boshqariladigan va muvofiqlashtiriladigan hamda O‘zbekiston

Respublikasining yurisdiksiyasi ostidagi o'z ichiga keyingi daraja domen nomlarini oluvchi yuqori daraja domen. «UZ» domenidagi domen nomlarini ro'yxatdan o'tkazish va ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida.(O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2008 y., 26-27-son, 255-modda; 2015 y., 5-son, 61-modda).

**ZiyoNet – ZiyoNET jamoat axborot ta'lim tarmog'i.** O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning 2005 yil 28 sentabrdagi PQ191-sonli “O'zbekiston Respublikasining jamoat ta'lim axborot tarmog'ini tashkil etish to'g'risida”gi Qaroriga muvofiq tashkil topgan. ZiyoNET tarmog'ining asosiy maqsadi, respublika yoshlari hamda ta'lim oluvchilari uchun ta'lim olish tizimida keng ko'lamli axborot-kommunikatsiya xizmatlarini joriy etishdan iborat. ZiyoNET O'zbekiston Respublikasiga taalluqli bo'lgan turli resurslar tiplaridan axborot axborot ta'lim tarmog'i: darsliklar, o'quv va metodik qo'llanmalar, leksiyalar konspektlari, referatlar, taqdimotlar, ma'lumotnomalar va lug'atlar, bakalavrlarning bitiruv ishlari, magistrnlarning dissertatsiyalari, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarning avtoreferatlari va yana boshqalar.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

### Asosiy adabiyotlar

1. Anoxin M.G. Politicheskie sistemy: adaptatsiya, dinamika, ustoychivost. - M.: Mir knigi, 2006. - 297s.
2. Golosov G.V. Sravnitel'naya politologiya. - Novosibirsk: Universitet, 2008. - 206s.
3. Goncharov P.K. Politicheskaya sistema obshchestva: gnoseologicheskaya i ontologicheskaya osnovy teorii // Sotsialno-gumanitarnye znaniya. - 2006. - №2. - S. 25.
4. Demidov A.I., Fedoseev A.A. Osnovy politologii. - M.: Vysshaya shkola, 2006. - 272s.
5. Zerkin D.P. Osnovy politologii: Kurs leksiy. - Rostov - na - Donu: Feniks, 2007. - 542s.
6. Kamenskaya G.V., Rodionov A.N. Politicheskie sistemy sovremennosti. - M.: Vysshaya shkola, 2008. - 220s.
7. Panarin A.S. Politologiya. - M.: Prospekt, 2008. - 440 s.
8. Sukrov V.A. Teoriya politicheskix sistem i politicheskie realii postsovetskoy Rossii / Uchebnoe posobie - Kemerovo: Kuzbassvuzizdat, 2007. - 212s.
9. Politicheskie sistemy sovremennyx gosudarstv: Ensiklopedicheskij spravochnik: V 4 t. T. 1. Yevropa. T. 2. Aziya. T. 3. Amerika, Avstraliya i Okeaniya. T. 4. Afrika / Gl. red. A.V. Torkunov; nauch. red. A.Yu. Melvil; otv. red. M.G. Mironyuk, A.V. Malgin. M.: Aspekt-Press, 2012-2014.
10. Melvil A.Yu. Politicheskij atlas sovremennosti: opyt mnogomernogo statisticheskogo analiza politicheskix sistem sovremennyx gosudarstv. M.: MGIMO-Universitet, 2007. 603 s.
11. Baglay M.V. Konstitutsionnoe pravo zarubejnyx stran. - M.: NORMA, 2004. S. 430
12. Chirkin V. Konstitutsiya v XXI veke. Sravnitel'no-pravovoe issledovanie. - M.: NORMA, 2011. S. 520.

## Qo'shimcha adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoniga 1-ilova "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi".
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 8 sentabrdagi PF-5185-son Farmoniga 1-ilova "O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar Konsepsiyasi".
3. Den Syaopin. Stroitelstvo sotsializma s kitayskoy spesifikoy. – M.: 1997. – S.285.
4. Vek XX: Politika. Lyudi. Sudby. – T.: Shark, 2007. – S. 113.
5. Solovev A.I. «Politika i upravlenie gosudarstvom : ocherki teorii i metodologii: monografiya» - Moskva: Aspekt Press, 2021g. 256 str.
6. Oskolkov P. V. Ocherki po etnopolitologii: monografiya - Moskva: Aspekt Press, 2021g.175 str.
7. Antanovich, N.A. Teoriya politicheskix sistem : ucheb. posobie. / N.A. Antanovich. – Minsk: TetraSystems, 2008. – 208 s.
8. Almond, G. Sravnitel'naya politologiya segodnya: Mirovoy obzor. / G.Almond, Dj.Pauell, K.Strom, R.Dalton. /Sokr. per. s angl. pod red. M. Ilina, A. Melvilya – M.: AspektPress, 2002. – 537 s.
9. Bertalanfi, L. Istoriya i status obshchey teorii sistem / L.Bertalanfi // Системные исследования. Yejegodnik – 1973. – M.: Nauka,1973.- S.20-38.
10. Davlat huquq nazariyasi. Toshkent, 2009.  
Bertalanfi, L. Istoriya i status obshchey teorii sistem / L. Bertalanfi // Системные исследования. Yejegodnik - 1973.- M.: Nauka,1973.- S.20-38
11. Safoev S. Markaziy Osiyodagi geosiyosat. – T.: JIDU, 2005. – B. 113.
12. Qirg'izboev M. Siyosatshunoslik. O'quv qo'llanma. -T.: Yangi asr avlodi, 2013. -B. 520.
- 13.Safoev S. Markaziy Osiyodagi geosiyosat. – T.: JIDU, 2005. – B. 113.
- 14.Travin D. Yevropeyskaya modernizatsiya: v 2 kn. Kn. 1. – M.: SPb., 2004. – S. 72.



Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston Strategiyasi. T.:O'zbekiston, 2021.446 b.

Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: O'zbekiston, 2017. – 592 b.

Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O'zbekiston”, 2018. – 507 b.

Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild.– T.: O'zbekiston, 2019. – 400 b.

Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4 jild.– T.: “O'zbekiston”, 2020. – 400 b.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 28 yanvardagi “Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning strategik vazifalari amalga oshirilishi samaradorligi uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mas'uliyatini oshirishga doir birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF-5644-son Farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 28 yanvardagi “O'zbekiston Respublikasi Hukumati ishini tashkil etishning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish to'g'risida” PQ-4136-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 3 fevraldagi “O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi apparatining tarkibiy bo'linmalari tuzilmasini tasdiqlash to'g'risida”gi 82-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: O'zbekiston, 2023.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 yanvardagi “Siyosiy fanlar sohasida kadrlarni tayyorlash, fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi, PQ-4139-son qarori. // <https://lex.uz/docs/4182353?query>

Aflotun. Davlat / Tarjimon: Urfon Otajon. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. – 464 b.

Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. / Abdusodiq Irisov tarjimasini. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. – 320 b.

Nizomulmulk. Siyosatnoma. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2014. – 304 b.

Amir Temur. Temur tuzuklari. – Toshkent: Ilm-Ziyo-Zakovat, 2020. – 144 b.

Odilqoriev X., G'oyibnazarov Sh. Siyosiy madaniyat. T.: 2004.

Otamuratov S. Yoshlar siyosiy madaniyatini rivojlantirish omillari. T.: O'zbekiston, 2015.

Politicheskaya kultura: ucheb. posobie dlya akademicheskogo bakalavriata / A.S. Panachyova. – 2-ye izd. ispr. i dop. – M.: Izdatelstvo Yurayt, 2017. – 292 s.

Tuychiev B. Politicheskaya kultura i demokratizatsiya obshchestva. –T.: Universitet, 2011.

Gorkiy I.G. Transformatsiya postsovetskoy politicheskoy sistemy: problemy strukturnoy i funktsionalnoy adekvatnosti : avtoref. dis. ...dokt. polit. nauk : 23.00.02 / I.G.Gorkiy ; Sarat. gos. sos.-ekonom. un-t.– Saratov, 2007. – 41 s.

Baranovskiy, V.G. Osnovnye parametry sovremennoy sistemy mejdunarodnykh otnosheniy. Chast I // Polis. 2012. No 3, No 4

Pushkareva G. V. Kognitivnye mexanizmy konstruirovaniya politicheskoy realnosti // Polis. Politicheskie issledovaniya. 2015. No 1. S. 55-70.

Li Kuan Yu. Iz tretogo mira - v pervyy. Istoriya Singapura (1965-2000). Per. s ang. yaz. A. Bonya. -3-ye izdanie.- M.: Mann, Ivanov i Ferber, 2015. -576 s.

Omonov B. Jamiyatni modernizatsiyalashning konseptual asoslari. Monografiya. –Toshkent, Aloqachi, 2019. B. 97-103.

Omonov B. Farovon jamiyat qurish yo'lida. –Toshkent, Universitet, 2022.

Omonov B.A. Jamiyatni modernizatsiyalashning konseptual asoslari. – T.: Aloqachi, 2019. –

Omonov B. Xitoy islohotlari tarixi. <http://uza.uz/oz/world/khitoy-islo-otlari-tarikhi-shoshma-shoshar-tashabbuslar-yurt-20-01-2020>

Titarenko M.L. Kitay i Rossiya v sovremennom mire. — SPb. : SPbGUP, 2013. - 88 s.

Prezident o'qishni tavsiya qilgan «Xitoy mo'jizasi» muallifi Den Syaopin tarixi. [www.kun.uz](http://www.kun.uz) 19.03.2018

Kitay v epitsentre globalnykh problem ATR: Tezisy dokladov XX Mejnoy nauchnoy konferensii «Kitay, kitayskaya sivilizatsiya i mir. Istoriya, sovremennost, perspektivy». – M.: IDV RAN, 2013. –478 s.

Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar. Rustamboev M.H., Tuxtasheva U.A. 1-jild. Toshkent, 2011.

Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar. Rustamboev M.H., Tuxtasheva U.A. 2-jild. 2011.

Muxitdinov Z.S. Huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatida inson huquqlarini ta'minlashda parlament nazoratining o'rni // Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi normalarining amal qilishi mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. T.: TDYuI, 2008. –B. 125-131.

Almond Gabriel A. The Political of Developing Areas / Gabriel A. Almond and James Coleman, Princeton, NJ.: Princeton University Press, 1960. P. 7.

Parsons C. Introduction to Political Science. Textbook. Pearson. USA, 2017.

Easton D. A. Framework for Political Analysis. N. Y., 1965. P. 112.

Easton D. An Approach to the Analysis of Political Systems // Political System and Change. Princeton, N. J., 1986. P. 24.

Deutsch K. The Nerves of Government Modesl of Political Communi' cation and Control. N. Y., 1963.

Endrey Ch. F. Sravnitelnyy analiz politicheskix sistem. M., 2000. S. 19-20.

### **Ахборот манбалари**

[www.gov.uz](http://www.gov.uz) – O'zbekiston Respublikasi hukumat portali.

[www.lex.uz](http://www.lex.uz) – Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси.

[www.parliament.gov.uz](http://www.parliament.gov.uz) – Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси қонунчилик палатаси.

[www.kun.uz](http://www.kun.uz) кундалик ахборот-таҳлилий портал

[www.president.uz](http://www.president.uz) Президентнинг расмий портали

[www.natlib.uz](http://www.natlib.uz) – Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси.

[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) – Таълим портали.

[www.ziyouz.uz](http://www.ziyouz.uz) – Фан ва таълим портали.

## MUNDARIJA

	Kirish.....	3
1-mavzu:	“Siyosiy tizim” fanining predmeti, ob’ekti, maqsadi va vazifalari. “Tizim” tushunchasi haqidagi qarashlarning evolyusiyasi. ....	4
2-mavzu:	Ijtimoiy tizim nazariyasi asoschilarining g’oyalari.....	9
3-mavzu:	Tuzilmaviy-funksional va tizimli yondashuvlar.....	14
4-mavzu:	Siyosiy tizim, siyosiy jarayon tushunchasi va uni tahlil qilishning asosiy yondashuvlari.....	33
5-mavzu:	Siyosiy tizim modellari.....	43
6-mavzu:	Siyosiy tizimning «kirish», «chiqish», ijtimoiy muhitga ta’sir qiluvchi omillari tahlili.....	52
7-mavzu:	Siyosiy tizimlar tipologiyasi.....	57
8-mavzu:	O’tish tipidagi siyosiy tizimlar. ....	62
9-mavzu:	Demokratik tranzit muammolari.....	68
10-mavzu:	Davlat ijtimoiy-siyosiy tizimlarning sub’ekti sifatida. Siyosiy rejimlar (tartibotlar).....	74
11-mavzu:	Jamiyat siyosiy tizimining tuzilmaviy komponentlari.	89
12-mavzu:	Siyosiy partiyalar jamiyat siyosiy tizimining ajralmas qismi sifatida.....	98
13-mavzu:	Parlamentarizm institutining jamiyat siyosiy tizimini rivojidadagi roli.....	117
14-mavzu:	Jamiyatning ijro etuvchi organlari tizimi.....	123
15-mavzu:	Davlat boshlig’i (prezidentlik) instituti.....	130
16-mavzu:	Sud hokimiyati: tuspuncpasi, belgilari, xususiyatlari	138
17-mavzu:	Jamiyatning saylov tizimi. Saylov siyosiy institut sifatida.....	143
18-mavzu:	Siyosiy madaniyat.....	154
19-mavzu:	Xalqaro munosabatlarni tizimli o’rganish. ....	159
20-mavzu:	AQSh davlat va munitsipal boshqaruvi tizimi faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari.....	171
21-mavzu:	Germaniya davlat siyosiy tizimi.....	181

22-mavzu:	Buyuk Britaniya davlat boshqaruvi tashkil etilishining o'ziga xos xususiyatlari.....	191
23-mavzu:	Zamonaviy Rossiya jamiyati siyosiy tizimining xususiyatlari.....	200
24-mavzu:	Zamonaviy Yaponiya mamlakatining siyosiy tizimi....	209
25-mavzu:	Xitoy Xalq Respublikasining siyosiy tizimi va davlat tuzilishi.....	215
26-mavzu:	Milliy tarixiy an'analar asosida Fransiya siyosiy tizimining shakllanishi.....	223
27-mavzu:	Italiyaning davlat tuzilishi va siyosiy tizimi.....	242
28-mavzu:	Koreya Respublikasining zamonaviy siyosiy tizimi....	251
29-mavzu:	Singapur davlat tuzilishi va siyosiy tizimi.....	261
30-mavzu:	Taraqqiyotning yangi bosqichida O'zbekiston siyosiy tizimining xususiyatlari.....	271
	Mustaqil talim mavzulari.....	281
	Glossariy.....	294
	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	327

*O'quv-uslubiy nashr*

**Baxtiyor Omonov, Gulbahor Isanova**

## **SIYOSIY TIZIM**

Uslubiy qo'llanma

Nashriyot muharriri: Ilxom Yo'ldoshev

Musahhiha: Sarvinoz Musaxo'jayeva

Texnik muharrir: Behzod Boltaboyev

Toshkent, Mumtoz so'z nashriyoti, 2023.

Manzil: Toshkent, Navoiy ko'chasi, 69.

Тел.: 71 241-60-33

Bosishga ruxsat etildi 07.11.2023

Qog'oz bichimi 60x84 1/16. Ofset qog'oz.

Cambria garnituras. Hisob-nashriyot tabog'i 21,0.

Shartli bosma tabog'i 20,5. Adadi 200

Bahosi kelishilgan narxda

«MUMTOZ SO'Z»

oilaviy korxonaning

matbaa bo'limida chop etildi.

Manzil: Toshkent, Beshqayrag'och ko'chasi, 156 uy.

Tel.: 99 847-12-12

